O‘zbekiston Respublikasi oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi

Samarqand davlat chet tillar instituti

N.Turniyozov

A.Rahimov

O‘ZBEK TILI

(ma’ruzalar matni)

1-qism

Samarqand-2006

MUNDARIJA

1-MA’RUZA

1.1. Til va uning umumiy tavsifi..... 3

1.2. O‘zbek adabiy tili 8

2-MA’RUZA

2.1. Fonetika..... 13

2.2. Nutqning fonetik bo‘linishi..... 23

2.3. Nutq tovushlarining fonetik o‘zgarishi..... 26

3-MA’RUZA

3.1. Grafika 29

3.2. Orfografiya 35

3.3. Orfoepiya 37

4-MA’RUZA

4.1. Leksikologiya 40

4.2. So‘zlarning shakl va ma’no munosabatiga ko‘ra turlari..... 44

5-MARUZA

5.1. O‘zbek tili leksikasining tarixiy - etimologik qatlamlari 52

5.2. O‘zbek tili leksikasining ijtimoiy - dialektal tarkibi 54

5.3. O‘zbek tili leksikasining tarixiy - funksional xususiyatlari . 55

5.4. Uslubiy jihatdan o‘zbek tili leksikasi..... 56

5.5. Frazeologiya..... 58

5.6. Leksikografiya 59

6-MA'RUZA

6.1. Morfemika..... 62

7-MA'RUZA

7.1. So'z yasalishi..... 68

7.2. So'z turkumlarida so'z yasalishi 71

7.3. Otlarning yasalishi 71

7.4. Sifat yasalishi 75

7.5. Fe'llarning yasalishi 77

7.6. Ravishlarning yasalishi 79

8-MA'RUZA

8.1. Grammatika..... 81

8.2. So'z turkumlari tasnifi..... 84

9-MA'RUZA

9.1.Ot so'z turkumi..... 86

9.2. Otning grammatik kategoriyalari..... 88

9.3. Egalik kategoriyasi..... 91

9.4. Kelishik kategoriyasi..... 93

9.5. Otning lug'aviy shakllari 102

9.6. Otlarning tuzilish turlari 104

10-MA’RUZA

Sifat 107

11-MA’RUZA

Son 112

12 MA’RUZA

Olmosh so‘z turkumi 118

13 MA’RUZA

13.1. Fe’l so‘z turkumi 133

13.2. Fe’lning grammatik kategoriyalari 135

14-MA’RUZA

14.1. Fe’lning vazifadosh shakllari 146

14.2. Fe’lning modal ma’no ifodalovchi shakllari 152

15-MARUZA

Ravish 157

16-MA’RUZA

16.1. Ko‘makchilar 160

16.2. Bog‘lovchilar. 164

16.3. Yuklama 167

17-MA’RUZA

17.1. Modal so‘zlar 169

17.2. Undov so’zlar 170

17.3.Taqlid so‘zlar 172

Ushbu ma’ruzalar matnida hzbek tilining fonetika, grafika, orfografiya, orfoepiya, leksikologiya, fraziologiya, morfemika , so‘z yasalishi va morfologiya bo‘limlari haqidagi nazariy ma’lumotlar jamlangan bo‘lib, mazkur majmua Samarqand davlat chet tillar inistitutining ingliz, fransuz, nemis, koreys filologiyasi va maktabgacha ta’lim (chet tili bilan) ixtisosliklari bo‘yicha ta’lim olayotgan talabalarga, shuningdek, o‘zbek tili bilan qiziquvchilar uchun muhim ma’lumotnoma sifatida xizmat qilishi mumkin.

Ma’ruzalar matni Samarqand davlat chet tillar institutining O‘quv-uslubiy kengashining 2006 yil 24 mart 7-son qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.

Mas’ul muharrir: filologiya fanlari nomzodi, dotsent A.G’afforov

Taqrizchilar: filologiya fanlari doktori, professor S.A.Karimov,

filologiya fanlari nomzodi, dotsent X.Xayrullayev.

1-MA’RUZA

1.1. Til va uning umumiy tavsifi

1-§. Til kishilik jamiyatining tarixiy taraqqiyoti jarayonida ijtimoiy ong mahsuli sifatida yuzaga Kelgan moddiy, ma’naviy va madaniy boyliklarning ifodasi bo‘lgan murakkab tizimdir. Tilning tabiati, mohiyati, jamiyatda tutgan o‘rni, ichki mexanizmi va ishlash tamoyillarini ilmiy nazariy jihatdan idrok etishga intilish, uni ta’riflashdagi turlicha nuqtai nazarlar ifodasida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Jumladan, 1) til ijtimoiy ahamiyati e’tiboriga ko‘ra: kishilar o‘rtasidagi eng muhim aloqa quroli bo‘lib, xabar yetkazish, saqlash va qabul qilish vositasidir; 2) ichki qurilish nuqtai nazaridan: til turli unsurlar va ularning o‘zaro munosabatini ta’minlovchi qoidalar kombinatsiyasidir; 3) doimiy barqarorligi, yashovchanligi jihatidan: til jamiyat a’zolarining umumiy faoliyati mahsuli bo‘lib, nutq tovushlarining doimy muayyan ma’no doirasida birlashuvi asosida yuzaga chiquvchi hosiladir; 4) aloqa almashuv (kommunikatsiya) nazariyasiga ko‘ra: til ma’no tashuvchi kodlar majmuyidir. Yuqoridagilardan kelib chiqib, aytish mumkinki, til bevosita kuzatishda berilmagan ijtimoiy hodisadir. U jamiyat a’zolarining ongida yashovchi, ular uchun tayyor, umumiy, majburiy bo‘lgan hamda fikrni shakllantirish va uni nutq jarayoni asosida

ifodalashga xizmat qiladigan unsurlar va bu unsurlarni o‘zaro birikishi, bog‘lanishini belgilovchi qonun-qoidalar yig‘indisidan iborat murakkab sistemadir.

Nutq esa til tizimida mavjud birliklar va qoidalarining so‘zlash qobiliyati asosida yakka shaxs tomonidan muayyan kommunikativ (xabar berish, xabar olish) maqsadni amalga oshirish uchun ro‘yobga chiqarilishidir. Tilning umri uni yaratgan xalq umridek uzoq muddatli, xizmat doirasi keng, doimiy rivojlanib boyib boruvchi, hajmi o‘lchovsizdir. Nutq esa umri qisqa, hajman chegarali bo‘lib, monolog, dialog, polilog holatda, og‘zaki va yozma shaklda hamda turli badiiy janrlarda (roman, she’r, drama) yuzaga chiquvchi hosiladir. Shunday qilib, til va nutq orasidagi dialektik aloqani quyidagicha umumlashtirish mumkin:

1. Til bevosita kuzatishda berilmagan aloqa imkoniyati - nutq esa ushbu imkoniyatning voqelanishi, ro‘yobga chiqishidir.
2. Til barcha uchun umumiy – nutq esa har bir kishining xususiy faoliyatidir.
3. Tilning faoliyat muddati cheksiz, uzoq – nutqning faoliyat muddati esa cheklangan, qisqa.

4. Tildan foydalanish imkoniyati makon va zamon bilan bog‘liq emas – nutq jarayoni esa muayyan makon va zamon bilan bog‘langan bo‘ladi.
5. Til birliklari miqdoran chegaralangan – nutq birliklari esa cheklanmagan, davomiy bo‘ladi.
6. Til barqaror (statik) hodisa – nutq esa doimiy harakatlanuvchi (dinamik) hodisadir.

Til va nutqqa xos bu kabi umumiy va xususiyliklarning mohiyatini ilmiy asosda o‘rganuvchi fan tilshunoslik fanidir. Tilshunoslik fani tarkiban fonetika, fonologiya, grafika, orfografiya, orfoepiya, leksikologiya, semasiologiya, leksikografiya, morfemika, grammatika kabi bir qancha mustaqil, ayni paytda, o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lgan bo‘limlardan tashkil topadi.

2-§. Dunyo tillari haqida ma’lumot. Kishilar til vositasida o‘z fikrlarini, his-tug‘ularini ifodalaydilar. Kishilik jamityatining rivoji bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan til va uning ravnaqi ilm-fan, madaniyat, texnika taraqqiyotini ta’minlashda ham asosiy omil bo‘ladi. Jamiyat taraqqiyotini belgilovchi har qanday o‘zgarishlar, avvalo til tizimining lug‘at boyligida o‘z izini qoldiradi. Xususan, ilm-fan, texnika taraqqiyoti yoki jamiyatda yuz beradigan ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar

natijasida vujudga keladigan yangi narsa-buyumlar, tushunchalar tilning lug‘at boyligini yangilanishga olib keladi.

Hozir butun dunyoda 6 milliardga yaqin aholi mavjud bo‘lib, ular 3000 ortiq tilda so‘zlashadi. Shundan 200 tilda bir millionga yaqin, 70 tilda 5 milliondan ortiq, 13 tilda esa 50 milliondan ortiq kishi so‘zlaydi. Qolganlarining har birida bir milliondan oz kishi gaplashadi.

Ma’lum bir millatga mansub bo‘lgan xalqning nutqiy ehtiyoji uchun xizmat qiladigan til **milliy til deyiladi**. Xususan, o‘zbek tili shu millatga mansub bo‘lgan xalq ehtiyojiga xizmat qiladigan tildir. Yer yuzida milliy tillardan tashqari mamlakatlararo va mintaqalararo ahdlashuv, shartnoma hamda bitimlarni rasmiylashtirishda ishlatiladigan **xalqaro tillar** ham mavjud. Ular jumlasiga ingliz, fransuz, nemis, ispan, rus, arab va xitoy kabi tillar kiradi.

3-§.Tillarining lingvistik tasnifi. 3.1. Geneologik tasnif. Dunyodagi tillarning ko‘pchiligi tarixan bir umumiy ildizga ega bo‘lib, ular fonetik, leksik va grammatik xususiyatlarining yaqinligi, o‘xshashligiga ko‘ra muayyan guruhlarga ajratiladi. Tarixan bir umumiy ildizga ega bo‘lgan tillar qarindosh tillar hisoblanib, ular til oilasini tashkil etadi. Tillarning bunday guruhlanishi geneologik (qarindosh) tasnif hisoblanadi. Jumladan, geneologik tasnifga ko‘ra yer yuzida

(hind-yevropa tillari, Semit tillari, xamit tillari, fin-ugor tillari, oltoy tillari va boshqalar) yigirmaga yaqin til oilasi mavjud bo‘lib, ularning har biri, o‘z navbatida, bir necha til turkumlariga bo‘linadi. Masalan, dunyodagi eng yirik til oilalaridan biri bo‘lgan hind-yevropa oilasi 12ta til turkumini o‘z ichiga oladi. O‘z navbatida, bu turkumlarning har biri bir nechta milliy tillardan tashkil topadi. Masalan, german turkumiga dat, shved, norveg, island, ingliz, golland, nemis, yangi yahudiy kabi milliy tillar kirsa, roman turkumiga esa fransuz, italyan, ispan, portugal, rumin, moldavan kabi milliy tillar mansubdir. Bunday turkumlarini tashkil etadigan tillarning ba’zilari o‘lik til bo‘lishi ham mumkin. Masalan, lotin tili roman turkumiga mansub bo‘lgan o‘lik tildir.

Shunday qilib, muayyan turkumga mansub bo‘lgan tillar geneologik (qarindoshlik) jihatdan bitta asos tildan tarqalgan. Ma’lum bir milliy tillarning shakllanishida asos bo‘lib, o‘zi nutqiy aloqa vositasi sifatida ishlatilmaydigan til **bobo til** yoki **asos til** deyiladi. Masalan, qadimgi roman va german tillar turkumi hozirgi ingliz, fransuz va nemis kabi milliy tillar uchun bobo til hisoblansa, hozirgi barcha turkiy milliy tillar uchun qadimgi turkiy til bobo tildir.

Bundan tashqari, **t**illar iste’molda bo‘lish tarixiga ko‘ra tirik va o‘lik tillarga bo‘linadi. Ma’lum bir xalqning muomalada bo‘lib turgan

tili **tirik til** deyiladi. Masalan, hozirgi o‘zbek, qozoq, qirg‘iz, turkman, ozor, turk, qaraqalpoq, tatar kabi tillar tirik tillardir. Bizgacha yozma manbalar orqali yetib kelgan, ammo ma’lum bir xalq tomonidan hozir nutqiy aloqa almashuvida faol ishlatilmaydigan til **o‘lik til** deyiladi. Masalan, lotin tili, sanskrit (qadimgi hind) tili, qadimgi xorazm tili, qadimgi slaviyan tili va qadimgi turkiy tillar o‘lik tillardir. O‘lik tillarning paydo bo‘lishida , asosan , qabila va urug‘larning millat sifatida shakllana boshlashi hamda mustaqil milliy tillarning vujudga kelishi va taraqqiyoti asosiy omil bo‘lib xizmat qilgan. Ko‘pchilik xalqlarda bu jarayon eramizning X1 asrida yuz bergan. Masalan, qadimgi turkiy qabila-urug‘larning millatlarga, birlashishi ham shu davrga to‘g‘ri keladi.

3.2.Tillarning qiyosiy-tarixiy tavsifi. Tillarning tarixan qarindoshligi, umumiy va noo‘xshash bo‘lib qolgan xususiyatlari qiyosiy-tarixiy tahlil usuli asosida aniqlanadi. Masalan: fors-tojik, rus, ingliz, nemis, fransuz tillaridagi *modar, mat, mather, mutter, mere* so‘zlarini hind-yevropa oilasidagi eng qadimgi lotin va sanskrit tillaridagi *mater\ mata* so‘zlari bilan qiyoslanishi mazkur tillarning qarindoshligidan dalolat beradi. Tillarning qiyosiy-tarixiy tahlil usuli

tilshunoslikda ***komparativistika*** (lot. comparativus-qiyosiy) atamasi bilan ham yuritiladi.

3.3.Tillarning tipologik tasnifi. Tipologik tasnifga koʻra tillar toʻrt guruhga boʻlinadi:1) amorf tillar, 2) aggletinativ tillar, 3) flektiv tillar, 4) polisintetik tillar.

1.Amorf tillarda soʻzlar gapda bir-biri bilan toʻgʻridan toʻgʻri birikib keladi, soʻzlar orasidagi sintaktik munosabat soʻz tartibi, urgʻu, yordamchi soʻzlar orqali ifodalanadi. Bunday xususiyatga ega boʻlgan tillarga xitoy, tibit, birma tillarini kiritish mumkin. Amorf tillarning yana bir xususiyati shundaki, ularda aynan bir soʻz matnda har xil maʼnoda va vazifada kelaveradi. Masalan, xitoycha *ige yuedi syusi-oylik dam olish* birikmasidagi *syusi* soʻzi aslida *dam olish, istirohat qilish* maʼnosidagi feʼl boʻlib, birikmada ot maʼnosida kelgan. Mazkur soʻz boshqa bir oʻrinda, yaʼni *bir oz dam olish kerak* maʼnosidagi *ya o syusi isya* birikmada harakat bildiruvchi feʼl vazifasida ishlatilgan.

2.Aggletinativ tillarda har bir grammatik maʼno, odatda, alohida affiks bilan ifoda etiladi. Masalan, oʻzbek va boshqa turkiy tillarda koʻplik, egalik, kelishik maʼnolarining alohida affikslar yordamida ifodalanishi (talaba-lar-imiz-dan) shular jumlasidandir. Aggletinativ

tillarga oltoy oilasiga kiruvchi tillar hamda fin-ugor tillari, iberiy-kavkaz va dravid tillari kiradi.

3.Fliktiv tillarda bidan ortiq grammatik ma'no, odatda, birgina ko'rsatkich orqali ifodalanadi. Masalan, rus tilidagi *Эти книги сдаю в библиотеку* gapida *эти книги* so'zlari oxiridagi *и* qo'shimchasi ikki xil grammatik ma'noni, ya'ni tushum kelishigi va ko'plik ma'nolarini ifodalab kelgan. Shuningdek, *сдаю* so'zi oxiridagi ***-ю*** qo'shimchasi mayl, zamon va shaxs-son ma'nolarini ifoda etish uchun xizmat qilgan.

4.Polisintetik tillarda butun bir gap bitta so'z shaklida talaffuz qilinadi va yoziladi. Masalan, chukot tilida *Ты–ata-kaa-nты-rкын* – shaklidagi birikma o'zbek tilidagi *Men semiz bug'ularni o'ldirayapman* gapiga tengdir. Polisintetik tillarda qisqalik, ixchamlik yetakchilik qiladi.

4-§.Tilning ijtimoiy tavsifi. Umumxalq tili, milliy til va adabiy til tushunchalari tilning ijtimoiy taraqqiyot jarayonini o'zida aks ettiruvchi terminlar bo'lib, ular o'rtasida o'zaro uzviy bog'liqlik bo'lishi bilan bir qatorda, farqli tomonlar ham mavjud. Xususan, umumxalq tili va milliy til, hozirgi davr nuqtai nazaridan qaralganda, bir xil (sinonim) tushunchalardir. Shu bois tilshunoslikda ularning biri o'rnida ikkinchisini qo'llash hollari ham ko'p uchraydi. Biroq umumxalq tili til taraqqiyotining barcha bosqichini, ya'ni eng qadimdan hozirgacha

bo‘lgan davrini o‘zida mujassamlashtiradi. Milliy til tushunchasi esa ana shu ko‘p asrlik tarixning millat shakllangandan keyingi davrinigina ifodalaydi. Demak, umumxalq tili tushunchasi til tarixining barcha bosqichlariga xos tushuncha bo‘lsa, milliy til tushunchasi muayyan millatning shakllangandan keyingi davrga xosligi bilan undan farqlanadi.

Umumxalq tili va milliy til doirasiga sheva va lahja (dialekt)lar, oddiy so‘zlashuv tili, xalq tili, sotsial jargonlar, argolar hamda adabiy til kiradi. Umumxalq va milliy tillarning muhim tarkibiy qismi bo‘lgan mazkur til shakllari ham o‘zaro farqlanadi. Xususan, adabiy til umumxalq tilining yoki milliy tilning oliy kommunikativ (aloqa) shakli bo‘lsa, sheva, lahja, oddiy so‘zlashuv va boshqa til ko‘rinishlari uning quyi shakli hisoblanadi. Ayni paytda ular adabiy tilning doimiy rivojini ta’minlovchi muhim ichki omil bo‘lib xizmat qiladi. Ammo sotsial jargonlar va argolar bundan mustasno bo‘lib, ular umumxalq tilining yoki milliy tilning inqirozga uchragan shakllaridir.

Adabiy til muayyan grammatik qonun va qoida me’yoriga kiritilgan til shaklidir. Adabiy tilning ikki xil ko‘rinishi, ya’ni og‘zaki va yozma shakli mavjud. Og‘zaki shakl yozma shaklga nisbatan qadimiyroq bo‘lib, u umumxalq tilining: 1) qayta ishlanish; 2) uslubiy tarmoqlanishi; 3) an’anaviy, ommaviy va odatiy qiyofa kasb etishi; 4)

nutqiy va estetik ehtiyojlarga xizmat qilishi; 5) xalqchilligi; 6) nisbiy konservativligi; 7) ustdialektlilik kabi dastlabki me'yoriy asoslarga ega bo'lishida muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda qabila, urug' va ular ittifoqining hududiy chegaralangan shevalariga xos dialektal unsurlarning og'zaki ijod janrlari (dostonlar, ertak, qo'shiq, topishmoq, maqollar) vositasida qayta ishlanish muhim omil bo'ladi. Natijada umumxalq tili doirasida mahalliy dialektlardan ustuvor bo'lgan til shakli, ya'ni og'zaki poetik ustdialekt vujudga keladi. U umumxalq tili tizimidagi dastlabki adabiy shakl sifatida yozuv joriy etilgunga qadar amalda bo'lib, keyinchalik yozma tilning taraqqiyotiga asos sifatida xizmat qiladi. Yozuvning kashf etilishi va yozma tilning taraqqiyoti natijasida adabiy tilning amal qilish doirasi yana ham kengayadi, uning me'yoriy asosi qat'iy qoidalar vositasida takomillashib boradi. Og'zaki va yozma til shakllari o'rtasidagi tafovutlarning kamayishiga qulay imkoniyatlar tug'iladi. Bu jarayonni hozirgi o'zbek adabiy tili va boshqa milliy tillar misolida ko'rish mumkin. Zamonaviy adabiy tilning tez sur'atlar bilan rivojlanib borishi natijasida umumxalq tilida mavjud bo'lgan dialektal (lahjaviy) farqlar ham kamayib, dialektlarning amal qilish doirasi esa torayib boradi.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Tilshunoslik fani va uning maqsad, vazifalari haqida ma’lumot bering.
2. Turmushdagi ijtimoiy–siyosiy, madaniy va texnik o‘zgarishlar avvalo tilning qaysi bo‘limida o‘z izini qoldiradi?
3. Milliy tillar va xalqaro tillar haqida nimalarni bilasiz?
4. Tirik va o‘lik tillarni izohlab tushuntiring.
5. Til va nutqning umumiy va farqli tomonlarini tushuntiring.
6. Umumxalq tili va milliy til o‘rtasida qanday umumiy hamda farqli jihatlar bor?
7. Tilning yuqori va quyi shakllariga xos farqlar nimalarda ko‘zga tashlanadi?
8. Umumxalq tilining adabiy shaklga ega bo‘lishida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan dastlabki omillar haqida ma’lumot bering.
9. Yozma tilning ahamiyati nimalarda ko‘rinadi?
10. Adabiy tilning taraqqiyoti umumxalq tilining boshqa shakllariga qanday ta’sir ko‘rsatishi mumkin?
11. Tillarning geneologik tasnifida asosiy e’tibor nimaga qaratiladi?
12. Bobo til yoki asos til haqida ma’lumot bering.
13. Tillarning qiyosiy-tarixiy tavsifini tushuntiring.

14. Tillarning tipologik tahlili uning qaysi jihatini tekshiradi?
15. Flektiv va aggletinativ tillar o‘rtasida qanday farq bor?

1.2. O‘zbek adabiy tili

1-§. O‘zbek adabiy tili va uning tarixiy bosqichlari. O‘zbek tili dunyodagi qadimiy ildizga ega bo‘lgan tillardandir. U qadimgi oltoy tillar oilasining turkiy guruhiga kiradi. Oltoy tillar oilasi birgina turkiy tillar guruhidan iborat bo‘lmay, hozirgi yapon, koreys, manjur, to‘ngus, mo‘g‘ul tillarini ham o‘z ichiga oladi. Turkiy tillar guruhi esa 24 ta milliy tilni o‘z tarkibiga oladi.

Yagona umumxalq tilining taraqqiyot bosqichlari va turli yozuv tizimlari bilan adabiy tilning mustahkam aloqasini nazarda tutib, hozirgi o‘zbek adabiy tilining tarixiy taraqqiyotini uch asosiy davrga bo‘lish mumkin: 1) qadimgi turkiy til (bu davr o‘z navbatida eng qadimgi turkiy til 6-asrgacha va qadimgi turkiy til 6-10 asrlardan iborat ikki bosqichga bo‘linadi); 2) eski o‘zbek tili; 3) hozirgi o‘zbek tili.

1. Qadimgi turkiy til eramizning V-XIII asrigacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi. Markaziy Osiyo, Sharqiy Turkiston va Sibir hudud-larida topilgan yozma yodgorliklar turkiy xalqlarning qadimdanoq o‘z madaniyati va adabiy tiliga ega bo‘lganligidan guvohlik beradi. Bu

adabiy til o‘zbek xalqi hamda hozirgi turkiy millatlarning qadimgi umumiy adabiy tili bo‘lib, tilshunoslikda u "umumturkiy adabiy til" nomi bilan ham yuritiladi. Qadimgi turkiy adabiy tilning eng nodir namunalari "O‘rxun-Enasoy", "Uyg‘ur" bitiklari orqali, shuningdek, turkiy xalqlarning ilk yozma dostoni hisoblangan Yusuf Xos Xojibning "Qutadg‘u bilig" va Ahmad Yugnakiyning "Hibat-ul haqoyiq" asari hamda qiyosiy-tarixiy tilshunoslik asoschilaridan biri bo‘lgan Mahmud Koshg‘ariyning "Devonu lug‘otit turk" asari orqali bizgacha yetib kelgan. Mazkur davr adabiy tiliga xos ayrim ma’lumotlarni turkiy xalqlar o‘rtasida qadimdanoq mashhur bo‘lgan "Alpomish", "Go‘ro‘g‘li" singari umumturkiy asosli dostonlarda ham uchratish mumkin.

Qadimgi yozma manbalar tahlili umumturkiy adabiy til negizida turkiy milliy tillarning shakllanganini tasdiqlasa ham, ularning hozirgi turkiy tillarning birortasiga to‘la mos kelmasligini, aksincha, bu tillarning deyarli har biriga xos til unsurlari mavjudligini ko‘rsatadi. Shu bois bu tilni bobo til sifatida e’tirof etish mumkin. Qadimgi yozma manbalar, yuqoridagilardan tashqari, XI asrga kelib millatlarga ajrala boshlagan turkiy xalqlarning qadimdanoq o‘ziga xos umumiy madaniyati, san’ati, adabiyoti, yozuvi va adabiy tiliga ega bo‘lganini dalillaydi. Shuningdek, bu manbalar XIV asrga kelib turkiy milliy

tillar shakllanib bo‘lgach, qadimgi turkiy adabiy tilning "o‘lik" tillar qatoridan o‘rin olganini ham ko‘rsatadi. Shunday qilib, XI - XIII asrlarda ko‘pgina hozirgi turkiy tillar qatorida o‘zbek tili ham o‘zining milliy qiyofasiga ega bo‘ladi.

2. Eski o‘zbek adabiy tili XIV asrdan X1X asrning birinchi yarmigacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi. Milliy adabiy tilining dastlabki namunalari sifatida Xorazmiyning "Muhabbatnoma", Durbekning "Yusuf va Zulayho", Lutfiy, Atoiy, Sakkokiy kabi mumtoz adabiyot vakillari qalamiga mansub asarlar tilini qayd etish mumkin. Bu davr adabiy tilining rivojida, Alisher Navoiyning hissasi nihoyatda salmoqlidir. Xususan, Navoiy o‘zining dunyoga mashhur durdona asarlari bilan o‘zbek adabiy tilini stilistik nuqtai nazardan rivojlantirgan bo‘lsa, "Muhokamat-ul lug‘atayn" asari bilan o‘zbek adabiy tilini, uning badiiy uslubini ilmiy - nazariy jihatdan asoslab berdi. Alisher Navoiyning buyuk xizmatlari shunda ham ko‘rinadiki, u ona tilining ichki imkoniyatlaridan keng foydalanish masalasini o‘rtaga qo‘ygan holda, birinchi bo‘lib adabiy tilni boshqarish muammosiga diqqat qaratdi va uni o‘z zamonasi talabi asosida yuqori darajada hal qila oldi. Shu bois Navoiy asoslagan adabiy til uning izdoshlari tomonidan keyingi asrlar davomida ham izchil rivojlantirib borildi. Xususan, Navoiy asarlari

yuzasidan «Badoi al-lug‘at», «Sanglox», «Lug‘ati atrakiya», «Abushqa» (eski o‘zbekcha-usmonli turkcha) kabi ko‘plab lug‘atlarning yaratilgani, hamda Navoiydan so‘ng yashagan shoirlar ijodida, hatto mumtoz she’riyat yo‘lida yaratilgan zamonaviy shoirlar ijodida ham ana shu an’ana davom etib kelayotgani shundan dalolat beradi.

3. Hozirgi o‘zbek adabiy tili o‘tgan asrning boshlaridan hozirgi kungacha ijtimoiy turmushning barcha jabhalarida keng amal qilib kelayotgan tildir. Shuni ham ta’kidlash lozimki, milliy adabiy til va umuman adabiy til tushunchalari o‘rtasida o‘zaro uzviylik bo‘lsa ham, ular o‘ziga xos tomonlarga egaligi bilan farqlanadi. Chunki milliy adabiy til miliylikkacha bo‘lgan adabiy til zaminida shakllanadi. Masalan, o‘zbek milliy adabiy tilining tarkib topishida umumturkiy adabiy til asos bo‘lgan. Bu adabiy tilining "o‘zbek" nomi bilan yuritilishi o‘tgan asrning boshlariga to‘g‘ri kelsa ham, unga qadar o‘zbek tili "turkiy", "chig‘atoy", "sart", "xoqoniy turkiy" singari xilma-xil nomlarga ega bo‘lgan holda amalda bo‘lgan. Shunday qilib, milliy til (umumxalq tili)ning me’yoriylashgan grammatik qoidalarga bo‘ysundirilgan, qayta ishlangan shakli adabiy til deb yuritiladi. Adabiy tilning og‘zaki va yozma shakllari mavjud. Og‘zaki shakl nisbatan qadimiyroq bo‘lib, u nutq tovushlari, ohang, urg‘u kabi orfoepik

(grekcha "to‘g‘ri" va "nutq" tushunchalaridan iborat) me’yoriy vositalarga asoslanadi va kishilar o‘rtasida bevosita aloqa o‘rnatish uchun xizmat qiladi. Adabiy tilning yozma shakli esa orfografik, punktuatsion, uslubiy qonun - qoidalarga qat’iy amal qiluvchi til shaklidir. Zero, yozma shaklda nutq bo‘laklari: xatboshi va gaplar hamda ularning tarkibi turli xil tinish belgilari vositasida ajratib ko‘rsatiladi. Yozma shakl til taraqqiyotining keyingi bosqichlarida joriy etilgan bo‘lib, u ma’lum makon va zamon oralig‘ida aloqa o‘rnatish quroli hisoblanadi. O‘zbek adabiy tili o‘zining dialektal asosiga ko‘ra qarluq (chigil-uyg‘ur) lahjasiga mansub Toshkent va Farg‘ona hamda shu kabi markaziy shahar shevalariga tayanadi. Jumladan, adabiy til fonetik jihatdan Toshkent shahar shevasiga, morfologik jihatdan esa Farg‘ona shevasiga asoslanadi.

O‘zbek adabiy tili mustaqillikdan so‘ng rasmiy ravishda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1989-yil 21- oktyabrda bo‘lib o‘tgan Sessiyasida davlat tili sifatida e’lon qilindi. Ana shu sanadan boshlab uning amal qilish doirasi tobora kengayib bormoqda. Xususan, uning leksik, grammtik va fonetik imkoniyatlaridan ma’lum maqsadlarga muvofiq tarzda foydalanish ilmiy, rasmiy-idoraviy, publisistik badiiy,

so‘zlashuv singari funksional uslublarning ravnaqi orqali ko‘zga tashlanadi.

2-§.O‘zbek tilining asos lahjalari. O‘zbek milliy tili ko‘p lahjali tillardan hisoblanadi. Bu hol uning murakkab rivojlanish sharoiti va etnik jihatdan xilma-xilligi bilan izohlanadi. Jumladan, uning dialektal asosini 1) qarluq; 2) qipchoq; 3) o‘g‘uz lahjalari tashkil etadi. Bu lahjalarning har biri ko‘plab shevalar birligidan tashkil topadi. Boshqacha aytganda, bir–biriga yaqin bo‘lgan shevalar yig‘indisi lahja yoki dialekt deyiladi. Lahja yoki shevalar adabiy tilning muhim ichki manbai bo‘lsa ham, ular faqat og‘zaki shaklga egaligi hamda fonetik, leksik va grammatik jihatdan o‘ziga xosligi bilan adabiy tildan farqlanadi. Chunki shevalar ma’lum bir hududda istiqomat qiluvchi kishilarning o‘zaro og‘zaki nutqiy aloqasini ta’minlovchi vositadir. Shu bois ularning ishlatilish doirasi adabiy tilga nisbatan cheklangan bo‘ladi. Bu cheklanganlik lahjalarning quyidagi kabi o‘ziga xos fonetik morfologik va leksik belgilarining hududiy chegaralanishi misolida ham ko‘zga tashlanadi:

1.Qarluq lahjasi, asosan, markaziy shahar (Farg‘ona, Toshkent, Andijon, Namangan kabi viloyat va shaharlar) shevalari birligidan

tashkil topgan bo‘lib, adabiy tildan quyidagicha farqlanuvchi belgilarga ega:

1) fonetik jihatdan farqlanadi: a) so‘z oxiridagi **k** undoshi **y** tarzda talaffuz qilinadi: *bilak-bilay, terak-teray, kerak-keray;* b) adabiy tildagi a unlisi o tarzida talaffuz qilinadi: *aka-oka, katta-kotta, bahodir-bohodir;*

2) leksik jihatdan farqlanadi: *qalampir-garmdori, narvon-shoti, hech-jilla, hovli-eshik;*

3) morfologik jihatdan farqlanadi: a) hozirgi zamon davom fe’li –yap o‘rnida –vot\-ut qo‘shimchalari ishlatiladi: *kelayapti-kelvotti, borayati-borutti;* b) qaratqich kelishigi –ning o‘rnida tushum kelishigi qo‘shimchasi –ni|-pi|-ri|-zi kabi shakllarda ishlatiladi: *daraxtlarning|daraxtlarni bargi, bizning | bizzi maktab, bahorning | bohorri havosi, gapning\ gappi*

tahlili; .

Qipchoq lahjasi, asosan, o‘zbekistonning Surxondaryo, Sirdaryo, Jizzax, Qashqadaryo va Samarqand viloyatlarining qishloq shevalari birligidan iborat bo‘lib, o‘zbek adabiy tilidan quyidagicha belgilariga ko‘ra farqlanadi:

1) fonetik jihatdan: a) ba’zi shevalarda **y** undoshi o‘rnida **j** tovushi ishlatiladi: *yo‘l-jo‘l, yomg‘ir-jovmir*; b) so‘z oxiridagi g‘ undoshi v

tovushi bilan almashtiriladi: *tog‘-tov, sog‘-sov, og‘moq-ovmoq;* v) so‘z oxirida q, k undoshlari tushiriladi: *sariq-sari, kichik-kichchi*.

2) leksik jihatdan: *mushuk-pishak, do‘ppi-qalpoq, ishkom-voyish.*

3) morfologik jihatdan: a) hozirgi zamon davom fe’li –yap||yotir o‘rnida –jatir||votir qo‘shimchasi ishlatiladi: *borayapti, borayotir-barajatir, yozayapti-jazavotir;* b) tushum kelishigi –ni o‘rnida –di/-ti ishlatiladi: *uyni, kitopni-uydi, kitapti* .

O‘g‘uz lahjasi janubiy Xorazm shevalari birligidan tashkil topgan bo‘lib, adabiy tildan quyidagicha farqlanadi:

1) fonetik jihatdan: a) so‘z boshidagi t tovushi d , k tovushi esa g tarzda talaffuz qilinadi: *til-di:l, tog‘-da:g‘, keldi-galdi, ko‘z-go‘z* ; b) unlilar qisqa va cho‘ziq talaffuz etilishi bilan farqlanadi: *ot-at (hayvon) // a:d (ism) yoz-yaz (fasl) // ya:z (yozmoq);*

2) leksik jihatdan: *norvon-zangi, do‘ppi-tahiya, ustara-pakki, tog‘a-doyi, rayhon-nazvoy, ship-patik ;*

3) morfologik jihatdan farqlanib, qaratqich kelishigi –ing, jo‘nalish kelishigi –a tarzda ishlatiladi: *Hazaraspning olmasi- Hazarasping almasi, bolamga-balama, otamga-atama.*

Shuni ham qayd etish lozimki, shevalarning bu kabi o‘ziga xos xususiyatlari adabiy tilning matbuot, radio va televideniye, maktab va maorif muassasalari orqali ta’siri asosida asta-sekin yo‘qolib bormoqda.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Oltoy tillar oilasi qaysi til guruhlaridan tashkil topgan va ular o‘rtasidagi qanday o‘xshashliklarni bilasiz?
2. O‘zbek tilining tarixiy taraqqiyot bosqichlari haqida ma’lumot bering.
3. O‘zbek adabiy tili va umummilliy tilning dialektal asoslari haqida ma’lumot bering.
4. Dialkt (lahja), sheva atamalariga izoh bering.
5. O‘zbek tilining shevalari o‘rtasidagi lingvistik tafovutlar tilning qaysi sathlarida ko‘zga tashlanadi?

ADABIYOTLAR

1.М.Мирзаев, С.Усмонов, И.Расулов Њзбек тили. Т., «Њљитувчи» 1978.

2.Ш. Шоабдураќмонов, М.Асљарова, А.Ќожиев, И.Расулов, , Х.Дониёров Ќозирги њзбек адабий тили. Т., «Њљитувчи» 1980.

3.М.Ирсљулов Тилшуносликка кириш. Т., «Њљитувчи» 1992.

4.А.Баскаков, А. Содиљов, А.Абдуазизов Умумий тилшунослик. Т., «Њљитувчи» 1981.

5.Ќ.Неъматов, О.Бозоров Тил ва нутљ. Т., «Њљитувчи» 1993.

6.У.Турсунов, Ж.Мухторов, Ш.Раќматуллаев Ќозирги њзбек адабий тили.. 1-љисм. Т., «Њљитувчи» 1979.

7.А.Мухторов, У.Санаљулов Њзбек адабий тили тарихи. Т., «Њљитувчи» 1995.

8.H. Jamolxonov Hozirgi o‘zbek adabiy tili. T., “Talqin” 2005.

2-MA’RUZA

2.1. Fonetika

Fonetika - grekcha phone "tovush" so‘zidan olingan bo‘lib, tilshunoslikning nutq tovushlarini o‘rganadigan bo‘limidir. O‘zbek adabiy tili fonetikasi shu tildagi fonemalar tizimini, ularning nutq jarayonida hosil bo‘lishini, aytilishi (artikulyatsiya) va eshitilishini (akustika) tovush o‘zgarishlarini, so‘z va morfemalarning ma’nolarini ajratishdagi ahamiyati kabilarni tekshiradi. Shuningdek, mazkur bo‘limda bo‘g‘in va urg‘u singari tilning fonetik tarkibi bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan hodisalar ham o‘rganiladi. Shunga ko‘ra fonetika, bir tomondan, tilshunoslikning fonologiya, orfografiya, orfoepiya,

leksikologiya, dialektologiya (shevashunoslik), grammatika bo‘limlari bilan bog‘liq bo‘lsa, ikkinchi tomondan, fizika (akustika bo‘limi bilan) va fiziologiya sohalari bilan aloqadordir.

1-§.Fonetikaning bo‘limlari. Tilning moddiy tayanchi bo‘lgan nutq tovushlarini qiyosiy va tarixiy jihatdan, hozirgi holati nuqtai nazardan, texnik-tajriba asosida o‘rganish mumkin. Shunga ko‘ra fonetika quyidagi qismlarga ajratiladi.

1.Umumiy fonetika. Bu bo‘limda qarindosh va noqardosh tillarning fonetik tizimiga oid ilmiy xulosalar, fonetikaning tarkibi, nutq tovushlari va ularning turlari, ulardagi har xil o‘zgarishlar xususida umumiy ma’lumot beriladi.

2.Tarixiy fonetika. Bunda muayyan bir tilning fonetik tizimidagi taraqqiyot va o‘zgarishlar, xususan, ba’zi tovushlarning iste’moldan chiqishi yoki yangi tovush va tovush variantlarining yuzaga kelish sabablari tekshiriladi. Mazkur masalalar shu tilda so‘zlashuvchi xalq tarixi bilan bog‘liq holda o‘rganiladi.

3.Qiyosiy fonetika. Qiyosiy fonetikada bir necha qarindosh tillar lahja va tarixiy yozma manbalarning tovush tizimlari o‘zaro qiyoslash asosida o‘rganiladi. Shunga ko‘ra qiyosiy fonetika bir tomondan,

umumiy va tavsifiy fonetika materiallariga, ikkinchi tomondan, tarixiy fonetika materiallariga asoslanadi.

4.Tavsifiy fonetika. Bunda muayyan zamonaviy tilning fonetik tizimiga xos birliklarning (unli, undosh tovushlar va turli fonetik hodisalarning) hozirgi holati o‘rganiladi. Shuningdek, mazkur bo‘limda nutq tovushlarining fiziologik (tovush hosil qilishda ishtirok etadigan nutq a’zolarining faoliyati), akustik (eshitilish holati) va lingvistik (so‘z ma’nolarini farqlash xususiyati) xususiyatlari, ularning kombinator, pozitsion variantlariga xos o‘zgarishlar ham o‘rganiladi.

5.Eksperimental fonetika. Nutq tovushlari maxsus asboblar yordamida texnik-tajribalar o‘tkazish orqali o‘rganiladi. Bunda har bir fonetik birlik haqidagi ma’lumot o‘zining aniqligi, obyektivligi bilan ajralib turadi.

Fonetikaning yuqorida sanab o‘tilgan turlari alohida-alohida tadqiq etilmaydi, balki ular uzviy aloqadorlik asosida tekshiriladi. Xususan, tarixiy fonetik tahlil asosida to‘plangan ma’lumotlar qiyosiy yoki tasviriy fonetik tahlil uchun ham qimmatli manba bo‘lishi mumkin. Tilning zamonaviy(sinxron) fonetik tarkibini tadqiq etishda esa, asosan, tasviriy fonetikaga tayaniladi.

2-§. Tovush va fonema. Nutq tovushlari, ya'ni fonlar til uchun moddiy tayanch sanaladi, chunki inson nutqiy tovushlar tizimiga asoslanadi. Zero, til tizimidagi barcha so‘zlar, iboralar, gaplar, umuman, nutqiy jarayon ana shu tovushlar vositasida shakllanadi. Shuning uchun ham nutq tovushlari biror jismning tebranishi natijasida hosil bo‘ladigan fizik tovushlardan (masalan, dutor torining tebranishi) va tabiatda uchraydigan boshqa tovushlardan ham, avvalo, nutqiy aloqa qilish vositasi ekanligi hamda fonema sifatida so‘z ma'nolaring farqlashga xizmat qilishi bilan ajralib turadi. Shunday ekan, tovushlarni nutqning eng kichik, bo‘linmaydigan fonetik birligi deb tushunamiz. So‘z ma'nolarini farqlash uchun xizmat qiladigan eng kichik til birligi esa fonema deb ataladi. Shunday qilib, fonemalar nutq a'zolari yordamida hosil qilingan tovushlarning andozalari bo‘lib, ular psixik-akustik obrazlar sifatida kishilar xotirasida yashaydi. So‘zlovchi mazkur psixik-akustik obrazlar asosida nutq a'zolarini harakatga keltiradi va fonemalarning nutqiy timsoli bo‘lgan tovushlarni hosil qiladi. Masalan, *qol - qil - qo‘l* so‘zlari tarkibidagi *o, i, o‘* unlilari, *bor-bosh-bog‘-boy-bol* so‘zlari tarkibidagi *r, sh, g‘, y, l* tovushlari mazkur so‘zlarning ma'no jihatidan farqlanishiga xizmat qiluvchi fonemalardir. Ayni paytda, mazkur so‘zlar tarkibidagi har bir unli va undosh fonema nutq

a’zolarining artikulyatsion - akustik faoliyati mahsuli sifatida vujudga kelgan tovushlardir. Ana’naga ko‘ra nutq tovushlari deb yuritiluvchi fonlar tilshunoslikning fonetik satxiga, fonemalar esa fonologik satxiga daxldorligi nuqtai nazaridan ham o‘zaro farqlanadi.

So‘z tarkibida ma’no farqlash uchun xizmat qilmaydigan nutq tovushlari fonema variantlari hisoblanadi. Masalan *qo‘l, o‘rtoq, g‘o‘za* so‘zlarida til orqa o‘ fonemasi, *o‘rdak, o‘rik, to‘r* so‘zlarida esa til oldi **o‘** fonemasi qatnashmoqda. Lekin har ikki holatda ham **o‘** fonemasi ma’no farqlash uchun xizmat qilayotgani yo‘q. Ana shunday tovushlarni fonemaning variantlari yoki **allafonlar** deb atash mumkin.

Shuni ham ta’kidlash lozimki, fonema o‘z ijtimoiy vazifasiga ko‘ra harf (grafema)dan farq qiladi. Zotan, harf fonemaning yozuvdagi shartli belgisidir. Shu bois fonema harfga nisbatan faoliyat doirasining kengligi, bo‘yoqdorligi, ya’ni so‘zlashuvda turli ma’no nozikliklarni ifodalay olishi va nihoyat, fonema til birligi, harf esa yozuv birligi ekanligi bilan tubdan farq qiladi. Harf fonemadagi bu nutqiy bo‘yoqlarning bir qismini shartli ravishda ifodalaydi. Masalan, uch (raqam), uch (uchmoq), uch (igna uchi) so‘zlaridagi u fonemasi aynan bir xil emas, ma’lum darajada farqlanadi. Biroq ular yozuvda bitta harf (belgi) bilan ifodalanaveradi.

4-§. Nutq a’zolari va ularning vazifalari. Nutq tovushlarini hosil qilishda ishtirok etadigan a’zolar nutq a’zolari deb ataladi. Nutq a’zolariga ko‘krak qafasi, o‘pka, kekirdak, tovush paychalari, tanglay, kichik til, og‘iz bo‘shlig‘i, til, jag‘lar, tishlar, lab, bo‘g‘iz bo‘shlig‘i, burun bo‘shlig‘i kabilar kiradi. Nutq a’zolarining jami nutq apparati deyiladi.

Nutq tovushlarini hosil qilish murakkab tabiiy-fizialogik jarayon bo‘lib, bunda markaziy nerv tizimi nutq a’zolarini harakatga keltiradi va bevosita boshqarib turadi. Nutq tovushlarining talaffuz jarayoni quyidagi uch bosqichga asoslanadi:

1. Talaffuz jarayonida o‘pkadan chiqadigan havo oqimi nafas yo‘li orqali bo‘g‘izga kelib, u yerda joylashgan tovush paychalarini tebratadi va un hosil qiladi. Masalan*: a, i, o, o‘, e, u* kabi unli fonemalarning tovush tiplari ana shunday fiziologik jarayon mahsulidir.

2. Bo‘g‘iz orqali o‘tgan havo oqimi og‘iz bo‘shlig‘iga kelganda, til va tanglay yoki lab vositasida hosil qilingan to‘siqqa duch keladi hamda shovqin paydo bo‘ladi. Masalan: *b, d, t, z, s, k, g‘* kabi undosh fonemalarning nutqqa ko‘chishi ana shu shovqin asosida yuzaga chiqadi.

3. O‘pkadan chiqadigan havo oqimining og‘iz bo‘shlig‘iga kelganda til yoki lab orqali hosil qilingan to‘siqqa urilib portlash hamda bir qism

havo oqimining burun bo‘shlig‘idan sirg‘alishi natijada *m, n, ng* singari (sonor) ovozdor undoshlar hosil bo‘ladi.

Nutq a’zolari tovush hosil qilish jarayonida turlicha harakat yoki holatda bo‘ladi. Chunonchi, pastki jag‘ning turlicha harakati natijasida og‘iz bo‘shlig‘i keng yoki tor holatga o‘tib turadi, bu esa ayrim tovushlarning hosil bo‘lishini, (masalan *a, i* kabi) ularning aniq talaffuz etilishini ta’minlaydi. Shuning uchun ham og‘izni katta ochgan holda u tovushini hosil qilib bo‘lmaganidek, og‘izni tor ochish orqali a unlisini ham hosil qilish mumkin emas.

Og‘iz bo‘shlig‘ida joylashgan nutq a’zolaridan eng faoli tildir. Uning yuqori va pastki tanglay oralig‘idagi harakatini aniq tasavvur etish uchun ularning har biri alohida guruhlarga ajratiladi: til oldi, til o‘rta, til orqa, chuqur til orqa kabi. Shuningdek, tilning og‘iz bo‘shlig‘ida gorizontal va vertikal holatiga ko‘ra ham bir necha guruhlarga ajratish mumkin:

Tilning oldinga - milkka va teskari harakati gorizontal harakat bo‘lib, bunday harakat a) til oldi va b) til orqa harakat deb nomlanadi; tilning yuqori tanglayga ko‘tarilishi va pastga tushishi esa vertikal harakat bo‘lib, bu harakat uch guruhga bo‘linadi: a) yuqori; b) o‘rta; v) quyi.

Nutq a’zolarining tovush talaffuzi jarayonidagi turlicha harakati va holati artikulyatsiya deyiladi.

Tovush hosil qilishda ma’lum bir nutq a’zosi yoki uning biror qismi faol ishtirok etadi. Masalan: *b, p* tovushlarini hosil qilishda lablar, *d, t, z* undoshlarini hosil qilishda tilning oldingi qismi orqa qismi faol ishtirok etadi. Demak, b,p tovushlarining artikulyatsiya o‘rni lablar, *d, t, k* undoshlariniki esa tildir.

Nutq a’zolari tovush hosil bo‘lish jarayonida bir-biri bilan jipslashishi va bu jipslashgan nutq a’zolariga havo oqimining kelib urilishi natijasida portlashi (masalan *d, t, k, b* kabi) yoki bir-biriga yaqinlashib tor oraliq hosil qilgan nutq a’zolari orasidan havo oqimining o‘tishi (masalan *s, sh, z, f* kabi) sababli sirg‘alishi mumkin. Tovush hosil qilish paytida havo oqimining sirg‘alib yoki portlab o‘tishi artikulyatsiya usuli deb ataladi. Demak, *d, t, b* undoshlari artikulyatsiya usuliga ko‘ra portlovchilar *z, s, sh,* undoshlari esa sirg‘aluvchilardir.

Nutq tovushlari artikulyatsiya jarayonida ishtirok etadigan a’zolarni faol va nofaol turlarga bo‘lib o‘rganamiz:

1. Faol nutq a’zolari: til, kichik til, lab, tovush paychalari, pastki jag‘lar, yumshoq tanglay. Bu a’zolardan eng faoli til, lab va tovush paychalaridir.

2. Nofaol nutq a’zolari: yuqori jag‘, kekirdak, qattiq tanglay, burun, tishlardir.

4-§. Nutq tovushlari tasnifi. Nutq tovushlarini tasnif etishda bo‘g‘iz bo‘shlig‘ida joylashgan tovush paychalarining tebranishidan hosil bo‘ladigan ovozning hamda og‘iz bo‘shlig‘ida paydo bo‘ladigan shovqinning ahamiyati kattadir. Shunga ko‘ra, ular ikki turga ajratiladi: 1) unli tovushlar; 2) undosh tovushlar.

Unli tovushlar faqat ovoz (un) ishtirokida hosil bo‘lib, ularni talaffuz qilish jarayonida o‘pkadan chiqadigan havo oqimi og‘iz bo‘shlig‘ida hech qanday to‘siqqa uchramaydi. Masalan, *o, a, i* kabi. Shuning uchun unli tovushlarda ohangdorlik kuchli bo‘ladi. Har bir til o‘ziga xos unlilar tizimiga ega. Tildagi unlilar tizimi **vokalizm** deyiladi. Vokalizm - lotincha *vokalis* so‘zidan olingan bo‘lib, unli (ovozdor) demakdir.

Undosh tovushlar o‘pkadan chiqadigan havo oqimining og‘iz bo‘shlig‘ida to‘siqqa uchrashi natijasida yuzaga keladi. Bunday tovushlar faqat shovqindan yoki ovoz hamda shovqindan iborat

bo‘lishi mumkin. Tildagi undoshlar tizimi **konsonantizm** deb ataladi. Bu termin inglizcha *konsonontism* so‘zidan olingan bo‘lib, undoshlar tizimi demakdir.

5-§. Unli tovushlar tasnifi. Hozirgi o‘zbek adabiy tilida 6 unli fonema bor: *a, o, i, e, o‘, u.* Ular quyidagicha tasnif qilinadi: 1) tilning gorizontal harakatiga ko‘ra; 2) tilning vertikal harakatiga ko‘ra; 3) lablarning ishtirokiga ko‘ra.

1. Tilning gorizontal harakatiga ko‘ra unlilar ikkiga bo‘linadi:

a) til oldi yoki oldingi qator unlilar: *i, e, a* ;

b) til orqa yoki orqa qator unlilar: *u, o‘, o*

Bunday bo‘linishning sababi shundaki, til oldi unlilari talaffuz qilinganda tilning oldingi qismi faolroq harakatga keladi. Til orqa unlilarni talaffuz qilganda esa , tilning orqa qismi harakatga kelib , ko‘pincha yumshoq tanglay tomon yo‘naladi.

2. Tilning vertikal harakatiga ko‘ra unlilar uchga bo‘linadi:

a) yuqori unlilar (tor) unlilar: *i, u*;

b) o‘rta (o‘rta keng) unlilar: *e, o‘*;

v) quyi (keng) unlilar: *a, o.*

Unli tovushlarning tilning vertikal harakatiga ko‘ra tasnifida tilning tanglayga tomon ko‘tarilishi va tushishi, og‘izning ochilishi darajasi

hisobga olinadi. Chunonchi, *i, u* tovushlarini hosil qilishda til tanglayga yaqin turadi, shuning uchun og‘izning ochilish darajasi tor bo‘ladi; *a, o* tovushlarini hosil qilishda esa til tanglaydan ancha uzoqlashadi (quyida turadi), shuning uchun og‘izning ochilish darajasi ham keng bo‘ladi; *e, o‘* tovushlarini hosil qilishda til va tanglay o‘rtasidagi oraliq o‘rtaga bo‘ladi, ya’ni tor ham emas, keng ham emas. Shunga ko‘ra, og‘izning ochilishi ham o‘rtacha keng darajada bo‘ladi.

3. Lablarning ishtirokiga ko‘ra unlilar ikkiga bo‘linadi: 1) lablangan unlilar: *o‘, u, o* ; 2) lablanmagan unlilar: *a, i, e*.

Lablangan unlilarni talaffuz qilishda lablar faol ishtirok etadi, ya’ni ular oldinga intilib, doira shaklida bo‘ladi. Lablanmagan unlilar talaffuzida esa, lablarning ishtiroki lablangan unlilar artikulyatsiyasiga nisbatan nofaolroq bo‘ladi.

Unli tovushlarning tasnifi

Tilning vertikal harakatiga ko‘ra	Tilning gorizontal harakati va lablarning ishtirokiga ko‘ra	
	Old qator, lablanmagan	Orqa qator, lablangan

Yuqori(tor) unlilar	i	u
O‘rta (o‘rta keng) unlilar	e	o‘
Quyi (keng) unlilar	a	o

6-§. Undosh tovushlar tasnifi. Hozirgi o‘zbek adabiy tilida 24 ta undosh tovush bor: *b, v, g, d, j* (joy so‘zidagi kabi) *j* (j: jurnal so‘zidagi kabi) *z, y, k, l, m, n, ng* (tong so‘zidagi kabi) *p, r, s, t, f, x, ch, sh, q, g‘, h.* Undosh tovushlar un paychalarining harakati (taranglashish) holatiga va og‘iz bo‘shlig‘ining qayerida to‘siqqa uchrashiga, faqat shovqindan iborat bo‘lishi yoki ovozning shovqinidan ustunligiga qarab bir-biridan farqlanadi va shunga ko‘ra quyidagicha tasniflanadi: 1) hosil bo‘lish (artikulyatsiya) o‘rniga ko‘ra; 2) hosil bo‘lish (artikulyatsiya) usuliga ko‘ra; 3) ovoz va shovqinning ishtirokiga ko‘ra; 4) tovush paychalarining ishtirokiga ko‘ra.

Hosil bo‘lish o‘rniga ko‘ra undoshlar uch asosiy guruhga bo‘linadi: 1) lab undoshlari; 2) til undoshlari; 3) bo‘g‘iz undoshi.

1. Lab undoshlari bevosita lablar ishtirokida hosil bo‘ladigan tovushlar bo‘lib, ularga *b, p, m, v, f* undoshlari kiradi. Bu undoshlarning hosil qilishda lablar bir-biriga jipslashadi. Ba’zilari talaffuzida esa yuqori lab pastki tishlar bilan jipslashadi. Shunga ko‘ra,

lab undoshlari, o‘z navbatida, 2 guruhni tashkil etadi: 1) lab-lab undoshlar: *b, p, m, v, f* (kuyov, pufak so‘zlarida); 2) lab-tish undoshlari: *v, f* (vazifa, fursat kabi o‘zlashma so‘zlarda uchraydi) .

2. Til undoshlari bevosita til ishtirokida hosil bo‘ladigan tovushlar bo‘lib, ularga quyidagilar kiradi: *g, d, j* (vijdon so‘zidagi kabi) *j,* (jo‘ja so‘zidagi kabi) *z, y, k, l, n, ng* (ong so‘zidagi kabi) *r, s, t, x, ch, sh, q, g‘* (jami 18 ta).

Bu undoshlar tilning qaysi qismida hosil bo‘lishiga ko‘ra bir-biridan farqlanadi. Masalan *d, j, n* undoshlari tilning old qismi bilan tish va milklar orasida; *k, g* kabi undoshlar tilning orqa qismi bilan yuqori tanglay o‘rtasida; y undoshi tilning o‘rta qismi bilan yuqori tanglay o‘rtasida hosil bo‘ladi. Shunga ko‘ra, til undoshlari quyidagi 4 guruhga bo‘linadi:

1) til oldi undoshlari: *d, j, z, l, n, r, s, t, ch, sh*

2) til o‘rta undoshi: *y*

3) til orqa undoshlari: *k, g, ng* (jang so‘zidagi kabi)

4) chuqur til orqa undoshlari: *q, g‘, x.*

3. Bo‘g‘iz undoshi bitta *h* tovushidan iborat bo‘lib, u bo‘g‘iz bo‘shlig‘ida un paychalari o‘rtasidagi tor oraliqda hosil bo‘ladi.

Undoshlarning hosil bo‘lish o‘rniga ko‘ra tasnifi

Lab undoshlari		Til undoshlari				Bo‘g‘iz undoshi
Lab-lab	Lab-tish	Til oldi	Til o‘rta	Sayoz til orqa	Chuqur til orqa	
b, p, m	v, f	d, t, j, dj, z, l, n, r, s, ch, sh	y	k, g, ng	q, g‘, x	h

Hosil bo‘lish usuliga ko‘ra undoshlar uch guruhga bo‘linadi:1) portlovchilar; 2) sirg‘aluvchilar; 3) portlovchi-sirg‘aluvchilar.

1. Portlovchi undoshlar hosil bo‘lishda havo oqimining portlash va portlash bilan bir qatorda qisman sirg‘alishi kuzatish mumkin. Maslan: *b, p* undoshlari hosil bo‘lishda havo oqimi ikki lab vositasida hosil qilingan to‘siqqa ma’lum zarb bilan urilib portlashidan vujudga kelsa, *ch, j* undoshlarining hosil bo‘lishida havo oqimi portlash bilan bir qatorda qisman sirg‘alishni ham sezish mumkin. Shuning uchun ham portlovchi undoshlar hosil bo‘lishdagi to‘liq va to‘la bo‘lmagan portlashni e’tiborga olgan holda ularni quyidagi 2 guruhga ajratish mumkin:

1) sof portlovchilar:*b, g, d, k, t, q*;

2) qorishiq (affrikat) portlovchilar:*ch (tch), j (dj).*

2. Sirg‘aluvchi undoshlar ikki nutq a’zosining o‘zaro yaqinlashish va havo oqimining ana shu nutq a’zolari tor oralig‘idan sirg‘alib o‘tish orqali hosil bo‘ladi. Masalan, havo oqimining ikki lab tor oralig‘idan sirg‘alib o‘tishi orqali *v,f* undoshlari; til bilan yuqori milk oralig‘idan oqimining sirg‘alib o‘tishi orqali *j* (jurnal) *z, s, sh* undoshlari; tilning o‘rta qismi va yuqori tanglay oralig‘idan sirg‘alib o‘tishi orqali *y* undoshi; tilning orqa qismi va yuqori tanglayning orqa qismi oralig‘idan sirg‘alib o‘tishi orqali *g‘, x*; bo‘g‘izdagi un paychalari orasidan sirg‘alib o‘tishi orqali *h* undoshining hosil bo‘lishi shular jumlasidandir. Demak, sirg‘aluvchi undoshlar tilimizda jami 10 ta bo‘lib, ular quyidagilardan iborat: *v,f, j, z, y, s, x, sh, g‘, h.*

3. Portlovchi - sirg‘aluvchi undoshlar bir vaqtning o‘zida ham portlash, ham sirg‘alish jarayonining ro‘y berish natijasida hosil bo‘ladi. Ularga *m, n, ng, l, r* kabi undoshlar kiradi.

Portlovchi-sirg‘aluvchi undoshlarning hosil bo‘lish usullari boshqa undoshlarga nisbatan o‘zgachadir. Xususan, *m* undoshining hosil bo‘lishida o‘pkadan chiqadigan havo oqimining bir qismi og‘iz bo‘shlig‘ida lablarning to‘sqinligiga uchrab portlaydi va havo oqimining qolgan qismi burun bo‘shlig‘idan sirg‘alib chiqadi; *n*

undoshining hosil bo‘lishida esa til uchi yuqori tishlarga va milkka tegib yarim portlaydi hamda havo oqimining qolgan qismi burun bo‘shlig‘idan sirg‘alib chiqadi; *ng (ng)* undoshi tilning orqa qismi qattiq tanglayning orqa qismiga tegib, havo oqimining qisman portlashi va bir qism havoning burun bo‘shlig‘idan sirg‘alib chiqishi orqali vujudga keladi. Ko‘rinadiki *m, n, ng* undoshlari talaffuz qilinganda havo oqimining bir qismi burun bo‘shlig‘idan sirg‘alib chiqadi. Shunga ko‘ra, bu undoshlar **burun tovushlari** deb ham yuritiladi. L undoshini hosil qilishda til uchi yuqori tomon bukilib, milkka tegadi, ammo havo oqimining tilning ikki yonidan sirg‘alib o‘tishi, uning og‘iz bo‘shlig‘idan qisman portlab, qisman sirg‘alib chiqishiga sabab bo‘ladi, shuning uchun l undoshi **yon tovush** deb yuritiladi. R undoshini hosil qilishda o‘pkadan chiqadigan havo to‘lqini tilning o‘ziga zarb bilan uriladi va uni titratadi. Tilning titrab turishi esa havo oqimining og‘iz bo‘shlig‘idan portlab-sirg‘alib chiqishiga olib keladi. Shu tufayli *r* undoshi **titroq tovush** deb yuritiladi.

Undoshlarning hosil bo‘lish usuliga ko‘ra tasnifi

Portlovchilar	Sirg‘aluvchilar	Portlovchi-

Sof portlovchilar	Qorishiq portlovchilar		sirg‘aluvchilar
b, g, d, k, p, t, q	ch(tch), j(dj)	v,f, j, z, y, s, x, sh, g‘, h	m, n, ng,l,r

Ovoz va shovqinning ishtirokiga ko‘ra undoshlar ikkiga bo‘linadi: 1) sonorlar; 2) shovqinlilar.

O‘zbek tilida sonorlar beshta bo‘lib *m, n, ng, l, r* kabi undoshlarni o‘z ichiga oladi. Sonor (lotincha so‘z bo‘lib, "ovozdor" demakdir) undoshlarni talaffuz qilganimizda, un paychalari faol ishtirok etadi, ya’ni un paychalari titrab ovoz hosil qiladi. Shuning uchun ham sonorlarda ovoz miqdori shovqinli undoshlarga nisbatan ko‘proq bo‘ladi. Ana shu jihatiga ko‘ra sonorlar unli tovushlarga bir qadar yaqin turadi, lekin ularni talaffuz qilishda ovoz og‘iz bo‘shlig‘ida qisman shovqin bilan aralashadi. Shu sababli sonorlar undosh tovushlar qatoriga qo‘shiladi. Qolgan undoshlarning barchasi shovqinlilardir.

Tovush paychalarining ishtirokiga ko‘ra undoshlar ikkiga bo‘linadi: 1) jaranglilar: *b, v, z, d, j, ch, g, g‘, y, m, r, l, ng*; 2) jarangsizlar: *p, f, s, t, sh, ch, k, x, k, h*.

Undoshlarni jarangli va jarangsizlarga ajratishning sababi shundaki, jarangli undoshlarni talaffuz etishda un paychalari tarang tortilgan

holda faol ishtirok etadi. Shu bois jaranglilar tarkibida shovqin bilan bir qatorda ovoz ham qatnashadi. Jarangsiz undoshlarni talaffuz qilganda esa, un paychalari ishtirok etmaydi. Shuning uchun jarangsizlar faqat shovqindan iborat bo‘ladi. Jarangli va jarangsiz undoshlardan quyidagilar hosil bo‘lishi o‘rniga ko‘ra juftlik tashkil qiladi: *b, v, z, d, j, ch, g, g‘,*

p, f, s, t, sh, ch, k, x.

O‘zbek tilidagi *y, m, n, r, l, ng* undoshlari jarangsiz juftga, *q, h* kabi jarangsiz undoshlar esa jarangli juftga ega emas.

Undoshlarning ovoz va shovqin ishtirokiga ko‘ra tasnifi

Sonorlar	Shovqinlilar	
	Jaranglilar	Jarangsizlar
m,n,ng,l,r	b, v, z, d, j, j(dj), g, g‘, y,l, m, n, ng, r	p, f, s, t, sh, ch, k, x, k, h.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

2. Fonetika va uning bo‘limlari haqida ma’lumot bering.
3. Nutq a’zolariga nimalar kiradi?
4. Eng faol nutq a’zolari qaysilar?

5. Akustika nima?
6. Artikulyatsiya o‘rni, usuli deganda nimalarni tushunasiz?
7. Nutq tovushlari dastlab qanday belgilariga ko‘ra tasnif etiladi?
8. Nutq tovushlari tabiatda mavjud bo‘lgan boshqa tovushlardan nimasi bilan farqlanadi?
9. O‘zbek adabiy tilida unli tovushlar nechta?
10. Unli tovushlar tasnifi nimalarga asoslanadi?
11. Fonema va uning variantlari deyilganda nimani tushunasiz?
12. Fonema va tovush, tovush va harf o‘rtfsidagi farqlar nimalarda ko‘rinadi?
13. Hozirgi o‘zbek adabiy tilida nechta undosh tovush bor? Ular qaysilar?
14. Undosh tovushlar qaysi jihatlariga ko‘ra tasnif qilinadi?
15. Undosh tovushlarning hosil bo‘lish o‘rniga ko‘ra turlarini ayting.
16. Hosil bo‘lish usuliga ko‘ra undosh tovushlar qanday turlarga bo‘linadi?
17. Sonor va shovqinli undoshlar o‘zaro qanday farqlanadi?
18. Un paychalarining ishtirokiga ko‘ra undoshlar qanday turlarni tashkil qiladi?
19. Jarangli va jarangsiz undoshlar nimasi bilan farqlanadi?

20. Jarangli va jarangsiz juftli undosh tovushlarni sanang.

21. Jufti yo‘q jarangli va jarangsiz undoshlar qaysilar?

22. "Vokalizm" va "konsonantizm" terminlari nimani anglatadi?

2.2. Nutqning fonetik bo‘linishi

7-§. Nutq turlicha hajmdagi fonetik bo‘laklardan tarkib topadi. Jumla, takt, so‘z, bo‘g‘in va tovush nutqning ana shunday fonetik bo‘laklaridir.

Jumla nutqning ikki to‘xtam (pauza) oralig‘idagi ohang butunligi, bo‘lib u ko‘pincha gapga teng bo‘ladi.

Takt esa jumlaning ikki qisqa to‘xtalish orasida keluvchi va bir bosh urg‘u bilan aytiladigan bo‘lagidir.

Jumla yoyiq tarkibli va yig‘iq tarkibli bo‘ladi. Yoyiq tarkibli jumla taktlarga ajraladi, yig‘iq tarkibli jumla esa bir taktga teng bo‘ladi. Masalan: *Bugun bayram//. Hosil bayrami//. Biz hasharga chiqqan xo‘jalik ham, //Buka tumani ham// paxta tayyorlash rejasini allaqachon bajargan edi// (O‘.H).* Keltirilgan parchadagi birinchi va ikkinchi jumlalar yig‘iq sostavli bo‘lib, ular bir taktga tengdir. Uchunchi jumla esa uchta taktdan iborat bo‘lib yoyiq tarkiblidir. Jumlani "gap" tushunchasi bilan aralashtirmaslik lozim. Jumla fonetik tushuncha bo‘lsa, gap grammatik tushunchadir. Jumlani ohang butunligi deb, gapni

esa grammatik butunlik deb tushunamiz. Jumlani taktlarga, gapni esa ega, kesim, aniqlovchi va h.k., bo‘laklarga ajratamiz.

Fonetik so‘z nutqning alohida bir urg‘u bilan aytiladigan bo‘lagi bo‘lib, u takt ichida va alohida qo‘llanadi. Masalan, yuqorida keltirilgan uchinchi jumla uchta taktga bo‘linadi: *Biz hasharga chiqqan xo‘jalik ham // Buka tumani ham // paxta tayyorlash rejasini allaqachon bajargan edi//.* Bu o‘rinda yordamchi so‘zlar o‘zlari tobe bo‘lgan mustaqil so‘z bilan birga urg‘uga ega bo‘ladi va bitta fonetik so‘zni tashkil etadi.

Bo‘g‘in.O‘pkadan chiqadigan havo oqimiga berilgan bir zarb bilan aytiladigan tovush yoki tovushlar yig‘indisiga bo‘g‘in **(sillabema)** deyiladi. Bo‘g‘in asosini unli tovush tashkil qiladi. Shuning uchun ham so‘zda nechta unli tovush bo‘lsa, bo‘g‘inlar soni ham shuncha bo‘ladi. Masalan: *o - i - la, ta - la -ba, mak-tab.*

Ko‘rinadiki, bo‘g‘inlar bir tovushli, ikki tovushli va ko‘p tovushli bo‘lishi mumkin. Agar bo‘g‘in unli bilan tugasa ochiq bo‘g‘in deyiladi: *a-do-lat* so‘zidagi birinchi va ikkinchi bo‘g‘inlar ochiq bo‘g‘inlardir. Bo‘g‘in undosh bilan tugasa yopiq bo‘g‘in deyiladi: daf-tar, tog‘-lar kabi so‘zlardagi bo‘g‘inlar yopiq bo‘g‘inlardir.

O‘zbek adabiy tilida bo‘g‘inlarning tovush tarkibiga ko‘ra quyidagi turlari mavjud:

1. Bir unlidan iborat bo‘g‘in: *o-ta, o-i-la.*
2. Bir unli va bir undoshdan iborat bo‘g‘in: *bo-la, ish, ko‘-cha.*
3. Bir unli va ikki undoshdan iborat bo‘g‘in: *bur-gut, mak-tab, sta-kan.*
4. Bir unli va uch undoshdan iborat bo‘g‘in: *mart, dard, to‘rt, trak-tor*.
5. Bir unli va to‘rt undoshdan iborat bo‘g‘in: ***trans**-port*, ***struk**-tura*.

Shuni ham aytish lozimki, o‘zbekcha so‘zlarda bo‘g‘inning boshida undoshlar qator kelmaydi. Chunki sof o‘zbekcha so‘zlarda bo‘g‘in (undosh+unli) s+v yoki (unli+undosh) v+c kabi qolip asosida tuziladi. Tilimizdagi c+c+v yoki c+v+v qolipli bo‘g‘inga ega bo‘lgan so‘zlar o‘zga tillardan o‘zlashgandir.

So‘zni bir qatordan ikkinchi qatorga ko‘chirib yozishda, bolalarga boshlang‘ich sinfda savod o‘rgatishda, barmoq vaznidagi she’rlarda vazn o‘lchovi sifatida bo‘g‘inning **amaliy ahamiyati** kattadir.

Tovush nutqning bo‘g‘in yoki so‘z tarkibidagi eng kichik, fonetik jihatdan bo‘linmaydigan birligidir.

8-§. Urg‘u. So‘z bo‘g‘inlaridan birining (yoki gap tarkibidagi bo‘laklardan birining) boshqasiga nisbatan kuchliroq ohang bilan talaffuz etilishi urg‘u (**aksentema**) deyiladi. Urg‘u adabiy nutqning muhim vositalaridan biri bo‘lib, tilshunoslikda uning ikki turi farqlanadi:1) leksik urg‘u (so‘z urg‘usi); 2) mantiqiy urg‘u (gap urg‘usi).

Leksik urg‘u, odatda, bo‘g‘indagi unli tovushga tushadi. So‘z tarkibidagi urg‘u olgan bo‘g‘in urg‘uli bo‘g‘in, urg‘uga ega bo‘lmagan bo‘g‘in esa urg‘usiz bo‘g‘in deyiladi. Masalan: *O‘zbekisto´n, istiqloli´ng mubora´k!* gapdagi har bir so‘z o‘zining urg‘uli va urg‘usiz bo‘g‘iniga ega.

O‘z navbatda, leksik urg‘u so‘zning qaysi bo‘g‘iniga tushishiga ko‘ra ikkiga bo‘linadi: 1) bog‘liq (yoki barqaror) urg‘u; 2) erkin urg‘u.

1. Bog‘liq urg‘u. O‘zbek tilining o‘z qatlamiga mansub bo‘lgan aksariyat so‘zlarda leksik urg‘u so‘zning oxirgi bo‘g‘iniga tushadi: *ilmli´, ishchi´, sakki´z, qizi´q* kabi. Bunday so‘zlarga affikslar qo‘shilishi bilan urg‘u ham so‘zning oxirgi bo‘g‘iniga siljib boraveradi: *ishchi´- ishchi+la´r- ishchi+lar+imi´z- ishchi+lar+imiz +ni´ng, gu´l-gul+zo´r- gul+zor+la´r- gul+zor+lar+da´n* kabi. Demak, so‘zning ma’lum bir bo‘g‘ini bilan (ko‘pincha oxirgi bo‘g‘ini bilan) doimiy bog‘liq bo‘lgan urg‘u **bog‘liq urg‘u deyiladi.**

2. Erkin urg‘u. O‘zbek tilida urg‘u birinchi bo‘g‘inga yoki o‘rtadagi bo‘g‘inga tushadigan so‘zlar ham anchagina miqdorni tashkil etadi. Bunday so‘zlarning aksariyati o‘zlashma qatlamga mansub bo‘lib, ularda urg‘uni so‘zning quyidagi bo‘g‘inlarida kuzatish mumkin: *a´riya, no´ta, si´ntaksis* kabi so‘zlarda oldingi bo‘g‘inda; *geo´log, profe´ssor* so‘zlarida o‘rtadagi bo‘g‘inda; *bufe´t, operati´v, abza´s* so‘zlarida oxirgi bo‘g‘inda uchraydi. So‘zning turli bo‘g‘inlariga tushish mumkin bo‘lgan bunday urg‘u **erkin urg‘u deyiladi.**

Erkin urg‘u ba’zi o‘zbekcha hamda o‘zbek tiliga qadimdanoq arab va fors tillaridan o‘zlashtirilgan quyidagi turkumlarga oid so‘zlarda ham uchraydi:

1) olmoshlarda*: ba´rcha, ha´mma, ki´mdir, ba´rcha;*

2) ravishlarda: *do´im, ho´zir, a´slo, hami´sha;*

3) modal so‘zlarda: *alba´tta, afsu´ski;*

4) yordamchi so‘zlarda: *ha´tto, ga´rchi, a´mmo, le´kin.*

Shuni ham aytish kerakki, o‘zbek tilida mavjud bo‘lgan ba’zi unsurlar so‘z oxirida kelganda ham leksik urg‘u olmasligi mumkin. Bunday birliklar mavjud bo‘lgan so‘zlarda urg‘u oxirgi bo‘g‘inga emas, ulardan oldingi bo‘g‘inga tushadi. Ular quyidagilar: a)*-ku, -u, -yu, -da, -mi, -chi, -a, -ya, -da* kabi yuklamalar (*keldi´mi, me´n-ku bordi´m-a, si´z-chi?)* ; b)

-day, -dek, -cha kabi o‘xshatish ma’nosidagi ravish yasovchi affikslar (*yigi´tcha kiyinmoq, shamo´lday uchmoq*); v)*-dir, -man, -san, -miz, -siz* kabi shaxs-son affikslari (*o‘qiga´nman, navbatchi´san, ki´msiz, borga´nmiz*), g) *-ma* bo‘lishsizlik affiksi (*te´gma, yo´zma*) so‘zning oxirgi bo‘g‘inida kelganda ham leksik urg‘u olmaydi.

Leksik urg‘u o‘zaro omonim bo‘lgan so‘z va grammatik shakllarni ajratishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan: *o´lma* (fe’l -ma bo‘lishsizlik affiksi), *olma´* (tub ot); *o‘quvchi´miz* (fe’l, -miz kesimlik affiksi), *o‘quvchimi´z* (ot, - miz egalik affiksi); *yigi´tcha* (-cha holat ravish yasovchi qo‘shimcha), *yigitcha´* (-cha kichraytirish shakli hosil qiluvchi affiks); *bog‘+la´r* (otning ko‘plik shakli), *bo´g‘+la+r* (fe’l yasovchi+fe’lning sifatdosh shakli).

Mantiqiy urg‘u gap bo‘laklaridan birining boshqasiga nisbatan kuchliroq ohang bilan aytilishini taminlaydi. Odatda, so‘zlovchi o‘ziga muhim sanagan bo‘lakka logik urg‘u tushiradi va bu orqali o‘sha gap bo‘lagining ma’nosi kuchaytiriladi. Mantiqiy urg‘u olgan gap bo‘lagi kesimdan oldin joylashadi. Masalan: 1. *Biz kecha* ***kutubxonaga*** *bordik* (boshqa joyga emas) 2. *Biz kutubxonaga k****echa*** *bordik* (boshqa kuni emas) 3. *Kutubxonaga kecha* ***biz****´bordik* (boshqalar emas)

2.3. Nutq tovushlarining fonetik o‘zgarishi

Nutq jarayonida turli tovush o‘zgarishi yuzaga keladi: ba’zi tovushlar qisqa talaffuz qilinadi, yoki biri ikkinchisi tomonidan moslashtiriladi, ba’zan tovushlar tushirilishi yoki orttirilishi, o‘rin almashinishi mumkin. Nutq jarayonida sodir bo‘ladigan bu singari o‘zgarishlar tovushlarning **kombinator va pozitsion** o‘zgarishlari deyiladi.

9-§. Kombinator o‘zgarishlar. Bunday fonetik hodisalar qatoriga assimilyatsiya, dissimilyatsiya, metateza kabi hodisalar kiradi.

1. Assimilyatsiya. Qator kelgan noo‘xshash nutq tovushlarining bir-biriga ta’siri natijasida biri ikkinchisini o‘ziga moslashtirgan holda, o‘xshash tovushga aylanishi assimilyatsiya deyiladi. Assimilyatsiya ikki xil bo‘ladi:

Progressiv assimilyatsiya. Talaffuz jarayonida oldingi noo‘xshash tovush keyingi tovushni o‘ziga o‘xshatsa, moslashtirsa, bu hodisani progressiv assimilyatsiya deyiladi: *ket+di=ketti, ot+dan=ottan, yet+di=yetti, to‘k+gan=to‘kkan, buyruq+ga=buyruqqa, yurak+ga=yurakka*.

Regrissiv assimilyatsiya. Keyingi noo‘xshash tovush oldingi tovushga ta’sir qilib, uni o‘ziga o‘xshatsa, moslashtirsa, bu hodisani

regrissiv assimilyatsiya deyiladi: *yigit+cha=yigichcha, yoz+sin=yossin, tuz+siz=tussiz, bir+ta=bitta, non+voy=novvoy*.

2. Dissimilyatsiya. So‘zning bir o‘rnida yoki turli o‘rinlarida o‘xshash tovushlarning talaffuz paytida noo‘xshash tovushga aylanishi dissimilyasiya Deyiladi. Dissimilyasiya ham assimilyatsiya hodisasi singari ikki turga bo‘linadi:

Progressiv dissimilyatsiya keyin kelgan o‘xshash tovushning talaffuzda noo‘xshash tovushga aylanishidir: *zarar-zaral, zarur-zaril, kissa-kista.*

Regressiv dissimilyatsiya oldin kelgan o‘xshash tovushning talaffuzda noo‘xshash tovushga aylanishidir: *koridor - kalidor, ittifoq - intifoq, nodon - lodon.*

3. Metateza. Og‘zaki nutqda ba’zan yonma-yon kelgan undosh tovushlarning o‘rni almashinishi mumkin. Nutqdagi bunday jarayon metateza deyiladi: *daryo - dayro, (r-y), yomg‘ir - yog‘mir (m-g‘), ahvol - avhol (v-h) tuproq - turpoq (p-r), aylanmoq - aynalmoq (n-m).*

10-§. Pozitsion o‘zgarishlar quyidagilar: proteza, epenteza, prakopa, anakopa, sinkopa, eliziya, reduktsiya.

1. Proteza so‘z boshida bitta unlining orttirilishi proteza hodisasi deyiladi: *stol - istol, stul - istul, stakan - istakan*.

2. Epenteza so‘z boshida, o‘rtasida va oxirida ikki undosh qator kelganda, ular orasida i, ba’zan u va a unlisi orttiriladi: *fikr - fikir, hukm - hukum, umr-umur, doklad - dokalad, mashq - mashiq, bank-banka, tank-tanka.*

3. Prokopa bunda so‘z boshida ba’zan unli yoki undosh tovush tushib qoladi: *yirik- irik-iri, yog‘och - ag‘ach.*

4. Sinkopa bu hodisa asosan o‘zlashma so‘zlar talaffuzi jarayonida yuzaga kelib, so‘z o‘rtasi va oxiridagi keng unlilar tor unlilar kabi talaffuz qilinadi hamda ayrim hollarda tushiriladi: *traktor-traktir, direktor - direktir, doktor - duxtir.*

5. Anakopa so‘z o‘zagidagi oxirgi unli yoki undoshning tushish hodisasidir: *do‘st - do‘st, go‘sht - go‘sh, gazeta - gazet, smena-smen, mashina-moshin.*

6. Eliziya unli bilan tugaydigan va unli bilan boshlanadigan ikki so‘zning qo‘shilishi natijasida unli tovushdan birining tushib qolish hodisasidir. Bunda bir necha holat kuzatiladi: a) birinchi so‘z oxiridagi unli tushib qoladi: *yoza olmoq - yozolmoq, bera olmoq - berolmoq;* b) unli bilan boshlanuvchi ikkinchi so‘zning bosh unlisi tushadi: *borar ekan - borarkan, borar emish - borarmish, borar edi - borardi;* v) so‘zlar tarkibida bir yo‘la ham unli, ham undosh tovushlarning tushib

qolishi eliziyaning murakkab shaklini yuzaga keltiradi: *Abdusalom - Absalom, Abusami - Apsami, olib kel - opke.*

7. Reduktsiya so‘zning birinchi bo‘g‘inida biror unlining, odatda tor unlining kuchsiz talaffuz etilishidir. Masalan: *pishiq, pishak, qiliq* so‘zlaridagi birinchi i unlisi nihoyatda kuchsiz talaffuz qilinishi bunga misol bo‘la oladi.

Ba’zan so‘zga biror affiks qo‘shilishi bilan o‘zakdagi tor unli kuchsizlanib, tushib qolishi ham mumkin: *burun - burni, egin - egni, o‘g‘il - o‘g‘li, singil - singlim* kabi. Mazkur holat pozitsion o‘zgarish doirasida sodir bo‘ladi.

11-§. Qo‘sh unli va undoshlarning qo‘llanishi. O‘zbek tilida so‘z tarkibida tovushlarning qo‘shaloq qo‘llanishi asosan o‘zlashma so‘zlar ta’sirida paydo bo‘lgan hodisadir. Chunki o‘zbek tilidagi so‘zlar tarkibida tovushlar aksariyat hollarda unli+undosh yoki aksincha undosh+unli tarzida joylashadi. Xususan, o‘zbek adabiy tilida bir xil unlilarning yonma-yon kelishi, asosan, so‘z o‘zlashtirish orqali vujudga kelgan bo‘lib, so‘zning quyidagi o‘rinlarida uchratish mumkin:

1.So‘z o‘rtasida: *manfaat, badiiy, murojaat, taajjub;* 2. So‘z oxirida: *mudofaa, matbaa, mutolaa.*

Har xil unlilarning yonma-yon kelishi ham tilimizdagi o‘zlashma so‘zlarga xos bo‘lib, so‘zning barcha o‘rinlarida uchraydi: *oila, aorta, qoida, jamoat, jamoa, qanoat* kabi.

Adabiy tilda har xil va bir xil unlilarning yonma-yon ishlatilishiga nisbatan undoshlarning ana shunday qo‘llanishi kengroq tarqalgan. Masalan, bir xil undoshlarning yonma-yon kelishi o‘z va o‘zlashma so‘zlarda so‘z o‘rtasida kuzatiladi: *sakkiz, ikki, ellik, chappa, to‘qqiz, o‘ttiz, sodda, mudarris, Muzaffar, Izzat, gijja, hamma* kabilar. So‘z oxirida esa bu hodisa faqat o‘zlashma so‘zlarda uchraydi: *progress, kilovatt, gramm, matall* kabi.

Har xil undoshlarning yonma-yon kelishi: *stol, spravka, shtrix, traktor* kabi o‘zlashmalarda so‘z boshida; *qavart, yugurt, muzey, do‘st, qand, past, baland, baxt* kabi o‘z va o‘zlashma so‘zlarda esa so‘z oxirida uchraydi.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. O‘zbek adabiy tilining fonetik vositalariga nimalar kiradi?
2. Nutqning asosiy fonetik birliklarini ta’riflang.
3. Bo‘g‘in deb nimaga aytiladi?
4. O‘zbek tilida bo‘g‘inning qanday turlari uchraydi?

5. Urg‘u nima? Uning qanday turlari bor?
6. Leksik urg‘uning qanday turlarini bilasiz? Ularning farqlanishini tushuntiring.
7. Mantiqiy urg‘uning qanday amaliy ahamiyati bor?
8. Nutq tovushlarining fonetik o‘zgarishlari haqida ma’lumot bering.
9. Qo‘sh unli va undoshlarning ishlatilishi haqida nimalarni bilasiz?

ADABIYOTLAR:

1. Ш. Шоабдураќмонов, М.Асљарова, А.Ќожиев, И.Расулов, Х.Дониёров Ќозирги њзбек адабий тили. Т., «Њљитувчи» 1980.
2. У.Турсунов, Ж.Мухторов, Ш.Раќматуллаев Ќозирги њзбек адабий тили.. 1-љисм. Т., «Њљитувчи» 1979.
3. А.Нурмонов Њзбек тили фонологияси ва морфонологияси. Т., «Њљитувчи» 1990.
4. А.Абдуазизов Њзбек тили фонологияси ва морфонологияси. Т., «Њљитувчи» 1992.
5. N. Turniyozov Tilshunoslikka kirish (ma’ruzalar matni). Samaqand-2006.

3-MA’RUZA

3.1. Grafika

1-§. Grafika haqida umumiy ma'lumot. Grafika (grekcha grapho - "yozma" - so'zidan olingan) tildagi tovushlarni ko'rsatuvchi shakliy vositalar tizimidir. Har bir tovush uchun olingan maxsus shakl harf deyiladi, tovush ko'rsatmaydigan shakl esa belgidir. Tildagi muayyan tartib bilan joylashtirilgan harflar va belgilar tizimi alfavit deyiladi.

Hozirgacha amalda bo'lib turgan yozuv rus(kirill) grafikasiga asoslangan bo'lib, unda 35 ta shakl mavjud. Shundan 33 tasi harf, 2 tasi (ъ, ь) belgi. Lotin alifbosiga asoslangan yangi yozuvda 30 ta grafik shakl qabul qilingan bo'lib, ulardan bittasi (tutuq belgi) belgi hisoblanadi. Yigirma to'qqizta shakl esa unli va undosh tovushlarni ifodalovchi harflardir. O'zbek-kirill yozuvida tildagi 6 ta unli fonemalar quyidagi 10 ta harf vositasida ifoda etiladi:*а, о, и, э, у, ь, ю, ё, я, е.* Bulardan keyingi to'rttasi ikki tovush ifodasini beradi: *ю=й+у, я=й+а, ё =й+о, е=й+е* kabi. Biroq mazkur harflar ba'zi so'zlarda bir tovush ifodasini berishi ham kuzatiladi: Masalan: *ю* harfi: *порошют* so'zida u tarzida; *я* harfi *октябр* so'zida a tarzida; *е* harfi – *кел, кет* so'zlarida *е* tarzida talaffuz etiladi va bitta tovush ifodalaydi. Qiyoslang: *юлдуз* - 5 harf, 6 ta tovush; *япроль*- 5 harf, 6 ta tovush; *ёз*- 2 ta harf, 3 tovush; ер - 2 ta harf 3 ta tovush. Kirill yozuvidagi ikki tovush ifodolovchi *ю, ё,*

я, е harflari yolashgan unlilar yoki grafemalar deb ataladi. O‘zbek-lotin yozuvida esa unli harflar soni tilimizdagi 6 ta tovush soniga tengdir. Chunki yangi yozuvda o‘zbek-kirill yozuvidagi *yo, yu, ya, ye* grafemalari maxsus xarflarga ega emas. Ular *ю, ё, я, е* harf birligi orqali yoziladi: *yer, yur, yor, yangi*. Shuningdek, o‘zbek-kirill yozuvidan farqli ravishda yangi yozuvda *poroshut, oktabr, budjet, kel, ket* so‘zlari talaffuz qilingan shaklda bitta harf bilan yoziladi.

Har ikkala alfavitdagi 23 harf kirill alifbosiga asoslangan imloda 25 ta, yangi o‘zbek-lotin alfavitida esa 24ta undosh tovushni ifodalash uchun xizmat qiladi. Bunda quyidagilar e’tiborga olinadi: *j* harfi talaffuzda bir-biridan keskin farqlanuvchi ikki undosh tovushning yozuvdagi belgisi hisoblanadi: *jurnal (jurnal), vijdon (vijdon)* so‘zlarida *j* harfi sirg‘aluvchi undoshni; *jo‘ra, reja* so‘zlarida esa qorishiq portlovchi undoshni ifoda etadi. Shuningdek, *tong, anglamoq* so‘zlaridagi *ng* til orqa, portlovchi-sirg‘aluvchi, burun tovushi uchun o‘zbek-kirill alifbosida maxsus harf qabul qilinmagan. Bu tovush *n+g* harf birikmasi orqali ifodalandi. O‘zbek-lotin alfavitida esa bu tovushini ifodalash uchun ***ng*** harf birikmasi mavjud. Masalan: *tong, ko‘ngil*. Biroq, o‘zbek-lotin alfavitida asosan o‘zlashma so‘zlarda uchraydigan *s (ts)* qorishiq portlovchisi uchun maxsus harf qabul qilinmagan. Bu tovush

uchraydigan so‘zlar yangi yozuvda quyidagicha yoziladi: a) so‘z boshi va so‘z o‘rtasida hamda undosh va unli oralig‘ida kelganda *s* harfi bilan yoziladi: *sirk*, *kvars*, *fransiya*, *stansiya*; b) so‘z o‘rtasida ikki unli oralig‘ida kelganda esa *ts* harf birikmasi bilan yoziladi: *militsiya*, *akatsiya* kabi. Bundan tashqari yangi yozuvda o‘zbek-kirill yozuvidan farqli ravishda ***sh*** *(sher)* ***ch*** *(chopmoq)* kabi harf birikmalari ham qabul qilingan. O‘zbek tili grafikasi alifavitdagi harf, harf birikmalaridan tashqari, tinish belgilari va urg‘u belgisini ham o‘z ichiga oladi.

2-§. Yozuvlar tarixidan. Yozuv fikrni tovush yetmaydigan joy va kelajak avlodga yetkazish ehtiyojidan kelib chiqqan. Dastlab bu vazifani ramziy ma’nolarni ifodalaydigan narsa-buyumlar bajargan. Umuman, yozuvning ilk ildizlari odamzod biror joyga belgilar qo‘yib har xil chiziqlar chiza boshlagan davrga borib taqaladi. Keyinchalik inson ham jismoniy, ham aqliy takomillashuvi natijasida ko‘ngilda to‘g‘ilgan fikrni turli rasm - tasvirlar orqali ifodalay boshlagan. Ma’lum bir shaklga ega bo‘lmagan, ya’ni mavhum narsalar uchun ham turli hil ramziy belgilar o‘ylab topilgan. Shu tarzda taraqqiyot mahsuli o‘laroq, yozuvning piktografik; idiografik; iyeroglifik va boshqa turlari kelib chiqqan. Turkiy xalqlar, jumladan, o‘zbek xalqi tarixida ham xilma-xil yozuvlardan foydalanganlar. So‘nggi yozuvlarning aksariyati

fonografik, ya’ni tovush yozuvi - harfiy yozuvdan iborat bo‘lgan. Hozirgi paytda jahon ahlining to‘rtdan uch qismi yozuvning mazkur turidan foydalanadi.

Markaziy Osiyoning boshqa xalqlari singari o‘zbek xalqi ham o‘z tarixiy shakllanishi mobaynida oromiy, yunon, karoshta, so‘g‘d, xorazm, eftalit, pahlaviy, suriya, hind, o‘rxun (run), uyg‘ur, arab, kirill va lotin kabi yozuvlardan foydalangan. Tarixiy tadqiqotlarning guvohlik berishicha, eramizdan avvalgi VI - IV asrlarda Markaziy Osiyoning Eronga yaqin hududlarida rasmiy yozuv sifatida mix yozuvi ishlatilar edi. Ayrim joylarda esa mix yozuvidan birmuncha oddiy va qulay bo‘lgan oromiy yozuvi amalda bo‘lgan. Turli yodgorliklarda qayd etilishicha, eramizdan avvalgi I - III asrlarda oromiy yozuvi bilan bir qatorda yunon va karoshta yozuvlari ham ishlatilgan.

Miloddan avvalgi II-III asrlarda shakllana boshlagan sug‘d yozuvi ham o‘lkamiz madaniyati tarixida muhim o‘rin egallagan. Olimlarning izlanishlari shuni ko‘rsatadiki, sug‘d yozuvi eramizning VII-VIII asrlarida amalda bo‘lgan. Xususan, Mug‘ tog‘idan topilgan manbalar VII asr oxiri VIII asr boshlariga oid 80 ga yaqin sug‘d yozuvidagi hujjatlarni o‘z ichiga olishi, buning yaqqol dalilidir. Bundan tashqari, o‘lkamizda eramizning II asri oxiri III asr boshlarida Xorazm shohi

zarb etgan pullarda qadimgi xorazm yozuvi uchraydi. Bu yozuv O‘rta Osiyoda ancha keng tarqalgan bo‘lib, shaklan Oromiy yozuviga ancha yaqin turadi.

Xalqimizning yozuvlar bilan bog‘liq tarixining yana bir bosqichi turkiy-run yoki O‘rxun-Enasoy kabi nomlar bilan yuritiladigan yozuvga daxldordir. O‘rxun-Enasoy obidalari fanda «tosh bitiklar» deb ham yuritiladi. Buning boisi mazkur obidalarning aksariyat qismi qabr toshlariga o‘yib yozilganligidadir. Xususan, Kultegin, Bilgahoqon, Tunyuquq kabi shahzoda va sarkardalar sharafiga qo‘yilgan qabr toshlari shular jumlasidandir. Biroq «Irq bitik» deb nom olgan «Ta’birnoma» turkiy-run yozuvining qog‘ozdagi nusxasi ekanligi bilan ajralib turadi. Bu yozuv xususida yaqin yillarga qadar V-VIII asrlar davomida amalda bo‘lgan, degan xulosa yetakchilik qilar edi. Biroq keyingi yillar mobaynida topilgan yangi dalillarga tayanilgan holda, turkiy-run yozuvi eramizning I ming yilligidayoq shakllanib bo‘lganligi xususida xulosalarga kelinmoqda. Jumladan, 1988-yil Andijon viloyatining Marhamat tumanidagi Lo‘mbitepadan topilgan ko‘zaga o‘yib tushirilgan qadimgi turkiy bitiklar turkiy-run yozuvining ibtidosi eramizga qadar bo‘lgan davrlarga daxldor ekanligini faraz qilish imkonini beradi.

Shuni ham ta’kidlash joizki, tarixda O‘rxun yozuvi keng joriy etilgan Turk hoqonligi tugab, turkiylar o‘rtasida uyg‘ur yozuvining joriy etilishida muhim o‘rin tutgan uyg‘ur hoqonligi (744 – 840-yillar oralig‘ida hukmronlik qilgan) boshlangandan keyin ham turkiy-run yozuvi Sibir turklari va Mo‘g‘iliston hududlarida VIII asrgacha qo‘llanavergan. Ba’zan turk-run yozuvi va uyg‘ur yozuvlari baravar amalda bo‘lgan. Masalan, 784-yilda uyg‘ur hoqonlaridan bo‘lgan Muyunchurning qabriga o‘rnatilgan toshning bir tomoniga turk-run yozuvi bitilganligi buning yaqqol dalilidir.

Turkiy-run yozuvi haqidagi dastlabki ma’lumotga XVIII asrning boshlarida ega bo‘lingan bo‘lsa ham, biroq yozuv qaysi xalqqa mansub ekanligi noma’lumligicha qolib kelar edi. Chunki topilgan manbalarni hali hech kim o‘qiy olmagan edi. Yozuv haqidagi birinchi ma’lumotlar 1691- yil Moskvadagi Gollandiya elchixonasi a’zosi Nikolay Vidzen Verxoturdon uncha uzoq bo‘lmagan joydan noma’lum alifboda yozilgan bitiktoshlarni topganidan so‘ng tarqala boshlaydi. Oradan besh yil o‘tgach, 1696 -yilda, Semyon Remizov Yenisey daryosi havzasidan topilgan O‘rxun yodgorligi haqida xabar beradi. 1830 -yilda asirlikka tushgan shved zobiti Iogan Stralenberg ham Sibirda noma’lum yozuvlar bitilgan toshlarga duch keladi. Shundan so‘ng, 1890-yilda Fin-

Ugor ilmiy jamiyatining O‘rxun daryosiga uyushtirgan arxeologik ekspeditsiyalari O‘rxun-Enasoy bitiklari xususida ko‘plab aniq va yangidan-yangi ma’lumotlar to‘planishida katta ahamiyat kasb etdi. Bu davrda runik yozuv deb nomlangan O‘rxun - Enasoy yozuvini (O‘rxun - Enasoy yozuvi shaklan got yozuviga, ya’ni qadimgi olmon yozuviga o‘xshash bo‘lgani tufayli runik - sirli deb nomlangan) 1893-yilning oxirida danyalik olim V.Tompson birinchi bo‘lib o‘qishga muyassar bo‘ldi. U eng avval *tangri* va *turk* so‘zlarini o‘qigach, bu yozma yodgorliklar turkiy xalqlarga tegishli ekanligi ma’lum bo‘ldi. Mazkur yilning 25- noyabrida esa bitiktoshlardagi barcha harflarni aniqlab, yodgorliklarning sirini to‘laligicha ochishga muyassar bo‘ldi. Shu orada rus sharqshunosi, akademik V.V.Radlov ham 15 ga yaqin harflarni aniqlab ulgurgan edi. Shunday qilib, O‘rxun-Enasoy yozma yodgorliklarining o‘qilishida ikki zabardast olim V.Tompson va V.V.Radlovlarning xizmatlari beqiyosdir. O‘rxun-Enasoy yozuvi o‘ngdan chapga va yuqoridan pastga qarab yozilgan.

Eramizning VI - VII asrlarida turk hoqonligi o‘rnida maydonga kelgan Uyg‘ur hoqonligi o‘zining yangi yozuvini joriy etadi. Bu yozuv tarixda "Uyg‘ur yozuvi", "Turkiy yozuv" kabi nomlar bilan mashhur

bo‘lgan. Jumladan, XI asrning yirik tilshunos olimi Mahmud Koshg‘ariy ham uyg‘ur yozuvini "turkiy" yozuv deb atagan.

Uyg‘ur yozuvi orqali turkiy xalqlarning juda ko‘plab bebaho durdonalari bizgacha yetib kelgan bo‘lib, "Oltin yorlug‘", turkiylarning ilk yozma dostoni bo‘lgan «Qutadg‘u bilig» ning Vena nusxasi, "Hibat-ul haqoyiq", hamda "Tazkirat-ul avliyo", "Me’rojnoma", "Baxtiyor-noma" kabi asarlarning turkiy qavmlar o‘rtasida shuhrat qozonishida ana shu yozuvning xizmati katta bo‘lgan. Bu yozuvning turkiy xalqlar o‘rtasida arablar istilosidan so‘nggi davrlarda ham amalda bo‘lganligini tasdiqlovchi dalil sifatida Umarshayx mirzoning 1469 -yilda uyg‘ur yozuvida bitilgan yorlig‘ini keltirish mumkin. Uyg‘ur yozuvining nihoyatda kuchli ta’siri adabiy tilning yozma shaklida ham o‘zining sezilarli izini qoldiradi. Bu Navoiygacha bo‘lgan davrda yaratilgan barcha manbalarda qadimgi uyg‘ur tizimga xos morfologik, fonetik, leksik unsurlarning ko‘plab uchrashi misolida ko‘zga tashlanadi.

VII-VIII asrlarda Markaziy Osiyoning arablar tomonidan istilo etilishi bilan arab madaniyati, tili, adabiyoti, ta’siri islomiy madaniyat sifatida bu o‘lkada yashovchi xalqlar o‘rtasida keng yoyila boshladi. Ana shunday bir davrda boshqa xalqlar qatorida o‘zbek xalqi ham arab yozuvini qabul qildi. Xususan, bu yozuvda yaratilgan ilk turkiy tilga oid

manbalar XI asrga taalluqli bo‘lib, «Qutadg‘u bilig»ning Namangan va Qohira nusxalaridir. Shuningdek, «Devonu lug‘atit turk», «Muhabbatnoma» kabi asarlar ham arab xatida yaratilgan qadimiy manbalardandir. Garchi bu yozuv o‘zbek va boshqa turkiy xalqlar tili xususiyatlariga to‘la mos kelmasa ham, asrimizning boshlariga qadar, aniqrog‘i, 1929-yilgacha yaratilgan nihoyatda boy merosimiz ana shu yozuv asosida bizgacha yetib keldi. Arab yozuvidagi murakkabliklarni sezgan ayrim olimlar, masalan, Zahiriddin Muhammad Bobur o‘zining "Xatti Boburiy" yozuvini yaratdi. Biroq o‘sha davrdagi siyosiy-ijtimoiy muhit uning bu sa’y-harakatiga yo‘l bermas edi. Nihoyat, amaldagi arab alifbosi asosida xalqni yoppasiga savodli qilish mumkin ekanligini anglab yetgan o‘zbek ziyolilari, xususan, jadidlar tashabbusi bilan 1921- yilda yozuv isloh qilinadi. Ya’ni arab yozuvidagi uch xil shaklda yoziladigan 38 harf xilma-xil yozuv turlari birmuncha soddalashtirilib, harflar soni 29 taga qisqartiriladi. Shunday bo‘lishiga qaramasdan, bu yozuv tobora rivojlanib borayotgan ilm-fan, texnika va madaniyatning talablarini to‘la qondira olmay qoldi. Xususan, arab yozuvi asosida xalqni tez orada savodli, madaniyatli qilishda muhim ahamiyatga ega bo‘ladigan darslik va o‘quv qo‘llanmalarni, ilmiy, siyosiy va badiiy asarlarni ko‘plab chop etish, gazeta va jurnallarni

nashr etish borasida to‘sqinliklar, texnik qiyinchiliklar mavjud edi. Ana shular e’tiborga olingan holda, 1929-yildan boshlab o‘zbek yozuvi lotinlashtirilgan alfavitga ko‘chirildi. Albatta, bu yozuv o‘zbek va boshqa turkiy xalqlar tillariga xos fonetik xususiyatlarni ifodalashda arab yozuviga nisbatan juda katta qulayliklarga ega edi. Biroq lotin alfaviti asosidagi yozuv 1940- yilgacha amalda bo‘ldi. 1940-yil 6-8-mayda o‘zbek yozuvini lotinlashtirilgan yozuvdan rus (kirill) grafikasi asosidagi yangi yozuvga ko‘chirish haqida qaror qabul qilindi.

O‘zbekiston o‘z istiqloliga erishish arafasida, ya’ni 1989-yil 21-oktabr kuni, O‘zbek tiliga davlat tili maqomi berildi. 1991-yil 31-avgustda esa O‘zbekiston Respublikasi mustaqil davlat deb e’lon qilindi. Shu kunlardan boshlab barcha sohalarda ijobiy o‘zgarishlar yuz bera boshladi. Jumladan, 1993-yil 2-sentabrda "Lotin yozuviga asoslan-gan o‘zbek alifbosini joriy etish to‘g‘risida"gi qonunning qabul qilinishi va bu orqali o‘zbek tilining barcha fonetik xususiyatlarini ifoda eta oladigan yozuv bilan ta’minlanishi ana shunday islohatlardan biri bo‘ldi. Shundan so‘ng, 1995-yil 6 mayda, O‘zbekiston Respublikasining "Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini joriy etish to‘g‘risida"gi qonuni-ga o‘zgartirish kiritish haqida Oliy Majlis qarori qabul qilindi. Bu qaror-ga muvofiq muqaddam qabul qilingan yangi alifbo birmuncha soda-

lashtirildi. Xususan, harflar soni 29 taga qisqartirildi. Avval qabul qilingan qonunda koʻzda tutilgan toʻliq oʻtish muddati 2005-2010-yilgacha uzaytirildi. 1995 yilning 24 avgustida Vazirlar Mahkamasining qaroriga binoan qabul qilingan, "Oʻzbek tilining asosiy imlo qoidalari" 1996-1997-oʻquv yilidan boshlab lotin alfavitiga asoslangan yangi oʻzbek yozuvi maktabgacha ta'lim muassasalarida, umumta'lim maktablarining boshlangʻich sinflarida, korxona va tashkilotlarda iste'molga kiritildi.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Grafika nimani oʻrganadi?
2. Harf nima? Alfavit-chi?
3. Oʻzbek lotin alfavitida nechta harf bor?
4. Harf va belgi qanday farqlanadi?
5. Grafema deb nimaga aytiladi?
6. Oʻzbek tilida qaysi ikkita harf bir tovushni ifodalaydi?
7. Oʻzbek xalqi oʻz tarixida qanday yozuvlardan foydalangan?
8. Turkiy-run, uygʻur yozuvlari haqida nimalarni bilasiz?
9. Fonografik yozuv nima?
10. Yangi oʻzbek yozuvida nechta harf va nechta harf birikmasi bor?

11. "O‘zbek tilining asosiy imlo qodalari" to‘g‘risidagi qaror qachon qabul qilingan?
12. Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini joriy etish haqida"gi qonun qachon chiqdi?
13. "Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini joriy etish to‘g‘risidagi qonunga o‘zgartirish kiritish haqida"gi qaror qachon qabul qilinadi?

3.2. Orfografiya

Tildagi so‘zlarni, o‘zak-negiz va affikslarni, yagona me’yoriy talab asosida yozish qoidalarining yig‘indisi orfografiya deyiladi. Orfografiya yunoncha "orthos" - to‘g‘ri "grapbo" – yozaman, degan ma’noni anglatadi. Unda so‘zlarning o‘zak va negizlari hamda va affikslarining to‘g‘ri yozilishi, qo‘shma, takroriy va qisqartma so‘zlar qismlarining qo‘shib yoki ajratib yozilishi, bosh harflarning ishlatilishi, bo‘g‘in ko‘chirish qoidalari xususida batafsil ma’lumot beriladi. O‘zbek adabiy tilining orfografiyasi quyidagi yozuv qoidalariga asoslanadi:

1- § Fonetik yozuv. Mazkur yozuv qoidasiga ko‘ra so‘zlar va ularga qo‘shiladigan affikslar talaffuz me’yoriga mos ravishda yoziladi.

Masalan: 1) *ko‘ngil, o‘g‘il, shahar* singari so‘zlarga egalik affikslari qo‘shib talaffuz qilinganda o‘zakdagi *i* va *a* fonemalari tushiriladi va shu tarzda yoziladi; 2*) yosh, ong* kabi so‘zlarga -*a* yoki -*la* so‘z yasovchi affikslari qo‘shilib talaffuz qilinganda, o‘zakdagi *o* unlisi *a* tarzda o‘zgaradi va shunday yoziladi; 3) *ikki, yetti* sonlariga - *ov* affiksi qo‘shilganda o‘zak oxiridagi *i* unlisi talaffuzda tushiriladi va shunday yoziladi; 4) *so‘ra, bo‘ya, tanla* kabi so‘zlarga - *q, -v* so‘z yasovchilarini qo‘shib talaffuz qilinganda *a* tovushi *o* unlisiga o‘zgaradi va shunday yoziladi; 5) *o‘qiy olmoq, ishlay bermoq* kabi so‘zlar talaffuzda *ishlayvermoq, o‘qiyolmoq* tarzda aytiladi va shunday yoziladi; 6) rus tilidan o‘zlashgan *отпуск, пропуск, счёт, , щчётка* kabi so‘zlar *otpuska, propuska, cho‘t, cho‘tka* tarzida talaffuz qilinadi va shunday yoziladi. Keltirilgan misollardan ko‘rinadiki, fonetik yozuv yozma nutqni og‘zaki talaffuzga yaqinlashtiradi va ular o‘rtasida umumiylikni vujudga keltiradi. Shu bois bu yozuv qoidasiga ko‘ra yoziladigan so‘zlarda u yoki bu fonetik o‘zgarishini kuzatish mumkin.

2-§. Morfologik yozuv. So‘z va uning qismlari qanday talaffuz qilinishidan qat’iy nazar, uning variantlaridan biri avvaldan qoidalashtirilgan shaklda, ya’ni asliga muvofiq yoziladi. Masalan: 1) *kitob, maktab, ko‘plab, talab* kabi so‘zlarda oxiridagi b undosh

talaffuzda p tarzda jarangsizlanadi, biroq asliga muvofiq yoziladi; 2) *shanba, sunbul, manba, aylanma* so‘zlari o‘rtasida keladigan n undoshi talaffuzda o‘zidan keyingi undoshlarga moslashib *shamba, mamba, sumbul aylamma* tarzida aytiladi biroq asliga ko‘ra yoziladi; 3) *do‘st, go‘sht, xursand* kabi so‘zlar oxiridagi undosh tovush talaffuzda tushurilsa ham, asliga muvofiq yoziladi; 4) *uch, to‘rt* sonlariga *-ala* qo‘shimchasi qo‘shilganda *uchchala, to‘rtta* tarzida tovush orttirilgan holda talaffuz qilinsa ham asliga muvofiq yoziladi; 5) o‘zak tarkibida *u* undoshi bo‘lgan *kulmoq, tug‘ilmoq, uch* kabi so‘zlariga, *-ib, - il, -in, -ish, - imsira* affikslari qo‘shilganda affikslardagi *i* unlisi *u* tovushga moyilroq talaffuz qilinadi, biroq asliga muvofiq *kulib, tug‘ildi, uchish* tarzida yoziladi; 6) *g‘* undoshi bilan tugaydigan so‘zlarga jo‘nalish kelishigi qo‘shimchasi *-ga* tarzda qo‘shiladi va shunday yoziladi: *tog‘ga, bog‘ga, bug‘ga* kabi. Shunday qilib, hozirgi o‘zbek adabiy tilidagi o‘zak-negiz va qo‘shimchalarning bir xil qoida asosida yozilishini ta’minlaydigan morfologik yozuv, faqat yozma nutq talabiga rioya qilinadigan qoidalar majmuidan tashkil topadi.

3-§. Tarixiy - an’anaviy yozuv. So‘zlarning hozirgi talaffuzi va yozuv shaklidan qat’i nazar, tarixiy - an’anaviy me’yoriga amal qilgan holda yozish qoidasidir. Bu yozuv qoidasi ko‘proq zamonaviy shoir va

yozuvchilarning asarlarida turli so‘z va affikslarning tarixiy shaklda ishlatilishi jarayonida ko‘zga tashlanadi: 1) buyruq - istak maylining - *gin* shakli - *gil //g‘il* tarzida keladi: *Ey, munaqqid, sen g‘azalni ko‘hna deb kamsitmagil (A.Vohidov*); 2) hozirgi adabiy tildagi maqsad ravishdoshining *-gani* shakli - *gali // g‘ali // qali* tarzda yoziladi: *ko‘rgali keldingmi, yor, kuydurgali keldingmi, yor* (qo‘shiqdan); 3) *-mi* so‘roq yuklamasining - *mu* tarixiy shakli qo‘llaniladi: *Sevgini tortib bulurmu toshu tarozi bilan (E.Vohidov).* Xuddi shuningdek, tarixiy - an’anaviy yozuv qoidalarini *-gin //gil* (*borgin - borgil), - dan //din (jondan - jondin), ar // ur (kelar - kelur*) kabi affikslar, *nima //ne, u //ul* kabi olmosh va boshqa turkumga mansub so‘zlarning tarixiy shakllarining ishlatilishi misolida ham kuzatish mumkin.

4-§. Shakliy yozuv o‘zlashgan so‘zlarning ular mansub bo‘lgan tildagi shaklini o‘zbek tilida ham saqlagan holda yozish qoidasidir. Xususan, arab, fors - tojik, rus va boshqa tillardan o‘zlashgan so‘zlar qanday talaffuz qilinishidan qat’iy nazar, o‘zlashtirilgan tildagi orfografik qoidaga rioya qilinadi: 1) *muhokama, muomala* kabi so‘zlar talaffuzida *muhokima, muomila* tarzda aytilsa ham shakliy yozuv asosida yoziladi; 2) *vise - prezident, eks - chempion* kabi o‘zlashma so‘zlar shakliy yozuv talabiga ko‘ra chiziqcha bilan yoziladi,

shuningdek, *mojora, mutolaa, mushoira, mudofaa, matbaa, gramm, monolog, sentner, zoologiya* singari ko‘pgina o‘zlashma so‘zlar ham talaffuz shaklidan qat’iy nazar shakliy yozuv qoidasiga ko‘ra yoziladi.

5- §. Farqlashga asoslangan yozuv. Tildagi shakli yoki talaffuzi bir xil (bir-biriga yaqin) bo‘lgan so‘zlar yozuvda turli belgilar yordamida (ba’zan ma’nosiga ko‘ra) farqlanadi. Masalan, 1) urg‘u vositasida: *olma´* (ot) *o´lma* (fe’l); *qo‘´llar* (ot) – *qo‘lla´r* (fe’l); *atla´s* (ot, mato) – *a´tlas* (ot, xarita); 2) unlining cho‘ziq - qisqaligi farqlovchi vosita bo‘ladi: *da’vo - davo, ayon - a’yon, a’lam - alam;* 3) boshqa turli harflar faqlovchi vosita bo‘ladi*: shox-shoh, xol - hol, urush - urish, o‘r-ur, tanbur - tambur, amr - amir.*

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Orfografiya nima? Orfografiyaning yozuv qoidalarini sanang.
2. Morfologik va fonetik yozuv qanday farqlarga ega?
3. Tarixiy - an’anaviy yozuv qoidasiga mal qilingan zamonaviy ijodkorlarning qanday asarlarini bilasiz?
4. Turli belgilariga ko‘ra farqlash mumkin bo‘lgan so‘zlardan misollar keltiring.

5. So‘zlarni to‘g‘ri yozishda eng muhim bo‘lgan yozuv qoidasi haqida ma’lumot bering.
6. Qo‘shma, juft, qisqartma, takroriy so‘zlarning imlosini tushuntiring.
7. Bo‘g‘in ko‘chirish qoidalari haqida nimalarni bilasiz?
8. Tildagi orfoepik va orfografik me’yorlarning o‘zaro mos kelmaslik hollari haqida nimalarni bilasiz?
9. Bosh harflarning ishlatilish qoidalarini tushuntiring.

3.3. Orfoepiya

1-§. Orfoepiya haqida umumiy ma’lumot. Orfoepiya (yunoncha orthos - "to‘g‘ri" epos-"nutq" demakdir) adabiy talaffuz qoidalari to‘plami bo‘lib, u milliy til doirasida yagona talaffuz me’yorini belgilaydi. Shunga ko‘ra, orfoepiya adabiy tilning og‘zaki shakli bilan bevosita bog‘liqdir.

O‘zbek milliy tilining tarkibi nihoyatda rang-barang va murakkab bo‘lib, u o‘zida uchta yirik lahjani birlashtiradi. Bu lahjalardagi so‘zlar talaffuzi o‘ziga xos fonetik, leksik va morfologik belgilari bilan farqlanadi: 1) qipchoq lahjasida so‘z boshida adabiy tildagi *y* undoshi o‘rnida *j* talaffuz qilinadi: *yo‘q //jo‘q, yigit//jigit*; adabiy tildagi *g‘* o‘rnida *v*

undoshi aytiladi: *tog‘//tov sog‘//sov*; so‘z oxirida *k, q* undoshlari tushiriladi: *kichik//kichchi, qattiq//qatti*; 2) o‘g‘uz lahjasida esa so‘z boshida keladigan *t, k* jarangsiz undoshlari *d, g* tarzida talaffuz qilinadi: *tog‘//dag‘, kel//gal* kabi; 3) qarluq - chigil - uyg‘ur lahjasining o‘ziga xos fonetik xususiyatlari so‘z oxiridagi *q* undoshning *g‘* tarzida aytilishi, ba’zan tushirilishida kuzatiladi: *qovoq//qovog‘,* shuningdek, bu lahjada *a* unlisining *o* tovushiga o‘zgartirilishi ham kuzatiladi: *aka//oka* kabi.

O‘zbek lahjalaridagi bu kabi lahjaviy xilma-xilliklar, shubhasiz, adabiy tilning talaffuz me’yoriga ham o‘zining ta’sirini ko‘rsatadi. Ana shunday nutqiy tafovutlarni bartaraf etish, lahjalardagi eng maqsadga muvofiq so‘z shakllarini tanlagan holda qoidalashtirish orfoepiyaning muhim vazifalaridandir.

Albatta, orfoepiya boshqa tillardan o‘zlashtirilgan so‘zlar talaffuzini ham qamrab oladi. Xususan, o‘zlashma so‘zlarning orfoepiya qonun-qoidalariga mos ravishda talaffuz qilinishi qoidalashtirilgan. Masalan, *fabrika, fakt* so‘zlari *pabrika, pakt* tarzda aytilsa ham, ular asliga muvofiq talaffuz qilinishi lozim.

Adabiy talaffuz me’yorlari tilning tovush tizimi asosida yaratiladi. Bu esa orfoepik me’yorlarni belgilashda tovush tizimi, uning nutqiy jarayonda turlicha o‘zgarishini hisobga olishni taqozo etadi.

2-§. Ayrim unli va undoshlar orfoepiyasi 1. *I* unlisi *atir, ayrim, bilan* kabi so‘zlarda qisqa, *biyron, siyrak* kabi so‘zlar tarkibida *y* undoshdan avval kelganda o‘ta cho‘ziq; *qirq, qir, qiz,* kabi so‘zlar tarkibida qattiq *i* tarzida talaffuz qilinadi. Ayrim so‘zlarda *i* o‘ta qisqa talaffuz qilinib tushiriladi: *qobiliyat//qobilyat, quyidagi //quydagi; azm, adl, ayol* so‘zlari talaffuzida esa orttiriladi, biroq yozilmaydi.

2. *U* unlisi, *buvi, buloq* so‘zlarida qisqa; *xusumat, quvvat* kabi so‘zlarda esa cho‘ziq talaffuz qilinadi*; gul, guvoh, kuyov* kabi so‘zlarda yumshoq*; qum, qurol, g‘ussa* kabi so‘zlarda esa qattiq talaffuz qilinadi. Ko‘rinadiki, unlilarning qattiq yoki yumshoq talaffuz qilinishi ko‘p hollarda yonma-yon kelgan undoshning til oldi yoki orqa ekanligi bilan bevosita bog‘liq bo‘ladi. Xususan, *q, g‘, x* kabi til orqa undoshlari ishtirok etadigan so‘zlarda ular qattiq, boshqa undoshlar (til oldi, sayoz til orqa undoshlari) ishtirok etgan so‘zlarda esa yumshoq talaffuz etiladi. Qiyoslang: *qo‘pol, g‘o‘za, o‘rda, go‘dak, do‘l, jo‘yak, ko‘ngil.*

3. *B, v, g, d, z* undoshlari urg‘usiz bo‘g‘inda, so‘z oxirida jarangsiz undoshlar yonida kelganda jarangsizlashgan holda talaffuz qilinadi: *ketdi//ketti, kitob//kitop, zavod//zavot, barg//bark, aktiv//aktif, peshvoz//peshvos, izhor//ishor*.

4. *D, s, t, l, n, ch, sh, m* undoshlaridan oldin qo‘llangan chuqur til orqa, portlovchi *q* undoshi *x* tarzida talaffuz qilinadi: *naqd//naxt, maqsad//maxsat, vaqt//vaxt, baliqchi//balixchi, oqsoq/oxsog‘, nuqson// nuxson, qaqshamoq //qaxshamoq, cho‘qmor//cho‘xmor.*

5. *K, g, ng* undoshlari oldida kelgan *n* sonori *ng, ng‘* tarzida aytiladi: *ko‘lanka//ko‘langka, ko‘tarinki//ko‘taringki, dengiz//dengngiz, nonko‘r// nongko‘r,yong‘oq//yongngoq//yongg‘oq, to‘ng‘illamoq//to‘ng‘g‘ilamoq*.

6. Ikki unli yonma-yon kelgan so‘zlarda ko‘pincha *y* undoshi orttiriladi:*oila// oyila, shoir//shoyir, rais/rayis, radio//radiyo kabi.*

3-§. Ayrim grammatik shakllar orfoepiyasi 1.Tushum kelishik affiksi talaffuzda *-di, -ti, -zi, -ri* kabi fonetik variantlarga ega bo‘ladi: *otni//otti, toshni//toshti, gulni//guldi, gapni//gapti//gappi, tuzdi//tuzzi.*

2. *Men, sen* olmoshlariga *-ning, -ni, -niki* affikslari qo‘shilganda qo‘shimcha tarkibidagi bitta *n* undoshi tushiriladi va shunday yoziladi : *mening, seni, meniki.*

3. *U, bu, shu, o‘sha* kabi olmoshlarga *-ga,-da,-dan,-day,-cha* affikslari qo‘shilganda *n* undoshi orttirilib talaffuz qilinadi va shunday yoziladi: *unga, unda, bundan, shundan, shunday, o‘shancha* kabi.

4. Oxiri z undoshi bilan tugaydigan sonlarga dona son yasovchi *-ta* affiksi qo‘shilganda *z* undoshi *s* tarzida talaffuz qilinadi: *to‘qqizta //*

to‘qqista, o‘ttizta // o‘ttista; oxiri *z, sh* bilan tugaydigan otlarga *-siz* sifat yasovchi qo‘shilganda ham bu undoshlar *s* tarzida talaffuz etiladi: *boshsiz//bossiz, izsiz//issiz, ovozsiz//ovossiz;* bunday holni oxiri *z* bilan tugaydigan ba’zi so‘zlarga ot yasovchi - *chi* affiksi qo‘shilganda ham kuzatish mumkin: *zakazchi//zakaschi, arazchi//araschi, taqrizchi// taqrischi* kabi.

5. Tarkibida - *n, -in, -lan* affiksi bo‘lgan so‘zlarga *-la* affikslari qo‘shilganda *-n, - in, -lan* affikslari oxiridagi *n* undosh *m* tarzida talaffuz qilinadi: *kiyinmoqda//kiyimmoqda, burkanmoqda//burkammoqda, ovqatlandi// ovqallandi.*

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Orfoepiya nimani o‘rganadi?
2. I, u, a, o‘, e, o unlilari bilan bog‘liq talaffuzdagi o‘zgarishlarni misollar asosida tushuntiring.
3. Kelishik affikslari orfoepiyasiga doir nimalarni bilasiz?
4. So‘z oxirida keladigan jarangli undoshlarning talaffuzda jarangsizlanishiga doir misolar keltirib tushuntiring.
5. Turli grammatik shakllarning talaffuzda fonetik o‘zgarishlariga doir namunallar keltirib, sabablarini izohlang.

ZARURIY ADABIYOTLAR

1. Ш. Шоабдураќмонов, М.Асљарова, А.Ќожиев, И.Расулов, Х.Дониёров Ќозирги њзбек адабий тили. Т., «Њљитувчи» 1980.

2. У.Турсунов, Ж.Мухторов, Ш.Раќматуллаев Ќозирги њзбек адабий тили. Т., «Њљитувчи» 1992.

3. А.Нурмонов Њзбек тили фонологияси ва морфонологияси. Т., «Њљитувчи» 1990.

4. А.Абдуазизов Њзбек тили фонологияси ва морфонологияси. Т., «Њљитувчи» 1992.

5. Ђ. Абдураќмонов, Ќ.Расулов Она тили 10-11-синфлар учун дарслик. Т., «Њљитувчи» 1995.

6. Њзбек тилининг асосий имло љоидалари. Т., «Њљитувчи» 1995.

4-MA'RUZA

4.1. Leksikologiya

1-§. Leksikologiya va uning asosiy vazifalari.Tildagi so'zlarning jami uning leksikasini, ya'ni lug'at boyligini tashkil etadi.

Leksikologiya (yunoncha lexikos-lug‘atga oid va logos-ta’limot) tilshunoslikning lug‘aviy birliklar tarkibini tekshiradigan bo‘limidir.

Tilning lug‘at tarkibi va uni tashkil etuvchi so‘zlar bir qator umumiyliklarga ega. Ular quyidagilarda ko‘zga tashlanadi:1) tildagi so‘zlar muayyan ma’no ifodalash xususiyatiga ega bo‘ladi. So‘zning ma’no xususiyatlari leksikologiyaning s**emosiologiya** bo‘limida o‘rganiladi; 2) har qaday tilning taraqqiyoti jarayonida yuz beradigan o‘zgarishlar avvalo uning leksikasida o‘z aksini topadi. Chunki til jamiyat taraqqiyoti davomida yangi-yangi so‘zlar hisobiga boyib boradi, ayni paytda ba’zi so‘zlar eskiradi va iste’moldan chiqadi; 3) tilning lug‘at tarkbidagi so‘zlar iste’mol darajasiga ko‘ra chegaralangan yoki chegaralanmaganligi bilan ham farqlanadi. Xususan, ba’zi so‘zlar umumxalq iste’molida bo‘lsa (*ota, ona, yurmoq, men, sen),* ayrim so‘zlaning iste’mol darajasi chegaralangan bo‘ladi. Masalan, shevaga oid so‘zlarning hududiy chegaralanishi, shular jumlasidandir; 4) so‘zlar nutq uslubiga bo‘lgan munosabatiga ko‘ra ham farqlanadi. Jumladan, ba’zi so‘zlar uslubiy betaraf bo‘lsa, ba’zilari esa nutq uslubining ma’lum turiga mansubligi bilan farqlanadi; 5) har bir so‘z tovush qiyofasi va ma’noga, ya’ni shakl va mazmunga ega. Shunga ko‘ra, so‘zlar omonim, paronim, sinonim, antonim munosabatlarni

yuzaga keltiradi.Tilning eng muhim birliklaridan bo‘lgan so‘zlarga xos bu umumiyliklar leksikologiyaning asosiy tekshirish ob’yektidir.

2-§.So‘z va uning belgilari. So‘z tilning muhim unsurlaridan biri bo‘lib, ma’lum ma’no doirasida birlashgan tovush va tovushlar majmuyidan tashkil topadi. Biroq har qanday tovushlar birligi so‘z yoki uning ma’nosini shakllantira olmaydi. Masalan, *olma* so‘zidagi tovushlar birligi meva tushunchasini ifodalagan holda, shu so‘zdagi tovushlarning *mloa, oalm* shaklidagi yig‘indisi hech qanday ma’noga ega emas. Ayni paytda, tovushlarning bunday birligini so‘z deyish ham mumkin emas. Shunday ekan, har qanday tovush va tovushlar yig‘indisi ma’no ifodalovchi vosita sifatida emas, ma’no tovush va tovushlar majmuyini shakllantiruvchi vosita sifatida muhim ahamiyatga egadir. Muayyan ma’noning tovush yoki tovushlar birligi vositasida belgilanishi esa so‘zni shakllantiradi. So‘zning tovush tarkibida o‘zgarish yuz bersa ham ba’zan ma’no saqlanishi mumkin. Lekin bu hodisa birdaniga emas, tilning uzoq asrlik tarixiy taraqqiyoti davomida ro‘y beradi. Masalan *o‘grat-o‘rgat, yog‘mir-yomg‘ir, qo‘nshi-qo‘shni* kabi so‘zlar tarkibidagi metateza hodisasi ana shunday uzoq asrlik tarixiy taraqqiyot mahsulidir. Biroq bunday tarixiy o‘zgarish so‘z ma’nosining yo‘qolishiga olib kelmaydi. Ba’zan bunday tarixiy

o‘zgarishlar tilda yangi ma’no tashuvchi belgining, ya’ni yangi so‘zning shakllanishiga ham olib kelishi mumkin. Jumladan, *arch, yoy, ko‘r* so‘zlari tarkibida yuz bergan tarixiy fonetik o‘zgarishlar tufayli, mazkur so‘zlarda o‘ziga xos ma’no parchalanishi yuz bergan va ularning har biri hozirgi tilda alohida tushuncha ifodalovchi so‘zlar sifatida shakllangan: *arch-art, yoy-yoz, ko‘r-ko‘z*. Bundan tashqari tilda shunday so‘zlar ham borki, ular fonetik tarkibiga ko‘ra bir xil (omonim), biroq ma’no jihatdan har xil. Bunday so‘zlarda yashiringan ma’no faqat nutq jarayonida, ya’ni boshqa so‘zlar qurshovidagina anglashiladi.

So‘zning ikkinchi muhim belgisi uning ma’no ifoda etish va saqlash xususiyati orqali namoyon bo‘ladi. Lekin ular ifodalaydigan ma’nolar bir xil emas. Chunki so‘z ifodalaydigan ma’no eng umumiy xususiyati bilan ham turli tiplarga bo‘linadi. Jumladan, ayrim so‘zlar ob’yektiv borliqdagi narsa-hodisa, belgi, qiymat, harakat kabilarni, ba’zilari esa so‘zlovchining his-hayajonini, voqelikka munosabatini bildiradi, ba’zan esa faqat grammatik ma’no ifodalaydi. Biroq ular qanday ma’no ifodalashidan qat’iy nazar, so‘z hisoblanadi.

So‘zning ob’yektiv borliqdagi narsa, belgi, harakat kabilar haqidagi ma’lumoti **leksik ma’no** deyiladi. Masalan, *anor, tosh* so‘zlarining narsa haqida ma’lumot berishi, *qattiq, shirin* so‘zlarining belgi haqida

ma’lumot berishi shular jumlasidandir. Demak, so‘z borliqdagi narsa, belgi, harakat kabilarning atamasi – nomi bo‘lishi yoki aksincha bunday xususiyatga ega bo‘lmasligi mumkin. Shunga ko‘ra ular mustaqil va yordamchi so‘zlar turkumlariga ajratiladi. Tildagi mustaqil so‘zlargina leksik(lug‘aviy) ma’noga ega bo‘ladi va ular leksikologiyaning asosiy o‘rganish manbai hisoblanadi. So‘zning borliqdagi narsa, belgi, harakat kabilarni atash, nomlash xususiyati esa uning **nominativ funksiyasi** deyiladi.

3-§. Monosemantik va polisemantik so‘zlar. Tildagi so‘zlar bir va birdan ortiq ma’noga ega bo‘lishi mumkin. Bir ma’nolilik hodisasi monosemiya, ko‘p ma’nolilik hodisasi esa polisemiya deb yuritiladi. Masalan, *marmar, g‘oya, xulosa, taassurot* kabi so‘zlar va ilm - fan sohalariga doir atamalar bir ma’noli so‘zlardir. O‘z va ko‘chma ma’nolari tufayli ikki yoki undan ortiq ma’noga ega bo‘lgan so‘zlar esa **ko‘p ma’noli (polisemantik**) so‘zlar deyiladi. Masalan: *etak - choponning etagi, tog‘ning etagi.*

Tilshunoslikda so‘zning ko‘p ma’nolilik xususiyatini o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki ko‘p ma’noli so‘zlar turli usullar vositasida ma’no ko‘chishi orqali o‘z ma’nosidan boshqa ma’nolar ifodalagan holda tilning ifoda imkoniyatlarini boyishida muhim

ahamiyat kasb etadi. Demak, ko‘p ma’noli so‘zlar o‘z ma’nosidan tashqari ko‘chma ma’nolarga ham ega bo‘ladi. So‘zning nutqdan tashqarida, ya’ni tilda ifodalagan ma’nosi **o‘z ma’nosi** deb ataladi. Masalan, *ko‘z, etak* so‘zlari yakka holda ishlatilganda uning asl, ya’ni o‘z ma’nosi anglashiladi.

So‘zning gap ichida, ya’ni nutqdagi o‘z ma’nosidan boshqacharoq mazmun ifodalashi uning **ko‘chma ma’nosi** deb yuritiladi. Masalan, *ishning ko‘zi, tog‘ning etagi* kabi birikmalar tarkibida ko‘z va etak so‘zlari ko‘chma ma’noda qo‘llangan.

4-§.So‘zning ma’no ko‘chish usullari. O‘zbek tilida polisemantik so‘zlar ma’no ko‘chishning to‘rt xil usuli mavjud: 1) metafora; 2) metonimiya; 3) sinekdoxa; 4) vazifadoshlik.

Metafora (yunoncha «ko‘chirma» so‘zidan olingan) biror narsa, belgi yoki harakatning nomi o‘zaro o‘xshashligi bo‘lgan boshqa narsa, belgi yoki harakatga ko‘chishidir. Masalan: *U tarozining ikki **pallasini** ko‘zdan kechirdi* (I.Rahim). *Yormat tarvuzni kesdi. Bir **pallasini** o‘zi olib, ikkinchi pallasini Yo‘lchi va O‘roz oldiga qo‘ydi (*Oybek). Birinchi misoldagi *palla* so‘zining o‘z ma’nosi taroziga nisbatan qo‘llaniladi. Uning tashqi ko‘rinishiga ko‘ra o‘xshashligi ikkinchi misolda tarvuz bo‘laklariga nisbatan ham qo‘llanishga sabab bo‘lgan.

Metafora asosida nom ko‘chish aniq narsalar doirasida bo‘lganda ular o‘rtasidagi o‘xshashlikni ilg‘ash uncha qiyin bo‘lmaydi. Mavhum narsalar doirasida esa bu bir oz qiyin kechadi: *Bir qarichlikdan dutorni sevaman. Bir* ***qo‘shni*** *kelinchakdan o‘rgangan edim* (Oybek). *Yigit yalt etib* ***qo‘shni*** *dalaga qaradi, u yerda xotin-xalajlar, bola-chaqalar*

chuvillashib paxta terishayotgan edi (M.Ismoiliy).

Metafora asosida nom ko‘chish birgina narsa nomi bo‘lgan otlarga daxldor bo‘lmay, boshqa turkumga mansub so‘zlarda ham uchraydi. Masalan: *taqir cho‘l- taqir bosh, taqir sholcha; o‘tkir pichoq-o‘tkir hid, o‘tkir odam* kabi sifatlar; *dalalarda qushlar uchadi – uning jahldan lablari pir-pir uchardi* kabi fe’llarda ham metafora asosida ma’no ko‘chishi uchraydi.

Metonimiya (yunoncha «qayta nomlash», «nomini almashtirish») narsa yoki hodisalarning makon va zamonda o‘zaro bog‘liqligi, doimiy aloqadorligi asosida birining nomi ikkinchisiga ko‘chishidir. Bunda narsa, harakat va belgi o‘rtasidagi o‘zaro o‘xshashlik emas, balki doimiy aloqadorlikning mavjudligi birining nomini aytganda ikkinchisini anglash, nazarda tutish imkonini beradi. Metonimiya asosida nom ko‘chishda narsalar (otlar) o‘rtasidagi quyidagicha uzviy aloqadorliklar

asos bo‘lishi mumkin: 1) narsa yasalgan materialning umumiy aloqadorligi asosida uning nomi boshqa narsaga ko‘chadi: *Moyi tugab* ***piligi*** *so‘xta bo‘lgan chiroq bir lip etib so‘ndi (S.Ahmad). Sochini mayda o‘rib uchiga* ***pilik*** *taqqan edi (S.Ahmad);* 2) narsalarning o‘ziga xos harakat-holati, xususiyati jihatdan umumiy aloqadorligi asosida uning nomi boshqa narsaga ko‘chadi: ***beshik****-maktab ta’lim va tarbiya beshigidir*, *qaldirg‘och-litseyimiz qaldirg‘ochlari*; 3) o‘rinning unda joylashgan narsa bilan doimiy aloqadorligi asosida uning nomi boshqa narsaga ko‘chadi: ***kosa, qoshiq, tovoq***-ovqat, ***zal-****zal kulib yubordi*, ***sinf-*** *sinf oyoqqa qalqdi* ma’nolarida ishlatiladi; 4) harakat-hodisaning nomi shu harakat-hodisaning bajarilgan vaqtiga ko‘chiriladi: *Machitdan shom* ***azoni*** *eshitildi*…(Sh.Toshmatov). ***Azonga*** *yaqin bir iloj qilib qochibdi* (P.Tursun); 5) narsaning nomi shu narsaga xos bo‘lgan belgi aloqadorligi asosida ko‘chadi: ***tulki****-ayyor, mug‘ombir odam,* ***iflos-*** *betayin, jirkanch kishi*; 6) harakat, o‘yin obyekti shu o‘yinning nomi sifatida ko‘chadi: ***uloq****-uloq chopmoq* va boshqalar.

Sifat va fe’l turkumiga mansub so‘zlar doirasida ham metonimiya hodisasi mavjud bo‘lib, ularda ko‘chma ma’no belgining yoki harakatning aloqadorligiga asoslanadi. Masalan: ***qisqa yo‘l*** *- qisqa nutq,*

qisqa ovoz, ***beg‘ubor osmon****-beg‘ubor odam, beg‘ubor ko‘ngil*; ***bola boqmoq****-kishini hunar boqadi, bog‘ni boqsang bog‘ bo‘lur.*

Sinekdoxa narsa va hodisaning nomi bilan uning qismini atash yoki qismining nomi bilan shu qism mansub bo‘lgan butunni atash orqali yangi ma’no hosil qilish usulidir. Masalan: *Tirnoq* so‘zining *farzand* ma’nosida ishlatilishi (*U tirnoqqa* zor *edi*) qism nomi bilan butunni ifodalashnishidir. *Qo‘l* so‘zi bilan uning bir qismini, ya’ni barmoqning atalishi esa (*Qo‘liga uzuk taqdi*) butun nomi bilan qismning nomlanishidir. Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarning quyidagi gaplardagi ma’nolariga e’tibor bering: *Rux samovar. Egamberdi, Sen darrov o‘t sol! (A.Qodiriy) Mirzo kechqurun* ***samovarga*** *chiqdi, ikkita choy ichdi (A.Qahhor). Devorlarda Tamara o‘z qo‘li bilan tikkan* ***kashtalar*** *osilgan edi (M.Muhammedov). U yenglariga chiroyli qizil* ***kashtalar*** *tikilgan ukraincha oq shoyi kofta kiygan edi (P.Tursun).*

Vazifadoshlik narsa va hodisalarning bajaradigan vazifasidagi birlik, o‘xshashlik asosida nom ko‘chishidir. Masalan, *chiroq* so‘zi o‘tmishda moy shimdirilgan pilik yordamida yorug‘lik beruvchi moslamani anglatgan. Hozirda esa elektor yoritgichlar ham chiroq deb yuritiladi. Yoki tarixan qamish yoki patdan yasalgan yozuv quroli qalam deb atalgan. Hozir esa grafitli maxsus yasalgan yozuv quroli ham shu nom

bilan yuritiladi. Vazifadoshlik asosida nom ko‘chish so‘zning ko‘p asrlik tarixiy taraqqiyoti bilan bog‘liq bo‘lgani uchun ma’no ko‘chishning boshqa usullariga nisbatan ancha kam uchraydi.

Ko‘p ma’noli so‘zlarning yuzaga kelishida polisemantik so‘z va yasovchi affikslarning ham alohida o‘rni bor. Masalan, *tuzsiz taom, tuzsiz gap* birikmalari tarkibidagi *-siz* ko‘p ma’noli affiksi va o‘zak birligi ko‘p ma’noli so‘zning yuzaga kelishida muhim rol o‘ynagan. Polisemantik so‘zlar, qancha ma’noga ega bo‘lmasin, bu ma’nolar o‘zaro bog‘langan bo‘ladi. Agar ular o‘rtasidagi ma’no bog‘liqlik davrlar o‘tishi bilan uzilib qolsa, u holda bunday so‘zlar o‘zaro omonimga aylanadi. Masalan, *gap*-fikr, mulohaza; *gap*-tengdoshlar, hamkasblar yig‘ini, ziyofati; *ko‘k*-rang, *ko‘k*-osmon kabilar. Keltirilgan misollarda ma’no bog‘liqlikni ilg‘ab olish ancha qiyin. Shunga ko‘ra, aytish mumkinki, polisemantik so‘zlar bir xil fonetik qobiqqa ega bo‘lgan so‘zlar takrori nuqtai nazaridan omonimlarga o‘xshasa ham, ko‘p ma’nolilik, avvalo bir turkum doirasida yuzaga kelishi, ular qancha ma’noga ega bo‘lmasin, o‘zaro bog‘liq bo‘lishi bilan omonimlardan farqlanadi. Ko‘p ma’noli so‘zlarning o‘z va ko‘chma ma’nolari, odatda, izohli lug‘atlarda, shakldosh so‘zlar esa omonim so‘zlarning izohli lug‘atida beriladi.

4.2. So‘zlarning shakl va ma’no munosabatiga ko‘ra turlari

Tildagi so‘zlarning ma’lum qismi shakl yoki ma’nosiga ko‘ra o‘zaro aloqador butunliklarni tashkil etadi. Bunday butunliklardagi so‘zlar ana shu xususiyatlariga ko‘ra ikki guruhni tashkil qiladi: 1) omonimlar, omoshakllar, omofonlar, omograflar va paronimlar shakliga ko‘ra; 2) sinonimlar, antonimlar esa o‘zaro mazmun uzviyligi yoki zidligiga ko‘ra alohida guruhga mansub bo‘ladi.

1-§. Omonimlar yunoncha *homos-bir xil, onoma-nom* so‘zlaridan olingan bo‘lib, talaffuzi va yozilishi bir xil, ammo alohida ma’nolarga ega bo‘lgan so‘zlardir. Bunday so‘zlar **leksik omonimlar** deyiladi. Masalan: *kuya* - hasharot, *kuya* - qozonning kuyasi. Omonimlar bir va bir necha turkumga mansub bo‘lishi mumkin. Masalan: *chang* - gard va cholg‘u asbobi ma’nolari bilan ot turkumiga mansub; *o‘t*-olov, ko‘kat kabi ma’nolari bilan ot so‘z turkumiga mansub, *o‘t* - fe’lining buyruq-istak mayli ekanligi kabilar shular jumlasidandir.

Bir xil so‘z turkumiga mansub omonimlar turli grammatik qo‘shimchalar bilan shakllanganda ham ularda omonimlik saqlanib qoladi. Masalan: *ot* - ism va uy hayvoni ma’nolaridagi omonim so‘zlarga egalik, kelishik, ko‘plik qo‘shimchalarini qo‘shish bilan

omonimlikning saqlanib qolganini ko‘rish mumkin: *otlar, otning, otlarim.* Bunday omonimlarni mutlaq omonim so‘zlar deb atash mumkin.

Omonimlarni vujudgaga keltiruvchi hodisalar turlicha bo‘lib, ularning asosiylari qo‘yidagilardir:

1. O‘z qatlamga mansub bo‘lgan ba’zi so‘zlar tarixan fonetik tuzilishi har xil bo‘lsa ham talaffuzda shakldoshlik kasb etishi asosida omonimlarga aylanadi: *ot* (ism) - *ot* (hayvon) - *ot* (harakat); *o‘t* (o‘t-o‘lan) - *o‘t* (olov) - *o‘t* (harakat) kabi omonim so‘zlardagi *o* va *o‘* unlilari tarixan o‘zining til oldi va til orqa shakllariga (allafonlariga) ega bo‘lgan. Biroq, hozirgi adabiy tilda ular farqlanmaydi.

2. Ko‘p ma’noli so‘zlar o‘rtasidagi ma’no bog‘lanishning uzilishi, zaiflashishi asosida ham omonimlar shakllanadi. Masalan, *ko‘k* so‘zi, dastlab, *ko‘k* rang (sifat) tushunchasiga ega bo‘lgan. Keyinchalik bu so‘z metafora (o‘xshashlik) asosida osmon tushunchasiga nisbatan ham ishlatila boshlagan. Hozir ular o‘rtasidagi bunday ma’no bog‘lanish yo‘qolib, omonim so‘z hosil bo‘lgan. Xuddi shunday holatni *dam* so‘zining nafas, hordiq, harorat, bosqon ma’nolarida ishlatilishi misolida ham kuzatish mumkin.

3.Umumturkiy yoki asl o‘zbekcha so‘zlar o‘zga tillardan so‘z o‘zlashtirish asosida ham shakldoshlikka ega bo‘lib qolishi mumkin. Masalan, *bog‘* (mevazor) va *bog‘* (bog‘langan narsa, beda bog‘i); *tok* (uzum novdasi) va *tok* (elektor toki), *tom* (uy tomi) va *tom* (kitob jildi) so‘zlari o‘zbekcha-tojikcha hamda o‘zbekcha-rus va yevropa tillaridan o‘zlashgan so‘zlarning o‘xshash fonetik qiyofasi asosida yuzaga kelgan omonim so‘zlardir.

4. Ma’lum bir so‘zning o‘zak-negizidan qo‘shimchalar orqali yangi so‘zlar yasalishi natijasida shakldosh so‘zlar hosil bo‘ladi. Masalan: *oylik olmoq, oylik reja* birikmalaridagi oylik so‘ziga qo‘shilgan –lik qo‘shimchasi asosida shakldosh so‘z hosil bo‘lgan.

Ba’zan shakldoshlik nisbiy bo‘lib, so‘zlarning ma’nolari har xil bo‘lgani holda aytilishi bir xil, ammo yozilishida bir oz farq bo‘lishi yoki ba’zan ma’noli qismlarigina shakldosh bo‘lsa ham, grammatik ma’nosi o‘zgacha bo‘lishi mumkin. Shunga ko‘ra shakldosh so‘zlarning uch xil turi farqlanadi: 1) omoshakllar, 2) omofonlar,3) omograflar.

2-§.Omoformalar ma’nolari har xil bo‘lib, ba’zi grammatik shakllariga ko‘ra bir xillikka ega bo‘ladigan shakldosh so‘zdir. Omoformalar ayni bir so‘z turkumiga ham, boshqa-boshqa so‘z turkumlariga ham mansub bo‘lishi mumkin. Masalan, *oqar* (oq tusga

kir) - buyruq fe'li, II shaxs birlik; *oqar* ("oqadigan") fe'lning kelasi zamon sifatdosh shakli; *yoz* - ot, bosh kelishik shaklida, *yoz* - II shaxs birlikdagi buyruq fe'li va boshqalar.

Bu so‘zlarga boshqa grammatik qo‘shimchalar qo‘shilganda bir-birlaridan tamomila ajralib, omonimlik yo‘qoladi. Masalan: *oqaray, oqarsin - oqaradi, oqarsan; yozning, yozni, yozga, yozda, yozdan - yozay, yozgin, yozsin* kabi holatlarda omonimlik mavjud emas.

3-§.Omofonlar fonetik tarkibi ma'lum tovush bilan farqlanadigan, lekin talaffuzda shakldosh bo‘lib qoladigan so‘zlardir. Omofonlardagi o‘zaro farq ular tarkibidagi bitta fonemada bo‘ladi va ular, asosan, jarangli va jarangsiz juftliklar va hosil bo‘lish o‘rniga ko‘ra yaqin bo‘lgan tovushlarning talaffuzda bir xillik kasb etishida ko‘zga tashlanadi. Masalan, *sud - sut, tanbur - tambur, tub-tup , yetdi - yetti* kabi so‘zlar talaffuzi omofonlarni yuzaga keltiradi.

4-§.Omograflar yozilishi bir xil bo‘lgan shakldosh so‘zlardir. Omograflar ma'nosi va fonetik tarkibi, talaffuzi jihatidan boshqa - boshqa, faqat yozilish shakli jihatdan bir xil bo‘lgan so‘zlardir. Masalan, *tol* - daraxt, qurilish jihozi, *tok* - elektr quvvati, uzum novdasi, *to‘r* - xonaning yuqori qismi, parda kabi ma'nolarga ega bo‘lgan so‘zlardagi *o, o‘* tovushlari talaffuzda qattiq va yumshoqligi bilan farqlanadi, biroq

yozilishiga ko‘ra shakldoshlikka ega bo‘ladi. Xullas, talaffuzi va yozilishi bir xil bo‘lgan bunday shakldosh so‘zlarni o‘zak va grammatik qo‘shimchalarining bir xilligi, bir turkumga mansubligi e’tibori bilan omograflar qatoriga qo‘shish mumkin. Tildagi bu kabi shakldoshliklar so‘z o‘yini sifatida tuyuq, askiya san’atlarida asosiy o‘rin tutadi.

5-§. Paronimlar. Paronimlar so‘zlar yunoncha *para-juft va onoma-nom* so‘zlaridan olingan bo‘lib, fonetik tarkibi va ma’nosi boshqa-boshqa biroq talaffuz jarayonida o‘xshash, yaqin bo‘lgan so‘zlardir. Demak, paronimlar birdan ortiq so‘zning shakliy o‘xshashligiga asoslanadi va bu hodisa ko‘pincha so‘zlarni adabiy normada to‘g‘ri talaffuz etmaslik, adabiy normaning buzilishiga ham olib keladi. Masalan, *fakt - pakt, afzal - abzal* so‘zlari f undoshining p, b tarzda talaffuzi asosida yuzaga kelgan paronimlar bo‘lib, ular aslida fonetik tarkibi va ma’no jihatdan farqlanuvchi so‘zlardir: *fakt* - dalil, isbot, *pakt* - davlatlar o‘rtasidagi shartnoma, kelishuv hujjati ma’nosidagi so‘z; *afzal* - qulay, ma’qul *abzal* esa ot va boshqa ulov anjomi, to‘qim va boshqa jihozlarning umumiy nomidir. Xuddi shuningdek, paronimlik holatni *amr-amir, zirak - ziyrak, jayron-jiyron, yondosh - yondash, quyilmoq - quyulmoq* so‘zlari misolida ko‘rish mumkin.

Paronimlar tub yoki yasama so‘zlardan tarkib topgan bo‘lishi mumkin. Masalan, *fakt-pakt*, *burj-burch* kabilar tub so‘zlar asosida shakllangan paronimlardir. Yasama so‘zdan esa bir o‘zaklardan bir xil qo‘shimchaning fonetik variantlarini qo‘shish asosida hosil bo‘ladi: *yoriq-yorug‘, qurit-qurut, oqlik-oqliq, otalik-otaliq*. Paronim so‘zlar o‘z va o‘zlashma so‘zlar asosida vujudga kelishi mumkin: *aro-oro* (o‘zbek va fors-tojik), *burch-burj* (o‘zb. va arab). Paronimlar ham antonimlar singari har doim juft so‘z shaklida tuziladi, biroq ular bir xil va har xil so‘z turkumlariga mansub bo‘lishi mumkin.

Paronimiya ba’zi til hodisalariga yaqin bo‘lib, ulardan quyidagi xususiyatlari bilan farqlanadi:

1.Paronimlar so‘z variantlari (leksik dubletlar) bilan yondosh hodisadir. Ular ham ayrim tovush orqaligina farqlanib, talaffuz o‘xshashligiga ega bo‘ladi. Shu bois ba’zan paronimlar mazkur hodisa bilan chalkashtirilishi mumkin. Masalan, adabiy tildagi *tomosha* so‘zining ba’zan *tomosho, tamosho* tarzda ikki xil variantda fonetik jihatdan buzib ishlatilishi orqali uning talaffuz dubleti hosil bo‘ladi. Shuningdek, ayrim so‘zlarning turlicha variantlarda ishlatilishi adabiy me’yor sifatida qabul qilingan: *gado-gadoy, demak-demoq, obro‘-obro‘y, nogoh-nogah, yiqilabermoq-yiqilavermoq* kabi juftliklar, shular

jumlasidandir. Xullas, tilshunoslikda variantlilik, so‘z variantlari va leksik dubletlar kabi turlicha terminlar asosida nomlangan bu hodisa, paronimlardan farqli ravishda, bitta so‘zning og‘zaki va yozma nutqda turlicha shakllarda qo‘llanishidir.

2.Paronimlar bilan yondosh hodisalardan yana biri omofonlardir. Bu ikki hodisaning asosiy o‘xshash va farqli tomonlari quyidagilarda ko‘zga tashlanadi: a) monosillabik (bir bo‘g‘inli) o‘zlashma so‘zlardan tarkib topgan ba’zi paronimlardagi undoshlarning talaffuz o‘rni va usuliga ko‘ra bir xilligi ularni omofonlarga yaqinlashtiradi. Masalan: *burch-burj, dars-darz, qars-qarz*. Biroq aksariyat paronimlarda bunday undoshlar jarangli-jarangsiz juftlik bo‘lmay, hosil bo‘lishi o‘rniga ko‘ra o‘xshashlikka asoslanadi. Masalan *fakt-pakt, abzal-afzal*. Omofonlarda esa artikulyatsiya o‘rni va usuliga ko‘ra bir xil bo‘lgan undoshlar har doim so‘z oxirida uchraydi va talaffuzda aynan ana shu juftliklar omofonlikni yuzaga keltiradi. Masalan: *top-tob tub-tup, mard-mart, yod-yot* kabilar shular jumlasidandir; b) ko‘p bo‘g‘inli so‘zlardan tarkib topgan paronimlarda esa paronim juftliklar o‘zaro noo‘xshash fonema vositasida ajralib turadi va shu jihatiga ko‘ra omofonlardan farqlanadi: *ahil-ahl, otalik- otaliq, yoriq-yorug‘, qurut-qurit* kabilar shular jumlasidandir.

6- §.Sinonimlar(yunoncha synonimon-bir xil nomli so‘zidan olingan**)** fonetik tarkibi har xil, ma’nolari bir xil yoki bir-biriga yaqin bo‘lgan so‘zlardir. Ma’nodoshlikning so‘zlar asosida yuzaga kelgan turi leksik (lug‘aviy) sinonimlar deyiladi. Masalan, *nomus - vijdon, dangasa - yalqov - ishyoqmas – tanbal* so‘zlari leksik sinonimlardir. Bunday so‘zlar, odatda, bir xil so‘z turkumiga mansub bo‘ladi. Ularning bir umumiy ma’no doirasida bog‘lanishi esa, **sinonimik qator** deb yuritiladi. Masalan, *vaqt - payt -zamon - fursat - mahal - chog‘ - kez - mavrid - palla - muddat - dam* so‘zlari o‘zaro sinonimik qator hosil qilgan. Sinonim qator tuzishda asos qilib olingan so‘z **dominanta** (bosh so‘z) deb yuritiladi. Dominanta odatda uslubiy jihatdan betaraf va umumiste’mol so‘zlaridan bo‘lib, sinonim so‘zlar lug‘atida birinchi o‘rinda beriladi. Masalan, *yuz - bet - aft - bashara - turq - chehra - oraz - ruxsor* sinonimik qatoridagi *yuz* so‘zi betaraf - dominanta bo‘lib, *aft, bashara turq* salbiy, *oraz, chehra, ruxsor* esa ijobiy munosabat ifodalash uchun xizmat qiladi.

Sinonimlarni yuzaga kelishida polisemantik so‘zlarning ishtiroki ham alohida ahamiyat kasb etadi. Xususan, polisemantik so‘z o‘zining har bir ma’nosi bilan boshqa - boshqa sinonim qatorda ishtirok etib, uni boyitadi. Masalan: *balo - falokat - ofat; balo - uddaburon - bilog‘on-*

ishbilarmon kabi ma’nodoshlik qatorida *balo* so‘zi o‘z va ko‘chma ma’nosi bilan ishtirok etgan.

Sinonim qatordagi so‘zlar quyidagi xususiyatlariga ko‘ra o‘zaro farqlanadi:

1.Sinonim qatordagi so‘zlar nutqning biror uslubiga xoslanganligi bilan ham o‘zaro farqlanadi. Masalan, *doim, hamisha, nuqul, birday* so‘zlari ko‘pincha so‘zlashuv uslubida, mazkur sinonim qatorga mansub bo‘lgan *yakkash, mudom* so‘zlari esa kitobiy uslubda ko‘proq ishlatilishi bilan boshqa ma’nodoshlardan farqlanadi.

2.Sinonimik qatordagi ba’zi so‘zlar hozirgi tilga nisbatan eskirgan bo‘lishi ham mumkin. Shuningdek, ulardan ba’zilari shevalarga xosligi bilan ham ajralib turadi. Masalan: *mard, jasur, botir, yovqur, jaysan.* Bu sinonimlardan *yovqur* so‘zi eskirganligi, *jaysan* esa tarixiy – dialektalligi bilan farqlanadi.

3.Sinonimik qatordagi so‘zlar o‘zaro adabiy tilga yoki shevaga xosligi bilan farqlanishi mumkin. Masalan, *qidirmoq, axtarmoq, izlamoq, istamoq* sinonimik qatoridagi istamoq so‘zi shevaga xosdir.

Sinonimlar fikrni aniq, maqsadga muvofiq tarzda ifodalash vositalari bo‘lib, xuddi mana shu omil ularni yuzaga kelishiga sabab bo‘ladi.

Sinonimlar yuzaga kelishi va ma’nolariga ko‘ra quyidagi turlarni tashkil qiladi:

1.**To‘liq (sof) sinonimlar.** Aynan bir tushunchani anglatish va nutq jarayonida biri o‘rnida ikkinchisini ishlatish mumkinligi bilan ajralib turadi. Ular ko‘pincha boshqa tillardan kirib kelgan o‘zlashma so‘zlarning o‘zbekcha so‘zlar bilan ma’nodoshligi asosida hosil bo‘ladi*:* *kuch* (o‘zb.) - *qudrat* (ar.), *ot* (o‘zb.) - *ism* (ar.), *ko‘klam* (o‘zb.)-*bahor* (toj.), *tuman* (o‘zb.)-*rayon* (rus). Shuningdek, *fazo-kosmos*, *muharrir-redaktor* kabi faqat o‘zlashma so‘zlardan tuzilgan sinonimlar ham to‘liq sinonimlardir.

2.Ma’noviy sinonimlar. Bir-biridan nozik ma’nolari ya’ni ijobiy, salbiyligi yoki uslubiy va boshqa jihatdan farqlanuvchi ma’nodosh so‘zlardan tashkil topadi. Masalan, *kuldi, jilmaydi, tirjaydi, iljaydi, ishshaydi* kabi ma’nodosh so‘zlar kulish harakatining darajasiga hamda ijobiy va salbiy bo‘yoqdorligiga ko‘ra *chiroyli, go‘zal, xushro‘y, ko‘hli, ko‘rkam, barno, suluv, zebo, latif* kabi sinonimlar esa ijobiy bo‘yog‘ining darajasiga ko‘ra farqlanadi.

3.Shartli sinonimlar. Muayyan matndagina ma’nodoshlikka ega bo‘ladigan sinonim so‘zlardir. Ular ko‘pincha she’riyatda kuchli his-tuyg‘u ifodalovchi vositalar sifatida qo‘llaniladi: *Nega kerak shu chiroy,*

shu o‘t, Shu yoniq yulduzni ko‘zga yashirmoq (H.O.) Parchadagi *chiroy, o‘t, yoniq yulduz* o‘zaro ma’nodosh so‘zlar sifatida ishlatilgan shartli sinonimlardir. Bunday sinonimlar mumtoz adabiyotda *qad-sarv, lab-la’l, yuz-oy, hilol* kabi tashbehlar asosida ham keng qo‘llaniladi.

Sinonimlar tuzilishiga ko‘ra a) sodda: *tez-chaqqon-ildam*; b) juft: *sog‘-salomat, el-yurt*; v) birikmali: *yuzi qora-beti qora-ori yo‘q* shaklida uchraydi.

Ayni paytda so‘zlar fraziologik birikmalar bilan ham ma’nodoshlik hosil qilishi mumkin. Masalan: *sevindi, boshi ko‘kka yetdi; xotirjam, ko‘ngli to‘q*. Bunday ma’nodoshlik **leksik-fraziologik sinonim** deyiladi.

Sinonimlarni deyarli barcha so‘z turkumlarida uchratish mumkin. Masalan 1) ot sinonimlar: *baxt, saodat, tole, iqbol*; 2) sifat sinonimlar: *go‘zal, chiroyli, ko‘rkam, ko‘hlik, suluv*; 3) olmosh sinonimlar: *barcha, bari, hamma, butun*; 4) fe’l sinonimlar: *o‘smoq, ulg‘aymoq, voyaga yetmoq;* 5) ravish sinonimlar: *tez,chaqqon, ildam;* 6) aralash sinonimlar: *besh, a’lo, muvaffaqiyatli* (son va sifat turkumlari asosida); 7) ko‘makchi sinonimlar: *kabi,singari;* 8) bog‘lovchi sinonimlar: *ammo, lekin, biroq;* 9) modal so‘zli sinonimlar: *shubhasiz, shaksiz, so‘zsiz.*

Xullas, sinonimlar tilning lug‘aviy boyligini, ko‘rkamligini belgilovchi vositalardan biri bo‘lib, ular nutq jarayonida o‘rinsiz

takrordan, uslubiy g‘alizliklardan saqlanishda muhim ahamiyatga ega bo‘ladi.

7-§. Antonimlar (yunoncha anti-zid, onoma-nom so‘zidan olingan bo‘lib) o‘zaro zid tushunchalarni ifodalaydigan so‘zlardir. So‘zlarning zid ma’noligi boshqa shu kabi hodisadan farqli ravishda leksik (lug‘aviy) antonimlar deyiladi Masalan: *oq - qora, kun - tun*. Antonimlar ham odatda bir so‘z turkumi doirasida yuzaga keladi va zid ma’nolilik, odatda, faqat ikkita so‘z doirasida sodir bo‘ladi: *uzun - qisqa* (sifat), *kelmoq - ketmoq* (fe’l) kabi. Antonimlar bir xil va har xil o‘zakli so‘zlardan ham tarkib topishi mumkin. O‘zakdosh so‘zlarning antonimligi, asosan, zid ma’noli so‘z yasovchi qo‘shimchalar vositasida yuzaga keladi: suv**li** - suv**siz**, xabar**dor** - **be**xabar kabi. Har xil o‘zakli so‘zlardan tarkib topgan antonimlar esa tub shaklda bo‘ladi: *katta - kichik, rost - yolg‘on*.

Ko‘p ma’noli so‘zlar o‘z va ko‘chma ma’nolari bilan bir necha antonim juftliklar tarkibida ishtirok etishi mumkin: *og‘ir yuk - yengil yuk, og‘ir masala - oson masala* kabi.

Bir so‘z o‘zaro sinonim so‘zlar bilan yoki o‘zaro sinonim so‘zlar boshqa sinonimlar bilan ham antonimik munosabat hosil qilishi mumkin. Masalan, *xafa* so‘zi *xursand, shod xushnud* kabi so‘zlar bilan

o‘zaro antonim munosabatga kirisha oladi.

Antonimlar nutqda belgi-xususiyat, miqdor, o‘rin, payt ifodolovchi so‘zlarda ko‘p bo‘lib, aniq tushuncha ifodalaydigan lug‘aviy birliklarda kam uchraydi. Bu hol antonimlarning asosan belgi, xususiyat negizida (sifat va ravishlarda) paydo bo‘lishidan darak beradi. Antonimlarga so‘z turkumlari nuqtai nazaridan qaralganda ularning quyidagi turkumlarda uchrashini kuzatish mumkin: 1) ot antonimlar: ota-ona, yigit-qiz, kelin-kuyov; 2) sifat antonimlar: shirin-achchiq, katta-kichik, baland-past; 3) fe’l antonimlar: kulmoq-yig‘lamoq, turmoq-o‘tirmoq; 4) ravish antonimlar: uzoq-yaqin, oz-ko‘p, sekin-tez; 5) ba’zan nutqda baho me’zoni bo‘lgan besh va ikki sonlari ham zidlikka ega bo‘ladi.

Antonimlar nutqda juft holda qo‘llanilib, ma’no ko‘chgan holda yangi tushuncha ifodalash vositasi bo‘ladi. Masalan: *bordi - keldi, keldi - ketdi, yaxshi - yomon, oq - qora* kabi antonimik juftliklar aslida fe’l va sifatlar bo‘lib, nutq jarayonida otga ko‘chishi mumkin: *bordi-keldi uzildi, keldi-ketdi ko‘p bo‘ldi, oq-qorani* tanigan kabi.

Antonimlar asosida anglashilgan ma’no zidligi kuchli va kuchsizligi bilan ham farqlanadi. Masalan, *oq-qora, issiq-sovuq* kabi belgi anglatuvchi so‘zlarga nisbatan *ota-ona, chol-kampir* singari nom bildiruvchi so‘zlarda ma’no zidligi kuchsizroqdir. Shunga ko‘ra ularni

sof va **yarim antonimlar** sifatida ajratish mumkin. Bulardan tashqari, muayyan matndagina o‘zaro zidlik kasb etuvchi o‘t (olov)-suv, it-mushuk, mushuk-sichqon kabi **matniy antonimlar** ham mavjud.

Zidlik munosabati faqat so‘zlar doirasida mavjud bo‘lmay, so‘z bilan iboralar o‘rtasida ham uchraydi: *qo‘rqoq-yuragida yoli bor, botir-chumchuq pirr etsa, yuragi shirr etadigan* kabilar shular jumlasidandir. Budnay antonimlar **leksik-fraziologik antonimlar** deyiladi.

Antonimlar tildagi kuchli uslubiy vositalardan biri bo‘lib, badiiy ijodda tazod san’atini vujudga keltiradi.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Leksikologiyada nimalar o‘rganiladi?
2. Monosemantik so‘zlar qanday so‘zlar?
3. Polisemantik so‘zlar deb nimaga aytiladi?
4. So‘zning o‘z va ko‘chma ma’nolarini izohlang.
5. Ma’no ko‘chishi haqida nimalarni bilasiz?
6. Metafora va metonimiya hodisalari asosida ma’no ko‘chishini misollar yordamida izohlang.
7. Sinekdoxa hodisasida ma’no ko‘chishini qanday tushunasiz?

8. So‘zlar shakl va ma’no munosabatiga ko‘ra qanday turlarga bo‘linadi?
9. Omonim va ko‘p ma’noli so‘zlar haqida ma’lumot bering.
10. Sinonim so‘zlar va ularning turlari haqida nimalarni bilasiz?
11. Antonim so‘zlar va ularning o‘ziga xos xususiyatlari nimalarda ko‘rinadi?

ZARURIY ADABIYOTLAR

1. Sh. Shoabdurahmonov, M.Asqarova, A.Hojiyev, I.Rasulov, X.Doniyorov Hozirgi o‘zbek adabiy tili. 1-qism .T., «O‘qituvchi» 1980.
2. U.Tursunov, J.Muxtorov, Sh.Rahmatullayev Hozirgi o‘zbek adabiy tili. T., «O‘qituvchi» 1992.
3. O‘zbek tili leksikologiyasi. T., «Fan» 1981.
4. H.Ne’matov, R.Rasulov O‘zbek tili sistem leksikologiyasi. T., «O‘qituvchi» 1995.
5. H.Jamolxonov Hozirgi O‘zbek adabiy tili. T., «Talqin» 2005.

5-MARUZA

5.1. O‘zbek tili leksikasining tarixiy - etimologik qatlamlari

1-§.O‘z qatlam. Ma’lumki, o‘zbek, qozoq, qirg‘iz, turkman, uyg‘ur qoraqalpoq singari tillar o‘zaro qarindosh tillar bo‘lib, ular birligi turkiy tillar guruhini tashkil etadi. Tilimizda faol qo‘llanadigan *oyoq, qo‘l, ikki, uch, ol, kel, yaxshi, men, sen* singari so‘zlar ko‘pchilik turkiy tillar uchun ham faol so‘zlar hisoblanadi. Barcha turkiy tillar uchun umumiy iste’molda bo‘lgan bunday so‘zlar **umumturkiy so‘zlar** deyiladi. O‘zbek tili leksikasining katta qismini umumturkiy qatlamga mansub so‘zlar tashkil etadi.

Tilimizda umumtukiy so‘zlarning quyidagi leksik-tematik guruhlari faol ishlatiladi: 1) inson tushunchasi bilan bog‘liq so‘zlar: *kishi, el, yurt*; 2) qarindoshlik tushunchalari bilan bog‘liq so‘zlar: *ota, ona, opa, enaga, aka, uka, singil, qayin, qayinog‘a, yanga* va boshqalar; 3) odam va hayvon tana a’zolari nomlari: *barmoq, bag‘ir, bel, bo‘g‘iz, biqin, milk, miya, og‘iz* va boshqalar. Muayyan tushuncha doirasida birlashuvchi bunday so‘zlar guruhi **uyadosh so‘zlar** deyiladi.

Shuningdek, tilimiz lug‘at boyligining ma’lum bir qismi o‘zbek tilining milliy tarixiy taraqqiyoti jarayonida tilning ichki imkoniyatlari, o‘ziga xos qonun - qoidalar asosida hosil qilingan so‘zlardan iborat. Ular quyidagi uch holatda kuzatiladi:

1. O‘zbekcha o‘zak va qo‘shimcha asosida hosil qilingan so‘zlar:

qatnashchi, terimchi, og‘machi, birlashma, qotma, o‘tkazgich, turg‘un, qo‘llanma, yoqilg‘i.

2. O‘zlashma o‘zak (so‘z) va o‘zbekcha yasovchi qo‘shimchalar yordamida hosil qilingan so‘zlar: a) tojikcha so‘zlardan: *jangchi, mardlik, charxlamoq, xastalanmoq, do‘stlik*; b) arabcha so‘zlardan: *rahbarlik, qimmatli, ovqatlanmoq, nomusli*; v) ruscha va boshqa xorijiy tillardan o‘zlashgan so‘zlar asosida: *sportchi, shofyorlik, betonchi.*

3. O‘zbekcha o‘zak va o‘zlashma qo‘shimchalardan hosil bo‘lgan so‘zlar: *tug‘ruqxona, so‘rovnoma*.

4. Boshqa tillardan kirib kelgan o‘zak va yasovchi qo‘shimchalardan: *tilshunos, madadkor, mehnatkash, vagonsiz, ilmiy, gazetxon*.

Qayd etib o‘tilgan umumturkiy so‘zlar va o‘zbek tilining o‘z ichki imkoniyatlari asosida shakllangan so‘zlar tilning **o‘z qatlamini** tashkil etadi. Shuningdek, tilimiz o‘zbek lahja va shevalaridan, qardosh turkiy milliy tillardan kirib kelgan so‘zlar hisobiga ham boyib boradiki, bu ham uning o‘z qatlami imkoniyatlarini oshiradi.

2-§.O‘zlashma qatlam. Tilimizning lug‘at tarkibida boshqa xalqlar tilidan kirib kelgan so‘zlar ham mavjud. Bunday so‘zlar tilning lug‘at boyligidagi o‘zlashma qatlamni tashkil etadi. Ular quyidagi tillardan tarixning eng qadimgi bosqichlarida o‘zlashtirilgan:

1. Hind tildan o‘zlashgan so‘zlar: *barcha, bibi, paysa, tovus, chaqmoq.*

2. Xitoy tilidan o‘zlashgan so‘zlar: *choy, lag‘mon, shiypon*.

3. Qadimgi yunon tilidan: *iqlim, marvarid, marmar, ark, billur*.

O‘zbek adabiy tili leksikasining o‘zlashma so‘zlar qatlami asosini keyingi tarixiy bosqichlar mobaynida yaqin munosabatda bo‘lgan fors-tojik, arab, rus va boshqa xorijiy tillardan o‘zlashgan so‘zlar tashkil etadi. Ular quyidagilar misolida ko‘zga tashlanadi:

1. Fors-tojik tilidan o‘zlashgan so‘zlar: *osmon, oftob, bahor, baho, barg, daraxt, gul, xona, shamol, dasta, mehribon, agar, ham* va boshqalar. Bulardan tashqari, fors-tojik tilidan *-kor, -kash, - dor, -gar, - zoda, -soz, - goh, -gir, -boz, -parast, -xona, -go‘y, -no, -be, -dor, -bod, -bon* singari yasovchi affikslar ham kirib kelgan.

2. Arabcha so‘zlar: *kitob, maktab, xalq, maorif, shoir, ma’no, ilhom, tanqid, kashf, hayot, haqiqat, hisob, hurmat, musobaqa, qonun, san’at, sanoat* va boshqalar.

3. Rus va boshqa xorijiy tillardan o‘zlashgan so‘zlar: *brigada, zveno, agranom, agrotexnika, kosmos, radio, televizor, vrach, bank, telefon* va boshqalar.

Tilimiz, aynan o‘zlashtirilgan so‘zlardan tashqari kalkalash (tarjima qilish) orqali ham boshqa tillar bilan munosabatda bo‘lib turadi. Masalan: *nadstroyka - ustqurma, vozzreniye - dunyoqarash, vzglyad - nigoh* kabilar shular jumlasidandir.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. O‘zbek tili leksikasining tarixiy-etimologik qatlamlarini tavsiflang.
2. Umumturkiy va o‘zbekcha so‘zlar haqida nimalarni bilasiz?
3. O‘zbek tiliga qaysi tillardan so‘zlar o‘zlashtirilgan?
4. O‘zlashma so‘zlarni farqlash belgilarini jamlab tasniflang.

5.2. O‘zbek tili leksikasining ijtimoiy - dialektal tarkibi

Tilimizda so‘zlashuvchi barcha kishilar nutqida birdek ishlatiladigan so‘zlar **umumxalq leksikasi** deb yuritiladi. Masalan; *non, osh, qor, yo‘l, yulduz, ikki, uch, yemoq, olmoq, men, sen* kabi so‘zlar shular jumlasidandir. Bulardan tashqari, barchaning nutqida ishlatilmaydigan, shevalarga, kasb- hunarga, ma’lum ijtimoiy guruhlar nutqiga, ilm-fan sohalari vakillari nutqiga xos so‘zlar ham mavjudki, ular **iste’mol doirasi chegaralangan** leksikani tashkil etadi. Ularning quyidagi turlari mavjud:

1-§. Dialektizmlar. Ma'lum bir hududda yashovchi kishilar nutqida ishlatiladigan, adabiy til leksikasiga kirmaydigan so'zlar dialektizmlar deyiladi. Dealektizmlarning adabiy tilga xos me'yoriy so'zlardan farqlari quyidagicha:

a**) leksik-semantik dialektizmlar**. Adabiy tilda o'z shakldoshiga ega, biroq ma'no jihatdan farqlanadigan dialektizmlar: *qalin* - adabiy tilda: qiz uzatishda kuyov tomonidan beriladigan mablag', shevada: gilam turi; *g'ayir*- adabiy tilda: rashkchi kishi, shevada: qopag'on it.

b) leksik dialektizmlar. Muayyan dialekt vakillari tilida qo'llanilib, adabiy tilda uchramaydigan so'zlar: *ko'ma-yerto'la, makka - sho'x, bichqi - qo'l arra, shoti, zangi-narvon* kabilar.

v) fonetik dialektizmlar. Adabiy tildan fonetik jihatdan farqlanadigan so'zlar: *suvoq - shuvoq, yurmoq - jurmoq, kelmoq - galmoq.*

g) grammatik dialektizmlar. Adabiy tildagi grammatik shakllaridan farqlanadigan so'zlar*: kelutti - kelyapti, uya – uyga, nonnan-nondan.*

2-§. Kasb-hunar leksikasi ham adabiy tilga nisbatan chegaralangan so'zlar qatoriga kiradi. Chunki ular ham ma'lum bir kasb-hunar vakillari nutqidagina ko'p ishlatilib, boshqa kishilar uchun tushunarsiz

bo‘ladi. Masalan: *zebgardan, sandon, dam, ko‘ra, itombir, korchup* kabi zargarlikka oid so‘zlar shular jumlasidandir.

3-§.Terminlar. Ilm-fan, texnika, san’at sohasidagi aniq bir tushunchani ifodalaydigan bir ma’noli so‘zlardir. Masalan: *morfema, fonema, morfologiya, sintaksis* kabi tilshunoslikka, *o‘tkazgich, tebranish, mayatnik* kabi fizikaga oid terminlar shular jumlasidandir.

4-§.Jargon va argolar. Ma’lum ijtimoiy sinf, tabaqa, guruh vakillari nutqida qo‘llaniladigan, ba’zan yashirin ma’noli bo‘lgan so‘zlardir. Bu so‘zlar ham chegaralangan leksik birliklar qatoriga mansub bo‘lib, jargonlar yuqori sinf vakillari nutqida qo‘llanilib kelingan *dorulmulk, dorulbaqo, shaxriyori falak, oftobi olam, ne’mati jannat* singari so‘zlarni o‘z ichiga oladi. Argolar esa, *yakan, loy, mullajiring, ko‘ki, karamcha - pul, bedana – to‘pponcha* kabi yashirin ma’noli so‘zlardan iborat.

Tilning ijtimoiy-dialektal qatlamiga mansub so‘zlar badiiy adabiyotda voqelikni ishonarli chiqishi uchun personajlar nutqini induviduallashtirish vositasi sifatida muhim ahamiyatga ega bo‘ladi.

5.3. O‘zbek tili leksikasining tarixiy - funksional xususiyatlari

Tilning lug‘at tarkibi tashkil etadigan so‘zlarning hayotiyligi faol yoki nofaolligiga bog‘liq. Zero, tildagi ba’zi so‘zlar kundalik hayotda iste’mol etilish bilan xarakterlansa, boshqa bir guruh so‘zlar kundalik aloqada juda kam qo‘llanadi. Shu bois so‘zlar tarixiy-funksional xususiyatiga ko‘ra faol va nofaol so‘zlarga ajraladi. Faol so‘zlar adabiy tilning zamonaviy me’yoriga xos so‘zlari bo‘lib, ular kundalik aloqada eng ko‘p ishlatilishi bilan ajralib turadi. Nofaol so‘zlar qatlami esa quyidagi uch turga bo‘linadi:1) tarixiy so‘zlar (istorizmlar), 2) eskirgan so‘zlar(arxaizmlar), 3) yangi so‘zlar (neologizmlar).

1. Tarixiy so‘zlar (istorizmlar). O‘tmishga oid narsa, hodisalarni ifodalagan, biroq hozirgi tilimizda o‘z sinonimiga ega bo‘lmagan so‘zlardir. Masalan: *miri, paqir, (pul birliklari) qozi, qushbegi, yasovul, xalifa (mansab nomlari), omoch, yorg‘ichoq, charx* kabilar.

2. Eskirgan so‘zlar(arxaizmlar). Hozirgi kunda mavjud bo‘lgan narsa va hodisalarning eskirib qolgan nomlaridir. Eskirgan so‘zlarning hozirgi tilda sinonimi mavjud bo‘ladi.

Masalan: *budun, ulus, raiyat – xalq; handasa - geometriya; muarrix – tarixchi; dudoq – lab; lang - cho‘loq, oqsoq.*

3. Yangi so‘zlar (neologizmlar). Ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot va o‘zgarishlar natijasida vujudga kelgan narsa - hodisalarning yangi nomlaridir. Masalan, O‘zbekiston mustaqil bo‘lgandan so‘ng tilimizda paydo bo‘lgan *faxriy - veteran, noib - deputat, tuman - rayon, tayyora - samolyot* kabi so‘zlar yangi so‘zlardir. Yangi so‘zlarning nofaol so‘zlar qatoridan o‘rin egallashi sababi shundaki, ular paydo bo‘lgandan keng iste’moldagi so‘zlar singari barchaning nutqida birdek ishlatilavermaydi. Biroq vaqtlar o‘tishi bilan yangi so‘zlar ham keng iste’moldagi so‘zlar qatoridan o‘rin egallashi mumkin. Masalan, 60-yillarda yangi so‘zlar hisoblangan *kosmos, kosmonavt, kosmik kema* kabilar hozirgi kunda yangi so‘z hisoblanmaydi. Shuni ham qayd etish lozimki, taraqqiyotning ma’lum davrida tarixiy yoki eskirgan so‘zlar qatoriga o‘tgan so‘zlar hisobidan ham yuzaga kelishi mumkin. Masalan, hozirgi tilimizda *tuman, hokim, vazir, noib* kabi neologizim sifatida qo‘llanilayotgan so‘zlar aslida tarixiy va eskirgan so‘zlarning yangilashgan holda qayta iste’molga kirib kelishidan dalolat beradi.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Umumxalq ishlatadigan so‘zlardan iste’mol doirasi chegaralangan so‘zlarning farqini tushuntiring.

2. Dialektizmlarning adabiy tildagi me’yoriy so‘zlardan qaysi jihatlariga ko‘ra farqlanishini tushuntiring.
3. Tarixiy va eskirgan so‘zlarni tavsiflang.
4. Iste’moli chegaralangan so‘zlarni guruhlab izohlang.

5.4. Uslubiy jihatdan o‘zbek tili leksikasi

Tilning lug‘at tarkibidagi so‘zlar nutqning biror uslubiga xoslangan bo‘lishi yoki nutq uslublariga betaraf bo‘lishi mumkin. Shunga ko‘ra lug‘aviy birliklar ikki guruhga bo‘linadi: uslubiy betaraf so‘zlar va uslubiy xoslangan so‘zlar.

Uslubiy betaraf so‘zlar nutq uslublarining birortasiga xoslanmay, barcha uslublarda birdek qo‘llanilaveradigan lug‘aviy birliklardan tashkil topadi: *havo, suv, daraxt, bir, ikki, hamma, biz, siz, turmoq, yugurmoq* kabilar shular jumlasidandir.

Nutqning ayrim-ayrim ulublari uchungina xizmat qiladigan so‘zlar **uslubiy xoslangan so‘zlar** deyiladi. Bunday maxsus so‘zlar dastavval og‘zaki nutqda yoki yozma nutqda qo‘llanishiga ko‘ra ikkiga ajraladi. Masalan, *hazar qilmoq, birlashmoq, hunar, o‘rin, arzimagan (kichik)* so‘zlari ko‘proq og‘zaki nutqda qo‘llansa, ularning sinonimlari bo‘lgan

jirkanmoq, uyushmoq, kasb, makon, juz'iy so‘zlari ko‘proq yozma nutqda qo‘llanadi.

1-§. Og‘zaki nutqning uslubiy chegaralangan leksikasi. Og‘zaki nutq uchun xarakterli bo‘lgan oddiy muomaladagi so‘zlar o‘zining soddaligi, hammaga tushunarli bo‘lishi bilan yozma nutqdagi so‘zlardan ajralib turadi. Og‘zaki nutqda uslubiy bo‘yoqdor so‘zlar ko‘p ishlatiladi, unlarda soddalik, ta'sirchanlik, ba'zan esa erkinlik sezilib turadi. Og‘zaki nutq leksikasiga dialektal so‘zlar, oddiy muomalaga oid: *zarar-zaral, zarur-zaril, dasturxon-dastarxon, devor-duvol,uch marta-uch matta, hech nima-hechtima, go‘zal-ketvorgan, ajoyib-quling o‘rgilsin;* erkalov so‘zlari: *ninicha, asalim, shakarim, girgitton, qoqindiq;* dag‘al so‘zlar (varvarizmlar): *papulya, mamulya, oke, xarasho, ladno, patom*; haqorat so‘zlar (vulgarizmlar) *juvonmarg, zantaloq, qizitaloq;* jargonlar: *mullajiring, xit, xarif* kabi so‘zlar kiradi. Og‘zaki nutqqa oid leksika badiiy asarlarda personajlarning nutqida beriladi. Masalan: *Nima qilib bu ezmachurukni sudrab yuribsiz, beti qursin! (S.Ahm.) Qizaloqlarim, qo‘llaring nuqul baraka ekan.(O.) Boy qizitaloq ham toza erinmasdan davlat yiqqan ekan. (G‘.G‘.)*

2-§.Yozma nutqning uslubiy chegarlangan leksikasi kitob, jurnal, gazeta va shuning kabilarda qo‘llanadigan, umuman, yozma asarlar

uchun xarakterli bo‘lgan so‘zlarning nisbatan turg‘un, barqaror, uslubiy bo‘yog‘i bo‘lgan yoki bo‘lmagan so‘zlarni taqozo etadi. Jumladan, rasmiy uslubga, poetik leksikaga, xalq dostonlariga, ommabop uslubga oid so‘zlar ma’lum darajada qo‘shimcha bo‘yoqqa ega bo‘ladi. Shu bois mazkur uslublarga xos so‘zlar og‘zaki nutqqa oid so‘zlardan ajralib turadi. Masalan, *saylamoq, majburiyat, modda, farmon, jarima, izoh, isbot, mazkur, shaxsan; cheksiz, buyuk, asl, dargoh; ijozat, burch, bevosita, tabrik, boshchilik, erishmoq; zangori, ajoyib, sokin, mayin, chehra, jamol, ishq; dilovar, ajdar, dev, zo‘ravon; kapital, ozodlik, ilg‘or, qoloq, , qardoshlik, do‘stlik, tinchlik va boshqalar.*

Ammo ilmiy - texnik terminlar, tarixiy so‘zlar, kasb-hunarga oid so‘zlar, asosan, his-hayajonsiz bo‘ladi. Hatto avval his-hayajonli bo‘lgan so‘z ham termin tusiga kirishi bilan his-hayajon bo‘yog‘ini yo‘qotadi. Buning o‘rniga "kitobiylik" bo‘yog‘i paydo bo‘ladi. Masalan, *kichik tilcha, qorincha, miya, umurtqa* kabi anatomiya sohasiga oid so‘zlar, *til, lab, bo‘g‘iz bo‘shlig‘i, tovush paychasi* kabi tilshunoslikka oid terminlar shular jumlasidandir. Ana shu "ilmiylik", "kitobiylik", "maxsuslik" xususiyati ilmiy - texnik terminlarni va kasb-hunar so‘zlarini uslubiy jihatdan umumiste’moldagi boshqa so‘zlardan farqlanishiga va qo‘llanish doirasining cheklanishiga olib keladi.

5.5. Frazeologiya

Ikki yoki undan ortiq so‘zdan tarkib topgan va yaxlit bir ma’no ifodalaydigan til birligi frazeologik ibora deyiladi. Frazeologizmlar yaxlitligicha yoki muayyan so‘zning ko‘chma ma’noda qo‘llanishi asosida yuzaga keladi. Masalan, *og‘zi qulog‘ida* iborasi tarkibidagi so‘zlar bir butun holda ko‘chma ma’noda qo‘llanib, *xursand* tushunchasini ifodalagan. Biroq *qo‘l ko‘tarmoq* birikmasida esa *ko‘tarmoq* so‘zining ko‘chma ma’noda ishlatilishi iborani vujudga keltirgan. Shu bois ular nutqning erkin sintaktik birliklaridan farqli ravishda, tilning turg‘un birikmalari hisoblanadi. Frazeologik iboralarning so‘zlar singari tilning lug‘aviy birliklari qatoridan o‘rin egallaydi. Bunga quyidagi omillar sabab bo‘ladi:

1.Frazeologizmlar ikki yoki undan ortiq so‘zdan tashkil topgan turg‘un birikmalar bo‘lsa ham, so‘zlar singari, odatda, yaxlit bir tushunchani ifodalash uchun xizmat qiladi. Bu xususiyat ularni so‘zlar bilan sinonimik munosabatga kirisha olishini ta’minlaydi: *Uchiga chiqqan-o‘taketgan, turgan gap-albatta, yeng ichida-xufiya, yashirin* kabilar shular jumlasidandir. Shu bois ular so‘zlar singari bitta gap bo‘lagi vazifasini bajaradi: *Komissiya hayron bo‘lib qoldi, ammo hech kim meni qaytarishni* ***og‘ziga olmas edi*** *(A.Qahhor).*

2. Frazeologizmlarda ham so‘zlar singari ko‘p ma’nolilik mavjud: *o‘ziga kelmoq - xushini yo‘qotgach o‘ziga kelmoq, esiga tushmoq, asabiylikdan so‘ng o‘ziga kelmoq; yerga urmoq-qimmatini pasaytirmoq, obro‘sizlantirmoq, biror narsaning qadriga yetmaslik.*

3. So‘zlar singari frazeologizmlarning ham shakl va ma’no munosabatiga ko‘ra quyidagi turlari mavjud: a) omonimlar: *boshiga ko‘tarmoq - to‘polon qilmoq, yaxshi ko‘rmoq, e’zozlamoq;* b) sinonimlar: *fe’li aynimoq - avzoyi buzilmoq, yaxshi ko‘rmoq - ko‘ngil qo‘ymoq, toqati toq bo‘lmoq-sabr kosasi to‘lmoq*; v) antonimlar: *ko‘kka ko‘tarmoq - yerga urmoq, yuzi yorug‘ - yuzi shuvut, yuragi qinidan chiqmoq - ko‘ngli joyiga tushmoq.*

Fraziolgizmlar nutqning ta’sirchan vositalaridan bo‘lib, so‘zlashuv nutqida va badiiy adabiyotda keng qo‘llaniladi.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Qanday so‘zlar umumturkiy sanaladi?
2. O‘zbek tili leksikasining o‘z ichki imkoniyatlari asosida boyishi deganda nima tushuniladi?
3. O‘zlashma so‘zlar qanday so‘zlar? Tilimizga qaysi tillardan so‘zlar ko‘p o‘zlashtirilgan?

4. O‘zbek tili leksikasining chegaralangan va chegaralanmagan qatlamlari haqida ma’lumot bering.
5. Tilning faol va nofaol so‘zlari haqida nimalar bilasiz?
6. Frazeologiya nimani o‘rganadi? Iboralar va so‘zlar o‘rtasidagi umumiylik haqida so‘zlab bering.
7. Tilning lug‘aviy birliklariga nimalar kiradi?

5.6. Leksikografiya

Leksikografiya (yunoncha lexs-so‘z, grapos-yozaman demakdir) o‘z mohiyatiga ko‘ra lesikologiya bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan bo‘limdir. Chunki leksikografiya tilning leksik qatlamiga mansub bo‘lgan so‘zlar, iboralarni lug‘atlarda alfavit tartibida va ba’zan uyadoshlik asosida jamlash, ularni turli tomondan izohlash bilan shug‘ullanadi. Demak, leksikografiyada lug‘at va lug‘at turlari xususida bahs yuritiladi.

1-§. Lug‘at va uning turlari. Lug‘at ma’lum bir tildagi so‘zlarning barchasini yoki aksariyat qismini jamlab, ularning ma’nolarini izohlash, imlosi va talaffuzini ko‘rsatish, so‘z ma’nosini bir tildan ikkinchi tilga o‘girish kabi maqsadlarda tuziladigan kitobdir. Lug‘atlar maqsad va vazifasiga ko‘ra, odatda, ikki turli bo‘ladi: 1) qomusiy (ensiklopedik) lug‘atlar; 2) lingvistik (filologik) lug‘atlar.

Qomusiy lug‘atlar tushuncha va ma’lumotlar so‘zligi bo‘lib, ularda turli ijtimoiy-siyosiy, ilmiy-texnik, adabiy-badiiy, tarixiy voqealar haqidagi tushunchalar hamda ishlab chiqarishning turli sohalari, borliqdagi narsa va hodisalar, taniqli fan, san’at, madaniyat, davlat arboblari haqidagi ma’lumotlar beriladi. Masalan, «O‘zbek milliy ensiklopediyasi», «Salomatlik ensiklopediyasi», «Uy-ro‘zg‘or ensiklopediyasi» shular jumlasidandir.

Lingvistik lug‘atlar. Bunday lug‘atlarda lug‘aviy birliklar tilshunoslik nuqtai nazaridan izohlanadi. Ular tilshunoslikning ma’lum bir sohasiga yoki barcha sohasiga tegishli ekanligi bilan, dastlab, maxsus va umumiy lug‘atlarga ajratiladi.

Umumiy lug‘atlarda adabiy tilning barcha soha va qatlamiga oid so‘zlar aks etadi. Shu bois bunday lug‘atlarning nomlanishi ham biror soha yoki so‘z qatlami nomi bilan cheklanmaydi. Masalan: 65 ming so‘zni o‘z ichiga olgan, ikki jilddan iborat «O‘zbek tilining izohli lug‘ati» (M., 1981.) , «O‘zbek tilining imlo lug‘ati» (T., 1976.), «O‘zbek tilining orfoepik lug‘ati» (T., 1977.), «O‘zbek tilining qisqacha etimologik lug‘ati» (T.,2000) kabilar shular jumlasidandir.

Umumiy lug‘atlar bir yoki ikki tilliligi bilan ham farqlanadi. Xususan, yuqorida sanab o‘tilgan lug‘atlar **bir tilli** lug‘atlar hisoblanadi. **Ikki tilli**

lug‘atlar tarjima lug‘atlardir. Chunki bunday lug‘atlarda o‘zbekcha so‘zlarning muayyan tildagi muqobillari yoki aksincha xorijiy tildagi so‘zlarning o‘zbek tilidagi muqobili tarjima asosida ko‘rsatiladi. Masalan: «Nemischa-o‘zbekcha lug‘at», «Inglizcha-o‘zbekcha lug‘at», «Fransuzcha-o‘zbekcha lug‘at», «O‘zbekcha-ruscha lug‘at», «O‘zbekcha-fransuzcha lug‘at», «O‘zbekcha-inglizcha lug‘at» kabilar. Mustaqillikdan so‘ng xorijiy mamlakatlar bilan aloqalarning tobora rivojlanib borayotganligi sababli ikki tilli lug‘atlar dunyodagi boshqa milliy tillar asosida ham tuzilmoqda.

Maxsus lug‘atlar biror soha yoki ma’lum bir qatlamga oid so‘zlar bilan cheklangan bo‘ladi. Bu cheklanish ularning nomlanishida ham o‘z aksini topadi. Masalan: «O‘zbek tili morfem lug‘ati» (T.,1977.), «O‘zbek tili sinonimlarining izohli lug‘ati» (T., 1974.), «O‘zbek tili omonimlarining izohli lug‘ati» (T.,1984.), «O‘zbek tili antonimlarining izohli lug‘ati» (T.,1980.), «Siyosiy terminlarning izohli lug‘ati», «O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati» shular jumlasidandir.

2-§. Lug‘atshunoslik tarixidan. Barcha turkiy xalqlar kabi o‘zbek xalqining ham lug‘atshunoslik bilan bog‘liq tarixining dastlabki bosqichi Mahmud Koshg‘ariyning «Devonu lug‘otit turk» asari bilan bog‘lanadi. Uning to‘liq ism-sharifi Mahmud Ibn-ul Husayn Ibn

Muhammad-al-Koshg‘ariy bo‘lib (tavallud sanasi aniq emas), «Devonu lug‘otit turk» asari hijriy 469, melodiy 1076-1077- yil yozilgan. Asarning yagona qo‘lyozma nusxasi 1914-yilda Turkiyaning Diyorbakir shahridan topilgan va u hozirgacha Istambulda saqlanadi. Bundan tashqari alloma tomonidan turkiy tillar sintaksisiga doir «Javohirun nahv fil lug‘otit turk» asari yaratilganligi haqida ham ma’lumotlar mavjud. Biroq bu asar bizgacha yetib kelmagan.

«Devonu lug‘otit turk», dastlab, 1915-1917 yillarda uch tomlik kitob holida Istambulda, keyinchalik, ya’ni 1928 yilda esa sharqshunos Brokkelman tomonidan nemis tiliga tarjima qilinib Leypsikda nashr qilingan. «Devonu lug‘otit turk» asari 1960-1963 yillarda taniqli sharqshunos olim Solih Mutallibov tomonidan o‘zbek tiliga tarjima qilinib, Toshkentda nashr etilgan. «Devonu lug‘otit turk» asari faqat leksikografik tadqiqot bo‘lib qolmay, unda qadimgi turkiylar tilning fonetik-fonologik, leksik-semantik, lingvogeografik, dialektologik xususiyatlari haqida ham qimmatli ma’lumotlar mavjud. Shu bois Mahmud Koshg‘ariy turkiyshunoslikning sanab o‘tilgan sohalarining asoschisi sanaladi.

Zamahshariy hijriy 467, melodiy 1045 yilning 19 martida Xorazmning Zamahshar qishlog‘ida tavallud topgan. Abulqosim Mah-

mud Zamahshariy taxallusi bilan arab tilida tilshunoslik, adabiyotshunoslik, geografiya, hadis va diniy huquq kabi fanlarga doir ellikdan ortiq asar yaratib qoldirgan. Ayniqsa, uning «Al- mufassal fi sa'at il-i'rob», «Fleksiya san'ati haqida mufassal kitob» ma'nosini bildirib, bu asar (1121 yil Makka shahrida yozilgan) arab tilining grammatikasini o'rganishda muhim qo'llanma sifatida sharq va g'arbda mashhur bo'lgan. Zamahshariyning xorazmshoh Alouddavla Abdulmuzaffar Otsiz sharafiga bag'ishlab 1137 yilda yozilgan «Muqaddimat-ul adab» (Adabiyotga kirish) asari, garchi adabiyotshunoslikka doir bo'lsa ham, tilshunoslikning morfologiya, leksikologiya va leksikografiya sohalariga daxldor qimmatli amaliy va nazariy mulohazalar mavjud. Zotan, besh qismdan tashkil topgan bu asarda otlar, fe'llar, bog'lovchilar, otlarning turlanishi, fe'llarning tuslanishi kabi masalalar xususida bahs yuritilgani holda, o'sha davr arab tilining iste'molda bo'lgan barcha so'zlari, iboralari ham o'z aksini topadi. Bu so'zlaning ma'nolari va etimologiyasi yetarli darajada keng sharhlanadi. «Muqaddimat-ul adab» fors, chig'atoy(eski o'zbek), mo'g'ul va turk tillariga tarjima qilingan bo'lib, manbalarda qayd etilishicha, uning chig'atoy tiliga tarjimasi Zamahshariyning o'zi tomonidan amalga oshirilgan. Zamahshariyning bilimdon, zukko allomaligi unga hayotligidayoq butun musulmon Sharqida

katta shuhrat keltirgan. Shu bois alloma chuqur hurmat bilan «Arablar va g‘ayri arablarning ustozi», «Xorazm faxri» kabi sharafli nomlar bilan ulug‘langan.

Alisher Navoiyning «Muhokamatul lug‘atayn» asari 1499 yilda yaratilgan bo‘lib, bu asar eski o‘zbek tilini qarindosh bo‘lmagan til – fors-tojik tili bilan chog‘ishtirib o‘rganishga doir dastlabki leksikografik tadqiqotlardan biri ekanligi bilan qimmatlidir. Adabiyot osmonida Navoiydek yorug‘ yulduz paydo bo‘lgach, uning asarlari asosida ham ko‘plab lug‘atlar yaratila boshlandi. Jumladan, «Badoi al-lug‘at», «Sangloh», «Abushqa» kabi o‘nlab lug‘atlarning yaratilishi shular jumlasidandir.

O‘zbek tilshunosligining zamonaviy bosqichida esa G‘.Abdurahmonov, Z.Ma’rufov, O.Usmonov, Sh.Shukurov, A.Hojiyev, R.Qo‘ng‘urov, Sh.Shoabdurahmonov, S. Mutallibov, Sh.Rahmatullayev, V.Rahmonov, A.Madaliyev, N.Mamatov, S.Ibrohimov kabi olimlar lug‘atshunoslikning rivojishida o‘zlarining munosib hissalarini qo‘shib kelmoqdalar.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Leksikografiyada nima o‘rganiladi?
2. Lug‘atlarning qanday turlari bor?

3. Lingvistik lug‘atlarning qanday turlarini bilasiz?
4. Lingvistik lug‘atlarning har bir turi misolida ularning qanday maqsadda ishlatilishini tushuntiring.
5. O‘zbek lug‘atshunosligi tarixi haqida ma’lumot bering.

ZARURIY ADABIYOTLAR

1. Ш. Шоабдураќмонов, М.Асљарова, А.Ќожиев, И.Расулов, Х.Дониёров Ќозирги њзбек адабий тили. 1-љисм .Т., «Њљитувчи» 1980.
2. Њзбек тили лексикологияси. Т., «Фан» 1981.
3. Ш.Раќматуллаев Њзбек тилининг изоќли фразеологик луђати. Т., «Њљитувчи» 1978.
4. А.Шомаљсудов, И.Расулов, Р.Љњђуров, Х.Рустамов Њзбек тили стилистикаси. Т., «Њљитувчи» 1977.
5. Ђ. Абдураќмонов, Ќ.Расулов Она тили 10-11-синфлар учун дарслик. Т., «Њљитувчи» 1995.
6. Њзбек тилининг изоќли луђати. 2 жилдли. М., «Рус тили»1981.
7. А.Ќожиев Њзбек тили синонимлапрининг изоќли луђати. Т., «Њљитувчи» 1974.

6-MA’RUZA

6.1. Morfemika

1-§. Morfemika so‘zning ma’noli qismlari haqidagi ta’limotdir. So‘zning eng kichik ma’noli qismi morfema deyiladi. Masalan, *bog‘larimizning* so‘zi quyidagi ma’noli qismlardan iborat: *bog‘ - lar - imiz - ning*. Morfemalarning har biri so‘z doirasida o‘ziga xos ma’no ifodolovchi birlikdir. Ularni yana bo‘laklarga bo‘linishi mazkur ma’nolarning yo‘qolishiga olib keladi. Demak, morfema so‘zning eng kichik bo‘linmas ma’noli qismidir. Morfemalar dastlab ikkiga bo‘linadi:1) o‘zak morfema; 2) affiks morfema.

2-§. O‘zak so‘zda albatta ishtirok etadigan nutqda yakka holda qo‘llanishi mumkin bo‘lgan va mustaqil lug‘aviy ma’no ifodalash xususiyatiga ega bo‘lgan morfemadir. Masalan, *ishchi, ishla, ishchan, ishsiz* so‘zlaridagi *ish* o‘zak morfemadir.

3-§. Affikslar (qo‘shimchalar) yakka holda lug‘aviy ma’no ifodalamay, o‘zakka qo‘shilib uning leksik yoki grammatik ma’nosini shakllantirishda ishtirok etadigan morfemadir. Masalan, *ish, odam, daraxt* kabi narsa nomini bildiruvchi o‘zaklarga - chi||ishchi, -garchilik||odamgarchilik, -zor||daraxtzor kabi affikslar qo‘shilishi bilan mazkur so‘zlarning lug‘aviy ma’nolari; ularga *ish+ning, odam+lar+dan,*

daraxt+lar+imiz kabi affikslar qo‘shilishi bilan esa so‘zlarning grammatik ma’nolari shakllangan.

4-§. So‘zni morfemalarga ajratishda so‘z tarkibidagi ma’noli qismlarning hozirgi tilda leksik yoki grammatik ma’noni vujudga keltirishi nuqtai nazaridan yondashiladi. Xususan, o‘zak sifatida ajratiladigan qism, bugungi tilda ma’noga ega bo‘lishi, bu ma’no turli qo‘shimchalar asosida shakllangan o‘zakdosh so‘zlar bilan bog‘lana olishi lozim. Masalan: *yig‘+im, yig‘+iq, yig‘+ma, yig‘+in+di* kabilar. Affiks sifatida ajratiladigan qism esa turli o‘zaklarning leksik va grammatik ma’nolarini shakllantirishda ishtirok eta olish, ya’ni takror qo‘llanish xususiyatiga ega bo‘lishi lozim. Masalan: *ter+im, o‘r+im, bos+im* kabi. Shu bois ba’zi so‘zlar tarkiban o‘zak va affiks morfemadan iboratdek ko‘rinsa ham, ular qismlarga ajratilganda takrorlanuvchi ma’noga ega bo‘lmasa, bitta ma’noli qism hisoblanadi. Masalan: *quloqchin, tirik* so‘zlarini *quloq+chin, tir+ik* kabi ma’noli qismlarga ajratib bo‘lmaydi. Shuningdek, tarixan ikkita ma’noli qismdan iborat bo‘lib, hozirgi paytda ma’noli qismlar tushunarsiz holga kelib qolganda ham bunday so‘zlar bitta morfema sifatida baholanadi: *bugun (bu+kun), yuksak (yuk+sa+k), qattiq (qat-iq).*

5-§. Affikslar va ularning turlari. Affiksal morfemalar vazifasiga ko‘ra quyidagicha turlarga bo‘ladi: 1) so‘z yasovchilar; 2) so‘z o‘zgartuvchilar; 3) shakl yasovchilar.

Ba’zi manbalarda affiksal morfemalarning vazifasiga ko‘ra ikki turi farqlanadi: 1) so‘z yasovchi; 2) shakl yasovchi kabi. Shakl yasovchilar esa o‘z navbatida a) lug‘aviy shakl yasovchilar; b) sintaktik shakl yasovchilarga ajratiladi. (Qarang:N.Mahmudov, A. Nurmonov va boshqalar, Ona tili. 6-sinflar uchun darslik.)

1. So‘z yasovchi affikslar o‘zakka qo‘shilib, yangi ma’noli so‘z hosil qiladi.Ular ko‘pincha bir turkumdagi so‘zdan boshqa bir turkumga mansub yangi so‘z yasaydi: yoz, qish – ot || yozgi, qishki - sifat || ish, qon–ot || ishla, qonat-fe’l || supur, o‘r–fe’l || supurgi, o‘roq - ot. Shuningdek, ular bir turkum doirasida so‘zlar yasashi ham mumkin: *-chi: ishchi, xizmatchi, payvantchi* || *- bon: bog‘bon, darvozabon* kabi. So‘z yasovchi affikslar o‘zakka birdan ortiq qo‘shilishi va yangi - yangi so‘zlar hosil qilishi mumkin: bog‘ + bon + lik, ter+im+chi+lik. Bunday yasalish, odatda, negiz asosida yasalish hisoblanadi. Xullas, so‘z yasovchilar o‘zakning lug‘aviy ma’nosini yangilovchi marfemalar bo‘lib, tilning Leksik qatlamini boyitadi.

2. Shakl yasovchilar (lug‘aviy shakl qo‘shimchalari) so‘zning lug‘aviy ma’nosini bir oz o‘zgartib, unga qo‘shimcha ma’no bo‘yog‘i beradigan, biroq yangi so‘z hosil qilmaydigan morfemalardir. Masalan: *kitob**lar**, kitob**cha**, katta**roq**, katta**gina**, besh**inchi**, besh**ov**, uch**ala**, bor**gan**, ishla**moq**, kul**dir**, kel**ma**.* Shakl yasovchilar o‘z tabiatiga ko‘ra so‘zlarning lug‘aviy ma’nosiga qo‘shimcha ma’no bo‘yog‘i berish bilan birga ularning sintaktik munosabatini belgilashda ham o‘ziga xos o‘rnga ega bo‘ladi. Shu bois ularni **lug‘aviy va sintaktik shakl yasovchilar** kabi ikki turga ajratiladi. Xususan, otlardagi son *(kitob-kitoblar),* kichraytirish- erkalash (*qizcha, bo‘taloq,qo‘zichoq, onajon, bolagina)* ,chegara *(uygacha),* qarashlilik *(ukamniki)* shakllari, sifat va ravishlardagi daraja *(kattaroq, shiringina, qoramtir, tezgina, sekinroq)* kategoriyasiga mansub shakllar, sonlarning ma’no turlarini hosil qiluvchi *(beshta, uchinchi, ikkala, to‘rtov)* shakllar, gumon olmoshi hosil qiluvchi qo‘shimcha *(kimdir,nimadir)*, fe’llardagi nisbat *(kiydi, kiyindi, kiyishdi, kiydirdi, kiyildi),* bo‘lishsizlik *(chizma, o‘qima),* harakatning takroriyligi, kuchsizligini ifodalovchi *(bur-bura, tep-tepkila, oqar-oqarinqira, kul-kulimsira, yul-yulqi)* shakllarni lug‘aviy shakl yasovchilar sifatida, fe’llardagi zamon, mayl, ravishdosh, sifatdosh, harakat nomi shakllarini esa lug‘aviy-sintaktik shakl yasovchilar

sifatida ajratiladi.(Qarang:Б.Баќриддинова Феъл луђавий шакллари. Тур категорияси. НДА. Самарљанд 2002.)

3. So‘z o‘zgartuvchilar (aloqa – munosabat qo‘shimchalari) muayyan so‘zning nutqdagi boshqa so‘zga nisbatan sintaktik munosabatini, aloqasini ko‘rsatuvchi affikslardir. So‘z o‘zgartuvchilar 1) kelishik (turlovchi) qo‘shimchalari; 2) egalik qo‘shimchalari; 3) shaxs-son (tuslovchi) qo‘shimchalaridan iborat. Masalan: *kuzning havosi, kitobni o‘qidim, daladan qaytayapman* kabi birikmalar tarkibidagi so‘zlar o‘trtasidagi sintaktik aloqa *-ning, -ni, -dan* kabi kelishik, *-i* egalik, *-m, -man* kabi shaxs-son qo‘shimchalari vositasida yuzaga kelgan.

6-§. Affikslarning tuzilishiga ko‘ra turi. Affiksal morfemalar tuzilishiga ko‘ra sodda va murakkab bo‘lishi mumkin. Masalan, *gulzor, gulla, aqlli* kabi so‘zlardagi *-zor, -la, -li* sodda affikslar bo‘lsa, *zavqlan, dehqonchilik, isrofgarchilik* kabi so‘zlardagi *-la\n, -chi\lik, -gar\chi\lik* murakkab affikslar bo‘lib, ular tarkiban bir necha sodda affikslarning birikishidan tuzilgan. Demak, murakkab affikslar ikki yoki undan ortiq sodda affikslarning bitta ma’noli qism doirasida birikishi orqali yuzaga keladi.

7-§.Unumli va unumsiz affikslar. Affikslar so‘z tarkibida ishtiroki darajasiga ko‘ra unumli, kam unum va unumsiz turlarga bo‘linadi. Bunday affikslarning aksariyat qismi so‘z yasovchilarga taalluqlidir.

So‘z tarkibida ma’noli qism sifatida faol ishtirok etadigan affikslar unumli sanaladi. Masalan, ot yasovchi *–chi: ishchi, ovchi, a’lochi;* sifat yasovchi *–li: mazali, totli, savodli*; fel yasovchi-*la: arrala*, *ishla* kabilar, shuningdek, shakl yasovchi va so‘z o‘zgartuvchi affikslarning asosiy qismi unumli affikslardir.

Hozirgi tildagi so‘zlarning yasalishi va morfologik shakllanishida kam qatnashadigan affikslar kam unum sanaladi. Masalan, ot yasovchi *–oq: o‘roq, taroq; – kash: mehnatkash, aravakash;-dosh: maktabdosh;* sifat yasovchi *–ma: bo’g‘ma (ilon), qaynatma (sho‘rva)* kabilar hamda shakl yasovchi *–ish: oqish; -imtir: qoramtir;--ov\-ala: ikkov, uchala; -v\-ov: o‘qiv;-sat:ko‘rsat* kabilar kam unum affikslardir.

Tarixan mavjud bo‘lib, hozirgi tildagi so‘zlarning yasalishi va shakllanishida ishtirok etmaydigan affikslar unumsiz affikslardir. Masalan, ot yasovchi-*vul: qorovul, bakavul, -gar: savdogar, zargar;* sifat yasovchi *–ag‘on: qopag‘on, bilag‘on, -g‘oq: toyg‘oq, -kin: keskin, -mon: o‘larmon, bilarmon;* fe’l yasovchi *–ar:oqar, ko‘kar* kabilar,

hamda *-lamchi:birlamchi,- ajak:kelajak* kabi shakl yasovchilar shular jumlasidandir.

8-§. Affikslarning shakl va ma'no turlari. Affikslar ham so‘zlar singari shakl va ma'no munosabatiga ko‘ra quyidagi turlarga bo‘linadi:

1. Omonim affikslar shakli bir xil bo‘lib, ma'no va vazifasiga ko‘ra bog‘lanmaydigan qo‘shimchalardir. Omonim affikslar qo‘shimchalarning vazifasiga ko‘ra turlari doirasida quyidagi ko‘rinishda uchraydi: 1) so‘z yasovchilar doirasida: *-ki: tepki-ot yasovchi, kechki*-sifat yasovchi; 2) shakl yasovchilar doirasida: *-ish: oqish*-sifatning daraja shakli, *tortish*-fe'lning harakat nomi shakli; 3) so‘z o‘zgartuvchilar doirasida: *-ng: olmang*-egalik qo‘shimchasi, bording-tuslovchi qo‘shimcha; 4) so‘z yasovchi va shakl yasovchilar doirasida: *-ma: bo‘g‘ma- (ilon)* sifat yasovchi, *qatlama* -ot yasovchi, *ketma* – fe'lning bo‘lishsiz shakli; 5) so‘z yasovchi va so‘z o‘zgartuvchilar doirasida*:-im: qultum*-ot yasovchi, *kitobim*-egalik qo‘shimchasi. Ba'zan o‘zakdosh so‘zlar ham omonim affiks qabul qilib shakldoshlikka ega bo‘lishi mumkin. Masalan, *qatla* fe'liga so‘z yasovchi va shakl yasovchi omonim qo‘shimcha *–ma* qo‘shilishi bilan *qatlama* (ot) , *qatlama* (fe'lning bo‘lishsiz shakli) kabi shakldosh so‘zlar hosil bo‘ladi.

2. Sinonim affikslar shaklan har xil umumiy ma'nosi bir xil bo'lgan qo'shimchalardir. Masalan: *-li\-dor*: *unumli-unumdor*. Affikslar sinonimligi qo'shimchalarning vazifasiga ko'ra barcha turlari doirasida uchraydi: a) so'z yasovchilarda*:-siz\-no* ma'nodoshligi asosida: *o'rinsiz - noo'rin, -li/-ser* ma'nodoshligi asosida: *g'ayratli - serg'ayrat*; b) shakl yasovchilarda: *-ish\ -imtir* ma'nodoshligi asosida: *oqish-oqimtir, -qar\-kar\-qaz\-kaz* ma'nodoshligi asosida: *qutqar - qut+qaz, o'tkaz-o'tkar, -lar\ ish* ma'nodoshligi asosida *kelishdi-keldilar*; v)so'z o'zgartuvchilarda: *-ning\-dan* ma'nodoshligi asosida*: mehmonlar +ning|| +dan kattasi*.

Shuni ham qayd etish lozimki, sinonim qo'shimchalar barcha so'zlarda birdek ma'nodoshlikka ega bo'la olmaydi. Masalan, *noo'rin-o'rinsiz* so'zlarida *–no* va *–siz* o'zaro ma'nodosh, biroq *tanish, ma'lum* kabi so'zlarga bu sinonim qo'shimchalardan faqat *-no* affiksini qo'shib ishlatish mumikin. Chunki *tanishsiz, notanish* sifatlari o'zaro sinonim bo'la olmaydi, *ma'lumsiz* shaklida esa sifat yasalmaydi

3. Antonim affikslar bir-biriga zid ma'noli qo'shimchalardir. O'zbek tilida qo'shimchalarning zid ma'noligi boshqa yondosh hodisalarga nisbatan ancha kam uchraydi. Ular ko'proq sifat yasalishida

ko‘zga tashlanadi. Masalan: *kuch**li**- kuch**siz**, maza**li** – **be**maza, g‘ayrat**li**- s**er**g‘ayrat.*

4. Ko‘p ma’noli affikslar birdan ortiq leksik va grammatik ma’noni shakllantiruvchi qo‘shimchalardir. Masalan, - *chi* qo‘shimchasi: *temirchi (asosdan anglashilgan kasbga ega bo‘lgan shaxs oti), hasharchi, ijarachi, pudratchi (o‘zakdan anglashilgan faoliyat ishtirokchisi bo‘lgan shaxs oti)* kabi yasama so‘zlardagi - *chi* ko‘p ma’nolidir. Affikslarning ko‘p ma’noligi shakl yasovchi va so‘z o‘zgartuvchilarga ham xos hodisadir. Xususan,-*lar* affiksining *bolalar* – sof ko‘plik ma’nosida, *unlar*- tur, nav ma’nosida, *dadamlar* - hurmat ma’nosida ishlatilishi, ularning nutqiy ko‘p ma’noligidan dalolat beradi.

8-§. O‘zak va affikslarning qo‘shilish tartibi. Affikslarning o‘zakka qo‘shilish tartibi ham o‘ziga xoslikka ega. Xususan, so‘z tarkibida ma’noli qismlar joylashishining odatdagi tartibi asosan, **o‘zak yoki negiz+ so‘z yasovchi+shakl yasovchi+so‘z o‘zgartuvchi** shaklida bo‘ladi. Masalan: *qishloq+dosh+lar+imiz, qo‘riqla+di+k.* O‘zakka so‘z yasovchi qo‘shimcha qo‘shilishi bilan **negiz** hosil bo‘ladi. Masalan: *ter+im, quri+q, tinch+i (moq*) kabilar negizdir. Agar so‘z tarkibida birdan ortiq so‘z yasovchi qo‘shimcha ishtirok etsa, u holda negizning chegarasi oxirgi so‘z yasovchi qo‘shimcha bilan belgilanadi. Masalan:

bil+im+don+lik yasalmasida *bilimdonlik* negizdir. Demak, odatdagi tartibga ko‘ra shakl yasovchi va so‘z o‘zgartuvchi qo‘shimchalar so‘zning o‘zak qismiga (bil+di+m) yoki negiziga (*bil+im+lar+dan // bil+im+don +lig+i+ni*) qo‘shilishi mumkin.

Ba’zan, affiks morfemalarning odatdagi tartibida o‘zgarishlar yuz berishi ham mumkin. Bunday o‘zgarishlar ko‘pincha uslubiy talablar yoki sheva ta’sirida yuzaga keladi: *aka+m+lar - aka+lar+i+im, ko‘r+di+ng+lar - ko‘r+di+lar+ing.* Ayrim hollarda yasovchi qo‘shimcha shakl yasovchi va so‘z o‘zgartuvchidan keyin qo‘shilib yangi ma’noli so‘z hosil qilishi mumkin: *uka+lar+im+cha* (bo‘lolmaysan), *tort+in+choq, kuy+in+chak* (kishi) kabi. Bunday holat affiks shaklidagi yuklamalar va qo‘shimchalarning o‘zakka qo‘shilishida ham kuzatiladi. Masalan, *bola+m+gina* so‘zida *–gina* urg‘usiz bo‘lib, ajratish ma’nosini anglatadi, mazkur yuklama bilan shakldosh bo‘lgan otlardagi erkalash qo‘shimchasi *–gina* esa o‘zakka odatdagi tartibda qo‘shiladi: *bola+gina+m.* Qo‘shimcha shaklidagi yuklamalar, odatda, barcha turdagi affiks morfemalardan keyin qo‘shiladi: *kitob+mi, kitob+dan-chi, kitob+lar+da+gina, bog‘+cha+lar+dan+*a kabi. Biroq, *-mi* yuklamasi fe’llarga qo‘shilganda

odatdagi tartib o‘zgarishi mumkin: *ko‘r+gan+di+ng+mi// ko‘r+gan+mi+di+ng*.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Morfema nima?
2. Morfema turlari haqida ma’lumot bering.
3. O‘zak va affiksal morfemaning umumiy va farqlari nimalardan iborat?
4. Har bir affiks morfemaning o‘ziga xos xususiyatlarini ta’riflang.
5. Affikslarning sinonim, omonim, antonim holatlariga misol Keltirib izohlang.
6. Affikslarning ko‘p ma’noliligi qay tarzda ko‘zga tashlanadi?
7. So‘zni morfemalarga ajratishda nimalarga e’tibor berish lozim?
8. O‘zak va affiksal morfemalarning joylashish tartibi xususida nimalarni bilasiz?
9.

ADABIYOTLAR

1.Ш. Шоабдураќмонов, М.Асљарова, А.Ќожиев, И.Расулов, Х.Дониёров Ќозирги њзбек адабий тили. 1-љисм .Т., «Њљитувчи» 1980.

2. Њзбек тили грамматикаси. 1-том. Т., «Фан» 1975.

3. N.Mahmudov,A.Nurmonov,A.Sobirov,

D.Nabiyeva,A.Mirzaahmedov Ona tili. Umumta'lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik. T., «Ma'naviyat» 2005.

4. А.Ђуломов, А.Н.Тихонов, Р.Љњђуров Њзбек тили морфем луђати. Т., «Њљитувчи» 1977.

7-MA'RUZA

7.1. So‘z yasalishi

1-§.Yasama so‘zlar tarkibi. Nutqda so‘zlar tub va yasama shaklda qo‘llaniladi. So‘zning yasovchi qismlarga ega bo‘lmagan qismi **tub so‘z** deyiladi: *gul, inson, meva, nozik, bordi, tez*. Tub so‘zlar shakl yasovchi va so‘z o‘zgartuvchi qo‘shimchalar qabul qilganda ham o‘zining tubligini saqlaydi. Masalan, *uycha, kattaroq, beshinchi, ko‘rindi, bog‘dan, do‘stlarim* kabilar ham tub so‘zlardir.

Tilda mavjud bo‘lgan biror usul asosida hosil qilingan yangi so‘z yasama so‘z deyiladi: *gulla, mevali, bog‘bon, qaror qilmoq, ish boshi, asalari, BMT.*

Yasama so‘zlar tuzulishiga ko‘ra sodda, tarkibli bo‘ladi. **Sodda yasama so‘zlar** tarkiban bitta yasaluvchi asos va bir yoki birdan ortiq

yasovchi qo‘shimchalardan tuziladi. Masalan, *ter+im, ang(ong)+la, to‘qi+ma+chilik, suv+siz+lik*. Sodda yasama so‘zlarda tashqi va ichki yasalish mavjud. Masalan, *payvand+chi, bog‘+bon* kabi yasaluvchi asos va yasovchi qo‘shimchalarning bir so‘z turkumga mansubligi **ichki yasalish** hisoblansa, *suva(o)+q+chi, quri+q+lik* kabi turkumlararo yasalish esa **tashqi yasalish** hisoblanadi. Bu turdagi yasalishda o‘zakka avval tashqi yasovchi, keyin ichki yasovchi qo‘shilishi ham mumkin: *suvo+q+chi* yasalmasidagi *–q* tashqi, *-chi* ichki yasovchi qo‘shimchalardir.

Ba’zi sodda yasama so‘zlarning yasalishi tarixiy va zamonaviyligi bilan ham farqlanadi. Chunki yasama so‘zning tarixiy shaklida zamonaviy yasalmaga nisbatan asos va qo‘shimcha o‘rtasidagi munosabatni ilg‘ab olish qiyin kechadi yoki so‘zdagi ma’noli qismlar o‘z ma’nosini yo‘qotgan bo‘ladi. Shu bois *qattiq, silliq, suyuq, emakla, quloqchin* kabi tarixiy yasalishga ega so‘zlar hozirgi til nuqtai nazaridan tub so‘z hisoblanadi.

Tarkibli yasama so‘zlarda ikki yoki undan ortiq mustaqil lug‘aviy ma’noga ega bo‘lgan yasovchi asos ishtirok etadi. Masalan: *tosh+ko‘mir, jigar+rang, erta+pishar, BMT* (*Birlashgan Millatlar Tashkiloti*), *AYOQSH* (*Avtomobillarga yoqilg‘i quyish shaxobchasi*)

kabilar. Bunday yasama so‘zlar ikki yoki undan ortiq ma’noli qism ishtirokida hosil bo‘lsa ham, yaxlitligicha bitta lug‘aviy ma’no ifodalashga xizmat qiladi.

2-§.So‘z yasash usullari. O‘zbek tilida so‘z yasalishining semantik, fonetik, abbreviatsiya, affiksatsiya, kompozitsiya kabi usullari mavjud. Bu usullar davriy nuqtai nazardan ikki guruhni tashkil qiladi: 1) tarixiy (diaxron) uasalish: semantik, fonetik, abbreviatsiya, kompozitsiya usullari; 2) zamonaviy (sinxron) uasalish: affiksatsiya kabilardan iborat.

Semantik usul. So‘zning bir turkumdan boshqa turkumga ko‘chishi asosida yangi so‘z yasalishidir. Masalan, sifatning otga ko‘chishi asosida: *ko‘k* (osmon ma’nosida), *erkak, chol, kampir*; sodda va juft fe’lning otga ko‘chishi asosida: *kurash, kengash, urush, keldi-ketdi, bordi-keldi, qo‘ydi-chiqdi*, *yurish-turish, yozuv-chizuv*; sonning ravishga ko‘chishi asosida: *birga(ketmoq), birdan (kirmoq*); otning ravishga ko‘chishi asosida: *kunduzi, kechasi (qaytmoq*), *boshda (sezmoq)* kabilar shular jumlasidandir. Semantik usul asosida yasalgan so‘zning lug‘aviy ma’nosi yangilanishi bilan bir qatorda uning grammatik ma’no va vazifasi ham o‘zgaradi. Qiyoslang: *Mushuk tavadagi go‘shtni* ***oldi-qochdi (fe’l)***. ***Oldi-qochdi*** *gaplar hammaning joniga tekkan (sifat).*

Fonetik usul. So‘z tarkibida yuzaga keladigan fonetik o‘zgarishlar asosida yangi ma’noli so‘z yasalishidir. Bu usul orqali so‘z yasalishida ikki xil fonetik o‘zgarish natijasida yangi so‘z hosil bo‘ladi: 1) tilning tarixiy taraqqiyoti davomida so‘z tarkibida tovush o‘zgarishi natijasida yangi so‘z hosil bo‘ladi: ko‘r-*ko‘z, bo‘y(doq)-bo‘z, bo‘r-bo‘z*; 2) so‘z urg‘usining o‘rni o‘zgartirilishi bilan : *yangi´-ya´ngi (hozir), endi´-e´ndi (hozirgina), ho´zir-hozi´r*.

Abbreviatsiya usuli. Murakkab so‘z birikmalarini turli usullar yordamida qisqartirish orqali yangi so‘z yasalishidir. Masalan, *elektron hisoblash mashinasi-EHM, Birlashgan Millatlar Tashkiloti-BMT.*

Qisqartma so‘zlarning ba’zilari tilimizda aynan o‘zlashtirilgan holda ishlatiladi: *YUNESKO, NATO* kabilar shular jumlasidandir. So‘z yasalishining bu usuli o‘zbek tilida rus va boshqa xorijiy tillar ta’sirida o‘tgan asrning boshlarida shakllangan bo‘lib, faqat qisqartma otlar yasalishida ishlatiladi.

Affiksatsiya usuli. Bu usul bilan o‘zakka so‘z yasovchi qo‘shimchalar qo‘shish orqali yangi so‘z yasaladi. Masalan: *o‘r+oq, dars+lik, sez+gir, o‘zbek+cha, tor+ay(moq), mard+ona.*

So‘z yasovchi qo‘shimchalar o‘zakka qo‘shilib kelish o‘rniga ko‘ra ikki turli bo‘ladi: **a) so‘z yasovchi ort qo‘shimchalar**. O‘zbek tilida

so‘z yasalishning asosini tashkil qiluvchi bunday qo‘shimchalar o‘zakdan keyin qo‘shilib, yangi ma’noli so‘z hosil qiladi. Masalan: *o‘t+loq, chiri+k, tosh+qin, ish+chan, arra+la* kabilar; **b) so‘z yasovchi old qo‘shimchalar** o‘zak oldidan qo‘shilib yangi so‘z yasaydi. Masalan: *be+tinim, no+to‘g‘ri, ba+ma’ni, ser+harakat, anti+demokratiya*. old yasovchi qo‘shimchalar asosan sifat yasovchilar bo‘lib, ularning ko‘pchiligi fors-tojik tilidan kirib kelgan.

Kompozitsiya usuli. Birdan ortiq mustaqil ma’noli o‘zak morfemalarning tobelashgan holda qo‘shiluvi, birikuvi orqali yangi so‘z hosil qilinishidir. Masalan: *Mirzachul, gulqand, guldasta, temir yo‘l, qaror qilmoq, ahd etmoq.* Bunday yasama so‘zlar ikki yoki undan ortiq mustaqil ma’onli o‘zak morfemalar ishtirokida hosil bo‘lsa ham, yaxlitligicha bitta lug‘aviy ma’no ifodalashga xizmat qiladi. Ular tuzilishiga ko‘ra qo‘shma so‘zlar deyiladi. Kompozitsiya usuli bilan yasalgan qo‘shma so‘zlar ot, sifat, ravish va qisman fe’llarda keng tarqalgan. Ularning qismlari har xil va bir xil so‘z turkumlaridan tuzilishi mumkin. Masalan: *Bel+bog‘, asal+ari, olib+chiqmoq* kabilar bir xil so‘z turkumlarning qo‘shilishidan, *qaror+qilmoq, osma+ko‘prik, tez+oqar* kabilar esa har xil so‘z turkumlarning qo‘shilishidan tuzilgan.

Qo‘shma so‘zlar ham tarixiy va zamonaviyligi bilan farqlanadi. Agar qo‘shma so‘z qismlari hozirgi tilga nisbatan eskirgan yoki boshqa tillardan o‘zlashtirilgan bo‘lsa, ular qo‘shma so‘z hisoblanmaydi. Masalan: *kechqurun, qayrag‘och, biror, odamshavanda, santimetr* kabilar hozirgi tilda ma’noli qismlarga ajralmaydigan sodda so‘zlardir. Ba’zi o‘zlashgan qo‘shma so‘zlar ma’noli qismlarga ajralishi ham mumkin*: fotokavera, kinoteatr, kinolenta, fotomodel* kabilar shular jumlasidandir.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. O‘zbek tilida necha usulda so‘z yasaladi?
2. So‘z yasalish usullarini farqlab tushuntiring.
3. Eng faol so‘z yasalish usullari qaysilar?
4. Tub va yasama so‘zlar xususida ma’lumot bering.
5. So‘z yasovchi qo‘shimchalar sinonimligi, omonimligi va antonimligi haqida nimalarni bilasiz?

7.2. So‘z turkumlarida so‘z yasalishi

So‘z yasalishi hodisasi mustaqil so‘z turkumlariga xos bo‘lib, bu hodisa ot, sifat, fe’l, ravish turkumlari uchun xarakterlidir. Mustaqil so‘zlardan son va olmoshlar so‘z yasalish tizimiga ega emas. Chunki son va olmosh so‘z yasash usullari orqali boshqa turkumga mansub

so‘zlardan yasalmaydi. Biroq bu turkumga mansub so‘zlar fe’l, ravish va qisman ot yasalishida ishtirok etadi.

7.3. Otlarning yasalishi

1-§. Affiksatsiya usuli bilan ot yasash eng mahsuldor bo‘lib, mazkur usul orqali otlarning quyidagi qo‘shimchadosh guruhlari yasaladi:

1. Shaxs oti yasovchi affikslar:

- **chi**: ot, sifat, son va harakat nomidan ot yasaydigan serunum affiksdir: *ov+chi, ish+chi, a’lo+chi, yolg‘on+chi, ikki+chi, ellik sentner+chi, kurash+chi, o‘quv+chi*. Bu otlar umumiy ma’nolariga ko‘ra bir necha uyadosh guruhlarni tashkil etadi:1) kasb, mutaxassislik bilan shug‘ullanuvchi shaxs otlari: *ishchi, neftchi, sportchi, qo‘shiqchi, bo‘zchi, hisobchi, tunkachi, tilchi*; 2) asosdan anglashilgan harakat va hodisada ishtirok etuvchi shaxs otlari: *jangchi, isyonchi, hasharchi*; 3) asosdan anglashilgan harakat va hodisa bilan shug‘ullanuvchi shaxs oti: *respublikachi, himoyachi, xabarchi* kabilar shular jumlasidandir.–chi affiksi ba’zi ot yasovchilar bilan ma’nodoshlik hosil qiladi. Shu bois ular qo‘shilgan o‘zakdosh so‘zlar **sinonimik munosabat**da bo‘ladi: *chorva+chi-chorva+dor, ko‘mak+chi-ko‘mak+dosh, mehnat+chi-mehnat+kash,*

til+chi-til+shunos. Bu affiks so‘roq, taajjub, kuchaytiruv ma’nolarini anglatuvchi - chi yuklamasi bilan **shakldosh**dir: *terim+chi, terim-chi.*

-dosh: otdan birgalik, sheriklik, umumiylik kabi ma’noga ega bo‘lgan ot yasaydi: *vatandosh, zamondosh, safdosh, sirdosh*. Bu affiks ba’zan tojikcha ham- old yasovchi qo‘shimcha bilan ma’nodoshlikka ega bo‘ladi: *kasbdosh-hamkasb, suhbatdosh-hamsuhbat.*

-kash: otdan kasb-hunar, xususiyat otlarini yasaydi: *aravakash, mehnatkash, qalamkash.* Bu affiks otdan sifat yasovchi - kash qo‘shimchasi bilan shakldoshdir. Qiyoslang: *pastkash, dilkash, dardkash.*

-bon: ot asosdan anglashilgan narsani saqlovchi, parvarishlovchi shaxs otini yasaydi: *bog‘bon, qo‘ychibon\qo‘ychivon, darvozabon*.

-boz: ot asosdan anglashilgan narsa, mashg‘ulot bilan shug‘ullanuvchi otni yasaydi: *dorboz, kaptarboz, nayrangboz, qilichboz*.

-paz: ot anglatgan narsani pishiruvchi shaxs otini yasaydi: *oshpaz, somsapaz, kabobpaz.*

-dor: ot anglatgan narsaga ega bo‘lgan shaxs otini yasaydi: *chorvador, mansabdor, puldor, amaldor*. Bu affiks sifat yasovchi –dor bilan shakldoshdir: *aydor, rangdor*.

-shunos: biror soha bilan shug‘ullanuvchi shaxs otini yasaydi: *tilshunos, tabiatshunos*.

-xon: asosdan anglashilgan narsaning doimiy o‘quvchisi ma’nosidagi ot yasaydi*: kitobxon, duoxon, gazetxon*.

-soz: ot anglatgan narsaning tuzatuvchisi, yaratuvchisi ma’nosidagi ot yasaydi: *soatsoz, mashinasoz, asbobsoz*.

-do‘z: ot anglatgan narsani tayyorlovchi shaxs otini yasaydi: *etikdo‘z, maxsido‘z, do‘ppido‘z.*

-gar: asosdan anglashilgan narsaga bog‘liq kasb bilan shug‘ullanuvchi shaxs otini yasaydi: *zargar, savdogar, miskar, kimyogar*.

-xo‘r: asos anglatgan narsani doim iste’mol qiluvchi, oluvchi shaxs otini yasaydi: *choyxo‘r, poraxo‘r, araqxo‘r, tekinxo‘r*.

-parast: asosdan anglashilgan hodisaga e’tiqod qiluvchi shaxs otini yasaydi: *budparast, otashparast, maishatparast*.

-go‘y: asos anglatgan narsani aytib turuvchi shaxs otini yasaydi: *nasihatgo‘y, maslahatgo‘y, xushomadgo‘y*.

-furush: asos anglatgan narsani sotuvchi shaxs otini yasaydi: *chinnifurush, paxtafurush, mevafurush*.

-vachcha: asos anglatgan kishilarga qarindosh bo‘lgan shaxs otini yasaydi: *boyvachcha, ammavachcha, xolavachcha, amakivachcha*.

Qayd etilgan shaxs otini yasovchi affikslardan *-kash, -bon, - paz, -shunos, -xon, -soz, -do‘z, -gar (-kor), -xo‘r, -furush* kabi affikslar fors-tojik tilidan o‘zlashgandir.

-uvchi/-ovchi: fe’l asosdan anglashilgan harakatni bajaruvchi shaxs otini yasaydi: *uchuvchi, tinglovchi, sog‘uvchi, sotuvchi*. Shuningdek, bu affiks harakatni bajarishda vosita bo‘lgan narsa otini yasashda ham ishtirok etadi: *bog‘lovchi, zidlovchi, tuslovchi*.

2. Narsa, qurol, o‘lchov birligi otlari yasovchi affikslar. Bu guruh ot yasovchilar, asosan, fe’lning o‘zak-negiziga qo‘shilib, ish - harakat bajarish uchun qo‘llanadigan narsa, harakat, holat natijasi bo‘lgan otlarni yasaydi. Ular qatoriga quyidagilar kiradi:

-k (ik /-ak, - uk), - q (-iq, -oq): *taroq, to‘siq, bo‘lak, chaqiriq, yutuq, o‘roq, yotoq.*

-gi\ -ki\ -qi\ - g‘i\-g‘u: *supurgi, cholg‘i, cholg‘u, chopqi, achitqi, tomizg‘i.*

- gich \-kich\-qich\-g‘ich: *o‘lchagich, qirg‘ich, qisqich, o‘chirg‘ich*.

- m, -im, -um: *to‘plam, o‘ram, terim, chiqim; yutum.*

- ma: *tugma, to‘qima, qatlama, suzma, isitma, jamg‘arma*.

- indi: *yuvindi, chiqindi.*

- qin, -qun, -g‘un: *toshqin, to‘lqin, uchqun, qirg‘in.*

- indi: *cho‘kindi, yuvindi, chiqindi, yig‘indi*.

- in\-un: *yog‘in, yig‘in, bo‘g‘in, tugun*.

- ch\-inch: *sevinch, o‘kinch, qo‘rqinch.*

- ish: *qurilish, turlanish, kirish (muqaddima*).

- uv\-ov: *yozuv, kechuv, qistov, maqtov*.

3. **O‘rin-joy oti yasovchi affikslar**. Asosan otning leksik ma’nosidan anglashilgan narsaning mavjud bo‘lish o‘rin-joyi bilan bog‘liq otlar yasaydi:

- loq (-lov): *toshloq, qumloq, o‘tloq, yaylov*.

- zor*: paxtazor, gulzor, lolazor, bedazor.*

- iston: *O‘zbekiston, Guliston, qabriston.*

- qoq\-g‘oq: *botqoq.*

- xona: *oshxona, suratxona, muzxona*.

- goh: *manzilgoh, oromgoh, saylgoh*.

4. Mavhum ot yasovchi affikslar sifat, ravish, son, ot, olmosh va fe’lning o‘zak-negiziga, ba’zan modal so‘zlarga qo‘shilgan holda mavhum tushunchalarni ifodolovchi otlar yasaladi:

- lik: *yaxshilik, tezlik, birlik, otalik, o‘zlik, manmanlik, borliq, yo‘qlik.*

- chilik: *pillachilik, paxtachilik.*

- garchilik: *xafagarchilik, loygarchilik.*

- **izm:** *realizm, chorizm, terorizm.*

- **ch\ inch:** *sog‘inch, quvonch, sevinch, o‘kinch.*

- **noma:** *dalolatnoma, vasiyatnoma, tashakkurnoma.*

5. O‘zbek adabiy tilida ba’zi taqlid so‘zlardan ot yasovchi affikslar ham mavjudki, ular unumsiz so‘z yasovchilar qatoriga kiradi:

- **ak\o**q: *qarsak, bizbizak, qaldiroq*.

- **ildoq**: *shaqildoq, chirildoq*.

- **a**: *sharshara, g‘arg‘ara.*

- **os**: *sharros, gulduros*.

2- §.Kompozitsiya usuli bilan ikki yoki undan ortiq so‘z shakllarining tilda mavjud bo‘lgan qoliplar asosida tobelanishi orqali birikishi va bu sintaktik aloqaning hozirgi tilda kuchsizlanishi natijasida bir umumiy ma’noga ega bo‘lishi orqali qo‘shma ot yasaladi. Qo‘shma otlarni hosil qiluvchi qismlar o‘zaro quyidagi sintaktik munosabatlarga asoslanadi:

1) sifatlovchi+sifatlanmish: *oqsaqol, beshbarmoq, yangi yo‘l, qizilishton, itbaliq.*
2) qaratuvch+qaralmish: *bilaguzuk, bedapoya, belbog‘, so‘z boshi, karvonboshi*.

3) to‘ldiruvchi+to‘ldirilmish: *muzyorar, otboqar, dunyoqarash, o‘rinbosar*.

4) ega+kesim: *roykeldi, go‘shtkuydi, kampiro‘ldi*.

5) hol+hollanmish: *iskabtopar, olibsotar, ishlab chiqarish*.

O‘zbek tilida tojikcha izofali birikmalar asosida yuzaga kelgan *gulbeor, gultojixo‘roz, guliqahqah* singari qo‘shma otlar ham mavjud bo‘lib, ular doim qo‘shib yoziladi. Shuningdek, tilimizga rus tili orqali kirib kelgan *aeroport, antisiklon, aerovakzal* singari tarkibiy qismli so‘z-lar ham borki, ularning qismlari o‘zbek tilida mustaqil ishlatilmasligi sababli qo‘shma ot hisoblanmaydi.

3-§.Semantik usul. Tilda mavjud bo‘lgan ko‘pgina so‘z va so‘z shakllari otlashgan shaklda ishlatilishi natijasida ba’zan otga ko‘chadi. Ular tarkiban tub yoki yasama bo‘lib, quyidagi so‘z turkumlaridan iborat bo‘lishi mumkin :1) *usta, oqsaqol, boy, qahramon, boboy, momoy, xotin* kabi aslida sifat turkumiga mansub so‘zlar; 2) *o‘quvchi, yozuvchi, to‘quvchi, saylovchi, aniqlovchi, aniqlanmish* kabi aslida fe’lning sifatdosh shakllariga mansub so‘zlar; 3) *o‘qish, otish, kirish, chiqish, qurish, saylov, tergov* kabi aslida fe’lning harakat nomi shakliga mansub bo‘lgan so‘zlar otga ko‘chadi. Bundan tashqari ba’zi so‘zlarning juft va

takror qo‘llanishi asosida ham ular otga xos ma’noga ega bo‘lishi mumkin: *qo‘ydi-chiqdi, oldi-berdi, u-bu* kabilar shular jumlasidandir.

4-§.Abbreviatsya usuli bilan qisqartma otlar hosil qilinadi. Qisqartma otlar nutqda ixchamlikka erishish maqsadida turg‘un so‘z birikmalarini quyidagicha qisqartirish orqali yasaladi:

1. Qisqartirilayotgan so‘zlarning birinchi tovushlaridan tarkib topadi*: BAM, BAR, BMT, GUM*.

2. Qisqartirilayotgan so‘zlarning bosh qismlaridan tarkib topadi: *Filfak, Unvermag, SamKochAvto*.

3. Birinchi so‘zning bosh qismi va keyingi so‘zlarning birinchi tovushlaridan: *Tosh MI, Sam DChTI, Sam DU.*

4. Birinchi so‘zning bosh qismi va keyingi so‘zni to‘liq olish orqali: *Medinstitut, dramteatr, avtoyo‘l.*

7.4. Sifat yasalishi

Sifatlar asosan, affiksatsiya va kompozitsiya usullari bilan yasaladi.

1-§.Affiksatsiya usuli. So‘zning o‘zak yoki negiziga sifat yasovchi qo‘shimchalar qo‘shish orqali narsaning belgisini bildiradigan yangi so‘zlar yasash usulidir. **S**ifat yasovchi qo‘shimchalar o‘zakka qo‘shilib

kelish o‘rniga ko‘ra ort va old yasovchilarga bo‘linadi. Bu yasovchilar ko‘pincha ot yoki fe’l asosli o‘zak va negizlardan sifat yasaydi.

1. Otdan sifat yasovchi affikslar:

- li: ot asosdan anglashilgan narsaga egalik belgisini anglatadi: *miltiqli, uchli, kuchli, sutli*; ba’zan bu affiks fe’lning harakat nomi shaklidan: *yeyishli, o‘tirishli* hamda sifatdosh shaklidan ham sifat yasaydi: *tushunarli, qiziqarli*.

- siz: asosdan anglashilgan narsaga ega emaslik belgisini anglatadi: *sutsiz, suvsiz, kuchsiz.*

be-: bu qo‘shimcha - siz affiksining sinonimidir: *beminnat, betinim, beparvo, beg‘am.*

no-: ot va sifat turkumiga mansub so‘zlardan sifat yasaydi: *noumid, noiloj, noo‘rin, noto‘g‘ri, nomunosib, noma’qul*.

- chan: asosdan anglashilgan xususiyatga moyillik belgisini ifodalovchi sifat yasaydi: *ishchan, uyatchan , sinovchan, ta’sirchan*.

- chil: asosdan anglashilgan narsa belgisini ifodalaydi: *dardchil, izchil, epchil.*

- iy\-viy: asosdan anglashilgan narsaga oidlik, tegishlilik belgisiga ega sifat yasaydi: *tarbiyaviy, ommaviy, oilaviy, g‘oyaviy.* Mazkur affiks bilan birga arab tilidan kirib kelgan lug‘aviy, *maishiy, jinoiy, jiddiy,*

madaniy kabi so‘zlar o‘zbek tilida ma’noli qismlarga ajralmaydi. Shu bois ular tub so‘z hisoblanadi.

- gi, -ki, -qi: asosdan anglashilgan narsaning payt va o‘ringa ko‘ra belgisini ifodalaydi*: yozgi, qishki, kechki, ichki, tashqi*.

- simon: asosdan anglashilgan narsaga o‘xshashlik belgisini ifodalaydi: *odamsimon, kumushsimon, tuxumsimon*.

- shumul: asosdan anglashilgan darajaga egalik belgisini anglatadi: *olamshumul, jahonshumul.*

- dor: asosdan anglashilgan narsaga egalik belgisini hosil qiladi: *mazmundor, bo‘ydor, unumdor, puldor, rangdor*.

- mand: asosdan anglashilgan narsaga egalik belgisini anglatadi: *davlatmand, orzumand, kasalmand*.

- kor: asosdan anglashilgan xususiyatga kuchli darajada egalik belgisini hosil qiladi: *fidokor, ehtiyotkor, isyonkor, omilkor, naqshinkor.*

- i: asosdan anglashilgan narsaning millat, joy yoki vaqtga oidligini bildiruvchi sifat yasaydi: *qozoqi, qishloqi, bahori*.

- cha: asosdan anglashilgan narsaning millat, joy yoki miqdorga oidligini bildiruvchi sifat yasaydi: *o‘zbekcha, farg‘onacha, otiqcha, erkakcha.*

- parvar: shaxsning asosdan anglashilgan narsani sevishi, unga sadoqati belgisini bildiruvchi sifat yasaydi: *xalqparvar, vatanparvar, adolatparvar*.

- aki: asosdan anglashilgan narsaining harakat usuliga ko‘ra belgisini ifodalaydi: *og‘zaki, zo‘raki, xomaki, qalbaki*.

- namo: narsadan anglashilgan xususiyatga egalik belgisini ifodalaydi: *majnunnamo, avliyonamo, darveshnamo*.

Bulardan tashqari **-kash** (*dilkash, hazilkash*), **-gar**(*ishvagar, sitamgar*), **-chil** (*dardchil, xalqchil*), **-don** (*gapdan, bilimdon*), **-msiq** (*qarimsiq*), **-m** (*qaram*), **-lom** (*sog‘lom*), **-qa** (*qisqa*), **-lik**(*ko‘rpalik, ko‘ylaklik mato*), **-omuz** (*hazilomuz, ibratomuz*) kabi kam unum affikslar orqali ham sifat yasaladi.

2. Fe’ldan sifat yasovchi affikslar:

-choq\-chaq\-chiq. O‘zlik nisbatdagi fe’llarga qo‘shilib, harakat bajarishga moyillikning kuchliligini ifodalovchi sifat yasaydi: *maqtanchoq, tortinchoq, kuyinchak, erinchoq, sirpanchiq, qizg‘anchiq.*

-gir\-qir\-g‘ir\-kir. Fe’ldan anglashilgan harakatning kuchliligini ifodalovchi sifat yasaydi: *topqir, uchqur, chopqir, olg‘ir, sezgir, keskir.*

-ma. Narsaning fe’ldan anglashilgan harakat vositasida yuzaga kelishini anglatuvchi sifat yasaydi: *qaynatma (sho‘rva), burma (ko‘ylak), ko‘chma (ma’no), ag‘darma (etik).*

-k\-q\-iq\-uk\-uq\-ak. Harakatning natijasi bo‘lgan holat belgisini ifodalovchi sifat yasaydi: *iliq, siniq, yig‘loq, chirik, oqsoq, yumshoq, bo‘lak.*

-ki\-qi. Fe’l va taqlid so‘zlardan sifat yasaydi: *sayroqi, buzuqi, yig‘loqi, jizzaki, jirtaki.*

-kin\-qin-\-g‘in. Fe’l asosiga qo‘shilib, holat, xususiyat ma’nosidagi sifat yasaydi*: tushkun, jo‘shqin, ozg‘in, turg‘un.*

-mon. Asosdan anglashilgan harakatni bajarish qobiliyati kuchli ekanligini anglatuvchi sifat yasaydi: *bilarmon, o‘larmon, yeyarmon.*

-ag‘on. Fe’ldan anglashilgan harakatni bajarish qobiliyati kuchli ekanligini anglatuvchi sifat yasaydi: *topag‘on, bilag‘on, chopag‘on*.

-mas. Harakatning inkoriy belgisi bo‘lgan sifat yasaydi: *yengilmas, o‘tmas, qo‘rqmas, ajralmas, qaytmas, buzilmas.*

-ch. faqat fe’ldan sifat yasaydi: *jirkanch, tinch, shoshilinch, tiqilinch.*

- qoq\-g‘oq: harakatni bajarishga moyilligi kuchli ekanligini anglatuvchi sifat yasaydi: *qochqoq, yopishqoq, urushqoq, tirishqoq.*

- ildoq. Taqlid so‘zlardan sifat yasaydi: *likildoq, shaqildoq*.

2-§. Kompozitsiya usuli. Turli turkumlarga oid so‘z shakllarining tilda mavjud bo‘lgan sintaktik qoliplar asosida qo‘shilishi orqali bitta belgi ifodalashga xoslangan yasama sifatlardir. Bu usul ham hozirgi o‘zbek tilidagi mahsuldor yasalish usullaridan bo‘lib, qismlarning sintaktik aloqasiga ko‘ra quyidagicha guruhlarni tashkil qiladi:

1) aniqlovchi-aniqlanmish: *olachipor, ochsariq, to‘q qizil, qiziqqon, ochko‘z, kaltafahm;*
2) to‘ldiruvchi-to‘ldirilmish: *tinchliksevar, izquvar, muzyorar, ishbilarmon;*
3) hol-hollanmish: *ertapishar, tezoqar.*

Qo‘shma sifatlar tarkibidagi qismlarning tub yoki yasama ekanligi bilan ham o‘zaro farqlanadi. Masalan: 1) ikkala qismi ham tub so‘zlardan:*xom semiz, kamgap, nimjon, ommabop, izquvar*; 2) tub va yasama so‘zlardan tuziladi: *souqqon, tezoqar, erksevar, ishyoqmas.*

Bundan tashqari tilimizda qismlari qo‘shma sifatlardek zich bog‘lanib ketmagan *gapga usta, ko‘zga yaqin, og‘zi bo‘sh, qo‘li ochiq, bodom qovoq, katta og‘iz* kabi birikmali **murakkab sifatlar** ham mavjud.

3-§.Semantik usul. Boshqa turkumga mansub so‘zlarning ma’no o‘zgarishi natijasida sifatga ko‘chish hollari ham uchraydi. Sifatga ko‘chish, ya’ni **adyektivatsiya hodisasi** quyidagi so‘zlar asosida sodir bo‘ladi: a) otning sifatga ko‘chishi orqali: *tilla bola, asal qiz, oltin davr, kumush qish*; b) fe’lning sifatdosh shakllarining sifatga ko‘chishi orqali: *kelishgan yigit, turar joy, oqar suv, kelasi yil, o‘tgan zamon;* g) ravishning sifatga ko‘chishi orqali: *o‘zbekcha kitob, oqilona maslahat, tez odam.* Bundan tashqari so‘zlarning ma’no o‘zgarishi natijasida sifatga ko‘chish hollari juft va takror qo‘llanishi asosida ham yuz beradi: *oldi-qochdi gap, tolim-tolim yoki tol-tol soch, yo‘l-yo‘l ko‘ylak.*

7.5. Fe’llarning yasalishi

Fe’llar, asosan, affiksatsiya va kompozitsiya usuli bilan yasaladi.

1-§. Affiksatsiya usuli. Bu usul bilan fe’l bo‘lmagan so‘zlarga maxsus yasovchi qo‘shimchalar qo‘shib fe’llar yasaladi. Fe’l yasovchi affikslar cheklangan bo‘lishiga qaramay, ular vositasida yasalgan fe’llar anchagina miqdorni tashkil etadi:

-la. Bu affiks quyidagi so‘zlardan fe’l yasaydi:1) otdan: *qatiqla, gulla, metrla*; 2) sifatdan: *oqla, yaxshila, tozala*;3) olmoshlardan: *senla,*

sizla; 4) ravishdan: *tezla, sekinla*; 5) taqlid so‘zdan*: taqqilla, gursilla*; 6) undovlardan: *ohla, dodla*.

- a. Ot, sifat va taqlid so‘zlardan: *sana, osha, ata (ot+a), yasha (yosh+a), qiyna, shildira, yaltira.*

-y\-ay. Ot, sifat va ravishdan: *kuchay, qoray, toray, sarg‘ay, pasay, susay, ko‘pay, ozay.*

-r\-ar. Faqat sifatlardan fe’l yasaydi*: qizar, oqar, ko‘kar, eskir*.

-ik\- iq. Ba’zi ot, sifat, son, ravish va undov so‘zlardangina fe’l yasaydi: *yo‘liq, zo‘riq, birik, hayiq*.

-ir\-ur. Ot va undov so‘zlardan: *gapir, tupur*.

-sira. Ot va olmoshlardan yasaydi: *suvsira, qonsira, sensira, sizsira.*

-i. Ot va sifatdan fe’llar yasaydi: *changi,boyi, tinchi*.

- illa. Taqlid so‘zlardan: *taqilla, shig‘illa, miltilla.*

-lan. Ot, sifat va ikki sonidan yasaydi: *ovqatlan, jonlan, sergaklan, shodlan, ikkilan.*

-lash. ot, sifat va bir sonidan: *gaplash, birlash, qiyinlash, do‘stlash.*

-t\-it. Sifatdan kamsonli fe’l yasaydi: *to‘lat, berkit*.

Shuningdek, fe’l yasovchi **- qir** undov so‘zlardan: *hayqir,* **- sa,- ka** ba’zi otlardan: *suvsa, iska* fe’l yasaydi. Biroq fe’l yasovchi qo‘shimchalar bilan fe’ldan fe’l yasalmaydi.

2- §.Kompozitsiya usuli. Qo‘shma fe’llar komponentlarining qaysi turkumga oidligiga ko‘ra ikki asosiy turga bo‘linadi: 1) ot + fe’l shaklidagi qo‘shma fe’llar; 2) fe’l + fe’l shaklidagi qo‘shma fe’llar.

Birinchi tipdagi fe’llarning asosiy qismlaridan biri sifatida *qilmoq, aylamoq, etmoq, bo‘lmoq* so‘zlari ishtirok etadi: *bayon qilmoq, kashf etmoq, kasal bo‘lmoq* kabilar. Ular ko‘pincha fe’l yasovchi affikslar bilan yasalgan fe’llarga ma’nodosh bo‘ladi: *kasal bo‘lmoq-kasallanmoq, hozir bo‘lmoq-hozirlanmoq* kabi. Fe’l bo‘lmagan so‘zning *qilmoq, erimoq, aylamoq, bo‘lmoq* fellaridan biri bilan birikishidan hamma vaqt ham qo‘shma fe’llar hosil bo‘lavermaydi. Masalan, *o‘qituvchi edi, o‘qituvchi bo‘ldi* shaklidagi birikuv tarkibidagi fe’llar ot kesimga qo‘shiladigan **bog‘lamalardir**.

O‘zbek tilida ikki fe’lning birikuvidan hosil bo‘lgan qo‘shma fe’llar uncha ko‘p emas. Masalan, *olib kelmoq, sotib olmoq, terib bormoq* kabi qo‘shma fe’llar shular jumlasidandir. Bu qo‘shma fe’llarni *ko‘rib qolmoq, o‘qib chiqmoq*,*ishlay boshlamoq* singari ikkinchi qismi mustaqil ma’noga ega bo‘lmagan **ko‘makchi fe’lli birikmalardan** farqlash lozim.

7.6. Ravishlarning yasalishi

1-§. Affiksatsiya usuli. Bu usulga koʻra, ot, sifat, son, olmosh va feʼlning sifatdosh, harakat nomi shakllariga maxsus ravish yasovchi qoʻshimchalar qoʻshish bilan ravishlar yasaladi. Ravishlar, asosan, quyidagi yasovchi qoʻshimchalar vositasida yasaladi:

-cha: ot, sifat, olmosh, sifatdosh va ravishlardan ravish yasaydi: *inglizcha, vaqtincha, yaxshilikcha, yangicha, sencha, shuncha, istagancha, yugurgancha, hozircha, butunicha, koʻpincha, keyincha.* Ravish yasovchi *-cha* affiksi toʻgʻridan- toʻgʻri oʻzak-negizga qoʻshilib kela olganidek, baʼzi soʻz oʻzgartuvchi va shakl yasovchilardan keyin qoʻshilishi ham mumkin: *ista+gan+cha, butun+i+cha, oʻz+i+cha, biz+ning+cha.*

-larcha affiksi yordamida yasalgan ravishlar maʼno tomonidan *–cha* affiksi bilan yasalgan ravishlardan deyarli farq qilmaydi. Biroq *–larcha* asosan, ot va sifatlardan ravish yasaydi: *oʻrtoqlarcha, bolalarcha, vaxshiylarcha, aybdorlarcha, yovuzlarcha.* Bu affiks sifatga qoʻshilganda belgi bildiruvchi soʻz otga xos maʼnoga ega boʻladi: *telbalarcha, mardlarcha*.

-chasiga, maʼno jihatdan *–cha, -larcha* affikslariga nisbatan harakat belgisining toʻliq oʻxshashligini bildiradi va ot hamda baʼzi

sifatlardan ravish yasaydi: *dehqonchasiga, qishloqchasiga, samarqandchasiga, ochiqchasiga, mardchasiga*.

-iga\-siga: ot, sifat, olmosh, ravish va ravishdoshlardan ravish yasaydi: *qatorasiga, uzunasiga, tikkasiga, ko‘tarasiga, ko‘ndalangiga, shunaqasiga.*

- lab: ot, sifat, son kabi turkum so‘zlardan ravish yasaydi: *oylab, bo‘g‘inlab, yaxshilab, ko‘plab, bittalab, botmonlab.*

- ona: ba’zi bir ot, sifatlarga qo‘shilib ravish yasaydi: *fidokorona, ojizona, mardona, xolisona, faqirona*.

- an: otlardan ravish yasaydi: *majburan, qisman, tamoman, tasodifan.*

- siz, be: ot va fe’lning harakat nomi shakllaridan ravish yasaydi: *to‘xtovsiz, beto‘xtov, ruxsatsiz, beruxsat, tinimsiz, betinim.* Bu affikslar *bevaqt, begumon* kabi o‘zaklar asosida yasalganda ma’nodoshlikka ega bo‘lmaydi.

Bulardan tashqari , **-n \- in**: *ertan , kechin ;* - **incha** : *ko‘pincha ;* - **ligicha**: *tirikligicha, butunligicha*; **-lay \- layin**: *butunlay, tiriklayin;* - **day (dek)** *qushday (uchmoq) toshday (irg‘itmoq)* kabi yasovchi affikslar bilan ham ravishlar yasaladi.

2-§. Kompozitsiya usuli. Bu usul bilan turli turkumga mansub so‘zlarning qo‘shilishi yoki juftlanishi, takrorlanishi orqali ravishlar yasaladi. Qo‘shma ravishlarning yasalishida quyidagi so‘zlar faol ishtirok etadi: 1) *u, bu, shu, o‘sha* kabi ko‘rsatish olmoshlaridan so‘ng o‘rin-payt, chiqish kelishigidagi *yer, yoq, ora, o‘rta* so‘zlarini keltirish orqali: *u yerga, shu yerdan, o‘sha yoqdan, bu orada, shu o‘rtada* kabi; 2) *bir* so‘zining bosh yoki o‘rin-payt, chiqish, jo‘nalish kelishigidagi so‘zlar bilan qo‘llanishi orqali: *bir oz, bir talay, bir vaqt, bir yo‘la, bir onda, bir zumga, bir boshdan, bir chekkadan, bir talay* kabi; 3*) har* belgilash olmoshiga bosh va o‘rin-payt, jo‘nalish kelishigidagi so‘zlarni qo‘shish orqali: *har yoqqa, har yerda, har tomon, har onda, har lahzada, har qayerda, har safar* kabi.

Turli turkumlarga mansub so‘zlarning juft va takror holda qo‘llanishi asosida ham ravishlar yasaladi. Bunda quyidagi turkum so‘zlarining juft va takror holda qo‘llanishi kuzatiladi: 1) ot+ot: *qator-qator, yildan-yilga, tun-kun, navbatma-navbat, qadam-baqadam;* 2) sifat+sifat: *eson-omon, pishiq-pishiq, ochiqdan-ochiq, uzindan-uzoq, zo‘r-bazo‘r*; 3) fe’l+fe’l: *uzil-kesil, ag‘dar-to‘ntar, olmoq-solmoq, bilinar-bilinmas, qo‘yarda-qo‘ymay, turib-turib, ozib-yozib, qayta-qayta;* 4) ravish+ravish: *nari-beri, oldinma-keyin, birin-ketin, unda-bunda, hali-beri;* 5)

olmosh+olmosh: *o‘zidan-o‘zi, o‘z-o‘zidan, o‘z-o‘zicha;* 6) aralash holda: *ochiq-oydin, to‘la-to‘kis, vaqt-bevaqt, chor-nochor;* 7) yordamchi so‘zlar ishtirokida: *apil-tapil, taqa-taq, shartta-shartta.*

3-§.Semantik usul. Tilimizda ba’zi turkumiga mansub so‘zlar jo‘nalish, o‘rin-payt, chiqish kelishigi qo‘shimchalarini olgan holda yoki hech qanday vositasiz ravishga ko‘chishi mumkin. Xususan, kelishik affikslari vositasida quyidagi turkumga mansub so‘zlar ravishga ko‘chadi: 1) otlar jo‘nalish, o‘rin-payt, chiqish kelishigi qo‘shimchalarini olgan holda: *oraga, orada, oradan, tubdan, tongdan, tongda, orqadan, orqaga, chetdan, chetga, chetda;* 2) sifatlar jo‘nalish, o‘rin-payt, chiqish kelishigi qo‘shimchalarini olgan holda: *uzoqqa, uzoqdan, uzoqda, yaqinda, yaqindan, yaqinga,chindan, pastdan, quyiga, quyida, yolg‘ondan;* 3) ko‘rsatish olmoshlari o‘rin-payt, chiqish kelishigi qo‘shimchalarini olgan holda ravishga ko‘chadi: *unda- bunda, o‘shanda, shundan, bundan;* 4) bo‘lishsiz shaklidagi schifatdoshlar chiqish kelishigi qo‘shimchasini olgan holda: *shoshmasdan, indamasdan, charchamasdan, yiqilmasdan*; 5) bir soni jo‘nalish, o‘rin-payt, chiqish kelishigi qo‘shimchalarini olgan holda: *birdan, birga, birda.* Bundan tashqari, *erta, indin, kecha, burun* kabi otlar; *yaqqol, tugal, bafurja, uzluksiz, to‘xtovsiz* kabi sifatlar; *osha, o‘ta, qo‘sha, qayta* kabi

ravishdoshlar; *shartta, tappa, chippa* kabi taqlid so‘zlar hech qanday vositasiz tug‘ridan-to‘g‘ri ravishga ko‘chib yangi ma’noga ega bo‘ladi.

ZARURIY ADABIYOTLAR

1.Ш. Шоабдураќмонов, М.Асљарова, А.Ќожиев, И.Расулов, Х.Дониёров Ќозирги њзбек адабий тили. 1-љисм .Т., «Њљитувчи» 1980.

2.У.Турсунов, Ж.Мухторов, Ш.Раќматуллаев Ќозирги њзбек адабий тили. Т., «Њљитувчи» 1992.

3.М.Мирзаев, С.Усмонов, И.Расулов Њзбек тили. Т., «Њљитувчи» 1978.

4.N.Mahmudov, A.Nurmonov,A.Sobirov, D.Nabiyeva, A.Mirza-ahmedov Ona tili. Umumta’lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik. T., «Ma’naviyat» 2005.

8-MA’RUZA

8.1. Grammatika

1-§. Morfologiya- yunoncha «shakl», «so‘z» va «ta’limot» degan ma’noni anglatuvchi termin bo‘lib, u grammatikaning (grammatika-yunoncha «yozuv san’ti» demakdir) muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Morfologiya so‘z turkumlari, ularning grammatik ma’no-

lari, kategoriyalari hamda so‘z shakllari tizimsi haqidagi ta’limotdir. Demak, morfologiyada so‘z grammatik birlik sifatida o‘rganiladi. Tildagi har qanday grammatik birlik esa grammatik ma’no va shakl kasb etadi.

2-§. So‘zning grammatik ma’nosi. Ma’lumki, so‘z lug‘aviy ma’nodan tashqari grammatik ma’noga ham ega bo‘ladi. So‘zning u yoki bu turkumga mansubligini ko‘rsatib, uning ma’lum bir grammatik shaklga egaligini ifodalaydigan ma’no grammatik ma’no deyiladi. Masalan, *qalam, suv, tosh, uy* so‘zlarining har biri uchun taalluqli bo‘lgan lug‘aviy ma’nodan tashqari, ular uchun umumiy bo‘lgan ma’no, ya’ni ularning ot turkumiga mansubligi, narsalik tushunchasi, bosh kelishik va birlik shakldaligi kabilar mazkur so‘zlarning grammatik ma’nosini tashkil qiladi. Demak, so‘zning lug‘aviy ma’nosi xususiy (ya’ni har bir so‘zning o‘zigagina xos bo‘lgan ma’no), grammatik ma’nosi esa umumiydir.

3-§. So‘zning grammatik shakli. So‘zning nutq jarayonida muayyan grammatik ma’no ifodalovchi tarkibi uning grammatik shaklini tashkil etadi. Masalan, *gullar* so‘zida undan anglashilgan lug‘aviy ma’nodan tashqari mazkur narsaning ko‘pligi ham anglashiladi. Ko‘plik ma’nosi so‘zning lug‘aviy ma’nosiga qo‘shiluvchi grammatik

ma’no bo‘lib, bu ma’no –lar shakl yasovchi affiksi orqali ifodalangan. So‘zning grammatik shakli nol ko‘rsatkichli va birdan ortiq shakl yasovchi affikslar ishtirokida ifodalanishi mumkin. Masalan: *talaba* so‘zi birlik, bosh kelishik shaklida; talabalarimizning so‘zi esa ko‘plik, 1-shaxs egalik va qaratqich kelishigi shakillaridadir.

O‘zbek tilida otning bosh kelishik va birlik shakli (kitob), fe’lning bo‘lishli shakli (o‘qi) hamda uchinchi shaxs, o‘tgan zamonning –di affiksi orqali tuslanuvchi shakli (bordi), ba’zan buyruq-istak maylining ikkinchi shaxsi (tur, o‘tir) nol ko‘rsatkichli shakldir.

So‘z shakli bevosita grammatik ma’no ifodalovchi shakl yasovchi vositalar bilan bog‘liq bo‘lib, mazkur vositalarning ishtirokiga ko‘ra so‘zning grammatik shakllarini yuzaga keltiruvchi quyidagi usullar farqlanadi: 1) **sintetik usul** maxsus grammatik shakl hosil qiluvchiaffikslar vositasida yuzaga keluvchi so‘z shakllarini o‘zida umumlashtiradi. O‘zbek tilida sintetik usul orqali o‘zak yoki negiz+nol \ o‘zak yoki negiz + sintaktik shakl yasovchi\ o‘zak yoki negiz + lug‘aviy shakl yasovchi\ o‘zak yoki negiz + lug‘aviy shakl yasovchi+ sintaktik shakl yasovchi kabi sodda va murakkab qoliplar asosida so‘z shakllari hosil qilinadi. Masalan: *kitob+0, o‘qi+0, ishla+di+k, bog‘bon+lar+dan, o‘qi+yap+man, uy+cha, katta+roq, tez+gina.* So‘z shakli hosil qilishda

ishtirok etuvchi asos (o‘zak) qo‘shma, juft so‘z bo‘lishi mumkin: *O‘zbekiston Vazirlar Mahkama+si+ga, Kattaqo‘rg‘on+dan, ota-ona+lar+dan* ; 2) **analitik usul** mustaqil va yordamchi so‘zlarni o‘zaro biriktirish, juftlash, takrorlash orqali bir xil grammatik ma’no hosil qiluvchi so‘z shakllarini o‘zida umumlashtiradi. Bunda yordamchi so‘z birikadigan mustaqil so‘zning o‘zi ham biror grammatik shaklga ega bo‘ladi va ular birgalikda yaxlit bir so‘z shaklini hosil qiladi: *do‘st+im uchun, uka+m bilan, yoz+ib ko‘r, bil+ib ol, ayt+a boshla, gapir+a ket, o‘q+ib tashla.* Shuningdek, *ota-ona, eson-omon* kabi juft so‘zlar, *ombor-ombor, yura-yura* kabi takroriy so‘zlar ham umumlashtirish, ko‘plik, takror kabi yaxlit grammatik ma’noga egaligi bilan ularning har biri alohida so‘z shaklini tashkil etadi. So‘zning grammatik shakliga xos bu kabi qismlar birligidan uning **morfologik tarkibi** vujudga keladi. Masalan, yuqorida keltirilgan *ishladik* so‘zining morfologik tarkibi *asos+* zamon shakli yasovchi affiks *+tuslovchi* affikslardan iborat: *ishla+di+k.*

So‘zning morfologik tarkini shakllantirishda asos bo‘luvchi qism tub asosli yoki yasama asosli(negiz) bo‘lishi mumkin: *bog‘+lar+dan* - tub asosli, *bog‘bon+lar+dan*-yasama asosli.

4-§. Grammatik kategoriya. Grammatik ma’no va ulaniing ifodasi bo‘lgan vositalar birligi grammatik kategoriya deyiladi. Muayyan grammatik kategoriya o‘zaro uzviy munosabatda bo‘lgan ikki yoki undan ortiq grammatik ma’no va uni ifodalovchi grammatik shakllar (affikslar) tizmidan iborat bo‘ladi. Masalan, otlardagi kelishik kategoriyasi oltita kelishik ma’nosi va bu ma’noni ifodalovchi affikslar tizmini, fe’llardagi shaxs-son kategoriyasi esa birlik va ko‘plikdagi uchta grammatik shaxs ma’nosi va ularning ifodasi bo‘lgan affikslar tizimini o‘zida birlashtirgan holda butunlik tashkil qiladi. Shuningdek, otlardagi son, egalik kategoriyasi, fellardagi zamon, nisbat, mayl, bo‘lishli - bo‘lishsizlik kategoriyalari ham ikki va undan ortiq umumiy va xususiylikka ega bo‘lgan grammatik ma’no anglatuvchi shakl yasovchi affikslarlar tizimidan iborat.

Shuni ham qayd etish lozimki, ba’zi shakl yasovchi affikslar so‘zning lug‘aviy ma’no anglatuvchi qismiga qo‘shilib, ularni grammatik ma’no va vazifaga xoslangan shakllarini yuzaga keltiradi. Lekin bu grammatik ma’no va vazifalarni vujudga keltiruvchi shakl yasovchi affikslar o‘zining muayyan xususiy delgilarigagina egaligi tufayli boshqa shakl yasovchi affikslar bilan bir umumiy grammatik kategoriya hosil qila olmaydi. Shu bois so‘zning lug‘aviy ma’no

ifodalovchi qismga qo‘shilib, ularni turli grammatik vazifalarga xoslovchi bunday shakl yasovchilar tilning nokategorial shakllarini tashkil etadi. Masalan, otlardagi kichraytirish, erkalash shakllari, fe’lning vazifadosh shakllari asosida ifodalangan grammatik ma’nolar faqat xususiy belgiga egaligi tufayli muayyan butunlik hosil qila olmaydigan **nokategorial shakllariga** mansubdir. Shunday qilib, til tizimidgi so‘zlarning grammatik ma’no ifodalovchi qismini tashkil etuvchi shakl yasovchi affikslar o‘zining xususiy va umumiy belgilariga ko‘ra ikki guruhga bo‘linadi: 1) kategorial shakl yasovchilar; 2) nokategorial shakl yasovchilar.

5-§. So‘zlarning leksik va grammatik ma’no hamda vazifasini shakillantiruvchi qo‘shimchalarning bu kabi umumiy va xususiy belgilari affiksal morfemalarni tasniflashda o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi. Xususan, a) o‘zining xususiy va umumiy grammatik ma’nolariga ko‘ra muayyan kategoriyaga birlashuvchi shakl yasovchi affikslar so‘zlarning sintaktik munosabatini ta’minlashga xizmat qiladi. Masalan, otlardagi egalik, kelishik qo‘shimchalari, fe’llardagi shaxs-son qo‘shimchalari. Bunday kategorial shakl yasovchilar **sintaktik shakl yasovchilar** sifatida farqlanadi; b) o‘zining kategorial va nokategorial belgilari tufayli so‘zning lug‘aviy ma’nosiga ta’sir etish bilan bir

qatorda ularning sintaktik munosabatga kirishuvida ihstirok etadigan shakl yasovchilar **lug‘aviy-sintaktik shakl yasovchilar** sifatida farq-lanadi. Masalan, fe’llardagi sifatdosh, ravishdosh, harakat nomiga xos affikslar shular jumlasidandir; v) so‘zning lug‘aviy ma’no tarkibiga qo‘shimcha ma’no orttirish uchun xizmat qiladigan shakl yasovchilar **lug‘aviy shakl yasovchilar** sifatida ajratiiladi. Masalan, otlardagi son, sifatlardagi daraja, sonning ma’no turlarini hosil qiluvchi affikslar, fe’llardagi nisbat, bo‘lishli-bo‘lishsizlik shakllari shular jumlasidandir *(Qarang: N.Mahmudov, A.Nurmonov, A.Sobirov, D.Nabiyeva, A.Mirzaahmedov Ona tili. Umumta’lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik. T., «Ma’naviyat» 2005).

Affiksal marfemalarning so‘z yasashda ishtirok etuvchi turi o‘zi qo‘shiladigan (o‘zak) asosning bevosita lug‘aviy ma’nosiga dahldorligi bilan shakl yasalishida ishtirok etadigan qo‘shimchalardan tubdan farqlanadi. Shu bois so‘z yasovchi affikslar so‘z shaklini o‘rganuvchi morfologiyada emas, balki so‘z yasalish bahsida tahlil qilinadi.

8.2. So‘z turkumlari tasnifi

So‘zlarning lug‘aviy va grammatik ma’no jihatdan o‘xshashligiga ko‘ra ayrim leksik - grammatik guruhlariga ajratilish so‘z turkumlari

deyiladi. So‘zlarni turkumlarga ajratishda ularning grammatik ma’nolari bilan bir qatorda, lug‘aviy ma’nosi ham asosiy belgilardan hisoblanadi. Ham grammatik, ham leksik ma’nolarga ega bo‘lib, gapda mustaqil sintaktik bo‘lak sifatida ishtirok etadigan so‘zlar **mustaqil so‘zlar** deyiladi. Mustaqil so‘zlarga: ot, sifat, son, olmosh, fe’l, ravish kiradi.

Shuni ham ta’kidlash joizki, tilimizdagi ba’zi mustaqil so‘zlar ham nutq jarayonida o‘zining mustaqil lug‘aviy ma’nosini yo‘qotib, grammatik ma’no ifodalashga xoslangan holda, yordamchi so‘z vazifasiga o‘tishi mumkin. Bu hodisa tilshunoslikda **grammatikalizatsiya** deb yuritiladi. Masalan: *ko‘rib qolmoq, bilib olmoq, xafta ichi* kabi birikmalardagi *qol, ol, ich* so‘zlari o‘zining mustaqil lug‘aviy ma’nosni yo‘qotgan holda yordamchi so‘z sifatida qo‘llangan.

Mustaqil leksik ma’noga ega bo‘lmaydigan, gap bo‘lagi vazifasini bajara olmaydigan, biroq so‘z va gaplarni o‘zaro bog‘lash yoki ularga qo‘shimcha ma’no nozikligi kiritish (yuklash) uchun xizmat qiladigan so‘zlar **yordamchi so‘zlar** deyiladi. Yordamchi so‘zlar umumiy vazifalarga ko‘ra uch turli bo‘ladi:1) ko‘makchi; 2) bog‘lovchi; 3) yuklama.

Undov, taqlid va modal so‘zlar esa, yordamchi so‘zlarning alohida guruhini tashkil etadi. Chunki undov va taqlid so‘zlar gap bo‘lagi sifatida ham, mustaqil so‘z-gap sifatida ham qo‘llanadi. Ayni paytda mustaqil so‘zlarning yasalishida ham ishtirok eta oladi. Biroq bu so‘zlar harakat va hodisaning atamasi bo‘la olmasligi, ya’ni lug‘aviy ma’no ifoda eta olmasligi bilan yordamchi so‘zlarga o‘xshashdir. Shuning uchun ham undov, taqlid, modal so‘zlarning har biri o‘ziga xos xususiyatlari bilan alohida - alohida turkumni tashkil etadi.

Ko‘rinadiki, so‘zlarni turkumlarga ajratishda, birinchidan, lug‘aviy ma’no, ikkinchidan, morfologik shakl, uchinchidan, biror sintaktik vazifa bajarish xususiyati, to‘rtinchidan, qo‘llanish qurshovi (distributsiyasi) e’tiboridan kelib chiqiladi. Shunga ko‘ra so‘zlarning hozirgi o‘zbek tilidagi turkumlari: 1) ot, sifat, son, olmosh, fe’l, ravish kabi mustaqil so‘zlar; 2) ko‘makchi, bog‘lovchi, yuklama kabi yordamchi so‘zlar; 3) modal so‘zlar, taqlid so‘zlar, undov so‘zlar kabi alohida yordamchi so‘zlar guruhidan iborat.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Grammatikada nima o‘rganiladi?
2. Grammatik ma’noni qanday tushunasiz?

3. Grammatik ma’no ifodalash vositalari xususida ma’lumot bering.
4. So‘zning grammatik shakli va uni ifodalovchi vositalarning turlari xususida ma’lumot bering.
5. Grammatik kategoriya nima?
6. So‘zning kategorial va nokotegorial shakllari xususida malumot bering.
7. So‘z turkumlari va ularni tasniflash tamoyillari haqida ngimalarni bilasiz?

ZARURIY ADABIYOTLAR

1. Ш. Шоабдураќмонов, М.Асљарова, А.Ќожиев, И.Расулов, , Х.Дониёров Ќозирги њзбек адабий тили. 1-љисм .Т., «Њљитувчи» 1980.

2. У. Турсунов, Ж. Мухторов, Ш. Раќматуллаев Ќозирги њзбек адабий тили. Т., «Њљитувчи» 1992.

3. Њзбек тили грамматикаси. 1-том. Т., «Фан» 1975.

4. N.Mahmudov, A.Nurmonov,A.Sobirov, D.Nabiyeva, A.Mirzaahmedov Ona tili. Umumta’lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik. T., «Ma’naviyat» 2005

9-MA’RUZA

9.1.Ot so‘z turkumi

1-§. Narsa-buyum, shaxslarning nomi, atamasi bo‘lgan so‘zlar turkumi ot deyiladi. Otlar kim? nima? qayer? so‘roqlaridan biriga javob bo‘ladi.

Otlar egalik, kelishik kabi so‘z o‘zgartirish, turli ma’no va vazifa uchun qo‘llanuvchi vazifadosh shakllarga hamda o‘ziga xos so‘z yasalish tizimiga egaligi bilan ajralib turadi.

Otlarning muhim belgilaridan biri ularning sifat, son, olmosh, fe’l va ravish distributsiyasida kelishi, ya’ni ular bilan birika olishidir: *katta bino, ikkinchi kurs, barcha inson, kitob o‘qimoq, ko‘p odam.*

Ot gapning barcha gap bo‘lagi vazifasida qo‘llanishi mumkin. Otning bu kabi sintaktik vazifasi uning qanday grammatik shakldaligi bilan bog‘liq bo‘ladi. Masalan, otning bosh shakli, ya’ni bosh kelishik, ko‘plik yoki birlik hamda egalik shakli gapda ega, Kesim kabi vazifada keladi: ***O‘zbekiston****-mustaqil davlat. Millatim-****o‘zbek. O‘zbekistonim-onajonim.***

Mustaqil so‘zlar ot turkumiga munosabati nuqtai nazardan ikki guruhni tashkil etadi: 1) ot tipidagi so‘zlar. Bu guruhga otlar kabi kim? nima? so‘rog‘iga javob bo‘lib, otga xos grammatik shakllarda bevosita

qo‘llana oladigan olmoshlar (*men, sen, biz, har kim, nimadir*), jamlovchi sonning *–ov, -avlon* affiksli turi (*ikkov, ikkavlon*), fe’lning harakat nomi shakli (*o‘qish, yozuv*) kiradi; 2) otlashuvchi so‘zlar. Bu guruhga grammatik son, egalik, kelishik shakllaridan birida qo‘llanilib, muayyan matn doirasidagina ot vazifasida ishlatlishi mumkin bo‘lgan sifat, son va ular o‘rnida qo‘llanadigan olmoshlar (*qanday, qancha, nechta*), ba’zi bir ravishlar, fe’lning sifatdosh shakli kiradi.

2-§.Otning ma’no guruhlari. Otlar ma’no jihatdan quyidagi guruhlarga bo‘linadi:

1. Atoqli otlar. Bir turdagi narsa yoki hodisalarning birini ajratib ko‘rsatish uchun xizmat qiladigan otlar atoqli otlar deyiladi. Atoqli otlar shaxs ismlari, havonlarning atoqli nomlari, tashkilot va gegrafik makon nomlari, koinot jismlari nomlari, suv havzalari, tashkilot nomlari kabi guruhlar doirasida uchraydi: *Alisher, Ulug‘Bek, Zarafshon, Toshkent, Samarqand, Mars* kabi. Bunday atoqli otlar o‘zaro tub va yasamaligi hamda tuzilishiga ko‘ra farqlanishi mumkin. Masalan, *Lola, Go‘zal, Amir, Gavhar Orol* kabi otlar sodda tub, *Ilonli, Do‘stlik, Paxtakor* kabi atoqli otlar sodda yasama, *Ulug‘bek, Alisher, Nurato, Nurobod, Qo‘shrabot, Uchquduq* kabi atoqli otlar qo‘shma otlardir. Atoqli otlarning asosiy qismini turdrsh otlar tashkil qiladi. Biroq ular

boshqa so‘z turkumlari asosida ham yuzaga keladi. Masalan: *Asal, Quvonch, Anor* kabilar turdosh otdan, *O‘lmas, Sotiboldi, Turdi, Tursun* kabilar esa fe’ldan, *Aziz, Botir, Shirin, Vali* kabilar sifatdan, *To‘qsonboy, Oltibek* kabilar esa sondan, *Bultur, Avvalboy* kabilar esa ravishdan hosil bo‘lgan atoqli otlardir.

Turli turkumga mansub bo‘lgan so‘zlarning atoqli ot sifatida qo‘llanishi natijasida ular o‘zining hususiy nominativ mohiyatidan chekingan holda, umumiy semantik ma’no tashuvchi lug‘aviy birlikka aylanib qoladi. Masalan, *Uchquduq* mazkur joydagi uchta quduqni emas, balki umuman shahar tushunchasini anglatuvchi onomastik birlikdir.

2. Turdosh otlar bir jinsdagi otlarning umumiy nomini bildiruvchi otlardir. Masalan, *inson, daryo, shahar, kitob, daftar*. Turdosh otlar quyidagi ma’no guruhlarga mansubligi bilan o‘zaro farqlanadi:

3. Aniq otlar bevosita narsa-buyum va shaxs, jon-zot anglatadigan otlardir. Aniq otlar bevosita sanash va ko‘rish mumkin bo‘lgan otlar hisoblanadi. Masalan: *kitob, talaba, daraxt, qush*.

4. Mavhum otlar his qilish, sezish mumkin bo‘lgan otlardir. Ular ham ko‘plik affikslari bilan qo‘llanmaydigan otlar bo‘lib, ularga ko‘plik

qo‘shimchasi qo‘shilganda turlicha ma’no bo‘yog‘i yuzaga keladi. Masalan: *sevgi, sezgi, qayg‘u, alam, qadr, oriya*t.

5. Jamlovchi va yakka otlar. Bir turdagi narsaning o‘zini ifodalaydigan otlar yakka otlar hisoblanadi: *kitob, gul, daraxt* kabi. Birlik shaklida bo‘lib, bir xil turdagi narsaning to‘dasi, jamini ifodalaydigan otlar jamlovchi otlardir: *xalq, armiya, ko‘pchilik, poda, jamoa, o‘rmon kabilar.*

6. Sanaladigan otlar, sanalmaydigan otlar. Sanaladigan otlar, asosan, aniq otlardan tashkil topadi: *daraxt, kitob, qalam*. Sanalmaydigan otlar modda otlari, og‘irlik, suyug‘lik o‘lchamiga xos otlar va atoqli otlardan tashkil topadi: *tuproq, qum, havo, shakar, tuz, yog‘, guruch,* kabilar.

7. Bundan tashqari, tabiatan yakka bo‘ladigan va juft holda uchraydigan otlar ham mavjud bo‘lib, ular ham otning alohida ma’no turini tashkil qiladi. Masalan: *yurak, quyosh, oy, ko‘z, qosh, oyoq* kabilar shular jumlasidandir.

Shuningdek, otlar kim? so‘rog‘i asosida shaxs hamda nima? so‘rog‘i asosida narsa otlariga ham ajratiladi. Otlarning bunday tasniflanishi o‘zbek tilining, shu jumladan, boshqa turkiy tillarning o‘ziga xos xususiyatini belgilaydi. Ayni paytda bu tasnif ularning turli grammatik jarayonda ishtirokida ham o‘z aksini topadi. Xususan, shaxs

otlari to‘liq tuslovchi affikslarni qabul qilgan holda qo‘llana oladi: *o‘quvchiman, o‘quvchisan, o‘quvchimiz, o‘quvchisiz*. Biroq, narsa otlari (majoziy ma’nosini e’tiborga olmaganda) faqat uchinchi shaxs ma’nosdagina ishlatilishi mumkin.

Shuni ham ta’kidlash lozimki, atoqli va turdosh otlar o‘zaro ma’no jihatdangina emas, balki ba’zi grammatik xususiyatlariga ko‘ra ham farqlanadi. Masalan, atoqli otlar faqat birlikda qo‘llanadi. Ko‘plikda qo‘llanganda, ular grammatik ko‘plik emas, boshqa ma’no bo‘yoqlarga ega bo‘ladi. Shuningdek, atoqli otlar turdosh otlarga va aksincha, turdosh otlar atoqli otlarga o‘tib turadi. Masalan: *Lola*-atoqli ot, ayni paytda, *lola*-tog‘da o‘sadigan gul ma’nosida turdosh otdir. *dizel, amper, rentgen, bitner* kabi otlar esa atoqli ot asosida shakllangan turdosh otlardir. Atoqli otlarning turdosh otga aylanishida *–lik* qo‘shimchasidan ham foydalaniladi: *kattaqo‘rg‘onlik, toshkentlik, andijonlik* kabi.

9.2. Otning grammatik kategoriyalari

Ot turkumi uch xil grammatik kategoriyaga ega: 1) son kategoriyasi; 2) egalik kategoriyasi; 3) kelishik kategoriyasi.

Otlar nutqda doimo grammatik son va kelishik kategoriyasida bo‘ladi. Masalan, kitob - birlik sonda va bosh kelishikdagi ot. Egalik

kategoriyasi esa otning grammatik shakllanishida har doim ham ishlatilmaydi.

1-§. Son kategoriyasi. Otlarning birlik va ko‘plik shakllari va shu shakllarni ifodolovchi vositalar son kategoriyasini tashkil etadi.

Birlikdagi otlar bir jinsdagi narsalarning bittasini anglatadi va ular grammatik son ko‘rsatgichga ega bo‘lmaydi. Masalan: *kitob, olma, qalam* kabi. Birlik sondagi otlar egalik (kitobim, kitobimiz), kelishik (kitobdan, kitobning) kategoriyasiga xos qo‘shimchalar bilan qo‘llanganda ham o‘z grammatik mohiyatini yo‘qotmaydi, ya’ni birlik hisoblanaveradi.

Otlarning ko‘plik shakli maxsus grammatik vosita - lar orqali ifodalanadi va bir turdagi narsaning noaniq miqdorini bildiradi. Grammatik ko‘plik hosil qiluvchi –lar otlardagi lug‘aviy shakl yasovchi affiks hisoblanadi. Grammatk son ma’nosini ifodalashning bu usuli **morfologik usul** deb yuritiladi. Masalan: *kitob - kitoblar, qalam - qalamlar*. Otlarning birlik va ko‘plik shaklda ishlatilishi, asosan, sanaladigan va aniq turdosh otlarga xosdir. Biroq juft turdosh otlarning son kategoriyasi bilan qo‘llanishida o‘ziga xosliklar mavjud. Masalan, *kuch-qudrat, savlat-salobat, mehr-muhabbat, vaqt-soat* kabi otlar birlik shaklda ishlatiladigan otlardir. Juft turdosh otlarning *yigit-qiz, qiz-juvon,*

o‘g‘il-qiz kabi turlari ko‘plikda qo‘llaniladigan otlardir. *Ko‘rpa-to‘shak, qand-qurs, fikr-mulohaza, ota-ona, oshiq-ma’shuq, oshna-og‘ayni* kabi otlar esa grammatik sonning har ikki shaklida ishlatilishi mumkin.

2-§. O‘zek tilida faqat birlikda ishlatiladigan otlar ham mavjud bo‘lib, ularga mavhum otlar, donalab sanalmaydigan otlar, asli o‘zi juft, yakka holda uchraydigan otlar, atoqli otlar, jamlovchi(*xalq, o‘rmon*) va jamlik (*soch, kiprik*) otlari kiradi. Shuningdek, ma’lum soha, kasb-hunar otlari (*matematika, adabiyot, dehqonchilik, o‘qituvchilik*) ham ko‘plikda qo‘llanmaydi. Bunday otlarga -lar affiksi qo‘shilganda ko‘plikdan boshqa ma’no ifodalanadi. Bu ma’no otlarga xos **modal ma’no** deb yuritiladi. Grammatik son affiksi asosida ifodalanadigan modal ma’nolar quyidagilardan iborat:

1.Atoqli otlarga –lar qo‘shilganda sulola, avlod, oila, guruh, jamlik ma’nosi ifodalanadi: *Temuriylar, Boburiylar sulolasi, Salimovlar, Akramovlar oilasi, Halimalar (kelishdi), Majnunu Farhodlarga arkon bo‘lgan Sharq*. Atoqli otlarning bir turi bo‘lgan geografik nomlarga qo‘shilganda esa, shu joy anglatgan hududning barcha qismi anglashiladi: *Samarqandlarni aylanmoq, Toshkentlarni tomosha qilmoq kabi.*

2.Mavhum otlarga -lar affiksi qo‘shilganda ma’no kuchaytiriladi: *uyqularim qochib ketdi, ko‘ngillarim ozdi, hayollarim to‘zg‘idi* kabi. Xuddi shunday modal ma’no asli o‘zi bitta yoki juft holda bo‘ladigan otlarga hamda jamlik va yakkalik tushunchalarni ifodalovchi otlarga –lar qo‘shilganda ham ifodalanadi: *ko‘zlarim achishdi, qo‘llari toldi, yuraklar orziqdi, sochlar to‘zg‘idi, kipriklar namlandi.*

3.Donalab sanalmaydigan otlarga -lar qo‘shilganda tur, nav ma’nosi anglashiladi: *unlar (1,2-nav), yog‘lar (paxta yog‘i, sariyog‘, zig‘ir yog‘i), qumlar (qora, sariq).*

4.Qarindoshlik, yaqinlik ko‘rsatuvchi otlarga egalik qo‘shimchasidan keyin –lar affiksi qo‘shilganda hurmat ma’nosi ifodalanadi: *bobomlar, akamlar, amakimlar* kabi. Agar -lar affiksi egalik ko‘rsatkichidan avval qo‘shilsa bunday otlar ko‘plik, shuningdek, boshqa modal ma’nolarga ega bo‘lishi ham mumkin. Qiyoslang: *akamlar-akalarim, amakinglar-makilaring, otamlar-otalarim*. Shuningdek, hurmat ma’nosida ishlatilgan otlar bilan qaratqich kelishigi vositasida birikkan ba’zi narsa-buyum otlariga egalik qo‘shimchasidan avval –lar affiksi qo‘shilganda ham hurmat ma’nosi anglashiladi: *Bobomlarning sovg‘alari, akamlarning ko‘ylaklari, amakimlarning uylari.*

5. Shaxs otlariga (shuningdek, olmoshlarga) –lar qo‘shilganda, ba’zan piching, kesatiq ma’nosi ifodalanadi: *Tojixon **o‘zlaridan** ibrat olsa, kamina **kuyovlaridan** ibrat olsam, turmushimiz yaxshi bo‘lib ketsa, ajab emas. (A. Qahhor)*

3-§. Narsaning birdan ortiqlik tushunchasi morfologik usuldan tashqari quyidagi unsurlar bilan ham ifodalanishi mumkin:**1) leksik-semantik usul**. Grammatik jihatdan birlikda bo‘lib, mazmunan ko‘plik anglatuvchi jamlovchi otlar orqali: *xalq, armiya, to‘da, poda;* **2) leksik-sintaktik usul**. Son va ot turkumiga oid so‘zlarni biriktirish hamda takroriy otlar orqali: *o‘nta kitob, uch o‘rtoq, beshta daraxt, dasta - dasta gul, qop - qop un, ombor-ombor g‘alla* kabilar. Narsaning birdan ortiqligini qayd etilgan vositalar yordamida ifodalash mumkin bo‘lsa-da, otning morfologik ko‘pligi birgina –lar affiksi orqali shakllanadi. Unga (oppozetiv) qarama-qarshi bo‘lgan grammatik shakl esa birlik hisoblanadi.

4-§.Otdan boshqa so‘zlarda son. Grammatik son kategoriyasi otdan boshqa so‘z turkumlarga ham xos bo‘lib, ular ham birlik va ko‘plikda ishlatilishiga ko‘ra o‘zaro farqlanadi. Ayni paytda son kategoriyasi bilan qo‘llanadigan so‘zlar ot o‘rnida ishlatilishi va otlashishi jihatidan ikki guruhni tashkil qiladi.

1.Bevosita ot o‘rnida qo‘llaniladigan ot tipli (bunday so‘zlar ism guruhi deb nomlanib, ularga mustaqil so‘zlardan ot, sifat, son, olmosh kabilar va fe’lning harakat noni shakli kiritiladi) so‘zlarning birlik va ko‘plikda ishlatilishi quyidagicha o‘ziga xos belgilarga ega. Xususan, ism guruhiga mansub *Men, hech kim, hech nima* va *o‘z* olmoshlari har doim birlikda ishlatiladi. Fe’lning harakat nomi shakillari ham, asosan, birlikda ishlatiladigan so‘zlardandir. Olmoshning boshqa turlari birlik va ko‘plikda ishlatilishi mumkin: *Sen-senlar, u-ular, biz-bizlar, siz-sizlar, kim-kimlar, har nima-har nimalar* kabi. Bu olmoshlardan ba’zilariga –lar affiksi qo‘shilganda ular turli ma’no nozikliklarga ega bo‘ladi: Sen olmoshiga –lar qo‘shilganda tinglovchi va boshqalarga murojaat yoki tinglovchini kamsitish, mensimaslik ma’nosi yuzaga keladi: *Senlarga gapirayapman!* O‘zlik olmoshiga –lar qo‘shilganda esa piching, kesatiq ma’nosi anglashiladi: *O‘zlari qadam ranjida qilibdilar-da.*

2. Ism guruhiga mansub sifat, sifat o‘rnida ishlatiladigan olmoshlar, ba’zi ravishlar va fe’lning sifatdosh shakli kabi so‘zlarga –lar affiksi qo‘shilganda otlashish asosida grammatik son tushunchasi yuzaga keladi: *yaxshilar, kattalar, kichiklar, o‘shalar, shular, avvallari, ilgrilari, ko‘plar, o‘qiganlar, boradiganlar* kabi. Miqdor sonlarga –lar

qo‘shilgan-da taxmin-chama ma’nosi hosil bo‘ladi: *Soat ikkilarda uchrashamiz.*

Ko‘plik affiksi fe’llarga qo‘shilganda birgalik nisbati hosil qiluvchi –sh\-ish affiksi bilan **sinonim bo‘ladi**: *bordilar-borishdi, o‘qidilar-o‘qishdi*.

9.3. Egalik kategoriyasi

1-§. Muayyan narsaning uch shaxsdan biriga taalluqli ekanligini anglatuvchi umumiy ma’nolar va ularni ifodolovchi shakllar tizimi egalik kategoriyasi deyiladi. Tegishlilik, egalik ma’nosini ifodalash uchun xizmat qiladigan affikslarni esa egalik affikslari deymiz. Egalik affikslari grammatik shaxs ma’nosi bilan birga son ma’nosini ham ifodalaydi. Masalan: *kitob+im, kitob+ing, kitob+i, kitob+imiz, kitob+ingiz, kitob+i* so‘zlaridagi –im,- ing,-i,-imiz,-ingiz,-i affikslari o‘zakdan anglashilgan narsaning 1,2,3-shaxsga, ya’ni **so‘zlovchi, tinglovchi va o‘zgaga** tegishli ekanini ifodalash bilan bir qatorda, mazkur narsaning bitta yoki bir necha shaxsga qarashliligini ham bildiradi. Demak, egalik affiksidan anglashilgan birlik va ko‘plik tushunchasi narsaga emas, balki so‘zlovchi, tinglovchi, o‘zga kabi grammatik shaxslarga dahldor bo‘ladi.

Egalik affikslari unli va undosh bilan tugagan so‘z va so‘z shakllariga qo‘shilib kelishiga ko‘ra ikki xil variantga ega bo‘ladi:

Shaxslar	Bir shaxsga tegishli		Ko‘p shaxsga egishli	
	Unlidan so‘ng	Undoshdan so‘ng	Unlidan so‘ng	Undoshdan so‘ng
1- shaxs (so‘zlovchi)	olma+m	kitob+im	olma+miz	kitob+im
2- shaxs (tinglovchi)	olma+ng	kitob+ing	olma+ngiz	kitob+ing
3- shaxs (o‘zga)	olma+si	kitob+i	olma+si	kitob+i

Egalik affikslar ot va otdan boshqa so‘zlar bilan qo‘llanganda quyidagi xususiyatlarga ega bo‘ladi:

1. O‘zakka egalik qo‘shimchalari qo‘shish bilan tovush tushishi, orttirilishi yoki o‘zgarishi mumkin: *og‘iz+im=og‘zim, bo‘yin+im=bo‘ynim, obro‘-obro‘+y+im, parvo+y+im, o‘rtoq+im-o‘rtog‘im, eshik+im-eshigim. Ba’zi so‘zlarga egalik affiksi qo‘shaloq qo‘shiladi: bun+i+si, qay+si+si, singl+i+si*

2. Egalik affiksining 1,2- shaxsi asosdan anglashilgan narsa va belgini faqat kishilarga nisbatlaydi. 3-shaxs orqali esa asosdan

anglashilgan narsa va belgi kishilardan boshqa narsalarga ham nisbatlanadi: *Mening ko‘ylagim, sening ko‘ylaging, uning ko‘ylagi, dalaning havosi, qushlar ovozi kabi.*

3. Egalik qo‘shimchalari otdan boshqa so‘zlarga qo‘shilib keladi: *o‘qishing, hammang, qahramonim,qanaqasi, o‘qiganim, oqi, qorasi kabi. Barchasi, beshovi* kabi so‘zlar tarkibida ular betaraf xususiyatga ega bo‘ladi. Kishilik olmoshlari esa egalik qo‘shimchasini qabul qilmaydi.

4. Egalik qo‘shimchalari o‘zi qo‘shilgan so‘zning boshqa so‘z bilan bog‘lanishida ishlatiladi. Bu vaqtda egalik qo‘shimchasi qo‘shilgan so‘z qaratqich kelishigi bilan aloqaga kirishadi. Biroq, egalik affiksi o‘zi qo‘shilib kelgan so‘zning sintaktik vazifasini ko‘rsatmaydi: *mening kitobim, sening kitobing* kabi. Agar qaratqich kelishigidagi so‘z ko‘plikdagi kishilik olmoshi bilan ifodalansa, qaralmishda egalik affiksi qo‘llanmasligi ham mumkin: *bizning xonadon, bizning oila* kabi.

5. Egalik affiksini olgan ot yoki otlashgan so‘z ba’zan chiqish kelishigidagi so‘z bilan ham bog‘lanishi mumkin. Bunda egalik shaklidagi so‘z ko‘pincha otlashgan so‘zlardan bo‘ladi: *tanishlardan bittasi, Mehmonlardan kattasi.*

6. Egalik affiksi bosh kelishikdagi so‘z bilan birikib, izohlovchi-izohlanmishli birikma hosil qilishi mumkin: *Zarafshon daryo+si, chet tillar institut+i, sut kombinat+ii.*

7. Odatda, ot va otdan boshqa so‘zlarga avval ko‘plik affiksi, keyin egalik affiksi qo‘shiladi.Egalik affiksidan so‘ng kelishik affiksi qo‘shilishi mumkin: *kitob+lar+im+dan, yaxshi+lar+i+ga.* Egalik affikslarini olgan qarindoshlik, yaqinlik ma’nosidagi otlar hurmat ma’nosini ifodalaganda esa, o‘zakka avval egalik keyin ko‘plik affiksi qo‘shiladi: *dada+m+lar, uka+m+lar kabi.*

8.Egalik affikslari ba’zi so‘zlar tarkibida grammatik ma’nosini yo‘qotib, o‘zi qo‘shilgan so‘z bilan birga boshqa turkumga ko‘chishi mumkin: *ertasi, kechasi (ravish) chamasi, yaxshisi (modal so‘z).*

2-§.Egalik affikslarining omonimiyasi va sinonimiyasi. Egalik kategoriyasiga xos 1, 2-shaxs affikslari so‘z yasovchi va so‘z o‘zgartuvchi ba’zi qo‘shimchalar bilan shakldoshlik hosil qiladi: a) egalik va ot yasovchi qo‘shimchalar: *bola+m, olma+m || chida+m, to‘pla+m;* b) egalik va tuslovchilarning 1-shaxsi va ot yasochi qo‘shimchalar: *ota+m, aka+m || keldi+m, yozdi+m || to‘pla+m, bog‘la+m;* v) egalik va tuslovchilarning 2-shaxsi hamda ot yasovchi qo‘shimchalar: *ona+ng, kitob+ing || o‘qi+ng, yoz+ing || yiri+ng; g)*

egalik affiksining 2-shaxs birligi va qaratqich kelishigining men, sen olmoshlariga qo‘shiladigan –ing shakli o‘zaro omonim bo‘ladi: *kitob+ing || men+ing, sen+ing.*

Egalik yoki –niki affiksi qo‘shilib kelgan so‘z ot kesim vazifasida ishlatilganda sinonimik munosabatda bo‘lishi mumkin: *Bu- mening kitobim || bu kitob- meniki*. Biroq bunday holda egalik affikslari o‘zi qo‘shilib kelgan otning shaxs va sonini ko‘rsata olish xususiyati bilan qarashlilik shaklidan farqlanadi.

9.4. Kelishik kategoriyasi

Otning boshqa so‘zlar bilan sintaktik munosabatini ko‘rsatuvchi ma’nolar va shu ma’noni ifadolovchi shakllar tizimi kelishik kategoriyasi deb aytiladi. Otning kelishik qo‘shimchasini olib o‘zgarishi **turlanish** deyiladi. Kelishik affikslari esa **turlovchi** affikslardir. Turlovchilar affiksal morfemalarning so‘z o‘zgartuvchi (sintaktik shakl yasovchi) turiga mansubdir. Shu jihatdan qaralganda, kelishiklar o‘zak yoki negizning morfemik tarkibidagi grammatik jarayonning tugallovchi shakli hisoblanadi. Shu bois kelishik kategoriyasi o‘zi birikkan asosni nutqqa o‘tkazuvchi, uni nutqiy jarayonga xoslovchi til birligini taqozo etadi.

Kelishik kategoriyasi, asosan, ot turkumiga xos bo‘lib, ular ot tipli so‘zlar, ya’ni olmosh, harakat nomi, jamlovchi sonning ba’zi ko‘rinishlariga ham bevosita qo‘shila oladi: *Menga, sendan, kimni, nimani, barchaga, o‘qishga, beshovimizga kabi.*

Kelishik affikslari sifat, son va ular o‘rnida ishlatiladigan olmoshlar, fe’lning sifatdosh shakli, ba’zi alohida yordamchi so‘zlar guruhiga qo‘shilganda, ularni otlashtiradi. Boshqacha aytganda, kelishiklar otlashadigan so‘zlar bilan faqat sintaktik vazifa talabiga ko‘ra birikadi: ***Yaxshidan*** *ot qoladi,* ***yomondan*** *dod. (Maqol)* ***Birni*** *kessang* ***o‘nni*** *ek. (Maqol)* ***O‘qigan*** *o‘qdan o‘zar. (Maqol)* ***Mana shunda*** *gap ko‘p. Aravaning* ***g‘ichir-g‘ichiridan*** *cho‘chidi.*

Kelishiklar belgili va belgisiz holda, ya’ni turlovchi affikslar bilan yoki turlovchi affikslarsiz ishlatiladi. Belgili ishlatilish barcha kelishiklarga xos hodisadir. Belgisizlik esa quyidagi kelishiklarda uchraydi: a) qaratqich kelishigi belgisiz qo‘llaniladi: *cho‘l bag‘ri, maktab bog‘i*; b) tushum kelishigi belgisiz qo‘llanadi: *ariq qazimoq, ko‘chat o‘tqazmoq* kabi.

O‘zbek tilida oltita kelishik mavjud bo‘lib, ularning har biri o‘z shakli va ma’nosi hamda sintaktik vazifasiga ega. Ular o‘zi birikadigan boshqa so‘zlar bilan quyidagicha munosabatda bo‘ladi: 1) qaratqich

kelishigi ot bilan otni grammatik aloqaga kiritadi va moslashuvli birikma hosil qiladi: *kitobning varag‘i, odamning gavdasi*; 2) tushum, jo‘nalishi, o‘rin, chiqish kelishiklari ot bilan fe’lni o‘zaro bog‘laydi va boshqaruvli birikma hosil qiladi: *kitobni o‘qidi, kitobda ko‘rdim, kitobga qaradi, kitobdan oldim* kabi.

Makon va zamon kelishiklari nomi bilan yuritiluvchi jo‘nalish, o‘rin va chiqish kelishiklari ba’zan fe’ldan boshqa so‘zlar bilan ham birika oladi: *otdan baland, itdan past, uyat o‘limdan qattiq, xalqimga aziz.*

Kelishiklar	Kelishik affiksi	So‘roqlari	Gapdagi vazifasi
bosh kelishik	-	kim? nima? qayer?	ega, kesim, sifatlov-chi, undalma, atov gap
qaratqich klishigi	-ning	kimning? nimaning? qayerning?	qaratqich aniqlovchi
tushum kelishigi	-ni	kimni? nimani? qayerni?	vositasiz to‘ldiruvchi
jo‘nalish kelishigi	-ga	kimga? nimaga? qayerga?	vasitali to‘ldiruvchi, o‘rin, payt, sabab holi

o‘rin-payt kelishigi	-da	kimda? nimada? qayerda?	vositali to‘ldiruvchi, o‘rin, payt, sabab holi
chiqish kelishigi	-dan	kimdan? nimadan? qayerdan?	vositali to‘ldiruvchi, o‘rin, payt, sabab holi

1-§. Bosh kelishik. Bosh kelishik boshqa kelishiklarga zid holda ko‘rsatkichsizdir. Bu kelishikdagi so‘zlar **kim? nima? qayer?** kabi so‘roqlardan biriga javob bo‘ladi. Bosh kelishik otning bosn shakli bo‘lib, u egalik, ko‘plik qo‘shimchalari bilan qo‘llanganda ham o‘z mohiyatini yo‘qotmaydi: *kitob, kitoblar, kitobim*. Bosh kelishikdagi so‘z boshqa so‘zlar bilan quyidagicha ikki turdagi munosabatga kirishadi:

a) mikrosintagmatik munosabatli barqaror birikmalar hosil qilishda ishtirok etadi:

1.Qo‘shma so‘zlar yasalishida ularning tarkibiy qismi sifatida ishtirok etib, tobe munosabatli mikrosintagmatik butunlik hosil qiladi: *toshko‘mir, oshqozon, jigar rang, kul rang, tamom bo‘lmoq, hayron bo‘lmoq, qaror qilmoq, va’da bermoq.*

2.Bosh kelishikdagi ot takroriy (teng munosabatli mikrosintagmatik aloqada) qo‘llanib, o‘z lug‘aviy ma’nosidan tashqari miqdoriy ortiqlik,

kuchaytirish kabi qo‘shimcha ma’no bo‘yoqlariga ega bo‘ladi: **ombor-omor g‘alla, guruh-guruh odam, quchoq-quchoq gul.**

b) makrosintagmatik munosabatni shakllantirishda ishtirok etadi

1. Gapda ega vazifasini bajaradi: ***Oltin*** *o‘tda,* ***odam*** *mehnatda bilinadi.* ***Toshkent-****do‘stlik shahri.*

2. Kesim yoki uning ot qismi vazifasini bajaradi: *Mustaqillik-****buyuk ne’mat****. Hunarlining qo‘li-****gul.*** *Anvarning akasi f****ermer ekan.***

3. Izohlovchi vazifasini bajaradi: *Majlisda* ***professor*** *Mamatov nutq so‘zladi.*

4. Sifatlovchi vazifasida qo‘llaniladi: ***Asfalt*** *yo‘ldan mashinalar g‘iz-g‘iz o‘tib turar edi.*

5. Bosh kelishikdagi otlar *bilan, uchun, uzra, haqida, to‘g‘risida* ko‘makchilari bilan birgalikda vositali to‘ldiruvchi vazifasida keladi: *Ona o‘g‘ilchasini oq* ***choyshab bilan*** *o‘radi.*

6. Payt bildiruvchi otlar bilan birikib, hol vazifasida kelishi mumkin: ***Shu kuni*** *Odilbek mehmon kutmoqda edi.*

7. Bosh kelishikdagi ot yakka yoki birikmali holda atov gap vazifasini bajaradi: ***Kuz.*** *Izg‘irin shabada hushtak chalib turibdi*

8.Undalma vazifasini bajaradi: *Chimxo‘rsan-da,* ***qizim****, shu ham osh yeyishmi? (A.Qod.)*

2-§. Qaratqich kelishigi. Narsaning shu kelishikdagi otdan anglashilgan boshqa narsaga qarashli ekanini bildiradi va kimning? Nimaning? qayerning? so‘roqlaridan biriga javob bo‘ladi. Qaratqich kelishigining asosiy morfologik ko‘rsatkichi **–ning**: *ishning samarasi, uyning jihozi, dalaning havosi.* She’riyatda **–n**, **-im** shaklida ham ishlatiladi: *Har bolam ufurgan **nafasin** atri- she’rimning eng yetuk, eng yaxshi satri* (G‘.G‘.). *O‘zbekiston-vatanim **manim** (A.O.).* Men, sen kabi kishilik olmoshlaridan keyin **–ing** tarzida qo‘shiladi: *Men+ing, sen+ing.*

Qarluq lahjasiga kiruvchi markaziy shahar shevalarida, so‘zlashuv nutqida **–ni** shaklida ham ishlatiladi va tushum kelishigi bilan shakldoshlikka ega bo‘ladi: *Yomonni bir qilig‘i ortiq*.

Qaratqich kelishigidagi so‘z ko‘pincha egalik affiksini olgan ot bilan birikadi. Bunda qaratqich kelishigidagi so‘z **qaratqich**, egalik affiksini olgan ot esa **qaralmish** deb nomlanadi.

Qaratqich kelishigi belgili va belgisiz ishlatiladi. U belgili qo’llanganda qarashlilik ma’nosi ta’kidlanib, aniq anglashilib turadi: *daraxtning ildizi, Dehqonlarning hayoti*. Belgisiz qo‘llanganda esa qaratqich va qaralmish asosida anglashilgan qarashlilik ma’nosi umumiy, mavhum bo‘ladi. Bunda so‘zning qaratqich kelishigida ekanligi qaralmishdagi egalik affiksi orqali anglashilib turadi: *daraxt ildizi, dehqonlar*

hayoti. Ba’zan qaratqich ham, qaralmish ham belgisiz qo‘llanilib, so‘zlar o‘rtasidagi sintaktik aloqa mazmun orqali anglashiladi: ***O‘z yerni*** *qo‘yib Hind sori yuzlandim, Yo rab, netayin, ne yuz qaroliq bo‘ldi (Bobur.).*

Bu kelishik leksik va grammatik ma’nolar talabiga ko‘ra quyidagi hollarda belgisiz ishlatilishi mumkin:

1.Qaratqich kelishigidagi so‘z mavhum ot bo‘lganda: *vijdon amri, hayot mazmuni, kuy sehri, umr savdosi, til birligi.*

2.Qaralmish payt ma’nosini anglatuvchi so‘z bo‘lganda: *tush vaqti, tong mahali, yoz chog‘i, ko‘klam payti.*

3.Qaratqich tur-nav ma’nosini bildirganda: *bug‘doy uni, chigit yog‘i, cho‘l qovuni, mahalla markazi, yoshlar markazi, kamolot tashkiloti.*

4. Qaratqich qaratqich bilan bog‘langanda: *madaniyat rivojining shartlari, O‘zbekiston madaniyatining negizi* kabilar shular jumlasidan-dir.

Gapda qaratqich kelishigidagi so‘z qaratqichli aniqlovchi vazifasini bajaradi: *Bu yerdan* ***hovlining bog‘cha va poliznin****g qarovsizligi yana ham yaqqolroq ko‘rinar edi (A.Q).*

Qaratqich kelishigidagi so‘z belgili va belgisiz shaklda ba’zi ko‘makchilar bilan munosabatga kirishib, ular bitta sintaktik vazifani,

ya’ni to‘ldiruvchi yoki hol vazifasini bajaradi: *Erkak qaddi to‘g‘risidagi gapi* ***mening uchun*** *ham yangilik (A.Q).****Ovqat orqasidan*** *choy berildi (A.Qod). Olimxon* ***kavak orasiga*** *kirib ketdi (O).*

3-§. Tushum kelishigi. Ish-harakatni o‘ziga qabul qilgan narsani anglatib, kimni? nimani? qayerni? so‘roqlaridan biriga javob bo‘ladi. Tushum kelishigining asosiy ko‘rsatkichi **–ni** bo‘lib, mazkur kelishik bilan shakllangan so‘z hamma vaqt o‘timli fe’l bilan birikadi: *hayotni tushunmoq, vazifani bajarmoq, bahorni his qilmoq, dalani aylanmoq.*

She’riy nutqda tushum kelishigi **–n** shaklida ishlatiladi: *Tinim yo‘q, har nafas sep yozar, bahor yozib o‘z* ***tugunchagin*** *(H.O.).*

Tushum kelishigi men, sen olmoshlaridan so‘ng va mumtoz she’riyatda –i shaklida ishlatiladi: ***Men+i*** *tanimay,* ***sen+i*** *tanibdi. Adl qulog‘ila eshit* ***holim+i*** *(Muqimiy.).*

Tushum kelishigi belgili va belgisiz ishlatiladi. Atoqli va shaxs bildiruvchi otlar, egalik affiksini olgan turdosh ot, aniqlovchi olgan ot, harakat nomi, olmosh, son, sifat, ravish va boshqa otlashadigan so‘zlar tushum kelishigi bilan turlansa har doim belgili bo‘ladi: ***Navoiyni*** *oldim qo‘limga (H.O.). Yo‘lchi titroq qo‘llari bilan Gulnorning* ***sochlarini*** *asta siladi (O.).* ***Egilgan boshni*** *qilich kesmas.* ***Bo‘linganni*** *bo‘ri yer. (Maqol)*

Tushum kelishigidagi so‘z, asosan, bir turdagi narsani ifoda qilib, uni ta’kidlash lozim bo‘lmaganda belgisiz qo‘llanadi: *«Eshon hey» degani esa «Hovliga borib ayt, nozik m**ehmon** olib kelaman»degani bo‘lar ekan (A.Q). Shoirlari **g‘azal** yozadi, botirlari **kanal** qazadi (H.O).*

Tushum kelishigining doim belgisiz ishlatilishi, *ma’no kasb etmoq, farzand kutmoq, quloq solmoq* singari turg‘un birikmalarda ham uchraydi.

Tushum kelishigidagi so‘z gapda vositasiz to‘ldiruvchi vazifasini bajaradi: ***Umrini** ilmga bag‘ishlagan odam abadiy umrga erishadi. O‘n sakkizga kirgan odam **olamni** ming xil jilvada ko‘radi…(S.A).*

4-§. Jo‘nalish kelishigi. Ot orqali ifodalangan narsaning harakat yo‘nalgan o‘rin, vaqt, sabab yoki ish-harakatning bajarilishida vosita ekanligini anglatadi. Jo‘nalish kelishigining affiksi **–ga** bo‘lib, **k** yoki **g** undoshi bilan tugagan o‘zakka **–ka**, **q** yoki **g‘** undoshlari bilan tugagan o‘zakka esa **- ga** tarzda qo‘shiladi: *uy+ga, ish+ga, jamiyat+ga, kitob+ga, oila+ga; bezak+ga-bezakka, barg+ga-barkka, bog‘+ga-bog‘ga, qishloq+ ga-qishloqqa* kabi.

Jo‘nalish kelishigi affiksi she’riyatda va o‘g‘uz lahjasida **–a** shaklda ham uchraydi: *Lozim **siza** har tilni biluv ona tilidiyek, Bilmakka ani g‘ayrat eting foydayi kondur (Avaz O‘tar.).* Bu kelishik affiksi

ko‘rsatish olmoshlariga qo‘shilganda **n** undoshi orttiriladi: *bu+n+ga, shu+n+ga, u+n+ga*.

Jo‘nalish kelishigi, asosn, belgili ishlatiladi. Uning belgisiz ishlatilishi juda kam uchraydigan hodisalardan bo‘lib, harakat yo‘nalgan o‘rin ifodalanganda belgisiz ishlatilishi mumkin. Masalan: *bozor bormoq, boshini quyi solmoq, past ketmoq* kabi sanoqli o‘rinlardagina belgisiz ishlatiladi.

Jo‘nalish kelishigi affiksi ba’zi so‘zlar tarkibida o‘z ma’nosini yo‘qotgan holda uchraydi . Bunday tarzda yangi so‘z , ya’ni ravish yasaladi: *birga,birdaniga, ertaga, to‘g‘riga*.

Jo‘nalish kelishigi ot, olmosh, son, harakat nomi, sifat, sifatdosh, undov va taqlid so‘zlarga qo‘shilb, ko‘pincha fe’lga tobelangan holda boshqaruvli birikma hosil qiladi. Bunda ot va ot tipli so‘zlardan boshqa so‘zlar o‘z lug‘aviy ma’nosini kengaytirib otlashadi: *ukasiga olmoq, barchaga tarqatmoq, uchoviga keltirmoq, birinchiga yetmoq, yaxshiga yondashmoq, bilmaganga tushuntirmoq , dodiga quloq solmoq, shivir-shiviriga uyg‘onmoq.*

Ba’zan jo‘nalish kelishigidagi so‘zlarni sifat, ravish va harakat nomi ham boshqarishi mumkin: *Bir yigitga qirq hunar **oz**. Bilganga **oson**, bilmaganga **qiyin**. U hammaning diqqatini o‘ziga **qaratishni** biladi.*

Jo‘nalish kelishigidagi so‘z ko‘makchilar bilan birikib, ular bilan bitta gap bo‘lagi vazifasini bajaradi: *buyruqqa binoan kelmoq, kelishuvga ko‘ra uchrashmoq, uyga qadar bormoq.*

Bu kelishigidagi ot, otlashgan so‘zlar gapda qo‘yidagi sintaktik vazifalarni bajaradi:

1. Kimga? nimaga? so‘rog‘iga javob bo‘lib, vositali to‘ldiruvchi vazifasini bajaradi: *To‘tiniso buning* ***sababiga*** *qiziqdi* (A.Q). *Mehr va muruvvat yilining mazmun-mohiyati qari va kasalmand* ***kishilarga*** *g‘amxo‘rlikda seziladi.*

2. Qayerga? so‘rog‘iga javob bo‘lib, o‘rin holi vazifasini bajaradi: *Nayman* ***cho‘llariga*** *chinakam bahor kirdi (S.Ahmad.).*

3. Qachon? qachonga? so‘rog‘iga javob bo‘lib, payt holi vazifasini bajaradi: *Universiada musobaqalari* ***sentyabr oyiga*** *qoldirildi*.

4. Nima maqsadda? nimaga? so‘rog‘iga javob bo‘lib, maqsad holi vazifasini bajaradi: *Biz ilmning qal’asini* ***olmoqqa*** *keldik, baxtimizning sozini* ***chalmoqqa k****eldik (Shayxzoda.).*

5. Nima sababli? nega? so‘rog‘iga javob bo‘lib, sabab holi vazifasini bajaradi: *Jonajon yurtim* ***mustaqil bo‘lganiga*** *quvonchim cheksiz.*

6. Qanchaga? qancha? so‘rog‘iga javob bo‘lib, miqdor holi vazifasini bajaradi: *Bu mahsulotlarning umumiy qiymati yuz ming AQSH* ***dollariga*** *tengdir.*

7. Jo‘nalish kelishigidagi so‘z gapda kesim vazifasini bajaradi: *Yosh kelsa* ***ishga****, qari kelsa* ***oshga.***

5-§. O‘rin-payt kelishigi. Otning ish-harakat o‘rni, payti, sababi, holati, maqsadi kabi ma’nolarni ifodalaydi. O‘rin-payt kelishigi so‘z **–da** affiksi orqali shakllanadi. Og‘zaki nutqda va shevalarda **–ta** shaklida ham ishlatiladi. Jo‘nalish kelishigida bo‘lgani kabi bu kelishik ham ko‘rsatish olmoshlariga qo‘shilganda **n** undoshi orttiriladi: *shu+n+da, bu+n+da, u+n+da* kabi.

O‘rin-payt kelishigining belgisiz shakli payt ma’nosini anglatuvchi negizlardagina uchraydi: *Ayasi o‘sha qonli* ***oqshom*** *yashirincha darsga ketayotgan ekan. (A. Q.)* Bu kelishikning belgisiz shakli uyushib kelgan bo‘laklar tarkibida ham uchraydi: *Bolalar* ***yaslilari, bog‘chalari*** *va boshqa tarbiya maskanlarida mehnatkashlarning farzandlari tarbiyalanmoqda.*

O‘rin-payt kelishigi ot o‘rnida ishlatiladigan olmoshlar, fe’lning harakat nomi shakli singari ot tipli so‘zlarga bevosita birikadi. Biroq sifat, son turkumlari o‘rnida ishlatiladigan olmoshlarga hamda ba’zi

ravishlar, fe’lning sifatdosh shakllariga qo‘shilganda ular otlashadi: *Xayoli **o‘shanda** bo‘lsa kerak. **Shunda** biz xayrlashdik. **Ko‘pda** bo‘lsa bizda ham bo‘ladi. Salima **kelganida** u yo‘q edi.*

O‘rin-payt kelishigi affiksi ot ko‘makchilarga qo‘shilib, ular bilan birgalikda bitta grammatik vazifaga ega bo‘ladi: ***Bir hafta ichida** barcha topshiriqlar bajarib bo‘lindi.*

O‘rin-payt kelishigi affiksi ba’zan ot va otlashuvchi so‘zlarga qo‘shilib, yangi so‘z hosil qiladi va o‘z ma’nosini yo‘qotadi: a) bir soni+o‘rin-payt kelishigidagi payt bildiruvchi ot asosida ravish yasaladi: *bir zumda, birpasda, bir vaqtda*; b) o‘rin-payt kelishigi affiksi sifat bilan birikib ravishga ko‘chadi: *yaqinda, uzoqda, o‘ngda, quyida;* v) holat ravishi o‘rin-payt kelishigi affiksini olgan holda payt ma’nosini ifodalaydi: *tezda;* g) ko‘makchiga ko‘chadi: *haqida, to‘g‘risida, xususida, tarzda, bobida*; d) modal so‘zga ko‘chadi: *har holda, haqiqatda.*

O‘rin-payt kelishigidagi so‘zlar gapda quyidagi vazifalarni bajaradi:

1. Kimda? nimada? so‘rog‘iga javob bo‘lib vositali to‘ldiruvchi vazifasini bajaradi: *Yodgor qizning bir marta kulib qarashini ko‘rish orzusida sakkiz chaqirim naridan o‘rtog‘ining **velosipetida** kelib ketar edi (O‘.Hoshimov*). ***Insonda** umid bo‘lmasa edi, hayot lazzati so‘nardi.*

2. Qayerda? so‘rog‘iga javob bo‘lib, o‘rin holi vazifasini bajaradi: ***Ostonada*** *Mastura turar edi (O.Yoqubov).*

3. Qachon? so‘rog‘iga javob bo‘lib, payt holi vazifasini bajaradi: *Navdalarni bezab g‘unchalar,* ***Tongda*** *aytur hayot otini (H. Olimjon).*

4. Qay tarzda? so‘rog‘iga javob bo‘lib, vaziyat holi vazifasini bajaradi: *Qiz* ***parishon holda*** *uyga qaytdi* (O).

5. Nimaga? nima maqsadda? so‘rog‘iga javob bo‘lib, maqsad holi vazifasini bajaradi: *Biz Samarqandga qadimiy obidalarni* ***tomosha qilish niyatida*** *yo‘l oldik.*

6. Gapda yakka holda yoki to‘liqsiz fe’llar bilan birikib kesim vazifasini bajaradi: *Butun xayoli, qalbi o‘sha oy yuzli dilbar qizda (M.Qoriyev.). Hamma illat otamda ekan.* (A.Qahhor.)

6-§. Chiqish kelishigi ish-harakatning kelib chiqish nuqtasi, manbasi, o‘rni, sababi yoki vositasi bo‘lgan nasani ko‘rsatadi. Chiqish kelishigi –dan affiksi orqali shakllanadi. Shevada, mumtoz adabiyotda –tan, -nan, din,-tin shakllarda ham uchraydi: *Yuzing visolig‘a yetsun desang ko‘ngillarni, Sochingni* ***boshdin-oyoq*** *shikan qilg‘il (A.Navoiy). Qani, Mehmon,* ***nonnan*** *oling!*

Jo‘nalish, o‘rin-payt kelishigida bo‘lgani kabi bu kelishik ham ko‘rsatish olmoshlariga qo‘shilganda **n** undoshi orttiriladi: *shu+n+dan, bu+n+dan, o‘sha+n+dan* kabi.

Chiqish kelishigidagi so‘z mustaqil so‘z tomonidan boshqarilib, asosan belgili ishlatiladi. Uning belgisiz shaklini uyushib kelgan gap bo‘laklaridagina uchratish mumkin: *Uning butun jihozi **temir kravat**, **ikkita tubaretka**, ustiga allanima to‘kilib, qotib qolgan qo‘pol **stoldan** iborat edi (A.Qahhor.).*

Chiqish kelishigi otdan tashqari uning o‘rnida ishlatiladigan olmoshlar, harakat nomi kabi ot tipli so‘zlarga bevosita qo‘shiladi. Sifat, son, hamda ular o‘rnida ishlatiladigan olmoshlar, ravish va sifatdoshlarga qo‘shilganda bu guruhga mansub so‘zlar otlashadi: Se**ndan** *xursandman. O‘**qishdan** charchamasdi. Ya**xshidan** bog‘ qoladi, Yoshi **o‘n sakkizdan** oshgandi. K**o‘pdan** quyon qutulmas.*

Chiqish kelishigidagi so‘z *keyin, so‘ng, buyon, beri, boshqa* singari ko‘makchilar bilan birikkanda ular bilan birga bitta gap bo‘lagi vazifasini bajaradi: *darsdan so‘ng uchrashmoq, ertalabdan buyon kutmoq.*

Chiqish kelishigi ba’zi so‘zlar tarkibida qotib qolgan holda o‘z ma’nosini yo‘qotadi va buning natijasida quyidagi so‘zlar hosil

bo‘ladi:1) ravish: *birdan, zimdan, to‘satdan, halitdan, qo‘qqisdan;* 2) modal so‘z: *aftidan, haqiqatdan, o‘z-o‘zidan*. Tartib sonlarga qo‘shilanda ham ular modal ma’noga ega bo‘ladi: *Bilimni yaxshi egallash uchun, birinchidan, qunt bilan o‘qish, ikkinchidan, o‘qilgan narsani takrorlab turish lozim bo‘ladi;* 3) ko‘makchilar hosil bo‘ladi: *qaramasdan, sababdan, ustidan, ichidan, yonidan…* kabilar.

Chiqish kelishigidagi so‘z gapda quyidagi vazifalarni bajaradi:

1. Kimdan? nimadan? so‘rog‘iga javob bo‘lib, vositali to‘ldiruvchi vazifasini bajaradi: *U* ***mashinadan*** *tushib, olmos qirralari yarqirab yotgan oppoq ufq etaklarini ko‘zdan kechirdi (H.G‘ulom.).*

2. Qayerdan? so‘rog‘iga javob bo‘lib, o‘rin holi vazifasini bajaradi: *Faqat erinchoq xo‘rozlargina* ***olis-olislardan*** *ovoz berib qo‘yardi (S.Ahmad.).*

3. Qachondan? qachon? so‘rog‘iga javob bo‘lib, payt holi vazifasini bajaradi: *Erta* ***bahordan*** *to kuzgacha chinobodliklar arava-arava shox-shabba sudrab Kuyganyor tarafga yo‘l oldilar (S.Ahmad.).*

4. Nimaga? nima uchun? so‘rog‘iga javob bo‘lib, sabab holi vazifasini bajaradi: ***Sovuqdan*** *Yo‘ldoshning oyoqlari zirqiray boshladi. (H.G‘ulom.)*

5. Chiqish kelishigidagi so‘z tuslovchi affiks yoki to‘liqsiz fe’l bilan birikib kesim vazifasini bajaradi: *Men ham asli **qishloqdanman.***

7-§. Kelishik affikslari sinonimiyasi. Kelishik affikslari otning boshqa so‘zlar bilan grammatik aloqasini ta’minlovchi eng faol kategoriyalardan hisoblanadi. Shu bois bu kategoriyaga mansub bo‘lgan affikslar nutqiy jarayonda o‘zaro hamda boshqa turli til birliklari bilan ma’nodoshlik munosabatlariga ham ega bo‘ladi. Xususan, bunday ma’nodoshlik munosabatini quyidagi kelishiklarda kuzatish mumkin:

1. Qaratqich kelishigi va u asosida hosil bo‘lgan birikmalar quyidagi vositalar bilan sinonimik munosabatga kirishadi: 1) chiqish kelishigi bilan ma’nodoshlik munosabatiga ega bo‘ladi. Bunda qaratuvchi qaratqich kelishigida kelsa qarashlilik ma’nosi ta’kidlanadi, chiqish kelishigida kelganda qarashli bo‘lgan narsadan ulush, qism, bo‘lak ajratiladi: *Markaziy gazetalarning biri- markaziy gazetalardan biri, Mehmonlarning kattasi- Mehmonlardan kattasi.* Misollardan ko‘rinadiki, chiqish kelishigi qaratuvchi vazifasida kelganda bu kelishik affikkisi ko‘plik shaklidan keyin qo‘shiladi hamda qaralmish sifatida ko‘pincha miqdor yoki belgi bildiruvchi so‘z ishlatiladi; 2) ba’zi birikmalar tarkibida o‘rin belgi shaklini hosil qiluvchi *–dagi* affiksi bilan ham ma’nodoshlik hosil qilishi mumkin: *Sening irodang-sendagi iroda.*

2. Makon va zamon kelishiklari nomi bilan umumlashtiruvchi tushum, joʻnalish, oʻrin-payt va chiqish kelishiklari oʻzaro sinonim boʻlishi mumkin. Masalan: *Chopar tezgina otini (otiga) mindi. Karvon uzoq vaqt choʻlni (choʻlda) kezib yurdi. Mehmon piyolaga quyilgan choyni(choydan) hoʻpladi. Keksalar hovuz yonida (yoniga) toʻplanishdi. Oʻylamay aytgan gapimga (gapimdan) pushaymon boʻldim. Shu yoʻlda (yoʻldan) qatʼiy yurib maqsadga yetdik.*

3. Mazkr kelishiklar maʼno va vazifasiga koʻra bosh kelishikdagi soʻz bilan birikkan koʻmakchilar bilan ham sinonimik munosabatda boʻladi: *kamchiliklarni-kamchiliklar toʻgʻrisida gapirishib oldik, sizga-siz uchun oldim, shu yoʻldan-shu yoʻl bilan boriladi, telefonda-telefon orqali gaplashdik.*

8-§. Kelishik affikslari omonimiyasi. Kelishik affikslari va ularning turlicha fonetik variantlari baʼzi soʻz oʻzgartuvchi, soʻz yasovchi hamda lugʻaviy shakl yasovchi affikslar bilan quyidagicha shakldoshlikka ega boʻlishi mumkin:

1.Qaratqich kelishigining –ing\–im\–n (*Men+ing, vatanim man+im, har oila oʻchogʻi+n oʻz qutlugʻ tarixi bor*) shakllari qoʻyidagi affikslar bilan omonim boʻlishi mumkin: 1) 2-shaxs birlik shaklidagi egalik affiksi bilan: *maktab+ing*; 2) 2-shaxs koʻplikdagi tuslovchi affiksi bilan:

kel+ing; 3) 1-shaxs egalik affiksi bilan: *kitob+im;* 4) ot, sifat yasovchi affiks bilan: *o‘r+im, bo‘l+im, siq+im, chek+im;* 5) 3-shaxs egalik affiksidan keyin kelgan tushum kellishigi bilan: ... *ikki daryo yuvar kokili+n;* 6) fe’lning o‘zlik va majhullik nisbatlarini hosil qiluvchi –n affiksi bilan: *tara+n+di, o‘qla+n+di* omonim bo‘ladi .

2. Jo‘nalish kelishigining –ga\-ka\-qa (uy+ga, buloq+qa, tilak+ka) shakllari quyidagi affikslar bilan omonim bo‘lishi mumkin: a) ot yasovchi: *ena+ga;* b) fe’lning davomiylik shaklini yasovchi: *sur+ga+moq;* v) sifat yasovchi: *qis+qa;* g) otning kichraytish shakli: *yo‘l+ka;* d) fe’l yasovchi: *is+ka+moq*..

3.O‘rin-payt kelishigining -da (maktab+da) shakli ta’kid, to‘siqsizlik yuklamasi bilan omonim bo‘lishi mumkin: kelsa-da.

4.Chiqish kelishigining -dan (uy+dan) shakli dona sondan taqsim son shaklini hosil qiluvchi affiks bilan omonim bo‘lishi mumkin: besh+ta+dan.

9.5. Otning lug‘aviy shakllari

Otlarda so‘z o‘zgarishi va so‘z yasalishidan tashqari lug‘aviy shakl yasash hodisasi ham mavjud. Otlarning leksik ma’nosiga qo‘shimcha

ma’no qo‘shish uchun xoslangan affikslar lug‘aviy shakl yasovchilar deyiladi. Ular quyidagi sintetik shakllardan tashkil topadi:

1-§. Kichraytirish shakllari. -cha affiksi shaxs bildiruvchi otlardan boshqa otlarga qo‘shilganda kichraytirish ma’nosini ifodalaydi: *hovuzcha, qushcha, uycha, baliqcha* kabi. Shaxs bildiruvchi otlarga qo‘shilganda esa kichraytirish bilan birga erkalash, hurmat yoki kamsitish, kesatish ma’nolarini ham hosil qiladi: *Ko‘chadan bir qizcha chopqilab o‘tdi. Sizni es-hushli yigitcha deb o‘ylardim. Sal o‘pkangizni bosib oling, yigitcha!*

Ba’zi so‘zlar tarkibida **–cha** affiksi kichraytish ma’nosini yo‘qotib, yangi so‘z yasashi ham mumkin. Bunday holda so‘z yasovchi va kichraytuvchi affiks o‘rtasida **omonimlik** munosabat hosil bo‘ladi: *sholcha, ko‘rpacha, bog‘cha, qizilcha, taqsimcha*. Bundan tashqari,–cha affiksi sifat va ravish yasovchi –cha affiksi bilan ham shakldoshdir: *o‘zbek+cha raqs, fag‘ona+cha palov, qishloq+cha kiyinmoq, askar+cha yurmoq, yangi+cha fikrlamoq, o‘zbek+cha gapirmoq*.

-choq\\-chak affiksi toy, kelin, qo‘zi kabi so‘zlarga qo‘shilgandagina kichraytish-erkalash shaklini hosil qiladi. Masalan: *toychoq, kelinchak, qo‘zichoq* kabi. *Qo‘zichoq, toychoq* so‘zlari ko‘chma ma’noda bolalarga nisbatan ishlatilganda erkalatish shakli

kuchayadi. Bu affiks ba’zi so‘zlar tarkibida kichraytirish ma’nosi bilan birga ba’zi otlarni ham yasaydi: *o‘yin+choq, bela+n+chak, ko‘m+ir+chak.* Kichraytirish affikisning o‘zlik nisbatdagi fe’lga qo‘shilishi bilan sifat yasaydigan **omonimi** ham bor: *kuy+in+chak, erin+choq* .

2-§.Erkalash shakllari. –jon, -xon, -oy affikslari atoqli va turdosh otlarga qo‘shilib, erkalash, suyish kabi ijobiy munosabat shakllarini hosil qiladi: *ukajon, oyijon, kuzgujon, akaxon, Abrorjon, Hulkaroy, Halimaxon.*

Bu affikslar ba’zi kishi ismlarining tarkibiy qismi sifatida ham uchraydi: *Onaxon, O‘g‘iloy, Mamajon* kabi. Shuningdek, *oromijon, rohatijon* kabi forsiy izofalar tarkibida jon mustaqil so‘z sifatida «jonning oromi», «jonning rohati» kabi ma’nolarga teng bo‘ladi; –xon affiksi esa, *gazetxon, kitobxon* kabi otlarning yasalishida ishtirok etib, -xon shakl yasovchisiga **omonim** bo‘ladi.

- (a) loq affiksi qiz, bo‘ta kabi so‘zlarga qo‘shilgandagina erkalash ma’nosini hosil qiladi: *qizaloq, bo‘taloq, toyloq*. Ba’zi o‘rinda –cha affiksi bilan **sinonim** bo‘la oladi: qizaloq-qizcha, toyloq-toycha. Bu affiks o‘rin-joy oti yasovchi –loq affiksi bilan **omonimlik** munosabatga ham ega bo‘ladi: *o‘tloq, qumloq*.

-gina affiksi. Asosan, shaxs bildiruvchi otga qo‘shilib, erkalatish-kichraytirish shaklini hosil qiladi: *bolagina(m), qizgina(m), jongina(m)*. Mazkur affiks *yaxshigina, kattagina, tezgina, endigina* kabi so‘zlarda sifat va ravishga xos shakl yasaydi. So‘z takibida shakl yasovchi sifatida ishtirok etganda urg‘uli hisoblanadi: *bolagina´, yaxshigina´, ozgina´*. Urg‘usiz holatda esa, ayiruv-chegaralov yuklamasi vazifasini bajaradi va shakl yasovchilar bilan **omonim** bo‘ladi. Masalan: *bola´gina, faqa´tgina, so‘zlarni´gina*.

3-§. Qarashlilik shakli ot yoki olmoshlarga **–niki** affiksini qo‘shish bilan yasaladi. Bu affiks o‘zakka qo‘shilib, narsaning asosdan anglashilgan shaxs yoki narsaga qarashli ekanligini bildiradi: *akamniki, do‘stingniki, ko‘chaniki, maktabniki kabi.* Men, sen olmoshlariga qo‘shilganda qo‘shimcha tarkibidagi **n** undoshi tushiriladi: *men+iki, sen+iki*. Qarashlilik shaklidagi ot mazmunan egalik affiksini olgan otlarga sinonim bo‘ladi.

9.6. Otlarning tuzilish turlari

Otlar tuzilishiga ko‘ra to‘rt turga bo‘linadi: 1) sodda otlar, 2) qo‘shma otlar, 3) juft otlar, 4) qiqartma otlar.

1-§.Sodda ot. Bitta o‘zak morfemadan tashkil topgan ot sodda ot deyiladi. Sodda otning tub va yasama turi mavjud. 1) otning yasovchi affikslarga ega bo‘lmagan mustaqil lug‘aviy ma’noli qismi **sodda tub ot** deyiladi. Tub otlar tarkibida shakl yasovchi yoki so‘z o‘zgartuvchi affikslar qo‘llanishi ham mumkin: *quyosh, dala, qush, kitob, quyoshdan, qushchalar, daladan, kitobning*; 2) so‘zning mustaqil lug‘aviy ma’noli qismiga ot yasovchi affikslar qo‘shilishi bilan yasalgan shakli **sodda yasama ot** deyiladi. Sodda yasama otlar ichki va tashqi yasovchi affikslar asosida shakllanadi. Masalan: *zamon+dosh, mehnat+kash, osh+paz, til+shunos* kabilar ichki yasalish asosida; *o‘ra+m, tutat+qi, isit+ma* kabilar esa tashqi yasalish asosida vujudga kelgan yasama otlardir.

2-§. Qo‘shma ot. Ikki yoki undan ortiq mustaqil so‘zning ma’no va gammatik jihatdan bir-biriga tobelanish yo‘li bilan birikib, bitta narsa nomini ifodalashga xoslangan ot qo‘shma ot deyiladi. Qo‘shma otlar tarkiban bir xil va har xil turkumga mansub so‘zlarning sitaktik munosabatga kirishuvidan tuzilishi mumkin. Masalan: 1) ot+otdan- *qo‘larra, otquloq*; 2) sifat+otdan- *ko‘ksulton, xomtok*; 3)ot+sifatdan- *gulbeor, oshko‘k*; 4) son+otdan- *mingoyoq, uchquduq*; 5) ot+fe’ldan- *o‘rinbosar, beshiktervatar*; 6) fe’l+otdan- *yoriltosh, kuyganyor*; 7) fe’l+fe’ldan- *iskabtopar, ishlabchiqarish.*

Qo‘shma otlar ikkidan ortiq so‘z ishtirokida ham tuzilishi mumkin: *gultojixo‘roz, gulhamishabahor*.

3-§. Juft ot. Bir xil grammatik shaklga ega bo‘lgan ikkita otning teng bog‘lanishidan tuzilib, bir umumiy ma’noni anglatadigan ot juft ot deyiladi. Juft otlarning qismlari mustaqil urg‘uli so‘z bo‘lib, ular talaffuzda yagona leksik urg‘uga birlashadi. Affikslar juft otning keyingi qismiga qo‘shiladi: *ota-onada´n, osh-nonni´ng, aka-ukala´r, arz-dodimizni*.

Juft otlar tarkiban har ikkala qismi mustaqil ma’noli so‘zlardan, bir qismi mustaqil, ikkinchi qismi mustaqil ma’noga ega bo‘lmagan so‘zlardan va har ikkala qismi ma’noga ega bo‘lmagan so‘zlardan tuzilgan:

1.Har ikkala qismi mustaqil ma’noli so‘z bo‘ladi. Bunda juft so‘zlar o‘zaro ikki xil bog‘lanadi: a) bog‘lovchilarsiz: *ota-ona, qozon-tovoq;* b) –u, -yu yuklamalari yordamida: *tog‘-u tosh, olma-yu o‘rik*.

Juft otlarning har ikkala qismi mustaqil ma’noli so‘zdan tuzilganda uning qismlari quyidagicha farqlanishi mumkin: 1) har ikkala qismi hozirgi tilimizda ishlatiladigan mustaqil so‘z bo‘ladi: *o‘yin-kulgu, tog‘-tosh, sigir-buzoq, qo‘y-qo‘zi;* 2) mustaqil so‘zlarning ikkinchi qismi tarixiy yoki eskirgan so‘z bo‘ladi: *ko‘cha-kuy, el-ulus, idish-oyoq*; 3)

mustaqil so‘zlarning birinchi yoki ikkinchi qismi o‘zlashma so‘z bo‘ladi: *kuch-quvvat, o‘y-xayol* (o‘zbekcha+arabcha), *tuz+namak* (o‘zbekcha+ tojikcha), *savdo-sotiq, gap-so‘z* (tojikcha+o‘zbekcha); 4) mustaqil so‘zlarning har ikkalasi o‘zlashma so‘z bo‘ladi: *hol-ahvol, hisob-kitob, sir-asror* (arabcha).

Juft otlarning tuzilshida so‘zlar ma’no jihatdan quyidagicha munosabatda bo‘ladi: a) mazmunan bir-biriga yaqin, umumiy bir guruhga mansub bo‘lgan uyadosh so‘zlardan: *oyoq-qo‘l, yuz-ko‘z, , idish-tovoq, sigir-buzoq;* b) ma’nodosh so‘zlardan: *o‘y-xayol, kuch-quvvat, or-nomus, baxt-saodat, qo‘ydi-chiqdi;* v) qismlari zid ma’noli so‘zlardan: *yer-ko‘k, er-xotin, o‘g‘il-qiz, keldi-kitdi, oldi-berdi;* g) butun-bo‘lak munsabatga ega bo‘lgan so‘zlardan: *gap-so‘z, tog‘-tosh.*

2.Bir qismi mustaqil, ikkinchi qismi mustaqil ma’noga ega bo‘lmagan so‘zlardan tuzilgan juft otlar: *kiyim-kechak, bozor-o‘char, temir-tersak, maza-matra, qand-qurs.*

3. Har ikkala qismi ma’noga ega bo‘lmagan so‘zlardan tuzilgan juft otlar: *g‘ala-g‘ovur, lash-lush, ikr-chikir, g‘idi-bidi.*

Juft otlar vositasida ifodalangan ma’no har xil bo‘ladi: a) ma’no umumlashadi va kengayadi: *qovun-tarvuz, qozon-tovoq, qo‘y-echki*; b) ma’no umumlashadi va jamlanadi: *o‘g‘il-qiz, ota-ona, aka-uka.*

Bundan tashqari, boshqa turkumga mansub so‘zlar juftlashib, otga ko‘chishi ham mumkin. Bunday juft so‘zlar quyidagi turkumlarga doir so‘zlarning ma’no ko‘chishi asosida yuzaga keladi: *issiq-sovuq, oq-qora, kam-ko‘st* sifatdan; *kam-ko‘st, kam-ko‘p* ravishdan; *yurish-turish, yeyish-ichish, yozuv-chizuv, keldi-ketdi, bordi-keldi, ur-yiqit fe’ldan; adi-badi, qiy-chuv* kabi taqlid so‘zlardan.

4-§. Takroriy otlar. Bir xil grammatik shakldagi so‘zlarni aynan takrorlash orqali leksik-grammatik jihatdan bir butunlikni tashkil qiluvchi otlar takroriy otlar deyiladi. Takroriy otlar ko‘plik va umumlashtirish, ma’no kuchaytirish kabi leksik-grammatik maqsadlarni ro‘yobga chiqarishda muhim ahamiyatga ega bo‘ladi. Masalan: *Xo‘jalikning bu yilgi daromadi yaxshi*. ***Ombor-ombor*** *g‘alla,* ***xirmon-xirmon*** *paxta yetishtirib mo‘l hosil to‘plandi*. *Og‘riq tobora zo‘rayib, uning* ***suyak-suyagigacha*** *zirqiratardi.*

Takroriy otlarning maxsus takror turi ham mavjud bo‘lib, bu turdagi takror otlar mustaqil so‘z va uning fonetik soyasi qolipida tuziladi hamda gumon, umumlashtirish, jamlash kabi qo‘shimcha ma’nolarni yuzaga keltiradi: *ovqat-povqat, ilon-milon, non-pon, chang-chung, choy-poy, qand-qurs.*

5-§. Qisqartma otlar. Murakkab so‘z birikmalarini turli usullar yordamida qisqartirish orqali yasalgan otlardir. Qisqartma otlar nutqning ixchamligini ta’minlovchi muhim vositalardan biridir. Masalan: *BMT, OAK(Oliy Attestatsiya komissiyasi), O‘zteleradio kompaniyasi, O‘z-dunrobita.* Qisqartma so‘zlarning ba’zilari tilimizda aynan o‘zlashtirilgan holda ishlatiladi: *YUNESKO, NATO, Koskom* kabilar shular jumlasidandir.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Ot va otning ma’no turlari xususida ma’lumot bering.
2. Otlar qanday grammatik kategoriyalarga ega?
3. Egalik kategoriyasi va u ifodalaydigan grammatik ma’nolar xususida nimalar bilasiz?
4. Egalik affikslari sinonimligi, omonimligi haqida ma’lumot to‘plang.
5. Kelishik va son kategoriyasiga xos grammatik ma’nolar haqida ma’lumot Bering.
6. Kelishiklar sinonimiyasi xususida nimalar bilasiz?
7. Otlarga xos nokategorial shakllarni tavsiflang.
8. Otning tuzulishiga ko‘ra turlarini jadval asosida yoriting.

ZARURIY ADABIYOTLAR

1. У.Турсунов, Ж.Мухторов, Ш.Раќматуллаев Ќозирги њзбек адабий тили. Т., «Њљитувчи» 1992.

2. М.Мирзаев, С.Усмонов, И.Расулов Њзбек тили. Т., «Њљитувчи» 1978.

3. Њзбек тили грамматикаси. 1-том. Т., «Фан» 1975.

4. N.Mahmudov,A.Nurmonov,A.Sobirov, D.Nabiyeva, A.Mirzaahmedov Ona tili. Umumta'lim maktablarining 6,7-sinfi uchun darslik. T., «Ma'naviyat» 2005.

10-MA'RUZA

Sifat

1-§. Narsaning belgisini bildirib, qanday? qanaqa? qaysi? kabi so'roqlardan biriga javob bo'ladigan so'zlar turkumi sifat deyiladi. Sifat asosan otga bog'lanadi va uning belgisini aniqlaydi. Masalan: *oq ko'ylak, kuzgi ekin, aqlli qiz, yumshoq non, o'rtancha o'g'il.* Bunda belgi bildiruvchi so'z sifatlovchi, uni boshqarib kelgan ot esa sifatlanmish deyiladi.

Sifat bog‘lanib kelgan ot turli so‘z o‘zgartuvchi qo‘shimchalar bilan qo‘llanish mumkin, lekin sifat o‘zgarmaydi: *ko‘k qalam, ko‘k qalamning, ko‘k qalamdan* kabi. Sifat gapda asosan a) sifatlovchi-aniqlovchi vazifasini bajaradi: *Bir ozdan so‘ng* ***yoqimli*** *shamol esa boshladi;* b) kesim bo‘lib keladi: *Osmon* ***tiniq.***

Sifat ba’zan fe’lga bog‘lanib, harakatning belgisini bildirishi mumkin. Bunday holda sifat ravish kabi gapda hol vazifasini bajaradi: *U do‘stining yuragida kechayotgan tuyg‘ularni* ***yaxshi*** *tushunardi.*

2-**§. Sifatning ma’no turlari.** Sifatlar ma’no jihatdan quyidagi turlarga bo‘linadi:

1) xususiyat bildiruvchi sifatlar: *kamtarin, sho‘x, ziqna, sodda, yo‘rg‘a, mehribon;*

2) holat bildiruvchi sifatlar: *keksa, badavlat, iliq, tinch, salqin, ochiq, xursand;*

3) shakl- ko‘rinish bildiruvchi sifatlar: *gavdali, novcha, qiyshiq, yassi;*

4) rang - tus bildiruvchi sifatlar: *oq, qora, qizil, pushti;*

5) hajm – o‘lchov bildiruvchi sifatlar: *keng, tor, uzun, yaqin, katta, og‘ir;*

6) maza - ta’m bildiruvchi sifatlar: *nordon, achchiq, bemaza, shirin;*

7) hid bildiruvchi sifatlar: *muattar, xushbo‘y, badbo‘y;*

8) o‘rin va paytga munosabat bildiruvchi sifatlar: *kechki, tonggi, kuzgi, bahorgi.*

3-§. Asliy va nisbiy sifat. Sifatlar ma’no jihatdan bir-biridan farqlanadi. Ba’zi bir guruh sifatlar bevosita belgi ifodalash xususiyatiga ega bo‘lsa, boshqalarida belgi tushunchasi ma’lum bir narsaning boshqa narsaga munosabati asosida anglashiladi. Shunga ko‘ra ularni asliy va nisbiy sifatlarga ajratish mumkin.

1. Narsaning belgisini bevosita ifodalaydigan, belgini darajalab ko‘rsata oladigan sifat **asliy sifat deyiladi**. Masalan: *yaxshi, katta, uzun, qisqa, oq, qora, semiz, kamtar* kabi tub so‘zlar asliy sifatlardir.

2. Narsa belgisini o‘rin yoki paytga nisbatlash, boshqa narsaga o‘xshatish, chog‘ishtirish kabi ma’nolar vositasida ifodalaydigan sifat **nisbiy sifat deyiladi**. nisbiy sifatlar affikslar orqali yasalgan sifatlardan tashkil topadi. Ular ma’no jihatdan a) belgini biror narsaga nisbat berish bilan ifodalaydi: *g‘ayratli yigit, chiroyli surat, devoriy gazeta, ko‘rpalik mato*; b) belgini o‘rin va paytga nisbatlaydi: *toshkentlik kishi, yerdagi olma, kuzgi shamol*; d) belgini narsaning xususiyat, holatga nisbatlaydi: *ko‘ngilchan odam,chopqir ot, tirishqoq talaba*.

4-§. Sifat darajalari. Belgining oddiy darajaga ko‘ra nisbatlab, farqlanishi sifat darajalari deyiladi. Sifat darajalarining quyidagi turlari bor:

Oddiy daraja. Bir narsa belgisining boshqa narsa belgisiga nisbatlanmay ifodalanishi oddiy daraja deyiladi. Bunday sifatlar daraja bildiruvchi affikslarga ega bo‘lmaydi. Masalan: *yorug‘, yaxshi, og‘ir, chaqqon, yumshoq, baland, to‘g‘ri.*

Qiyosiy daraja belgining oddiy darajaga nisbatan ortiq yoki kam ekanligini qiyoslab ko‘rsatadi. Qiyosiy darajadagi sifat asosan **-roq** affiksi bilan shakllanadi: *kattaroq, kichikroq, ko‘kroq, balandroq, mazaliroq, achchiqroq.*

Qiyosiy daraja, odatda, ikkita narsa, hodisa, voqea yoki holat ishtirokida hosil bo‘ladi. Bunda qiyoslanayotgan narsalarning belgisi ***… -ga nisbatan (qaraganda) … -roq*** yoki ***… -dan (ko‘ra) … -roq*** qolipi asosida voqelanadi: *Bugungi shamol kechagiga qaraganda kuchliroq.Tut terakdan pastroq. Asal shakardan ko‘ra shirinroq*.

Qiyoslash ma’nosi chiqish yoki jo‘nalish kelishigidagi ot + ko‘ra, nisbatan, qaraganda so‘zlaridan biri hamda oddiy darajadagi sifat birligi orqali ham ifodalanishi mumkin: *Alisher boshqa bolalarga qaraganda zehnli, mehnatsevar chiqdi.*

Ba’zan bunday ma’no –roq ko‘rsatkichili sifatning yakka o‘zi orqali ham hosil bo‘lishi mumkin: *Qalbdan aytilgan tashakkurdan* ***qimmatliroq*** *mukofot bo‘lmaydi.*

Orttirma daraja belgining oddiy darajadan ortiq, yuqori ekanligini ifodalaydi. Orttirma daraja quyidagicha usullar vositasida hosil bo‘ladi:

1.Fonetik usul: a) sifatning bosh qismi va oddiy darajadagi shaklning maxsus takrori orqali: *ko‘m-ko‘k, dum-dumaloq, yam-yashil, oppa-oson, teppa-teng;* b) sifat tarkibidagi unlini cho‘ziq talaffuz qilish orqali: *baaland, achchiq*.

2.Leksik usul: a) sifat oldidan ***eng, juda, g‘oyat, g‘oyatda, nihoyatda, behad, biram, tim, naq, cheksiz*** kabi so‘zlarni keltirish orqali: *juda go‘zal, behad xursand, nihoyatda baland, g‘oyat minnatdor, biram yoqimli, o‘ta g‘irrom, o‘lgiday ziqna, naqadar ulug‘vor, tim qorong‘u;* b) turg‘un birikmalarni sifat oldidan keltirish orqali: *xaddan ziyod achchiq, haddan tashqari maroqli, bahosi yo‘q juvon*; v) takroriy sifatlarni ot oldidan keltirish orqali: *baland-baland imoratlar, zo‘r-zo‘r yigitlar, hashamatli-hashamatli binolar, shirin-shirin orzular.*

Bulardan tashqari, *shirindan shirin, uzindan uzoq* kabi morfologik ko‘rsatkichlar ishtirokida ham orttirma daraja hosil qilinishi mumkin.

Ozaytirma daraja ko‘proq rang-tus belgilariga xos bo‘lib, belgining oddiy darajadan kamligi, pastligini ifodalaydi. Ozaytirma darajadagi sifatlar quyidagicha usullar yordamida hosil qilinadi:

1.Leksik usul. Belgining kuchsizlik darajasi sifat oldidan *yarim, nim, och, xiyol, xiyla, sal, aytarli, u qadar* kabi maxsus yordamchi so‘zlarni keltirish yordamida hosil qilinadi: *sal durust, xiyol ochiq, bir oz yaxshi, yarim qorong‘u, nim pushti, xila shum, u qadar shirin emas.* Bunda ba’zan–**roq** affiksi ishtirok etishi ham mumkin: *sal g‘o‘rroq, xiyol kichikroq, bir oz torroq* kabi.

2.Morfologik usul. Bunda darajaning kuchsizligi oddiy darajadagi sifatga quyidagi affikslarni qo‘shish orqali shakllanadi:

a)–ish affiksi orqali: *qizg‘ish, sarg‘ish, ko‘kish, oqish;*

v)–mitir\-imtir affiksi orqali: *qoramtir, ko‘kimtir, oqimtir;*

g)–gina\-kina\-qina affiksi orqali: *kattagina, shiringina, oppoqqina, kichikkina.*

d)–roq affiksi qiyosiy daraja hosil qilish bilan bir qatorda, belgining kuchsizlik darajasini shakllantirishda ham ishlatiladi.

5-§.Sifatning otlashishi. Sifatning otlashuvi **substantizatsiya** deb yuritiladi. Sifatlar otlashganda belgini emas, otlar singari narsa yoki shaxs tushunchasini anglatadi. Sifat nutqda sifatlanmish tushirilib, uning

vazifasida sifatlovchi ishlatilganda otlashadi: *ko‘r (odam) tutganini qo‘ymaydi, kar (odam) eshitganini.* Otlashgan sifat otlar singari kelishik, egalik, ko‘plik qo‘shimchalarini qabul qilgan holda quyidagi vazifalar bajaradi: a) ega: ***Yaxshi*** *topib gapiradi,* ***yomon*** *qopib gapiradi;* b) to‘ldiruvchi: ***Mardni*** *maydonda sina;* v) qaratqich aniqlovchi: ***Yaxshining*** *so‘zi qaymoq,* ***yomonning*** *so‘zi to‘qmoq;*

6-§.Sifatlarning tuzilishiga ko‘ra turlari: Sifat tuzilishiga ko‘ra sodda, qo‘shma, juft va takroriy shakllarga ega bo‘ladi.

1.Sodda sifatlar tarkiban bitta o‘zak morfemadan iborat bo‘lgan tub va yasama so‘zlardan tashkil topadi. Shunga ko‘ra ular sodda tub va sodda yasama kabi turlarga bo‘linadi.

Mazmunan doimiy belgi anglatuvchi bir o‘zakdan tarkib topgan asliy sifat **sodda tub sifat** deyiladi. Masalan: *shirin, baland, oq, uzun, chaqqon, zukko, dono*. Bunday sifatlar daraja affikslari bilan qo‘llanganda ham tub sifat sanaladi: *kattaroq, qoramtir, shiringina, oqish, balandroq* kabi.

Sifat yasovchi qo‘shimchalar vositasida turli so‘z turkumlaridan yasalgan sifat **sodda yasama sifat** deyiladi. Masalan: *bilimli, suvsiz, kechki, ishchan, oilaviy, tirishqoq, ag‘darma.*

2.Qo‘shma sifat birdan ortiq o‘zak-negizning o‘zaro qo‘shilib, bitta belgi tushunchasini anglatadigan yasama sifatlardir. Qo‘shma sifatlar qismlarining morfologik tarkibiga ko‘ra quyidagi guruhlarni tashkil etadi:

1) ot+ot: *shira kayf, sher yurak, bezbet, bedana qadam, yer osti;*

2) ot+sifat: *mushtumzo‘r, mirzaquruq, nonko‘r;*

3) sifat+ot: *uzun quloq, qiziqqon, sovuqqon, shum qadam, sofdil, ochko‘z;*

4) sifat+sifat: *olachipor, qora to‘riq, qora qizil*;

5) ravish+ot: *kamgap, hozirjavob, kamquvvat;*

6) ot + -ar, -mas va -mon qo‘shimchali sifatdosh: *mehnatsevar, jonkuyar, lattachaynar, nonemas, ishyoqmas, usta buzarmon, ish bilarmon;*

7) ravish+sifatdosh: *tezpishar, eapishar, tez oqar, cho‘rtkesar;*

8) olmosh+sifat yoki ravish: o‘zbilarmon, o‘zboshimcha;

9) son+ yasama sifat: *bir xonali, Besh qavatli, bir so‘zli.*

3. Juft sifatlar ikkita so‘zning teng bog‘lanishi asosida tuzilgan sifatlardir. Juft sifatlar tarkibi har ikkiala qismi lug‘aviy ma’noli yoki bir qismi lug‘aviy ma’noga ega bo‘lmagan so‘zlardan tuzilishi mumkin.

Har ikkala qismi lug‘aviy ma’noli so‘zlardan tuzilgan juft sifatlar quyidagi tarkibga ega bo‘ladi: **1) turli antonim so‘zlardan tuziladi**: a) tub so‘zlardan: *olis-yaqin, og‘ir-yengil, oq-qora, past-baland\\baland-past, yaxshi-yomon\\yomon-yashi, yosh-qari, katta-kichik, o‘ng-ters;* b) tub va yasama so‘zlardan: *uzun-qisqa, haq-nohaq, huda-behuda*; d) yasama so‘zlardan: *kerakli-keraksiz, qo‘lli-oyoqli, issiq-sovuq.* **2) sinonim so‘zlardan tuziladi:** *och - nahor, ola - chipor, soya - salqin, o‘ydim-chuqur, puxta-pishiq, uzuq-yuluq, mo‘min-qobil, xor-zor*.

Bir qismi lug’aviy ma’noli, ikkinchi qismi lug‘aviy ma’noga ega bo‘lmagan so‘zlardan tuziladi: *bo‘sh-bayov, xom-xatala, chala-chulpa, eski-tuski, egri-bugri, yarimta-yurimta, achchiq-tizziq.*

Har ikkala qismi yolg‘iz holda ma’no anglatmaydigan so‘zlardan tuziladi: *uvali-juvali, dalli-g‘ulli, ikir-chikir, ayqash-uyqash.*

Juft sifatlar chiziqcha bilan ajratilib yoziladi. Biroq ular orasida –u, -yu yuklamalari bog‘lovchi vazifasida ishlatilganda chiziqcha tushiriladi: *halol-harom\ halol-u harom, issiq-sovuq\ issg‘-u sovuq, sog‘-salomat\sog‘-u salomat.*

4. Takroriy sifatlar bir xil shaklga ega bo‘lgan so‘zlarning aynan takroridan tuziladi. Masalan: *baland-baland, mayin-mayin, shirin-shirin*. Ba’zi takroriy sifatlarning birinchi qismida qo‘shimchalar mavjud

bo‘lishi ham mumkin: *poyma-poy, ko‘pdan-ko‘p, kattadan-katta, xilma-xil, limmo-lim*. Bunday sifatlar ma’noni kuchaytirish, ta’kidlash uchun ishlatiladi.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Sifat va uning ma’no turlarini misollar vositasida izohlang.
2. Sifat darajalari xususida nimalarni bilasiz?
3. Sifatlarning otlashishida qanday grammatik birliklar muhim o‘rin tutadi?
4. Sifatlarning gapdagi sintaktik vazifasi nimalar asosida belgilanadi?
5. Asliy va nisbiy sifatlarning farqini tushuntiring.

ZARURIY ADABIYOTLAR

1.Ш. Шоабдураќмонов, М.Асљарова, А.Ќожиев, И.Расулов, Х.Дониёров Ќозирги њзбек адабий тили. 1-љисм .Т., «Њљитувчи» 1980.

2.У.Турсунов, Ж.Мухторов, Ш.Раќматуллаев Ќозирги њзбек адабий тили. Т., «Њљитувчи» 1992.

3.М.Мирзаев, С.Усмонов, И.Расулов Њзбек тили. Т., «Њљитувчи» 1978.

4. Ўзбек тили грамматикаси. 1-том. Т., «Фан» 1975.

5. N.Mahmudov, A.Nurmonov, A.Sobirov, D.Nabiyeva, A.Mirzaahmedov Ona tili. Umumta'lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik. T., «Ma'naviyat» 2005.

11-MA'RUZA

Son

1-§. Narsaning, miqdori, sanog'i yoki tartibini bildirib, qancha? nechta? nechanchi? so'roqlaridan briga javob bo'ladigan so'zlar son deyiladi. Sonlar sifat singari belgi tasavvuri bilan aloqador bo'lib, narsaning miqdori, sanog'i va tartibiga ko'ra belgisini ifodalaydi: *beshta kitob, uchala talaba, birinchi kurs* kabi.

Son narsaning aniq yoki noaniq miqdorini ifodalash xususiyatiga egaligiga ko'ra tildagi *ko'p, oz, bir oz* singari umumiy miqdor bildiruvchi so'zlardan farqlanib turadi. Sonlar quyidagi grammatik belgilarga ega:

1.Sonlar ot bilan birikkanda so'z o'zgartuvchi affikslar olmaydi, aksincha ularning o'zi otning aniqlovchisi vazifasini bajaradi: *O'n sakkiz yashar yigit. birinchi o'rinda bormoq.*

2.Ba’zan son va sifat birgalikda otning aniqlovchisi vazifasini bajarishi mumkin. Bunday holda son aniqlovchi vazifasida kelgan sifatdan avval joylashadi: *Beshta baland bino, uchta qora qo‘y.*

3.Son gapda asosan aniqlovchi va kesim vazifasini bajaradi: *Mehnat kishini uchta balodan saqlaydi: yurak siqishdan, axloqiy buzilishdan, muhtojlikdan. Bu xotinning joni bitta emas, mingta (A.Qahhor).*

4.Ba’zan sonlar fe’l oldidan kelib, ravish singari hol vazifasini bajaradi: *U ariqning labidagi oshrayhon bargidan uch-to‘rtta uzib keldi.*

5.Sonlar boshqa so‘zlardan yasalmaydi, ya’ni son yasalish tizimiga ega emas. Biroq ba’zi sonlardan ot yoki fe’l yasalishi mumkin: *uch+lik, ikki+lanmoq* kabi.

6.Sonning o‘ziga qo‘shiluvchi –inchi, -ov, -ala, -ta, -tacha, -lab,-larcha affikslari shakl yasovchilar bo‘lib, sonning bir turidan boshqa turini hosil qiladi. Son otga bog‘langanda ular orasida maxsus hisob so‘zlar, ya’ni **numerativlar** ishlatiladi. Numerativlar *kilogramm, gramm, botmon, pud, so‘m, tiyin, dona, nafar, hovuch, qarich, kilometr, qadam, gektar, soat, minut, daqiqa, soniya* singari ot turkumiga mansub so‘zlardan tashkil topadi.

Sonning ma’no turlari. Sonlar ma’no jihatdan, dastlab, ikki guruhga bo‘linadi: 1) miqdor son, 2) tartib son.

2-§. Miqdor sonlar narsani sanash, donalash, taxminlash, taqsimlashga asoslangan umumiy qiymatini ifodalash uchun xizmat qiladi. Miqdor sonlar narsaning qiymatini ifodalash xususiyatiga ko‘ra uch guruhni tashkil qiladi: a) **butun son** narsa-buyumning miqdoriy butunligini ifodalaydi: *bir kishi, uch o‘rtoq, ikkita daraxt kabi*; b) k**asr sonlar** butun miqdorning qismini ifodalash uchun xizmat qiladi. Ular ko‘pincha bir necha sonning sintaktik usul asosida birikishdan hosil bo‘ladi: to‘rtdan bir, uchdan ikki. Shuningdek, kasr sonlar *yarim, chorak, nim chorak* kabi so‘zlar vositasida ham ifodalanadi; d) **aralash sonlar** butun va kasr sonlarning birligi asosida hosil bo‘ladi: *bir yarim, ikki butun o‘ndan besh.*

Miqdor sonlar ma’no jihatdan sanoq son, dona son, chama son, jamlovchi son, taqsim son kabi turlarga bo‘linadi. Ular quyidagi xususiyatlarga egaligi bilan o‘zaro farqlanadi:

1.Sanoq sonlar bir turdagi narsaning umumiy sanog‘i, sonning nomini ifodalash uchun xizmat qiladi. Masalan: *bir, ikki, uch, to‘rt, besh*. Sanoq sonlar numirativ so‘zlarsiz va numerativ so‘zlar bilan ishlatiladi: *besh kishi, o‘n yil, uch qop un, o‘n olti tonna bug‘doy* kabi.

Sanoq sonlar numerativ so‘zlarsiz yoki numerativ so‘zlar bilan qo‘llanib, ko‘plik affiksini qabul qilganda chama, taxmin ma’nosini

ifodalaydi: *soat beshlar bo‘ldi, oradan uch kunlar o‘tdi.* Xuddi shuningdek, ma’no sanoq sonlarning juftlanishi orqali ham ifodalanishi mumkin. Masalan: *Darchadan besh-olti kishishi kirib keldi.*

Sanoq sonlarning ba’zi turlarigagina 3-shaxs egalik affiksi qo‘shilib, ularni otlashtirishi mumkin: *Biri olim, biri muallim*. Sanoq sonlar hech qanday affikssiz ham otga ko‘chishi mumkin. Masalan: *qirq, yetti, yigirma* kabi aza marosimlari nomi shular jumlasidandir.

Barcha sanoq sonlar o‘rtasida bir soni alohida grammatik xususiyatga egaligi bilan ajralib turadi. Uning bunday polisemantik xususiyati quyidagilarda ko‘zga tashlanadi:

a) bir soni ot oldidan kelib, gumon, noma’lumlik ma’nosini hosil qiladi: *Bugun sizni bir kishi so‘rab keldi*. Bir soni miqdor bildiruvchi so‘zlar oldida kelganda ham shunday ma’nolar hosil bo‘ladi: *bir talay, bir necha, bir oz, bir qadar*.

b) holat ma’nosidagi fe’l, ot, sifat, ravish oldida kelib ma’noni kuchaytiradi: *Mashina bir silkinib, to‘xtadi. Ertaga bir dam olmasam bo‘lmaydi.*

d) uyushiq bo‘laklar yoki sodda gaplarda biriktirvuchi bog‘lovchi vazifasini bajaradi: *Xursandligidan bir kuladi, bir yig‘laydi.*

c) ayiruv-chegaralov yuklamasi vazifasini bajarishi mumkin: *Mening ishonchim bir sensan.*

f) bir soni jo‘nalish, chiqish kelishigi affiksi bilan hamda –day, affiksi bilan qo‘llanganda ravishga ko‘chadi: *birga ishlamoq, birdan kirib kelmoq, birday qaramoq.*

2.Dona sonlar bir turdagi narsani yakkalab, donalab sanaladigan umumiy miqdorini anglatadi va sanoq songa **–ta** affiksini qo‘shish orqali shakllanadi: beshta, o‘nta, ikkita. Biroq, -ta affiksi bir soniga qo‘shilganda **r** undoshi **t** tovushiga o‘zgaradi: bir+ta= bitta.

Dona son hosil qiluvchi –ta affiksi numerativ so‘z o‘rnida ishlatiluvchi vosita sifatida ham muhim ahamiyatga ega bo‘ladi: *Beshta qalam-besh dona qalam, to‘rtta talaba-to‘rt nafar talaba, yuzta qoramol-yuz bosh qoramol.*

Ba’zan dona sonlar fe’l oldidan kelib, hol vazifasini bajaradi: *Uning bitta gapirib, o‘nta kuladigan odati bor.*

Boshqa miqdor sonlardan farqli ravishda, dona son hosil qiluvchi –**ta** affiksidan keyin ko‘plik ifodalovchi **–lar** affiksi hamda kelishik qo‘shimchalari qo‘shilmaydi. dona sonlar 1,2-shaxs birlikdagi egalik affiksi bilan ham deyarli qo‘llanmaydi. Faqat 3-shaxs egalik affiksini qabul qilib, otlashishi mumkin. Bunday holda dona sonlar turli kelishik

affikslarini qabul qilishi va ot singari vazifalar bajarishi mumkin. Masalan: *Birniki mingga, mingniki tumanga.*

3.Taqsim sonlar narsaning miqdor jihatdan teng bo‘linganligini ifodalaydi. Taqsim son quyidagicha hosil bo‘ladi: a) sanoq songa **-tadan** qo‘shimchasini qo‘shish bilan: *beshtadan, to‘rttadan*; b) dona sonlarni takror qo‘llash orqali: *ikkita – ikkita, to‘rtta – to‘rtta*. Bunday holda takror qo‘llangan sonning ikkinchisiga –tadan affiksi qo‘shilishi ham mumkin: *ikkita-ikkitadan kabi.*

Miqdor sonning bu turi numerativ so‘z bilan qo‘llanishi mumkin: *ikki nusxadan, Besh donadan, yuz kelogrammdan.*

Taqsim sonlar boshqa miqdor sonlar kabi ot va ot vazifasidagi so‘zlar yoki fe’l oldidan kelib, narsa yoki harakatning miqdoriy belgisini ko‘rsatadi: *Navbatda turganlar bittadan, ikkitadan bo‘lib kela boshladi.*

Taqsim sonlar ham boshqa son turlaridan farqli ravishda egalik, kelishik va ko‘plik qo‘shimchalarini qabul qilmaydi. Demak, ular otlashmaydi.

4.Jamlovchi sonlar narsa miqdorini jamlab, to‘dalab ko‘rsatadi. Ular sanoq sonlarga **-ov, -ala, -ovlon, -ovlashib** qo‘shimchasini qo‘shish bilan hosil bo‘ladi.

Jamlovchi sonning –ov, -ovlon affiksli shakli har doim 1-shaxs birlik shakldan tashqari, barcha egalik affiksi bilan qo‘llanib, gapda ot vazifasida ishlatiladi. Shu bois sonning boshqa turlaridan farqli ravishda gapda sifatlovchi - aniqlovchi vazifasini bajarmaydi : *Uchovining maqsadi bir. Oltovlon ola bo‘lsa, og‘zidagin oldirar.*

Biroq –ala affiksli jamlovchi son ot oldidan kelib, sifatlovchi-aniqlovchi vazifasini bajaradi: *Ikkala o‘rtoq bir bo‘lib ishga tushdilar.* – ov, -ala, -ovlon affikslari bilan hosil bo‘ladigan jamlovchi sonlarning faol qo‘llanishi ikkidan yettigacha bo‘lgan sonlarda ko‘proq kuzatiladi.

Jamlovchi sonning –ov, -ala affiksli shakliga kelishik affikslari 3-shaxs egalik qo‘shimchasidan keyin qo‘shiladi, -ala affiksli shakliga esa kelishik affikslari egalik affiksining 1-shaxslaridan boshqa turlaridan keyin qo‘shiladi va gapda ega, qaratqichli aniqlovchi va to‘ldiruvchi vazifasini bajaradi: *Ikkovi qadirdonlarcha ko‘rishdilar. Ikkalasining bo‘yi teng. Terimchilarning uchalasiga ham mukofot berildi. To‘rta-langizdan boshqa hamma yig‘ilishga qatnashdi.*

Bundan tashqari, jamlovchi son **ov+la+sh+ib** affiksi yordamida hosil bo‘luvchi shaklga ham ega. Bu affiks bilan shakllangan jamlovchi sonlar ko‘pincha fe’lga bog‘lanib, gapda hol vazifasida keladi: *Uchovlashib ichkariga kirishdi.*

5.Chama son narsa miqdorini chamalab, taxminlab koʻrsatish uchun ishlatiladi va quyidagicha yasaladi: 1) **–tacha** affiksi orqali: *oʻntacha, beshtacha*; 2) **–lab** affiksi vositasida: *oʻnlab, yuzlab*; 3) **–lar** qoʻshimchasi orqali: *soat birlar boʻldi, oʻntalar*; 4) **–larcha** qoʻshimchasi orqali: *oʻnlarcha, yuzlarcha;* 5) sanoq yoki dona sonlarni juftlash orqali:*bir-ikki, ikki-uch, uch-toʻrtta, besh–oltita*; 6) chama sonlarni hosil qilishda baʼzi taxmin maʼnosidagi soʻzlar ham ishtirok etadi: *oʻttizga yaqin, yigirma chogʻli, kamida oʻnta, qariyb yuzta, yuzdan ortiq*.

Chama sonlar hisob soʻzlari bilan qoʻllanadi. Bunda chama maʼnosini hosil qiluvchi affikslar hisob soʻziga qoʻshiladi: *Maktab uzogʻi bilan yuz metrcha narida edi. Oradan bir yilcha vaqt oʻtdi*.

Chama sonning gapdagi vazifasi uning qaysi soʻz bilan birikishiga bogʻliq boʻladi. Masalan: a) koʻpincha otga bogʻlanib, sifatlovchi aniqlovchi vazifasini bajaradi: *Kuzgacha besh-oltita ketmon ishdan chiqdi. (A.Q)* b) feʼlga bogʻlanib hol vazifasini bajaradi: *Roʻzimat qorongʻida koʻziga yigirma besh yoshlarda koʻringan edi. (A.Q.)* v) otlashgan holda shaxs maʼnosini ifodalaydi va gapda ega, vazifasini bajaradi: *bitta-yarimta sezgani yoʻqmi, degan oʻy bilan atrofga alangladi. (S. Ahmad)*

3-§. Tartib sonlar narsaning joylashish tartibini, o‘rnini ifodalash bilan boshqa sonlardan farqlanadi. Ular sanoq songa **-nchi, -inchi**, **-lamchi** affiksini qo‘shish orqali hosil bo‘ladi: birinchi, ikkinchi, beshinchi , birlamchi , ikkilamchi kabi. Tartib sonlar boshqa son turlaridan farqli ravishda hisob so‘zlari bilan qo‘llanmaydi.

Tartib son yasovchi affikslar bir soniga qo‘shilganda «ilk», «dastlabki», «oldingi» kabi so‘zlar bilan sinonim bo‘ladi: *Qishning birinchi kunlarida qor qalin yog‘di.*

Tartib son yasovchi affikslar ikki soniga qo‘shilganda «boshqa» so‘ziga ma’nodosh bo‘ladi: *Endi masalaning ikkinchi tomoniga e’tibor qarataylik.*

Narsa, hodisalar tartibini ko‘rsatishda avval sanoq son undan so‘ng tartib son qo‘llaniladi: ***Bir*** *tomonda sho‘x,* ***ikkinchi*** *tomonda kishining qalbini tirnaydigan katta ashula bo‘lmoqda.*

Tartib son ba’zan narsaning turi yoki navini ifodalash uchun ham xizmat qiladi. Bunda tartib son narsaning joylashish o‘rnini emas, aksincha, uning belgisi, xususiyati e’tiborga olinadi: *U* ***yettinchi*** *chiroqni oldiga qo‘yib, erining to‘nini yelkasiga tashlaganicha o‘tirardi (S.Ahmad).*

Tartib sonlar narsaning miqdoriga koʻra belgisini koʻrsatib, gapda sifatlovchi aniqlovchi vazifasini bajaradi: *Atirgullar, koʻrkam karnaygullar, xil-xil gulbeorlar kuzning* ***birinchi*** *izgʻirinlarini pisand qilmaydi (O).* Feʼl-kesimga bogʻlanib, gapda miqdor holi vazifasini bajaradi: *Bunday goʻzallikni Abrorjonning* ***birinchi*** *koʻrishi edi.*

Tartib son otlashadi. Ular otlashganda avval egalik qoʻshimchasi soʻng kelishik qoʻshimchasi qoʻshiladi va gapda ega, toʻldiruvchi, qaratqich aniqlovchi kabi vazifalar bajaradi: *Ikki otliq ancha gaplashib turgandan keyin* ***biri*** *qishloq tomonga ketdi,* ***ikkinchisi*** *orqaga qaytdi.*

Tartib sonlar gap boʻlaklariga garammatik jihatdan bogʻlanmay, kirish soʻz vazifasida ham qoʻllanadi: ***Birinchidan,*** *hali juda yoshsiz,* ***ikkinchidan,*** *bu vazifani uddalashga tajribangiz yetisharmikan.*

4-§.Sonning tuzilishiga koʻra turi. Sonlar tuzilishiga koʻra sodda, qoʻshma, juft va takroriy kabi turlarga boʻlinadi.

Sodda sonlar bir oʻzak morfemadan iborat boʻlgan sonlardir. Hozirgi oʻzbek tilida faol ishlatiladigan 23 ta sodda son boʻlib, ular yozuvda arab va rim raqamlari bilan, shuningdek, harflar vositasida ifodalanadi. Ular quyidagilar: *nol, bir, ikki, uch, toʻrt, besh, olti, yetti, sakkiz, toʻqqiz, oʻn, yigirma, oʻttiz, qirq, ellik, oltmish,yetmish, sakson, toʻqson, yuz, ming, million, milliard*. Sonlarning boshqa turlari mazkur sodda

sonlarning qo‘shilishi, juftlanishi, takroridan tuziladi. Ayni paytda, sodda sonlar sonning ma’no jihatdan turlarini shakllantirishda ham asos bo‘ladi: *beshta, ikkala, to‘rttadan, uchov, o‘nlarcha, oltinchi* kabi.

Hozirgi tilimizda sodda sonlar qatoridan o‘rin egallaydigan *oltmish, sakson va to‘qson* sonlari aslida *olti-mish, sakkiz-o‘n, to‘qqiz-o‘n* singari qo‘shma sonlar asosida hosil bo‘lgan.

O‘zbek tilida ayrim sodda sonlar so‘zlar bilan **sinonimik** munosabatga kirishadi. Masalan: *bir-yakka, yolg‘iz, yagona; ikki-qo‘sh, juft* kabi. Shuningdek, sodda sonlar tilimizdagi ba’zi so‘zlar bilan **omonim, paronim** bo‘lishi ham mumkin. Masalan: *pichoqning uchi, osmonga uch* kabilar *uch* sonining, *qirq (aza marosimi), arqonni qirq* kabilar *qirq* soning omonimidir; *to‘rt* soni esa nutqda *to‘r(uyning to‘ri)* oti bilan paronim bo‘lishi mumkin.

Qo‘shma son ikki yoki undan ortiq sodda sonning birikishidan tuzilgan sonlardir: *o‘n besh, yigirma sakkiz, bir yuz qirq, uchdan bir, uch butun undan ikki.*

Tildagi ba’zi qo‘shma sonlar ham tarixan o‘zining sinonimlariga ega bo‘lgan. Masalan: *o‘n ming-tuman, yuz ming-lak, o‘n olti-bir pud* kabi.

Juft sonlar ikkita har xil sonning teng aloqadagi takroridan tuzilgan sonlardir. Juft sonlar sodda va qo‘shma sonlarning quyidagi tartibda

teng aloqaga kirishuvi orqali shakllanadi: a) sodda son+sodda son: *bir-ikki, ikkita-uchta, bitta-yarimta, to‘rt-beshta* kabi; b) sodda son+qo‘shma son: *o‘n-o‘n beshta, o‘n besh+yigirmata, sakson-sakson beshta* kabi; d) qo‘shma son+qo‘shma son: *yigirma uch-yigima to‘rt, to‘rt yuz-besh yuz* kabi.

Nutqda sanoq, dona, taqsim sonlar juft holda qo‘llanganda taxmin, chama ma’nosi hosil bo‘ladi.

Takroriy sonlar ikkita bir xil shaklga ega bo‘lgan sonlarning aynan takroridan tuziladi. Nutqda sanoq, dona va taqsim sonlar takroriy sonlar shaklida ishlatiladi:*bir-bir, ikita-ikkita, beshta-beshtadan* kabi. Sonlarning takrori orqali taqsim son hosil bo‘ladi.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Hozirgi o‘zbek tilida faol qo‘llanadigan sonlar qaysilar?
2. Son bilan sinonim bo‘lgan qanday so‘zlarni bilasiz?
3. Sonning grammatik ma’no va vazifalarini vujudga keltiruvchi vositalar haqida ma’lumot bering.
4. Sonning ot va sifat bilan qiyoslab tavsiflang.
5. Hisob so‘zlarining qo‘llaninishi xususida ma’lumot bering.

ZARURIY ADABIYOTLAR

1.Ш. Шоабдураќмонов, М.Асљарова, А.Ќожиев, И.Расулов, Х.Дониёров Ќозирги њзбек адабий тили. 1-љисм .Т., «Њљитувчи» 1980.

2.У.Турсунов, Ж.Мухторов, Ш.Раќматуллаев Ќозирги њзбек адабий тили. Т., «Њљитувчи» 1992.

3.Њзбек тили грамматикаси. 1-том. Т., «Фан» 1975.

4.М.Мирзаев, С.Усмонов, И.Расулов Њзбек тили. Т., «Њљитувчи» 1978.

12 MA'RUZA

Olmosh so‘z turkumi

1-§. Olmoshlar mustaqil so‘z singari shaxs, narsa, belgi yoki qiymat tushunchasini bildirmay, ular o‘rnida almashib keladigan, ularning mavjudligiga ishora qiladigan so‘zlardir. Masalan: *men*-shaxsga, *nima*-narsaga, *shu, bu, o‘sha*-belgiga, *qancha, shuncha* olmoshlari esa miqdor-ga ishora qilishi bilan o‘zaro farqlanadi. Olmoshlar aniq ma'no bilan mavhum ma'noning almashinib qo‘llanishini ta'minlaydigan

so‘zlardir. Ularning qanday ma’noda qo‘llangani matnda ishtirok etuvchi til birlik-larining munosabatiga qarab oydinlashadi. Masalan: *Shunday o‘lka doim bor bo‘lsin,* gapidagi *shunday* olmoshi narsa belgisini boshqasiga taqqoslab ko‘rsatish uchun xizmat qilgan. Biroq, ba’zi olmoshlar, xususan, *kim, men, sen, qanday* olmoshlarini ot yoki sifat bilan almashtirib bo‘lmaydi. Qayd etilganlardan ma’lum bo‘ladiki, olmoshlar mustaqil so‘zlarning doimiy muqobili sifatida nutqning ixchamligi, qisqaligini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega bo‘ladi.

Olmoshlar quyidagi o‘ziga xosliklarga egaligi bilan xarakterlanadi:

1. Olmoshlar boshqa turkumlardan farqli ravishda so‘z yasalish tizimiga ega emas. Ya’ni boshqa so‘zlaridan olmosh yasalmaydi. Olmoshlardan affikslar orqali sanoqli so‘z yasalishi mumkin: *manmanlik, mensimaslik, sensirash, shunday*. Shuningdek, olmoshlar ba’zi so‘zlar bilan birikib boshqa turkumga ko‘chadi: *qayerda, ozmuncha, o‘zboshimcha.*

3. Olmoshlar otlarga xos so‘z o‘zgartuvchilarni qabul qiladi: *kimni, bizga, hech kimdan* kabi. Ba’zi olmoshlar o‘zgartuvchi qo‘shimchalar bilan qo‘llanganda turli fonetik o‘zgarishlar sodir bo‘ladi: *sen+ing, men+i; u+n+ga, shu+n+ga* kabi.

4. Olmoshlar egalik affikslari bilan qo‘llanishda ayrim xususiyatlar mavjud: 1) ot tipidagi so‘roq, bo‘lishsizlik, belgilash, o‘zlik olmoshlari

egalik qo‘shimchalari bilan qo‘llanadi: *kimi, nimasi, hech kimim, hech nimam, o‘zim, o‘zing, o‘zi, hammasi, barchasi* kabi; 2) paytga nisbatan so‘roq ishlatiladigan va sabab - maqsadni aniqlash uchun ishlatiladigan so‘roq olmoshlari, I, II shaxs kelishik olmoshlari egalik affiksini olmaydi, ya’ni qachon+im, nega+m, men+im deb ishlatilmaydi; 3) u ko‘rsatish olmoshi va qaysi, necha kabi so‘roq olmoshlari egalik affiksini, asosan, otlashganda qabul qiladi: qaysisi, unisi, kabi.

5. Ko‘plik qo‘shimchasi I shaxs birlikdagi kishilik olmoshiga qo‘shilmaydi (men+lar tarzida ishlatilmaydi). II shaxs birlikdagi kishilik olmoshiga -lar qo‘shimachasi qo‘shilsa ko‘plik emas, hurmatsizlik, mensimaslik ma’nosi hosil bo‘ladi: Senlar. I-II shaxs ko‘pligi esa, bir so‘zlovchi va boshqalar, bir tinglovchi va boshqalar kabi ma’noga ega bo‘lib, guruh ifodalash uchun xizmat qiladi: bizlar, sizlar (biz va boshqalar) kabi. So‘roq olmoshiga -lar affiksi qo‘shilsa quyidagicha ma’nolar hosil bo‘ladi: a) taxmin ifodalaydi: *Soat nechalar bo‘ldi?*; b) ma’no kuchaytiriladi: *Qanchalar qiynaldim!* d) "qadim","ancha vaqt" ma’nosini ifodalaydi: *Qachonlardir bu yerlarda hayot qaynagan edi.*

6. Ma’no va gapdagi vazifasiga ko‘ra olmoshlar a) ot vazifasidagi olmoshlar, b) sifat vazifasidagi olmoshlar, g) son vazifasidagi olmoshlar, d) ravish vazifasidagi olmoshlarga bo‘linadi: 1) **men, sen, biz, siz, u,**

kim, nima, har kim, hamma, hech nima kabi ot vazifasidagi olmoshlar shaxs va narsaga ishora qilib, otlarga xos so‘z o‘zgartiruvchilarni qabul qiladi va gapda ega, to‘ldiruvchi, qaratqichli aniqlovchi vazifasini bajaradi. Masalan: *Biz abadiy bahormiz, biz insoniyat kelajagimiz. Har kimning o‘z kasbi o‘ziga aziz. Qadrdan do‘stlarning uchrashuvi barchani o‘ziga jalb etdi;* 2) **qanday, qaysi, bu, shu, shunday, allaqanday, qandaydir, ba’zi** kabi olmoshlar belgiga ishora qilib, gapda sifatlar singari ot oldida keladi va sifatlovchi aniqlovchi, hol, kesim vazifasini bajaradi: *kecha savollarni bo‘lib olgan ba’zi bolalar o‘qituvchini quvonib kutib oldi;* 3) Ne**cha, nechanchi, qancha, har qancha, bir Necha** kabi olmoshlar sonlar kabi miqdor ifodalaydi va gapda ot oldida kelib, sifatlovchi aniqlovchi vazifasini bajaradi. Biroq, olmoshlar hech qachon o‘zidan avval aniqlovchi olmaydi:*Ro‘yxatga nechanchi o‘rinda yozildingiz? ;* 4) **Nega, qalay, qani** kabilar harakat belgisini ifodalaydi va gapda hol vazifasini bajaradi: *nega o‘qimaysan, nega javob bermaysan? Gapir!*

7. Olmoshlar ergashgan qo‘shma gap tarkibida nisbiy so‘z sifatida ham ishtirok etadi: ***Kim*** *ko‘p mehnat qilsa,* ***u*** *yaxshi yashaydi.* ***Shuni*** *unutmaslik kerakki, umidsizlik kishining hayotga bo‘lgan qiziqishini so‘ndiradi.*

8.Olmoshlar ma’no xususiyatlariga ko‘ra 1) kishilik, 2) ko‘rsatish, 3) so‘roq, 4) o‘zlik, 5) belgilash, 6) bo‘lishsizlik,7) gumon kabi turlarga bo‘linadi.

2-§. Kishilik olmoshlari nutq so‘zlanayotgan paytda ishtirok etgan yoki tilga olingan shaxs va narsaga ishora qiluvchi so‘zlardir. Kishilik olmoshlari asosan ot o‘rnida qo‘llanadi va uch shaxsni ifodalaydi: 1-shaxs (men) – so‘zlovchi, 2-shaxs (Sen) – tinglovchi, 3-shaxs (u) – nutq jarayonida ishtirok etmaydigan, so‘zlovchi va tinglovchi tomonidan eslatilgan shaxs yoki narsani ifodalaydi. Ko‘plikda esa 1-shaxs (biz) – so‘zlovchi va boshqa shaxslarni, 2-shaxs (siz) tinglovchi va boshqa shaxslarni, 3-shas (ular) nutq jarayonida ishtirok etmaydigan birdan ortiq shaxs yoki narsani ifodalaydi.

Shaxs	Birlik	Ko‘plik
1- shaxs (so‘zlovchi)	men	biz
2- shaxs (tinglovchi)	sen	siz
3- shaxs (o‘zga)	u	ular

1. Kishilik olmoshlari nutqda quyidagi xususiyatrga ega bo‘ladi:

1) kishilik olmoshlari, o‘z ma’nosidan tashqari, shaxs va son ma’nosi ko‘chgan holda qo‘llanishi mumkin. Masalan, kamtarlik

ma’nosida **men** o‘rnida **biz** olmoshi ishlatiladi: *Biz o‘z tadqiqotimizda sohaga doir yirik olimlarning fikrlariga tayandik*. Ba’zan xuddi shunday shaklda manmanlik ma’nosi ham yuzaga kelishi mumkin: *Biz o‘z ishimizni bilib qilamiz, maslahatingizga zor emasmiz!* Ichki monologik nutqda s**en** olmoshi **men** o‘rnida ishlatilishi mumkin. Bunda so‘zlovchining o‘z-o‘zini tergashi anglashiladi:*Sen o‘z odobing, g‘amxo‘rliging bilan odamlar ko‘ngliga yo‘l topa olishing kerak;* 2) I shaxs ko‘plikdagi kishilik olmoshi **biz** II shaxs ko‘plikdagi **siz** olmoshi o‘rnida qo‘llanishi mumkin. Bunday qo‘llanishda ko‘pincha boshqa shaxslarni ma’lum bir ishni bajarishga tashviq qilish, undash ma’nosi anglashilib turadi: *Qani, endi biz ham ishga tushaylik*. 3) I shaxs ko‘plikdagi **biz** olmoshi II shaxs birlikdagi s**en** olmoshi o‘rnida qo‘llanganda shaxs va son ma’nosi birlikda ko‘-chadi: *Xush, biz endi buyog‘iga nima deymiz?* 4) kishilik olmoshlaridan **men** ko‘plik affiksi bilan qo‘llanmaydi. **Sen** olmoshi -lar affiksi bilan birga qo‘llanganda tinglovchi va boshqa shaxslarga munosabatni yoki tinglovchiga nisbatan Mensimaslik ma’nosi ifodalanadi: *Senlar hech qachon yaxshilikni bilmaysanlar!*

2. Kishilik olmoshlarining so‘z o‘zgartuvchi qo‘shimchalar bilan ishlatilishida quyidagi kabi o‘ziga xosliklar mavjud: a) kishilik

olmoshlariga odatda egalik affikslari qo‘shilib kelmaydi; b) bu olmoshlar kelishik affikslarini olib turlanishi mumkin: *mening, seni, uning, sizda, sizga, ulardan* kabi. *Men, sen* olmoshlari tushum va qaratkich kelishiklari bilan turlanganda qo‘shimcha tarkibidagi **n** tovushi tushib qoladi: *men+i, men+ing, sen+i, sen+ing* kabi; d) 1,2-shaxsni ko‘rsatuvchi kishilik olmoshlari kesim vazifasida kelganda shaxs-son affikslarini olib tuslanishi mumkin: *menman, sensan, bizmiz, sizsiz* kabi.

3. Kishilik olmoshlari gapda ega, qaratqich aniqlovchi, to‘ldiruvchi, kesim vazifasida qo‘llanadi: *Biz sof dil, kamtar, ishda tadbirli, turmushda haqqoniy bo‘lishimiz kerak. (O.Yo) Hayotni qancha sevsang, u senga shuncha go‘zal ko‘rinadi. (O.) Hammaning e’tibori bizda.*

3-§. Ko‘rsatish olmoshi. Ko‘rsatish olmoshi shaxs, narsa yoki belgini ko‘rsatish, ta’kidlash uchun ishlatiladi.Olmoshning bu turiga: *u, bu, shu, usha, mana shu, ushbu* kabi so‘zlar kiradi. Ko‘rsatish olmoshlari tuzilishiga ko‘ra ikki xil bo‘ladi: 1) sodda ko‘rsatish olmoshlari: *u, bu, shu, o‘sha;* 2) qo‘shma ko‘rsatish olmoshlari**:** *mana shu, ana shu***,** *mana bu, anavi (ana u).*

Ko‘rsatish olmoshlarini ular ishora qiladigan narsaning makon va zamonga munosabati nuqtai nazardan aniq va noaniq ma’noli ekanligi bilan farqlanadi: Aniq ma’noni ifodalovchi ko‘rsatish olmoshlari makon va zamonning yaqin-uzoqligini ifodalashiga ko‘ra ikki xil bo‘lishi mumkin. Masalan: a) **shu** olmoshi so‘zlovchiga masofa va vaqt jihatdan yaqin bo‘lgan voqea yoki narsani bildiradi: *shu instiutda o‘qiyman* (so‘zlovchi ko‘rsatib gapirayotgan institut yoki so‘zlovchi oldin shu haqda gapirgan, hozir eslayotgan institut); b) **o‘sha** olmoshi so‘zlovchidan nariroqdagi narsani yoki avvalroq bo‘lgan voqeani bildiradi: *o‘sha (o‘sha kishini chaqiring).*

Noaniq ma’noli ko‘rsatish olmoshlari noaniq narsa, notanish shaxs yoki voqealarni ko‘rsatish uchun ishlatiladi. Masalan, **bu** olmoshi avvaldan ma’lum bo‘lmay, so‘zlash jarayonidagigina ma’lum bo‘lgan, so‘zlovchining yaqinidagi narsa yoki shaxsni ko‘rsatadi: *Bu kitob hammani qizqtiradi.* **U** olmoishi ham so‘zlash jarayonida ma’lum bo‘lgan, lekin so‘zlash vaqtida mavjud bo‘lmagan yoki so‘zlovchidan uzoqroqdagi narsani yoki voqeaini ko‘rsatadi: *U vaqtlar mustaqillik haqida gapirib bo‘lmasdi.*

Mana, ana so‘zlari ham masofa ko‘rsatishga ko‘ra farqlanadi. Masalan, **mana** so‘zi ko‘rsatish olmoshlari bilan birikib kelganda

yaqindagi narsani, **ana** esa uzoqdagi narsani koʻrsatadi. *Mana, ana* soʻzlari *oʻsha* olmoshi bilan yonma-yon kelishi mumkin. Bunday vaqtda qoʻshma olmosh emas, alohida soʻz sifatida ishtirok etadi. Masalan: *Oʻsha ishlarning natijasi mana,* gapida *oʻsha* aniqlovchi, *mana* esa kesimdir.

Mana soʻzi **bu, shu** olmoshiga qoʻshilib, soʻzlovchiga yaqin boʻlgan narsa yoki belgini koʻrsatadi: *Mana bu qilingan ishlarning hisoboti. Mana bu shu yerda oldirgan suratlari.*

Ana soʻzi ham **bu, shu** (baʼzan *u)* olmoshlari bilan birga qoʻllanib, soʻzlovchidan nariroqda boʻlgan narsa, shaxs yoki belgini koʻrsatadi: *Biz ana shu maktabda oʻqigan edik.*

Mana, ana soʻzlariga **bu, u** olmoshlari qoʻshilganda fonetik oʻzgarish sodir boʻlishi mumkin: *manavi, anavi. ertaga anavi olti otning birovini minib kelayin. (E. Jumanbulbul).*

Koʻrsatish olmoshlari ot, sifat va ravishlar oʻrnida qoʻllanadi: a) ot oʻrnida ishlatiladigan koʻrsatish olmoshlari otlar kabi shaxs yoki narsalarni ularga ishora qilish orqali nomlaydi. *Aʼzamjon bilan Toshkentda kurishgan edim,* ***oʻsha*** *gapirib berdi* (A.Q).***Bularning*** *ishi- qiyin ish.*; b) sifat oʻrnida ishlatiladigan koʻrsatish olmoshlari ot va otlashgan soʻz oldidan kelib, uning belgisini ifodalaydi: *Sen*

bizga eng rostgo‘y, eng vijdonli odam bo‘lganing uchun ham keraksan. Buni ***u*** *qizga ham bildirib qo‘y (P.Qodirov);* d) **shu, o‘sha** olmoshlari takror holda qo‘llanib, ravish o‘rnida ishlatiladi: *O‘sha-o‘sha kampir bilan G‘afforjon biznikida qolib ketdi. (A. Q)*

Ko‘rsatish olmoshlari **–day, -cha** affikslarini olgan holda sifat va ravish o‘rnida ishlatiladi va narsa, harakatning belgisini, belgining belgisini bildiradi: *shunday kishi, bunday odat, ushanday uylar; bunday ushlang, shunday turing; shunday yaxshi odam, bunday chiroyli bino, bunday tez yozish.*

Ko‘rsatish olmoshlari ko‘pincha juftlanib yoki takrorlanib qo‘llanadi:

1. **Shu, o‘sha** olmoshlari takrorlanib, qo‘yidagi xusu-siyatga ega bo‘ladi: a) payt ma’nosini bildiradi: *Shu-shu xo‘jalikning ishi yurishib ketdi.* b) «bir xil», «qadimgicha» degan ma’noni bildiradi:- *Tursunoy tuzukmi? -O‘sha-o‘sha, opajon (As.M.).*

2. **U, bu** olmoshlari juftlanib, quyidagi xususiyatlarga ega bo‘ladi: a) **u** olmoshi oldin, **bu** esa keyin keladi. Juftlangan ko‘rsatish olmoshlari bosh, tushum, chiqish va jo‘nalish kelishik shakllarida ko‘proq. shaxs, narsa ma’nosini bildiradi: *Do‘kondan u-bu olib keldim. Hozir nafaqadaman, uyda unga-bunga qarayman;* b)

o‘rin-payt kelishigi shaklida qo‘llanilib payt yoki o‘rin ma’nosini bildiradi: *Unda-bunda biznikiga ham kelib turing. O‘rik unda-bunda gullabdi.*

Ko‘rsatish olmoshlari **kun, yil, payt, zamon** kabi otlar, **yoq, tomon, yer** so‘zlar bilan birga qo‘llanib, payt yoki o‘rin ravishga ko‘chadi: *shu kuni, shu yili, shu zamon, bu yoqqa, shu yerda, u tomonda*.

Ko‘rsatish olmoshlari gapda quyidagi vazifalarda keladi: a) ega: *Mustaqillik. Bu-biz uchun katta sharafdir;* b) tuldiruvchi:*Shularni odam yaratgan, ularda odam qo‘lining izi bor. (S.Ahm.);* d) aniqlovchi: *Qiz go‘yo o‘sha devordagi surat ichidan chiqib kelayotgandek tuyulardi. (M.Qoriyev);* e) hol: *Hayotga doim tabassum bilan boq, ana shunda hayot Senga do‘stona qo‘l cho‘zadi;* f) kesim: *Niyatim ham* ***shu edi.*** *(S. Ahm.)*

Bundan tashqari, ko‘rsatish olmoshlari ergashgan qo‘shma gap tarkibida nisbiy so‘z vazifasida ham qo‘llanadi: *U shuni tushundiki, Zamira telefonda eshitgan muhim bir gapni aytmadi. (P.Q.) Shunday ajoyib odamlar bo‘ladiki, ularni mansab ham, shon-shuhrat ham o‘zgartirmaydi.(H.G‘)*

4-§. So‘roq olmoshlari. Nutq jarayonida ishtirok etuvchilarga ma’lum bo‘lmagan narsani aniqlab bilish uchun ishlatiladigan olmoshlar so‘roq olmoshlari deyiladi.

So‘roq olmoshlari shaxsga *(kim),* narsaga *(nima),* belgiga *(qaysi, qanday),* miqdorga *(necha, qancha),* vaqtga *(qachon),* maqsad va sababga *(nega, nimaga)* va o‘ringa *(qani)* munosabat bildirishiga ko‘ra o‘zaro farqlanadi.

1. Kim olmoshi shaxslarga nisbatan qo‘llanadi va quyidagicha xususiyatlarga ega bo‘ladi: 1) shaxsga nisbatan so‘roq, ifodalaydi va otlar kabi egalik, kelishik va ko‘plik qo‘shimchalarini qabul qiladi: ***kimim, kiming, kimi, kimning, kimdan*** kabi. Biroq ko‘plik affiksini olganda narsaning birdan ortiq ekangini emas, shaxsninig kimligini yoki unga nisbdtan hurmat ma’nosini ifodalaydi: *Darsga **kimlar** kelmadi? U kishi **kimlar**?;* 2) ba’zan takrorlakib kelib, shaxslarning kimligini aniqlash uchun qo‘llanadi: ***Kim-kim k**eldi?*

Kim olmoshi gapda ko‘pincha ega, kesim, to‘ldiruvchi va qaratqich aniqlovchi bo‘lib keladi: ***Kim** o‘z yurtini sevmaydi? Bemahalda eshik qoqqan **kim?** Bunaqa gaplarni **kimdan** eshitding? **Kimning** ovozi baland?*

2. Nima olmoshi narsa yoki voqealarga nisbatan so‘roqni bildiradi va quyidagi xususiyatlarga ega bo‘ladi: 1) otlar kabi egalik, kelishik va ko‘plik ko‘shimchalarini olib, so‘roq ma’nosini yoki noaniq narsa ma’nosini ifodalaydi**.** Shunga ko‘ra, bu xildagi so‘zlar ishtirok etgan gaplar ifoda maqsadiga ko‘ra so‘roq yoki darak gap bo‘lishi mumkin: *Siz **nimani** yoqtirasiz? **Nimadan** gap ochishini bilmay turdi;* 2) **nima** olmoshi so‘roqdan tashqari narsa, narsalar ma’nosini ifodalaga-ni uchun ayrim hollarda tushum kelishigida belgisiz ishlatilishi mumkin: *Mendan nima istaysiz?;* 3) jo‘nalish kelishigi shaklidagi so‘zdan keyin kelib, e’tiborsizlikka undash, befarqlikka chaqiriq ma’nosini bildiradi: *Senga nima, istagan narsang muhayyo bo‘lsa?;* 4) **nima** so‘zi III shaxs birlikda egalik affiksini olib, gapda otlarga o‘xshash vazifani bajaradi: *Buning nimasi yomon?;* 5) egalik qo‘shimchasini qabul qilib xoslik emas, taajjub ma’nosini ifoda-lovchi so‘roq gaplarning kesimi bo‘lib keladi: *Iya, bu nimasi?*

Bu olmosh gapda ega, kesim, tuldiruvchi, ba’zan qaratqichli aniqlovchi bo‘lib keladi: *Seni nima qiziqtiradi? Oting nima? Nimani istaysan? Nimaning foydasi kup?*

3. **Nega (nimaga)** olmoshi harakatning sodir bo‘lishidagi sabab, maqsadni aniqlash uchun ishlatiladi va quyidagi xususiyatlarga ega bo‘ladi:

1) deyarli hamma vaqt ravish xarakteriga ega bo‘lib, bo‘lishli shakldagi fe’llar oldida keladi va sabab, maqsadni aniqlash uchun beriladigan so‘roqni ifodalaydi: *Nega kelding? Nega kechikding? Nimaga kechikding?;* 2) bo‘lishsiz fe’l oldida kelib, deyarli hamma vaqt sababni bildiradi: *Nega meni kuzatib qo‘ymaydi?;* 3) **nega** so‘zi **-dir** affiksining qo‘shilishi bilan voqea-hodisaning sodir bo‘lish sababi so‘zlovchi uchun noma’lum ekanligini bildiradi: *Negadir bu kishining o‘zi ham sovg‘asi ham Navoiyga yoqmagan edi.(O.);* 4) **nega** olmoshi asosan ravish o‘rnida ishlatilgani uchun ham so‘z o‘zgartuvchi affikslarni olmaydi. Shu bois n**ega** olmoshi gapda asosan sabab yoki maqsad holi bo‘lib keladi. *Nega ketib qoldingiz? Nega kelmadingiz?*

4. Necha (ne + cha) olmoshi **ne** o‘zagi bilan bog‘liq bo‘lib, narsaning miqdoriga nisbatan so‘roq ifodalaydi va quyidagi xususiyatlarga ega bo‘ladi: 1) ot oldidan yakka va takror holda kelib, deyarli hamma vaqt birlik shaklda qo‘llanadi: *Necha voqealar bo‘lib o‘tmadi. Necha-necha dovonlar oshdik;* 2) bu olmosh sonlarga o‘xshash tartibni ko‘rsatish uchun -nchi, donalikni ifodalash uchun -ta, taqsimlash ma’nosini bildirish uchun -tadan affikslarini oladi: *Nechanchi, nechta, nechtadan;* 3) n**echa** olmoshi otlashib, kelishikning hamma shakllarida kela oladi: *nechanchi, nechaga, nechaning, necha-*

dan, nechaga; 6) ko‘plik affiksini qabul qilganda noaniq taxminiy mrqdor va paytni ko‘rsatadi: *Soat nechalarda yig‘ilshamiz?* 7) **bir** so‘zi bilan birga kelib, noaniq ko‘plik ma’nosini bildiradi: *bir necha kishi, bir necha kitob;* 8) **necha** so‘zi narsa miqdoriga nisbatan so‘roqni ifodalaganda, sonlar kabi numerativlar bilan birga qo‘llanadi: *Necha kilometr yul bosdim ekan.*

Necha olmoshi gapda asosan aniqlovchi va kesim bo‘lib keladi: *Necha kishi keldi? O‘quvchilarning soni nechta?* Otlashib ega va to‘ldiruvchi vazifasida ham kela oladi: *O‘quvchilarning nechtasi keldi? Kitobning nechtasini olasan?*

5. Qanday, qanaqa olmoshi narsa yoki harakatning belgisiga nisbatan so‘roqni bildirib, quyidagi xususiyatlarga ega bo‘ladi: 1) sifat oldida kelib, belgining belgisini bildiradi. Odatda, bunday qo‘llanish undov gaplarda uchraydi: *Qanday chiroyli manzara!;* 2) ot oldida kelib, narsaning belgisiga nisbatan so‘roqni bildiradi: *Qanday fikrlaringiz bor?;* 3) fe’l kesim oldida kelib harakatning yuzaga kelishidagi holatga nisbatan so‘roqni bildiradi: *Shundoy deyishga qandoy tilingiz bordi* ; 4) qanday so‘roq olmoshi ba’zan narsa miqdorini aniqlash uchun ham ishlatiladi: *Do‘ppilarning narxi qanday?* (O).

6. Qaysi olmoshi narsaning tartibga yoki o‘ringa ko‘ra belgisini aniqash uchun qo‘llanadi: *Qaysi kishi?, qaysi bino?* Bu olmoshning o‘zagi *qay* so‘zi bo‘lib, uning tarkibida egalik affiksi qotib qolgan holda ishlatiladi. Shu bois unga egalik affiksi ketma-ket qo‘shiladi: *qay+si+si, qay+si+lar+i.*

Qaysi olmoshnning qo‘llanishida quyidagi xususiyatlar mavjud: 1) *qaysi* olmoshi sifat xarakteriga ega bo‘lgani uchun otlashgandagina egalik va kelishik affikslarini oladi. Lekin bu so‘z shaxs yoki narsalar qatoridan birini belgilash, ayirib ko‘rsatish uchun beriladigan so‘roq bo‘lgani uchun ham egalikning 1-shaxs birlik shakida kelmaydi: *qaysing, qaysisi, qaysimiz, qaysingiz, qaysilari;* 2) gapda aniqlovchi, kesim, otlashganda ega, to‘ldiruvchi bo‘lib keladi: *Qaysi kitobni o‘qidingiz? Yangi ochilgan do‘kon qaysi? Musobaqada qaysingiz g‘olib bo‘ldingiz?*

7.Qancha olmoshi narsa yoki harakatning miqdoriga ko‘ra belgisini aniqlash uchun ishlatiladi. Bu olmosh quyidagi xususiyatlarga ega: 1) narsaning miqdorini aniqlash uchun qo‘llanganda, o‘zidan keyingi ot ko‘pincha birlikda keladi: *Qancha kitob olding?;* 2) yakka holda yoki takrorlanib kelib, miqdorning ortiqligini bildiradi: *Qancha-qancha kishilar bu yorug‘ kunlarni orzu qilgan edi;* 3) bu olmosh takrorlanib

kelganda, birinchi olmosh chiqish kelishigi qo‘shimchasini olishi mumkin: *Mustaqillikdan so‘ng qanchadan-qancha yangi inshoatlar foydalanishga topshirildi.* 6) gapda aniqlovchi, hol, kesim, otlashganda esa ega va to‘ldiruvchi bo‘lib keladi: *Darsga q**ancha** talaba kelmadi? **Qancha** yurdik? Talablarning jami q**ancha?***

8. Qachon olmoshi harakatning bajarilish vaqtini aniqlash uchun ishlatiladi va gapda, asosan fe’lga bog‘lanadi. Bu olmosh boshqa so‘roq olmoshlaridan farqli ravishda otlashish xususiyatiga ega emas. Biroq, **-lar** affiksini olib: a) taxminiy vaqtga nisbatan so‘roqni bildiradi: ***qachonlar k**elasiz?;* b) biror harakatning yuzaga kelganiga ko‘p vaqt o‘tganligini bildiradi: ***Qachonlar k**elgan edim ;* d) Qachon so‘zi o‘rin-payt , chiqish kelishigida yoki yakka holda kelib gapda payt holi, kesim bo‘lib keladi: *Safardan qachon qaytasiz? Sinovlar qachondan boshlanadi?* Qachon so‘zi o‘rnida ba’zan *qay+kuni, vaqt, mahal* kabi birikmalar ham ishlatiladi.

9. Qani olmoshi ko‘pincha shaxs yoki narsa, voqea-hodisalarning mavjudlik o‘rnini anilash uchun ishlatiladi va nutqda quyidagi xususiyatga ega bo‘ladi: a) narsa-shaxsning joylashish o‘rniga ko‘ra so‘rq ifodalaydi va gapda ko‘pincha kesim bo‘lib keladi: *So‘mkangiz qani?;* b) kirish so‘z bo‘lib keladi: *Qani, ichkariga marhamat.*

10. Qalay olmoshi voqea-hodisaning va harakatning bajarilish holatini aniqlash uchun xizmat qiladi va quyidagicha xususiyatlarga ega bo‘ladi: 1) holatni so‘rash uchun qo‘llanib, gapda ko‘pincha kesim bo‘lib keladi: *Uqishlaring qalay?;* 2) harakatning bajarilish holatiga nisbatan so‘roq sifatida qo‘llanganda, gapda hol vazifasini bajarishi mumkin: *Singlimiz qalay o‘qiyapti?* 3) Qalay so‘zi ko‘pincha qanday olmoshiga sinonim bo‘ladi, biroq u otlarning belgisini aniqlash uchun qo‘llanmaydi; 4) ba’zan kirish so‘z vazifasida keladi: *Qalay, fikrimiz sizga ma’qulmi?*

Ko‘pchilik so‘roq, olmoshlari qo‘shma gap tarkibida nisbiy so‘z vazifasida keladi. Ergash gap tarkibida kelgan bunday suroq olmoshlari so‘roq, ma’nosidan chetlashgan bo‘ladi.: *Kim mehknat qilsa,* ***u*** *rohat ko‘radi. Nimani buyursang,* ***shuni*** *keltiraman. So‘z tarkibida unli tovushning soni qancha bulsa, bo‘g‘inlar soni ham* ***shuncha*** *bo‘ladi.*

5-§. O‘zlik olmoshi aniq yakkalikni ajratish, belgilash va ko‘rsatish uchun xizmat qiladi. Olmoshning bu turi **o‘z** so‘zidan iborat bo‘ladi. O‘z olmoshi har uchala shaxs, birlik va ko‘plikdagi kishilik olmoshlari o‘rnida ishlatilib, ko‘pincha shaxsni, ba’zan narsani ko‘rsatadi.

O‘z olmoshining nutqda qo‘llanishiga doir qo‘yidagi holatlarni kuzatish mumkin: 1) **o‘z** olmoshi bosh kelishik shaklida egalik bilan kelib, uchala shaxs birlik va ko‘plikni ifodalashi mumkin. Bunday holda shu kabi ma’noga ega bo‘lgan kishilik olmoshlariga sinonim bo‘ladi :*O‘zim-men, o‘zing-sen, o‘zi-u, o‘zimiz-biz, o‘zingiz-siz, o‘zlari-ular (Ayb o‘zingda!—Ayb senda!).* Biroq hamma vaqt ham o‘z olmoshi o‘rnida kishilik olmoshini qo‘llab bo‘lmaydi.Chunki ba’zan o‘z olmoshi o‘rnida kishilik olmoshi ishlatilsa yo uslubda ancha o‘zgarish sodir bo‘ladi, yoki ularni mutlaqo almashtirib bo‘lmaydi*;* 2) otlar oldida qo‘llangan **o‘z** olmoshi ular anglatgan narsani aniqlab ko‘rsatadi: *Bu kunlarda har kim o‘z dard-alami, o‘z g‘am-hasrati bilan band edi. (A. Q.);* 3) **o‘z** olmoshi II shaxs birlik, III shaxs ko‘plik shaklida kelganda ba’zan undagi shaxs ma’nosi ko‘chadi: *O‘zing nima g‘amdasan-ku, buning kulishini qara (men nima g‘amdaman-ku...), Qani, o‘zlaridan bo‘lsin (sizdan bo‘lsin)* 4) o‘z so‘zi yolg‘iz so‘ziga sinonim ma’noni bildiradi: *U uyda faqat o‘zi o‘tiribdi (...u yolg‘iz o‘tiribdi);* 5) o‘z olmoshi takrorlanib qo‘llanishi mumkin. Bunday vaqtda uning bir qismi biror kelishik qo‘shimchasini olib keladi. Qismlarning bu xilda qo‘llanishi shu so‘zning ma’nosiga va grammatik holatiga ham quyidagicha ta’sir

ko‘rsadi: a) agar birinchi qism affikssiz, keyingisi affiksli qo‘llansa, birgina *o‘z* so‘znning ma’nosi kuchaytirilib, ta’kidlab ko‘rsatiladi va bu juftlik bitta gap bo‘lagi vazifasini bajaradi:...*o‘z-o‘zicha g‘udurlay boshladi.* b) oldingi qism egalik va kelishik qo‘shimchalarini olgan holda, keyingisi esa belgisiz qo‘llanadi va ikki xil gap bo‘lagi vazifasini bajaradi: *O‘zini o‘zi tergaydi.* d) takrorlangan **o‘z** olmoshi tarkibida **-dan** affiksi qotib qolgan shaklga kelib, **o‘z** olmoshi ravishga ko‘chadi: *o‘zidan-o‘zi yig‘lab yubordi;* 6) o‘z so‘zi ba’zan qo‘shma so‘z tarkibida ham keladi: *o‘z+boshimcha, o‘z+bilarmonlik, o‘z+aro* kabi; 7) o‘zlik olmoshiga kelishik qo‘shimchalari faqat egalik affiksidan so‘nggina qo‘shiladi: *o‘z+i+ni, o‘z+i+ga;*

O‘z olmoshi barcha gap bo‘lagi vazifasida kela oladi: *Bu ishni **o‘zim** bajardim. **O‘z** uyim — o‘lan to‘shagim. Onajon, meni to‘g‘ri yo‘lga boshlagan tarbiyachim **o‘zingsan.***

6-§.Belgilash olmoshlari narsa va shaxslarning to‘dasini, jamini bildiradi yoki ularni ayirib, ta’kidlab ko‘rsatadi. Shunga ko‘ra ularni ikki kichik guruhga, ya’ni jamlash va belgilash olmoshlariga ajratish mumkin. Birinchi guruhga kiruvchi olmoshlar jamlikni ifodalasa, ikkikchi guruhga kiruvchi olmoshlar narsani qisman jamlash bilan birga ta’kidlab, belgilab, aniqlab ko‘rsatadi.

1.Jamlash olmoshlariga *hamma, bari, jami, barcha, butun, yalpi* so‘zlari kiradi. Bu olmoshlar narsa hamda shaxslar o‘rnida qo‘llanib, ot o‘rnida, narsa belgisini ko‘rsatib, sifat o‘rnida keladi va quyidagi xususiyatlarga ega bo‘ladi: 1) ot vazifasida qo‘llanganda egalik va ko‘plik, kelishik qo‘shimchalarini oladi: ***Hammalari*** *qotib-qotib kulishadi;* 2) **hamma, barcha, bari** so‘zi shaxsga nisbatan ishlatilganda egalik affiksisiz kelishik qo‘shimchasini qabul qiladi. Narsaga nisbatan ishlatilganda esa, kelishik qo‘shimchasi egalik affiksidan so‘ng qo‘shilib keladi: ***Hammaga(barchaga)*** *birdek;* 3) bu olmoshlar narsa belgisini, jamini ko‘rsatib, sifat xarakterida bo‘ladi: ***Hamma*** *daraxtlar ko‘karibdi.* ***Barcha m****ehmonlar biznikida;* 4) *hamma* olmoshi *yoq, vaqt* so‘zlari bilan birga qo‘llanib, o‘rin va paytga munosabatni ko‘rsatuvchi ravish yasaydi: ***Hamma vaqt*** *yurtdan o‘zingizni chetga tortasiz-da, usta! (A.Q);* 5) **bari** olmoshi ko‘pincha ot xarakterida qo‘llanib, narsa va shaxslarning yig‘indisini ifodalaydi, gapda otga xos vazifalarda keladi. Bu olmosh aslan «bor» («mavjud») ma’nosi bilan bog‘liq bo‘lib, keyingi **i** tovushi egalik affiksidir. *Bari* so‘zining tarkibida III shaxs birlikni ifodalovchi egalik affiksi bo‘lganligi uchun, ko‘pincha qaratqich kelishigi shaklidagi so‘z bilan birga ishlatiladi: *Bularning* ***bari*** *bizning qishloqdan ekan.* Bu olmoshda egalik affiksi

ba’zan takrorlanib ham ishlatiladi: *Odamlarning* ***bar+i+si;*** 6) jam+i olmoshi tarkibidagi i tovushi asli III shaxs birlikdagi egalik affiksidir. Bu so‘z ham ko‘pincha qaratqich kelishigidagi so‘z bilan birga qo‘l-langanda, egalik affiksi takrorlanib keladi : *Kelganlarning jami(si) 18 ta;* 7) b**utun** olmoshi but+kul va butun+lay shakllarida qo‘llan-ganda ravish o‘rnida ishlatilib, harakatning miqdoriga ko‘ra belgisini bil-diradi va gapda hol vazifasini bajaradi: *U shaharga* ***butunlay*** *ko‘chib ketdi. Barcha tashvishlarni* ***butkul*** *esdan chiqarmoqchi edi.* 8) **yalpi** so‘zi ham *butun* olmoshi kabi sifat xarakterida qo‘llanib, narsa yoki shaxslarni jamlab ko‘rsatadi: ***Yalpi*** *ishchilar majlislar zaliga to‘planishdi. Yalpi* so‘zi egalik affiksini olib, ot o‘rnida keladi: *Qishloqdagi odamlarning* ***yalpisi*** *paxta terimi bilan band edi.*

2.Belgilash olmoshlariga *har* so‘zi va shu so‘zning ayrim so‘roq olmoshlari, shuningdek, *bir, narsa* kabi so‘zlar bilan qo‘shilishidan hosil bo‘lgan so‘zlar kiradi: *har kim, har nima, har qanday, har narsa, har bir*. Demak, belgilash olmoshlari tuzilishiga ko‘ra ikki xil: a) tub so‘z holidagi **har** so‘zi, asosan, ot oldidan kelib, uning belgisini sanash, ta’kidlash uchun xizmat qiladi: *Har toshlarki, odamning vahmi keladi.(S. A.);* b) qo‘shma so‘z holida: har + so‘roq olmoshlari, har+ bir, har+ narsa shaklda qo‘llanadi.

Har so‘zi so‘roq olmoshlari bilan birgalikda qo‘shma olmosh shaklida ishlatilganda qo‘yidagi ma’nolarga ega bo‘ladi: 1) **har** so‘zi k**im, nima, narsa** so‘zlari bilan birga kelib, ot o‘rnida qo‘llanadi va egalik, kelishik affikslarini qabul qiladi: *Xulq har kimning qiyofasini ko‘rsatadigan kuzgudir (Gyote);* 2) **qanday (qanaqa), qaysi** so‘zi bilan birga sifat xarakterida qo‘llanadi va narsa, shaxslarni umumlash-tirgan holda belgisini ko‘rsatadi: *Har qanday xalqning urf-odatini bilay desang, avvalo, uning tilini bilishga urin (Pifagor*); 3) h**ar qaysi** olmoshi ko‘pincha egalik affiksini olib, ot xarakterida ham qo‘llanadi:. *Har qaysimizning dilimizda andisha bor edi;* 4) **har** so‘zi sifatlar bilan birga qo‘llanishi ham mumkin: *Oldiga dasturxon yozib, har turli ovqatlardan olib kelib qo‘ydi;* 5)**har** so‘zi q**ancha** olmoshi bilan birga qo‘llanib miqdorning ortiqligini ko‘rsatadi: *Kasalni h**ar qancha** yashirsang ham, baribir isitmasi oshkor qiladi;* 6) **har** so‘zi q**achon** olmoshi hamda payt bildiruvchi so‘zlar bilan birga keladi ravish xarakterida bo‘ladi: *O‘rtanur h**ar dam** Navoiy nola qilmog‘i bila (Navoiy);* 7) o‘ringa munosabat bildiruvchi ayrim otlar ham har so‘zi bilan birga qo‘llanishi mumkin: *Oh, tortib o‘zimni har yerga urdim (Islom Shoir).*

Bulardan tashqari, har so‘zi *har holda, har qalay, harna, har nechuk, har ehtimolga qarshi* kabi so‘zlar tarkibida kelib, turli modal ma’nolarni ifodalash uchun xizmat qiladi.Belgilash olmoshlari gapda ega, to’ldiruvchi, aniqlovchi va hol bo‘lib keladi.

7-§.Bo‘lishsizlik olmoshi. Bo‘lishsizlik olmoshlari narsa yoki belgiga nisbatan inkor ma’nosini bildiradi. Bu olmoshlar ishtirok etgan gapning kesimi bo‘lishsiz shaklda kelib, inkor mazmunli gap hisoblanadi. Bo‘lishsizlik olmoshlari tuzilishiga ko‘ra ikki turli do’ladi: a) tub shaklidagi bo‘lishsizlik olmoshi; b) qo‘shma so‘z shaklidagi bo‘lishsizlik olmoshi.

Tub so‘z shaklida qo‘llanadigan bo‘lishsizlik olmoshiga **hech** so‘zi kiradi. Hech olmoshi yakka holda qo‘llanganda ko‘pincha fe’llar oldida kelib, ravish vazifasini bajaradi va ish-harakatning, batamom inkorini bildiradi: *Onasi juda xursand bo‘lsa ham, hech uxlay olmaydi.(As. M.)*

Qo‘shma so‘z shaklidagi bo‘lishsizlik olmoshlari esa **hech** so‘ziga *kim, nima, qachon* kabi so‘roq olmoshlari yoki *bir, narsa* so‘zlarining qo‘shilishidan hosil bo‘ladi va quyidagi ma’nolarga ega bo’ladi: 1) hech kim, hech nima, hech narsa, hech kimsa olmoshlari shaxs va narsaga nisbatan inkorni ifodalaydi va egalik, kelishik

qo‘shimchalarini olib, gapda otlar kabi vazifa bajarib keladi: *Uyda hech kimsa ko‘rinmas edi.* 2) hech qaysi, hech qanday, hech bir olmoshlari narsaning belgisiga nisbatan inkor ifodalaydi: *Hech qaysi ish o‘z vaqtida bajarilgan ishdan barakali bo‘lmaydi.* Bu olmoshlar otlashib qo‘llanishi ham mumkin: *Bularning hech qaysisi hozirgi sharoitni tushunmaydi.* 3) hech qachon, hech vaqt, hech qayer olmoshi payt va o‘ringa nisbatan inkor ma’nosini bildiradi va gapda ravish xarakterida qo‘llanadi: *Qalandarov hech qachon bunaqa mehmonni kutgan emas edi. (A.Q.)*

Bulardan tashqari, bir narsa (bir nima) so‘zi ham gaplarnig kesimi bo‘lishsizlikni ifodalaganda, inkor olmoshi vazifasini bajaradi: *Turg‘unoy to Maston olib bermaguncha qo‘l uzatib bir narsa olmas edi. (A.Q)*

7-§. Gumon olmoshlari. Gumon olmoshlari narsa, belgi yoki hodisa haqidagi noaniq tasavvurni bildiradi. Bu olmoshlar asosan ot va sifat o‘rnida qo‘llanadi va quyidagicha hosil bo‘ladi:

1.**Alla**- elementi ba’zi so‘roq olmoshlari bilan birga gumon olmoshlarini shakllantiradi: a) allanima, allakim olmoshlari ko‘pincha ot o‘rnida ishlatilib, turli kelishik affikslari, egalik va ko‘plik qo‘shimchalarini oladi: *Bobom goho behushday allanima-*

larni shivirlab qo‘yadi.(O) b) allaqanday, allaqancha (allaqanaqa, allaqaysi) olmoshlari narsaning sifatiy va miqdoriy belgisi haqidagi noaniqlikni ko‘rsatadi: *Shunday kunlarga allqanday mo‘’jiza kuchi bilan darrov yetisha qolishni o‘ylardim. (S.Ahm.) Tog‘ yo‘lidan allaqancha yurgandan so‘ng qishloqga yetdik.* d) allaqayer, allanechuk, allaqachon, allavaqt, allamahal olmoshlari o‘rin, sabab va paytgaga nisbatan noaniqlikni anglatadi: *O‘zi uncha chiroyli bo‘lmasa ham, allaqayeri odamga juda yoqardi. (S. Ahm.) Ayvonda xira osma chiroq, allanechuk kir yog‘du to‘kib turibdi.(A.Q.)*

2. **-dir** yordamchisini so‘roq olmoshlariga qo‘shish orqali ham gumon olmoshlari hosil qilinadi. Bunda noaniqlik qo‘shimchasi **-dir** ko‘plik, egalik va kelishik qo‘shimchalaridan so‘ng qo‘shilib keladi: a) *kim, nima* olmoshlariga qo‘shilib, noaniq shaxs yoki narsani ko‘rsatadi: *Shu payt kimningdir dodlagan tovushi eshitildi;* b) q**anday** so‘ziga qo‘shilib, noaniq belgini ifodalaydi. Ko‘pincha bu xildagi gumon olmoshi belgini ifodalovchi so‘zlar oldida keladi: *Ko‘chamizda qanday-dir notanish ovozlar eshitildi;* d) q**ayer, qayoq** so‘zlariga qo‘shilib, o‘ringa nisbatan noaniqlikni ko‘rsatadi. Bunda o‘rin-payt, jo‘nalish, chiqish kelishiklari affiksining birini albatta qabul qiladi:. *U qo‘li bilan qayoqnidir ko‘rsatdi.* d) q**achon, nega** so‘zi **–dir** yordamchisini olib, payt va sababga

nisbatan noaniqlikni bildiradi: *Shiypon qachondir bir bo‘yalgan ekan. (A. Q.)* Ba’zan ***qachon*** so‘zi va -dir yordamchisi orasida **-lar** affiksi ishlatilib, uzoq vaqt ma’nosini ifodalaydi: *Qachonlardir yaxshi kun kelishiga ishonar edim. (S. Ahm.)*

3. Gumon olmoshi ba’zi so‘roq olmoshlariga **ham** yuklamasi yoki **uchun** ko‘makchisining qo‘shilishidan hosil qilinadi. Bu yordamchi so‘z ham so‘z o‘zgartuvchi affikslar yoki kumakchilardan keyin qo‘shilib keladi: *Sizni kecha **kim uchun ham** eslayotgan edi-ya.*

4. Gumon olmoshlarini hosil qilishda ba’zan *bir* so‘zi ishtirok etishi mumkin. Bu so‘z *nima* so‘roq olmoshi bilan birga kelib, noaniq narsani ko‘rsatadi: *Ko‘zimga bir narsa ko‘rindi//ko‘zimga allanim ko‘rindi.*

5.**Birov** so‘zi **-ov** affiksini **bir** soniga qo‘shilishidan hosil qilingan son turkumiga xos so‘z hisoblansa ham, deyarli hamma vaqt noaniq shaxs-ni bildiradi. Shuning uchun bu so‘z gumon olmoshi sifatida ham qo‘llanadi. *Birov* so‘zi ko‘pincha «begona», «boshqa», «notanish», «kimdir» degan ma’noni ifodalaydi: *Birov eshikni taqqillatdi //kimdir eshikni taqillatdi.*

6. Ko‘plik affiksini olgan **ba’zi** sifati gumon olmoshi vazifasida kela oladi va asosan noaniq belgiga ishora qiladi: *ba’zi odamlar, ba’zi o‘quvchilar* kabi. Bu so‘z **–lar** affiksini olish bilan otlashib, noaniq shaxs ma’nosini ifodalaydi: *Ba’zilar raisning ko‘nishiga shubha bilan*

qarar edilar.(A.Q.) O‘rin-payt kelishigi qo‘shimchasini olib, noaniq payt ma’nosini bildiradi: *Ba’zida u shoshib qolardi.*

7.**Falon** so‘zi ham shaxs yoki belgi haqidagi noaniq tasavvurni ifodalaydi. Bu so‘z ot oldida kelib, belgi ma’nosini:*Men falon joyda yashayman;* -chi affiksini olib, shaxs ma’nosini: *Falonchini uchratdim.*

Gumon olmoshini hosil qiluvchi vositalar aralash holda ham ishlatiladi: ***alla+****nima+lar+dan+****dir, alla+****qanday+****dir.*

8-§. Olmoshlar tuzilishiga ko‘ra:1)sodda, 2)qo‘shma, 3)juft, 4) takroriy olmoshlarga bo‘linadi.

1.Sodda olmoshlar bir uzakdan tuzilib, tub yoki yasama bulishi mumkin. Tub olmoshlar bir asosiy morfemadan tashkil topadi: *men, sen, u, shu, kim, bu, nima* kabilar. Yasama olmoshlar:–cha, -day, -dek yasovchilarini olish bilan boshqa so‘z turkumiga ko‘chadi: *buncha, uncha, shuncha, bunday, unday, shunday, meningcha, menday, o‘zicha, uziday, sizcha, sizday, sizsira(moq)* kabilar. Gumon olmoshlarini yasovchi alla- va -dir morfemalari affiks emas, yordamchi unsur sifatida olmoshniing bir turidan ikkinchi turini shakllantiradi: *allakim, kimdir* kabi.

2. Qo‘shma olmoshlar birdan ortiq o‘zaklarnnig birikishi asosida shakllanadi. Bunday olmoshlar tarkiban: a) biri olmosh, ikkinchisi esa

boshqa turkumga oid so‘zlardan bo‘ladi: *mana bu, mana shu, qay vaqt, ana shu, allaqaysi;* b) har ikkisi ham olmoshlardan bo‘ladi: *har kim, har qanday, allakim, har nima, har qanday* kabi.

3. Juft olmoshlar turli xil olmoshlarning teng aloqa asosida bog‘lanishidan tuziladi. Nutqda, asosan, kishilik, ko‘rsatish olmoshlari juft holda ishlatiladi: *siz-biz, u-bu, uni-buni.*

4. Takroriy olmoshlar bir xil o‘zakli olmoshlarning teng aloqa asosida takroridan tuziladi. Takroriy olmoshlar ma’noni kuchaytirish, ta’kidlash uchun qo‘llaniladi. Nutqda ko‘rsatish, so‘roq, o‘zlik, belgilash olmoshlari takrorlanib qo‘llanadi. Bunda ular a) hech qanday affikslarsiz bir asosiy morfema shaklida takrorlanadi: *shu-shu, o‘z-o‘z, kim-kim, qancha-qancha, necha-necha;* b) ularning biriga yasovchi yoki so‘z o‘zgartuvchi affikslar qo‘shilgan holda takrorlanadi: *o‘zidan-o‘zi, o‘z-uzicha, manmanlik (man-manlik)* kabi.

Olmoshlar juft va takror qo‘llanish natijasida quyidagi so‘z turkumlariga ko‘chishi mumkin a) ravishga:*o‘zidan-o‘zi, o‘sha-o‘sha, unda-bunda;* b) fe’lga *sensenlamoq,sizsizlamoq;* d) otga *u-bu, manmanlik, uni-buni,siz-biz.*

9-§. Boshqa turkumlarga oid so‘zlarning olmoshga ko‘chishi (pronominalizatsiya). Nutqda ba’zi ot, sifat va sonlarning

asl ma’nosi o‘zgarib olmoshga yaqinlashadi. Bu hodisaga pronominalizatsiya deyiladi (pronom - lotincha olmosh degan ma’noni bildiradi.) Masalan, *odam, kishi, inson, nafas* kabi otlar; *ba’zi, boshqa, ayrim, tubandagi, quyidagi* kabi sifatlar; *bir* soni olmoshga yaqinlashadi.

Boshqa turkumga mansub so‘zlarning olmoshga yaqinlashishi, asosan quyidagi holatlarda ko‘rinadi: 1) hech qanday affikslar olmay, asosiy morfema shaklida kelganda: *Odamning ketgisi kelmaydi* (mening ketgim kelmaydi). *Yutuqlarni ko‘rib, quvonasan kishi. (Men quvonaman yoki... hamma quvonadi);* 2) son turkumiga xos ayrim so‘zlar ko‘pincha III shaxs egalik affikslarining qo‘shilishi bilan olmoshga yaqinlashadi: *Biri kitob o‘qmoqda, biri shaxmat o‘ynamoqda, boshqalari turli o‘yinlar bilan band (kimdir kitob o‘qiydi, kimdir shaxmat o‘yini bilan band).*

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Olmoshning o‘ziga xos belgilari nimalarda ko‘zga tashlanadi?
2. Olmoshlarning turkumlararo tavsifini tuzing.
3. Olmoshlarning ma’no turlari haqida ma’lumot bering.
4. Omoshlarning so‘z yasalishi va so‘z o‘zgarishi, shakl yasalishiga munosabati nimalarda ko‘rinadi?

5. Olmosh vazifasida ishlatiladigan so‘zlar.
6. Olmoshlarda sinonimlik, omonimlik masalasi xususida nimalarni bilasiz?

ZARURIY ADABIYOTLAR

1. Ш. Шоабдураќмонов, М.Асљарова, А.Ќожиев, И.Расулов, Х.Дониёров Ќозирги њзбек адабий тили. 1-љисм .Т., «Њљитувчи» 1980.
2. Њзбек тили грамматикаси. 1-том. Т., «Фан» 1975.
3. У.Турсунов, Ж.Мухторов, Ш.Раќматуллаев Ќозирги њзбек адабий тили. Т., «Њљитувчи» 1992.
4. М.Мирзаев, С.Усмонов, И.Расулов Њзбек тили. Т., «Њљитувчи» 1978.

13 MA’RUZA

13.1. Fe’l so‘z turkumi

1-§. Harakat tushunchasini anglatuvchi so‘zlar fe’l deyiladi. Harakat ma’nosi juda keng tushuncha bo‘lib, *o‘ylamoq, xayol surmoq fikrlamoq* singar tafakkur, *yugurmoq, sakramoq., ishlamoq* kabi jismoniy faoliyat, *so‘zlamoq, demoq, aytmoq* kabi nutq, *uxlamoq, mudramoq,*

kutmoq , kulmoq kabi holat, *qurmoq, chizmoq, yasamoq, yaratmoq* kabi natijali faoliyat bilan bog‘liq ma’noviy guruhlarga mansub fe’llarni o‘z ichiga oladi. Fe’llar bir umumiy so‘roqqa-**nima qilmoq?** so‘ro-g‘iga javob bo‘ladi. Fe’llar leksik-grammatik xususiyatlariga ko‘ra ham ikki guruhga bo‘linadi: 1) mustaqil fe’llar; 2) yordam-chi fe’llar.

1. Mustaqil fe’llar lug‘aviy ma’noga ega bo‘lib, nutqiy jarayonda biror gap bo‘lagi vazifasida ishlatiladigan fe’llardir. Mustaqil fe’llar turli grammatik kategoriyalarga birlashadigan sof fe’l va vazifadosh shakllardan tashkil topadi. Masalan: *keldim* — aniq nisbat, bo‘lishli, xabar mayli, o‘tgan zamon, birinchi shaxs, birlik kabilar muayyan grammatik kategoriyalarni ifodalovchi sof fe’llar hisoblansa; *kelgan* - sifatdosh, *kelgach* - ravishdosh, *kelish* - harakat nomi shaklida ekanligi esa fe’lning vazifadosh shakllaridir.

2. Yordamchi fe’llar mustaqil lug‘aviy ma’noga ega bo‘lmay, turli grammatik ma’no va vazifalarni yuzaga chiqarish uchun xizmat qiladigan fe’llardir. Yordamchi fe’llar o‘z xususiyatiga ko‘ra quyidagi turga bo‘linadi: 1) qo‘shma fe’l yasash uchun xizmat qiluvchi yordamchi fe’llar. Masalan:*xabar qilmoq, xursand bo‘lmoq, tasdiq etmoq* kabi; 2) kesim tarkibida bog‘lama vazifasini bajaruvchi yordamchi fe’llar. Bu vazifadagi yordamchi fe’llarga a)

leksik ma’nosini mutlaqo yo‘qotgan sof bog‘lamalar, ya’ni *edi, ekan, emish* to‘liqsiz fe’llari kiradi; b) leksik ma’nosini tamomila yo‘qotmagan *bo‘ladi, bo‘lmaydi, deyiladi, hisoblanadi* kabi bog‘lamalar kiradi; 3) fe’llarga birikib, turli qo‘shimcha ma’no ifodalovchi ko‘makchi fe’llar: *chiq-o‘qib chiq, qol-uxlab qol* kabi.

Fe’llarning bosh shakli uning o‘zak-negiziga *–moq* affiksini qo‘shish orqali yasaladi: *o‘qimoq, ishlamoq, yozmoq, o‘tirmoq, o‘qib chiqmoq, bilib olmoq*. Ular lug‘atlarda ham shu shaklda beriladi.

2-§. O‘timli va o‘timsiz fe’llar. Fe’llar undan anglashilgan ish-harakatning narsaga munosabatiga ko‘ra o‘timli yoki o‘timsiz bo‘ladi.

1.Harakatning tushum kelishigidagi ot bilan ifodalangan narsaga o‘tishini bildiruvchi fe’llar o‘timli fe’l deyiladi. Masalan: *ol, o‘qi, saqla, tozala* fe’llari o‘timlidir.

2.Narsaga bevosita o‘tmaydigan harakatni anglatadigan fe’llar o‘timsiz fe’llardir. Masalan: *bor, kel, o‘tir* kabi fe’llar o‘timsizdir.

Fellardagi o‘timli yoki o‘timsizlik leksik-semantik va morfologik vositalar orqali ifodalanishi mumkin: a) o‘timli yoki o‘timsizlik fe’llarning leksik ma’nosidan anglashilib turadi. Ya’ni ular

affikssiz qo‘llanganda ham o‘timli yoki o‘timsizlikka daxldor bo‘ladi. Masalan: *yech, qo‘y, saqla, so‘ra, ko‘r* kabi fe’llar o‘timli; *bor, o‘tir, uxla, ko‘kar, tur* kabi fe’llar esa o‘timsizdir. Fe’l ko‘p ma’noli bo‘lganda o‘z va ko‘chma ma’nosi bilan o‘timli yoki o‘timsiz bo‘lishi mumkin: *kitob o‘qiydi-* o‘timli, *kitobdan yoki maktada o‘qiydi* – o‘timsizdir; b) fe’lning o‘timli yoki o‘timsizligi unga qo‘shilib keladigan morfologik vositalar orqali belgilanadi. Bunda nisbat yasovchi affikslar muhim ahamiyatga ega bo‘ladi: 1) orttirma nisbat affikslari o‘timsiz fe’lni o‘timliga aylantirishi mumkin: *oq-oqiz, yur-yurgiz, kel-keltir, ishla-ishlat;* 2) o‘zlik va majhullik nisbat affikslari esa o‘timli fe’lni o‘timsiz fe’lga aylantiradi: *och-ochil, ko‘r-ko‘rin, tara-taran, tort-tortin.* Ba’zan mustaqil fe’l tarkibida nisbat qo‘shimchalari ketma-ket qo‘shilib kelishi mumkin. Bunday holda fe’lning o‘timli yoki o‘timsizligi oxirgi nisbat yasovchi qo‘shimchaga qarab belgilanadi: *kel-o‘timsiz, keltir-o‘timli, keltiril-o‘timsizdir.*

3-§. Fe’l shakllarining garammatik kategoriyaga munosabati. Fe’l shakllari fe’lning ma’lum bir grammatik kategoriyasiga xos shakllar tizimini hosil qilish xususiyatiga ega yoki ega emasligiga ko‘ra ikki turga bo‘linadi: 1) kategorial; 2) nokategorial (vazifadosh) shakl.

Kategoriyal shakl, fe’lning ma’lum bir kategoriyasiga xos grammatik ma’nolarni ifodalaydi. Masalan, daraja, mayl, zamon va shaxs-son kategoriyalariga xos shakllar ana shunday fe’llardir.

Fe’lning biron-bir grammatik kategoriyasiga xos bo‘lmay, turli modal ma’nolar ifodalash yoki boshqa vazifalarni bajarish uchun qo‘llanuvchi shakllari vazifadosh, ya’ni nokategorial shakllardir. Masalan, harakatning takroriyligi, kuchsizligini bildiruvchi *turtkila, kulimsira* kabilar, shuningdek, sifatdosh, ravishdosh va harakat nomi kabilar fe’lning vazifadosh shakllaridandir.

13.2. Fe’lning grammatik kategoriyalari.

Hozirgi o‘zbek adabiy tilida fe’lga xos grammatik kategoriyalar qo‘yidagilar: 1) nisbat kategoriyasi; 2) bo‘lishli va bo‘lishsizlik kategoriyasi; 3) mayl kategoriyasi; 4) zamon kategoriyasi; 5) shaxs-son kategoriyasi.

2-§. Nisbat kategoriyasi. Fe’ldan anglashilgan harakatning bajaruvchi va bajariladigan harakat o‘rtasidagi munosabatining ifodalanishi fe’l nisbati deyiladi. Masalan: *Sobir akasidan kelgan xatni Alisherga o‘qitdi* gapida *Sobir* ega, *Alisherga* to‘ldiruvchidir. Ushbu

gapda asosiy harakat bajaruvchi *Alisher*, ya'ni to'ldiruvchi bo'lib, *Sobir*, ya'ni ega harakat bajarilishida vosita bo'lgan shaxs xolos. Jumladagi ikki bajaruvchi orasidagi harakat bajarish bilan bog'liq ana shunday munosabat fe'lning nisbat shakli orqali ifodalanadi: *o'qi+t+di*. Fe'l nisbati maxsus shakl yasovchi affikslar vositasida ifodalanadi. Bu affikslar fe'lning lug'aviy ma'nosini batamom yangilamay, unga qo'shimcha ma'no bo'yog'i qo'shadi. Qiyoslang: *yuv+(di)-yuv+in+(di)* - *yuv+il+(di)* - *yuv+ish+(di)* – *yuv+dir+(di)*. Ba'zi fe'llarga nisbat qo'shimchalari birdan ortiq qo'shilib kelishi ham mumkin: *yoz+dir+il+di, beza+n+tir+ish+di.* Bunday holda fe'l nisbati oxirgi nisbat qo'shimchasiga qarab belgilanadi. Fe'l nisbatlarning quyidagicha beshta turi bor:

1. Aniq nisbat. Harakatning ega orqali ifodalangan shaxs yoki narsa tomonidan bajarilganini yoki bajarilmaganini ifodalaydi. To'ldiruvchi esa harakatning obyekti bo'ladi. Aniq nisbat maxsus affiksga ega emas: *o'qidi, yozdi, kutdi* kabi sof fe'llar ana shu nisbatdadir.

2. O'zlik nisbat. Harakatning bir shaxs yoki narsaning o'zida sodir bo'lishini anglatadi. Bu nisbat quyidagi affikslar orqali hosil bo'ladi: a) fe'l o'zak-negiziga unlidan keyin **-n**, undoshdan keyin **-in**

affiksini qo‘shish orqali: *o‘ra+n, yuv+in;* b) fe’l o‘zak-negiziga unlidan keyin **-l**, undoshdan keyin **-il** affiksini qo‘shish orqali hosil bo‘ladi: *cho‘m+il, surka+l;* d) fe’l o‘zak-negiziga unlidan keyin **-sh**, undoshdan keyin **-ish** affiksini qo‘shish orqali hosil bo‘ladi: *joyla+sh, ker+ish.* Yetakchi ko‘makchi fe’lli birikmalarga o‘zlik nisbati qo‘shimchasi, asosan, yetakchi fe’lga qo‘shilib keladi: *suya+n+ib turmoq, yuv+in+ib kelmoq, qo‘zg‘a+l+ib ketmoq kabi.*

Shuni ham ta’kidlash lozimki, tilimizdagi *zavq+lan, achchiq+lan, foyda+lan, o‘ng‘aysiz+lan* kabilar o‘zlik nisbatdagi fe’llar hisoblanmaydi. Chunki z*avqlanmoq*, *achchiqlanmoq* kabi fe’llar tarkibidagi -n nisbat yasovchi emas, balki -la va -n bir butun holda (-lan) affiksidir. Shu bois, *zavqlan, achchiqlan* fe’llari aniq nisbat shakli hisoblanadi. Xuddi shuningdek, ba’zi o‘timli va o‘timsiz fe’llardan ham o‘zlik nisbati yasalmaydi: *bor, yugur, o‘qi, hayda, ek, min, sug‘or* kabilar, shular jumlasidandir.

3. Orttirma nisbat. Harakatning boshqa bir shaxs yoki narsa ta’sirida, tazyiqida bajarilishi, orttirilishini ifodalovchi fe’l shaklidir. Quyidagicha affikslar orqali hosil qilinadi: 1) - dir (tir): yozdir, kuldir; 2) - gaz (-giz, -g‘az, -g‘iz, -kaz, -kiz, -qaz, -qiz): ko‘rgaz, ketkiz, o‘tqaz; 3)

-t: o‘qit, qurit, ishlab; 4) - iz: oqiz, tomiz; 5) - ir: botir, tomir,oqir; 6) – ar: chiqar, qaytar; 7) - sat: ko‘rsat.

Ayrim fe’llarning orttirma nisbatni yasashda ko‘rsatilgan affikslardan faqat bittasini, boshqa fe’llarda esa bir nechtasini sinonim sifatida qo‘llash mumkin: *ko‘n+dir - to‘la+t-to‘l+dir - to‘l+g‘iz kabi.* Shuningdek, orttirma nisbat boshqa nisbatlardan farqli ravishda fe’lga birdan ortiq affikslar qo‘shish bilan yasalishi mumkin: *jo‘na+t+tir+di, yoz+dir+tir+di.*

Orttirma nisbat o‘timli yoki o‘timsiz fe’llardan ham yasaladi: *uxla - uxlat, o‘qi-o‘qit* kabi. Orttirma nisbat o‘timsiz fe’llardan yasalganda, o‘timli fe’l yuzaga keladi: *ko‘kar- ko‘kartir, uch - uchir kabi.*

Ayrim fe’llarda orttirma nisbat yasovchi affiks aniq ko‘rinib tursa-da, lekin hozirgi o‘zbek tili nuqtai nazaridan ularni morfemalarga ajratib bo‘lmaydi: *tuzatmoq, surishtirmoq, uzatmoq kabi.* Ayrim fe’llarda orttirma nisbat ko‘rsatkichini boshqa nisbat ko‘rsatkichi bilan almashtirish mumkin: *uyg‘ot- uyg‘on, yupat- yupan* kabi. Lekin bu fe’llar ham hozirgi til nuqtai nazaridan morfemalarga bo‘linmaydi.

Yetakchi va ko‘makchi fe’lli birikmalarga orttirma nisbat qo‘shimchasi, asosan, yetakchi fe’lga qo‘shiladi*: ye+dir+ib qo‘ydi, aylan+tir+ib keldi.*

4. Majhul nisbat. Harakat to‘ldiruvchi anglatgan narsa yoki shaxs tomonidan bajarilib, egaga o‘tadi yoki haqiqiy bajaruvchisi noma’lum bo‘ladi*: O‘qish boshlandi (bajaruvchisi noma’lum), yer haydaldi (harakat bajaruvchisi traktorchilar).*Bu nisbatan -in / -n va -l / in affikslari orqali hosil qilinadi: *tara+l, ulu+n, keltir+il, ol+in kabi.*

Fe’lning majhul va o‘zlik nisbatlariga xos ko‘rsatkichlar o‘zaro grammatik omonim bo‘lib, ba’zan ayni bir affiks ham o‘zlik, ham majhullik nisbatni yasashi mumkin. Bunday holda, fe’lning qaysi nisbatdaligi gap mazmunidan anglashiladi: *Ot qoqildi- mix qoqildi.*

Majhullik va o‘zlik nisbatlari bir xil affiks bilan yasalganda, ularni farqlashda orttirma nisbat affiksini qo‘shib ko‘rish muhim ahamiyatga ega bo‘ladi. Chunki majhullik nisbatdagi fe’l ayni paytda orttirma nisbatda ham qo‘llanishi mumkin, biroq o‘zlik nisbat bunday xususiyatga ega emas: *polga mix qoq+tir+il+di.*

O‘zlik va majhullik nisbat affikslari ayni bir fe’lga qo‘shilib, ham o‘zlik, ham majhullik shaklini hosil qilishi mumkin: *tara+n (o‘zlik) - tara+l(majhullik), yuv+n (o‘zlik) – yuv+il(majhullik) kabi.*

Yetakchi va ko‘makchi felli birikmalarda majhul nisbat ko‘rsatkichi, asosan, ko‘makchi fe’lga qo‘shiladi: *so‘rab ko‘r+il+di, aytib qo‘y+il+di.*

O‘zlik nisbati kabi majhullik nisbat affikslari ham o‘timli fe’lni o‘timsiz fe’lga aylantiradi: *o‘rinni bo‘shatdi- o‘rnidan bo‘shatildi.*

4. Birgalik nisbat shakli -(i)sh affiksi yordamida yasaladi va harakatning birdan ortiq shaxs tomonidan bajarilishini bildiradi: *yozishdi,tozalashdi.* Birgalik nisbatdagi fe’llar mazmunan a) harakatni bajarishda birga ishtirok etish ma’nosi: *tozalashdim, yuvishdim* ; b) o‘zaro, galma-gal bajarilgan harakat ma’nosi: *urishdi, tortishishdi, talashishidi* kabilarni ifodalaydi.

Birgalik nisbat shaklidagi fe’l ko‘plik ifodalovchi **-lar** affiksi bilan sinonim hisoblanadi: *keldilar-kelishdi, o‘qidilar-o‘qishdi.*

Yetakchi va ko‘makchi felli birikmalarda birgalik nisbat ko‘rsatkichi quyidagi tartibda qo‘shiladi: a) yetakchi fe’lga: *kel+ish+ib qoldi, quv+ish+ib ketdi;* b) ko‘makchi fe’lga: *quvib ket+ish+di, kelib qol+ish+di;* b) har ikkalasiga qo‘shiladi. Bunda yetakchi fe’ldagisi birgalik ko‘makchi fe’ldagisi esa ko‘plik ifodalaydi: *kul+ish+ib qo‘y+ish+di, ayt+ish+ib qol+ish+di.*

4-§. Bo‘lishli va bo‘lishsizlik kategoriyasi. Tildagi har qanday fe’l bo‘lishli yoki bo‘lishsiz shaklda bo‘ladi. Bo‘lishli shakl harakatning tasdig‘ini, bo‘lishsiz shakl esa uning inkorini ifodalaydi: *keldi- kelmadi.* Fe’lning bo‘lishli shakli maxsus grammatik ko‘rsatkichga ega bo‘lmaydi. Chunki uning bosh shakli doimo bo‘lishli bo‘ladi. Bo‘lishsizlik esa quyidagi kabi maxsus vositalar yordamida ifodalanadi:

-ma affiksi deyarli barcha fe’l shakllarida bo‘lishsizlik ifodalash uchun xizmat qiladi: *kelmadi, kemagan, kelmabdi* kabi. Fe’lning ba’zi vazifadosh shakllarining bo‘lishsizligini hosil qilishda –*ma* affikisining quyidagi morfologik shakllaridan foydalaniladi:

-maslik affiksi harakat nomining bo‘lishsiz shaklini yasaydi: *aytish-aytmaslik, borish-bormaslik* kabi.

-may\-mayin affiksi fe’lning –b(-ib) affiksi bilan yasaluvchi ravishdosh shaklining bo‘lishsiz shaklini yasashda ishlatiladi : *bilib-bilmay, ko‘rib-ko‘rmay.*

-mas affiksi fe’lning –r//-ar qo‘shimchasi asosida hosil bo‘ladigan shaklining bo‘lishsiz shaklini hosil qilishda ishlatiladi: *yurar- yurmas, borar-bormas.*

–ma affiksi yetakchi+ko‘makchi fe’lli birikmalarga quyidagicha qo‘shiladi:1) yetakchi fe’lga qo‘shiladi: *bormay tur;* 2) ko‘makchi fe’lga qo‘shiladi: *bora ko‘rma;* 3) har ikkalasiga qo‘shiladi: *bormay qo‘yma..* Bunday birikuvda yetakchi yoki ko‘makchi fe’l yoki ularning har ikkalasi birgalikda ifodalaydigan ma’no o‘zaro farqlanadi: a) -ma affiksi yetakchi fe’lga qo‘shilganda, ana shu fe’lga xos harakat inkor etiladi. Biroq ko‘makchi felda bo‘lishlilik ma’nosi saqlanadi: *yurmay qoldi, kelmay qo‘ydi* kabi; b) bo‘lishsizlik shakli ko‘makchi fe’lga qo‘shilsa, bu fe’l bildirgan ma’nodagi harakatning inkori ifodalanadi: *kelib qolmadi, aytib qo‘ymadi;* d) bo‘lishsilik shakli yetakchi va ko‘makchi fe’lga qo‘shilganda esa qat’iy bo‘lishlilik ifodalanAdi: *aytmay qo‘ymadi, kelmay qo‘ymadi.*

-emas to‘liqsiz fe’li faqatgina **–gan** qo‘shimchali sifatdosh va **-moqchi** affiksli maqsad maylidagi fe’llarning bo‘lishsiz shaklini yasash uchun qo‘llanadi: *ketgan emas, ketmoqchi emas* kabi. Shuningdek, emas yordamida qiyoslanayotgan ikki harakat-hodisadan sifatdosh, ravishdosh yoki harakat nomi hamda narsa, belgi, miqdor kabilarning inkorini ifodalashda ham foydalaniladi: *o‘qib emas, yozib kelish kerak; qarashi emas, kulishi chiroyli; behi emas, olma; katta emas, kichik; o‘nta emas, to‘qqizta.*

yo‘q so‘zi faqatgina **–gan// -yotgan** qo‘shimchali sifatdoshning bo‘lishsiz shaklini yasash uchungina qo‘llaniladi: *'yozgani yo‘q., borayotgani yo‘q.* Bu fe’llarning *yuq* so‘zi yordamida yasaluvchi inkor shaklida shaxs-son ko‘rsatkichlari fe’lning o‘ziga qo‘shiladi: *yozganim yo‘q, borganing yo‘q, kabi.*

na yordamchisi vositasida harakatning inkori alohida ta’kid bilan ifodalanadi. Bunda fe’llar bo‘lishli yoki bo‘lishsiz shaklda qo‘llanishi mumkin. Fe’lning o‘zi bo‘lishsiz shaklda qo‘llanganda, *na* yordamchisi bog‘lovchi vazifasini bajaradi va ma’noni kuchaytirish-ga xizmat qiladi: *Na o‘qidi, na yozdi*.

Bo‘lishsizlik ma’nosining ifodalanishida ohangning ham alohida o‘rni bor. Bunday hollarda inkor shakli bo‘lsa, tasdiq ma’nosi, tasdiq shakli bo‘lsa, inkor ma’nosi anglashiladi: *Bu bosh bevafo dunyoda nimalarni ko‘rmadi deysiz.(tasdiq). Ketasiz-a, ketasiz,... sizni bu yerdan ketkizarmidik (inkor).*

5-§. Mayl kategoriyasi. Ish harakatning voqelikka munosabatini ifodalovchi fe’l shakli mayl deyiladi. Fe’l mallari harakatning voqelikka munosabatini ifodalab, grammatik zamon, grammatik shaxs bilan uzviy bog‘lanadi. Bu uch hodisa fe’lning gapda kesimlik vazifasidan kelib

chiqadi. O‘zbek tilida fe’l mayllarining to‘rt turi bor: 1) xabar mayli, 2) buruq-istak mayli, 3) shart mayli, 4) maqsad mayli.

1. Xabar mayli. Ish-harakatning uch zamondan birida bajarilish va bajarilimaganligini ifodalaydi. Xabar maylining maxsus grammatik ko‘rsatkichi yo‘q. U fe’lga uchala zamon va shaxs-son affikslarini qo‘shib tuslash orqali shakllanadi. Masalan: *o‘qidim, o‘qiding, o‘qidi, o‘qiganman, o‘qigansan, o‘qigan, o‘qimoqchiman, o‘qimoqchisan, o‘qimoqchi.* Xabar maylidagi fe’lning asosiy sintaktik vazifasi gapda kesim bo‘lib kelishdir.

2. Buyruq-istak mayli. Ish-harakatni bajarish-bajarmaslik haqida buyurish, istash, so‘rash,iltimos, maslahat,chaqiriq kabi ma’nolarni ifodalaydi. Buyruq-istak maylidagi fe’l xabar maylidan farqli ravishda maxsus mayl ko‘rsatkichlariga ega bo‘lib, bu mayl quyidagicha tuslanadi:

	Birlik	Ko‘plik
1-shaxs 2 -haxs	*yoz+ay, ishla+yin* *yoz (yoz+gin),* *ishla(ishla+gin)*	*yoz+aylik, ishla+ylik* *yoz+ing, ishla+ng,* *ishla+ngiz yoz+sin (lar),* *ishla+sin (lar)*

3- haxs	*yoz+sin, ishla+sin*	

Birinchi shaxs birligi -(a)y va -(a)yin affiksi yordamida yasaladi: *boray, so‘zlayin.* Bu shaxsda so‘zlovchining harakatni bajarish istagi, harakatga bo‘lgan rag‘bati ifodalanadi: *Mana bu kitoblarni o‘quvchilarga yetkazay.*

So‘zlovchining o‘ziga o‘zi buyruq berishi mantiqqa to‘g‘ri kelmaydi, shuning uchun birinchi shaxs sof buyruq ma’nosida ishlatilmaydi. Xususan, o‘zgaga bo‘lgan murojaatda istak bilan birga iltimos ham ifodalanadi: *Siz bilan boray.* Xuddi shuningdek hollarda buyruq, do‘q ham ifodalanishi mumkin: *Bu qilig‘ingni ikkinchi ko‘rmay!*

Birinchi shaxs ko‘plik faqat istakni emas, harakatga da’vat, iltimos kabi ma’nolarni ham ifodalaydi. Chunki bu shakl so‘zlovchidan tashqari u bilan birga bo‘lgan shaxslarni ham o‘z ichiga oladi: *Bir yoqadan bosh chiqaraylik. Keling, mana shu ona-yer oldida so‘z beraylik. (P.Qodirov)*

Qat’iy buyruq ma’nosi ikkinchi shaxs vositasida ifodalanadi. Chunki bunda nutq qaratilgan shaxsning o‘zi qatnashadi: *Salim qoraga ayting, fermada hisob-kitobni to‘g‘rilab qo‘ysin. (H. F.)*

Bu shaklda sof buyruq bilan birga do‘q qilish, iltimos, hatto yalinish kabi munosabatlar ham ifodalanishi mumkin: *Yo‘qol, dedim! Ko‘zimga ko‘rinma!(do‘q). Stol ustiga qo‘ya qol (iltimos). Yo rabbiy, ilmimni ziyoda qilg‘il (o‘tinch).*

Ikkiichi shaxsning **–gin\\ -gil** affiksi bilan yasaluvchi shaklida esa buyruq ma’nosi kuchsizlanadi. Bu shakl ko‘proq iltimos yoki oddiy undash, da’vat uchun qo‘llanadi: *Boshingga qilich kelsa ham to‘g‘risini gapirgin. Otangga bo‘lmagil arzanda bandi, Bandidan chiqib bo‘l hunar farzandi. (A.Jomiy)*

Uchinchi shaxsda harakatga undash, buyruq ma’nolari ikkinchi shaxs orqali bo‘ladi: *Odamlar bilan yaxshi tanishsin, keyin menga uchrasin. (H. F.)*

Uchinchi shaxsning sof buyruq uchun qo‘llanishi, asosan, majhul nisbatdagi fe’llarda uchraydi: *Tuyaning dumiga bog‘lab sazoyi qilinsin. (As.M.)* Shuningdek, 3-shaxs istak, iltimos kabi ma’nolarni ifodalash uchun ham qo‘llanadi: *Farzandlarimiz murod-maqsadlariga yetishsin, qo‘sha qarishsin.*

Buyruq-istak maylining birinchi va uchinchi shaxs so‘roq, taxmin, o‘ylash kabi ma’nolarni ifodalovchi vositalar bilan qo‘llana oladi. Ikkinchi shaxs shakli esa bunday xususiyatga ega emas. Bunga bu shaxs

shakllarining ma’no xususiyatlari sabab bo‘ladi. Masalan, *ertaga kelaymi, ertaga kelsinmi, ertaga kelaymikin, ertaga kelsinmikin* kabi qo‘llanish ko‘p uchraydi.

Buyruq-istak maylining bo‘lishsiz shakli harakatning bajarilish ehtimoli borligi, unga ogohlantirish kabi ma’nolarda ham qo‘llanadi: *Otlariga ishonib biror falokatga yo‘liqishmasin, tag‘in.*

Yordamchi fe’llardan faqat *edi* to‘liqsiz fe’li buyruq-istak maylidagi fe’llarning ikkinchi va uchinchi shaxs shakli bilan qo‘llana oladi: *borgin edi, borsin edi* kabi. Bunday qo‘llanish natijasida: 1) buyruq-istak mayli shakliga xos ma’no butunlay yo‘qoladi: *bor - borgin edi, aytma - aytmagin edi;* 2) buyruq - istak maylida harakatning bajarilishi mantiqan kelasi zamonga, *edi* to‘liqsiz fe’li bilan qo‘llanganda esa o‘tgan zamonga oid bo‘ladi: *kelsin -kelsin edi;* 3) buyruq-istak shakli *edi* to‘liqsiz fe’li bilan yoki usiz qo‘llanganda ham istak ma’nosi ifodalanadi.

Shart mayli biror ish-harakatning yuzaga chiqishi uchun undan oldin bajarilishi shart bo‘lgan harakatni ifodalaydi. Shart mayli *-sa* affiksi va shaxs-son qo‘shimchalarining qo‘shilib tuslanishidan hosil bo‘ladi.

	Birlik	Ko‘plik
1- shaxs	Bor+sa+m	bor+sa+k
2- shaxs	bor+sa+ng	bor+sa+ngiz
3- shaxs	bor+sa+0	bor+sa+(lar)

Fe’lning bu shakli quyidagi ma’nolarni ifodalash uchun xizmat qiladi: 1. Shart mayli shaklidagi fe’l boshqa biror harakatning bajarilishi uchun shart bo‘lgan harakatni bildiradi: *Mana bu kanal bitsa, yangi yer ochilsa, paxta ham ko‘payadi (A.R).* 2. Shart maylidagi fe’l payt ma’nosini bildiradi va payt ergash gapning kesimi vazifasini bajaradi: *Ertalab derazadan qarasam, hammayoq oppoq qor ekan.* 3. Istak ma’nosini bildiradi. Bunday holda *edi* to‘liqsiz fe’li ishtirok etib bu ma’noni kuchaytiradi: *Qani edi bir parcha soya-salqin joy topilsa…(H.G‘).* 4. Agar edi to‘liqsiz fe’li bilan qo‘llangan shart maylidagi fe’l bo‘lishsiz shaklda qo‘llansa, gumon manosi hosil

bo‘ladi: *Biror qaltis gap aytib, sharmanda qilmasa edi.*

4. Maqsad mayli *-moqchi* affiksi yordamida yasaladi va harakatning bajarish maqsadini, niyatini, mo‘ljalini bildiradi:

	Birlik	Ko‘plik
1- shaxs	bor+moqchi+man	bor+moqchi+miz,
2 -shaxs	bor+moqchi+san	bor+moqchi+siz
3 -shaxs	bor+moqchi	bor+moqchi+(lar)

Fe’lning bu shakli faqat maqsad, mo‘ljal ma’nosini bildiradi. -moqchi affiksli fe’l *edi* to‘liqsiz fe’li bilan qo‘llanganda, o‘tgan zamon ifodalanishi mumkin. Lekin bunda harakat o‘tgan zamonga (o‘tgan zamonda bajarilishi) emas, balki maqsad o‘tgan zamonga oid bo‘ladi: *bormoqchi edim, bormrqchi eding, yubormoqchi edi.*

-*moqchi* affiksi bilan yasalgan shakl *bo‘l* fe’lining o‘tgan va hozirgi zamon shakllari bilan qo‘llanganda ham harakatning emas, balki maqsadning hozirgi zamon yoki o‘tgan zamonga oidligi ifodalanadi: *bormoqchi bo‘layapman, bormoqchi bo‘laman, bormoqchi bo‘ldim.*

Fe’l mayllari sinonimiyasi. Fe’l mayllarini hosil qiluvchi affikslar nutq talabiga ko‘ra o‘zaro **sinonim** sifatida ham ishlatiladi:

1. Xabar maylidagi fe’l buyruq-istak mayli manosini ifodalashda ishlatiladi: *Qani, yigitlar, ketdik! Kechagi qiliqlaring uchun bugun hech yoqqa chiqmaysan, tushundingmi!*

2. Xabar maylidagi fe’l shart mayli vazifasida qo‘llanadi: *Va’da berdingmi-bajar*. *Boshga bir ish tushdimi, yagona yo‘l- uni jasorat bilan yengishdir.*

3. Buyruq-istak maylidagi fe’l xabar mayli vazifasida ishlatiladi: *Bolani o‘qitish o‘rniga xizmatingizni qildiring, yana urdiring! Sizda insof bormi? (xizmatingizni qildiribsiz, urdiribsiz)*

4. Buyruq–istak maylidagi fe’l shart mayli vazifasida qo‘llanadi: *Kimlardir mehnat qilsin-u, rohatini siz ko‘rasizmi?! Avval qo‘ng‘iroq chalsin, keyin hammamiz birga tashqariga chiqamiz.*

5.Shart maylidagi fe’l xabar mayli ma’nosini ifodalashga xizmat qiladi: *Kenjaboyning o‘g‘li yugurib kelsa-yu, to‘ni bilan sumkasini qo‘limga tutqazsa bo‘ladimi? (O.) (qo‘limga tutqazdi).*

6. Shart maylidagi fe’l buyruq-istak mayli vazifasida qo‘llanadi: *Sabr qilsang, g‘o‘radan halvo pishar (sabr qil, g‘o‘radan halvo pishadi).*

6-§.Fe’llarning tuslanishi. Fe’l mayllari, odatda, grammatik shaxs, zamon ma’nolari bilan bog‘liq holda ifodalanadi. Shuning uchun ham ularni yuzaga keltiruvchi grammatik shakllar shaxs-son affikslari deb yuritiladi. Fe’llarning shaxs-son affikslari bilan o‘zgarish esa, tuslanish deyiladi. Demak, shaxs-son affikslarining jami tuslovchilardir. O‘zbek tilida tuslovchilar quyidagicha uch guruhga birlashadi.

1.To‘liqsiz tuslovchilar:

	B i r l i k	K o‘ p l i k
I shaxs	o‘qidi+m	o‘qidi+k
II shaxs	o‘qidi+ng	o‘qidi+ngiz
III shaxs	o‘qidi+0	o‘qidi+(lar)

2.To‘liq tuslovchilar:

	B i r l i k	K o‘ p l i k
I shaxs	o‘qib+man	o‘qib+miz
II shaxs	o‘qib+san	o‘qib+siz
III shaxs	o‘qib+di	o‘qib+di (lar)

3.Buyruq-istak mayli bilan tuslanish:

	Birlik	Ko‘plik
I shaxs	o‘qi+y// -yin	o‘qi+ylik
II shaxs	o‘qi // o‘qi+gin	o‘qi+ngiz
III shaxs	o‘qi+sin	o‘qi+sin(lar)

Bu tuslovchilardan birinchi guruhi (to‘liqsiz tuslovchilar) mayl va zamon bilan aloqador bo‘lsa, *-di* va *-sa* affiksli sof fe’llarga qo‘shiladi. Ikkinchi guruhli (to‘liq shakl) esa, ravishdosh, sifatdosh va kesim

vazifasidagi boshqa so‘zlarga qo‘shiladi. Uchinchi guruh tuslovchilar faqat buyruq - istak mayli uchun xosdir.

Shaxs-son affikslari sinonimiyasi. Shaxs-son affikslari o‘zaro sinonimik munosabatda bo‘lish xususiyatiga ega bo‘lgan fe’l shakllaridandir. Xususan, ular o‘rtasidagi ma’nodoshlik quyidagilarda ko‘zga tashlanadi:

1. Fe’lning 1-shaxs ko‘plik shakli uning birligi o‘rnida qo‘llanilib, kamtarlik, manmanlik, o‘zini katta olish kabi ma’nolarni ifodalaydi: *Shu masalalarning mazkur ishda qanday hal etilganligi haqida fikrlar bayon etilishini juda* ***istaymiz*** *(A.Hojiyev). Mehmonni* ***ishga solar ekanmiz****da,-dedi Yo‘lchini birga olarkan Yormat.*

2. Fe’lning1-shaxs birligi o‘rnida 2- yoki 3-shaxs birligi va ko‘plik shakli qo‘llanadi. Bunday holda shaxsning nutqi o‘ziga qaratilgan bo‘ladi: *Mo‘lla Tursun, mana oliy ma’lumot haqidagi diplomni ham olding // Mo‘lla Tursun, mana oliy ma’lumot haqidagi diplomni ham oldilar.*

3. Fe’lning 2-shaxs ko‘pligi 1-shaxs ko‘plik o‘rnida ishlatiladi. Bunda shaxs ma’nosi mayl ma’nosi bilan birga ko‘chadi: - *Qani, yigitlar, ishni boshladik,- dedi boshliq ishchilarga.*

4. Gap tarkibida *kishi, odam* so‘zlari ega vazifasida qo‘llanganda 1-shaxs birlik o‘rnida 2-shaxs ishlatiladi: *Bu gaplarni eshitib, hayron bo‘lasan kishi.*

6-§. Fe’l zamonlari ish harakati nutq so‘zlanib turgan paytdan avval, nutq so‘zlanib turgan paytda yoki nutq so‘zlanib turgan paytdan keyin bajarilgan, bajarilmaganligiga munosabatni ifodalovchi fe’l shaklidir. Shunga ko‘ra, fe’l zamonlari, dastlab, uch guruhga bo‘linadi: 1) o‘tgan zamon, 2) hozirgi zamon, 3) kelasi zamon.

O‘tgan zamon - nutq so‘zlanib turgan paytdan avval bo‘lib o‘tgan yoki bo‘lmagan harakatni anglatadi. O‘tgan zamonning quyidagicha besh turi mavjud: 1) yaqin o‘tgan zamon, 2) o‘tgan zamon hikoya fe’li, 3) uzoq o‘tgan zamon, 4) o‘tgan zamon davom fe’li, 5) o‘tgan zamon maqsad fe’li.

1. Yaqin o‘tgan zamon nutq so‘zlanib turgan paytdan oldin, so‘zlovchining ko‘z o‘ngida yoki bevosita ishtirokida sodir bo‘lgan harakatni ifodalaydi. U **-di** affiksini fe’llarga qo‘shish va tuslash orqali hosil bo‘ladi: *o‘qi+di+m, o‘qi+di+ng, o‘qi+di.*

2. Uzoq o‘tgan zamon ancha avval, qachondir bo‘lib o‘tgan yoki bo‘lmagan harakatni ifodalaydi: Bu shakl **-gan** sifatdoshi **+ edi, ekan, emish** singari to‘liqsiz fe’llarni qo‘shish va tuslash orqali hosil qilinadi:

o‘qi+gan+man, o‘qi+gan ekan+man, o‘qi+gan emish+man, o‘qi+gan edi+m kabi.

3. O‘tgan zamon hikoya fe’li nutq so‘zlanib turgan paytdan ilgari kutilmaganda, qisqa vaqt oralig‘ida bo‘lib o‘tgan hikoya qilish, tasvirlash orqali hosil bo‘ladi. Bu shakl **- b / ib** yoki**-b/-ib + edi** to‘liqsiz fe’li orqali yasaladi: *ol+ib+man, ol+ib+san, ol+ib edi+m, o‘qi+b edi+ng kabi.*

4. O‘tgan zamon davom fe’li nutq so‘zlanib turgan paytdan ilgari davomli bo‘lgan, takrorlanib turgan harakatni ifodalaydi. Bu shakl **–r (-ar), - yotgan, -moqda** affikslari **+ edi** to‘liqsiz fe’li yordamida yasaladi: *bil+ar edi+m, bil+ar eding; ol+ayotgan edi+m, ol+ayotgan edi+ng; ol+moqda edi+m, ol+moqda edi+ng kabi.*

5. O‘tgan zamon maqsad fe’li nutq so‘zlanib turgan paytdan avval maqsad qilingan harakatni ifodalaydi. Bu shakl **–moqchi, -digan** affikslari va to‘liqsiz fe’li yordamida yasaladi: *ol+moqchi edi+m, ol+moqchi edi+ng; ol+adigan edi+m, ol+adigan edi+ng* kabi.

Hozirgi zamon ish - harakatning nutq so‘zlanib turgan paytda bajaradigan, bajarilmaganini ifodalaydi. Hozirgi zamon fe’lining quyidagi ikki turi mavjud: 1) hozirgi-kelasi zamon, 2) hozirgi zamon davom fe’li.

1. Hozirgi - kelasi zamon nutq so‘zlanayotgan payt va undan sung sodir bo‘ladigan harakatni ifodalaydi: **-a / -y** ravishdosh affiksini olgan fe’lni tuslash orqali shakllanadi: *ol+a+man, ol+a+san; ishla+y+man, ishla+y+san.*

2. Hozirgi zamon davon fe’li nutq so‘zlanayotgan paytda davom etib turgan harakatni ifodalaydi va fe’lning o‘zak-negiziga **–yap, -moqda, -yotib,-yotir** affikslarini qo‘shib tuslash orqali hosil bo‘ladi: *ishla+yap+ man, ish+la+yap-san; ishla+moqda+man; ishla+yotib+man; o‘qi+yotir+ man* kabi.

Kelasi zamon harakatning nutq so‘zlanib turgan paytdan so‘ng bajaralish yoki bajarilmasligini ifodalaydi. Bu zamonning ikki turi mavjud:1) kelasi zamon maqsad fe’li, 2) kelasi zamon gumon fe’li.

1. Kelasi zamon maqsad fe’li bajarilishi maqsad qilib qo‘yilgan harakatni ifoda etadi va fe’lning o‘zak negiziga –**moqchi, --digan -ajak** affikslarini qo‘shib tuslash orqali hosil bo‘ladi: *ishla+moqchi+man, ishla +moqchi+san; ishla+yajak.*

2. Kelasi zamon gumon fe’li harakatning bajarilishi mo‘ljali, taxminini ifodalaydi va **–r,-ar** affiksini fe’lga qo‘shib tuslash orqali yasaladi: *ol+ar+man, ol+ar+san, ol+ar, ol+ar+miz* kabi.

Fe’l zamonlari sinonimiyasi. Boshqa fe’l shakllarida bo‘lganidek, zamon shakllari o‘rtasida ham grammatik ma’nodoshlik munosabati mavjud:

1. O‘tgan zamon fe’lini hosil qiluvchi *–di* affiksi, hozirgi zamon o‘rnida qo‘llanadi: *Hozir qorong‘uda qayoqqa bordigu, nimayam qildik// qayoqqa boramizu, nimayam qilamiz.*

2.O‘tgan zamon fe’lini hosil qiluvchi *-gan* affiksi hozirgi zamon ma’nosida ishlatiladi: *Birov kitob o‘qigan, kimdir shaxmat atrofida.*

3.Hozirgi zamon shakli kelasi zamon ma’nosida qo‘llaniladi. Bunday hol, asosan, *ket bor, yubor,boshla* kabi fe’llar doirasida uchraydi: *Ertaga Buxroga ketayapmiz*.

4.Kelasi zamon fe’li o‘tgan zamon ma’nosida qo‘llanadi: *Rais majlisni ochiq deb e’lon qiladi, hamma o‘rnidan turadi, O‘zbekiston gimni yangraydi*.

5. Kelasi zamon fe’li hozirgi zamon ma’nosini ifodalaydi: *Ha, bu yer-da hayot qaynaydi… Talabalar baxtiyor yoshlik gashtini surmoqdalar.*

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR:

1. Fe’lning morfologik va sintaktik xususiyatlari haqida ma’lumot bering.

2. Fe’l nisbatlari va ularni ifoda shakllari xususida nimalarni bilasiz?
3. Bo‘lishli va bo‘lishsizlik, o‘timli va o‘timsizlik kategoriyalari haqida ma’lumot bering.
4. Shaxs-son kategoriyasi va uning ahamiyatni izohlang.
5. Fe’llarda zamon turlari va uni ifodalovchi vositalar xususida ma’lumot bering.
6. Fe’l mayllari va ularning qanday turlarini bilasiz?

ZARURIY ADABIYOTLAR

1.Ш. Шоабдураќмонов, М.Асљарова, А.Ќожиев, И.Расулов, Х.Дониёров Ќозирги њзбек адабий тили. 1-љисм.Т., «Њљитувчи» 1980.

2.Њзбек тили грамматикаси. 1-том. Т., «Фан» 1975.

3.У.Турсунов, Ж.Мухторов, Ш.Раќматуллаев Ќозирги њзбек адабий тили. Т., «Њљитувчи» 1992.

4.М.Мирзаев, С.Усмонов, И.Расулов Њзбек тили. Т., «Њљитувчи» 1978.

14-MA’RUZA

14.1. Fe’lning vazifadosh shakllari.

Fe’lning biror gap bo‘lagi vazifasini bajarishga xoslangan shakllari vazifadosh shakllar deyiladi. Fe’lning vazifadosh shakllari to‘rt xil bo‘lib, ular quyidagilardan iborat: 1) harakat nomi, 2) sifatdosh, 3) ravishdosh.

7-§. Harakat nomi. Harakat nomi ish - harakatning atamasi bo‘lib, gapda otga xos vazifalar bajarishga xoslangan fe’l shaklidir. Harakat nomi *-(i)sh, -(u)v, -moq*. affikslari yordamida yasaladi: *kechmoq, kechish, kechuv.* Harakat nomi fe’lga xos tuslanish, zamon, mayl kabi ma’nolarni bildirmaydi, balki harakat-holatning atamasi bo‘ladi. Shu sababli otlarga xos kelishik, egalik kabi grammatik shakllarni qabul qila oladi va gapda otlarga xos vazifalarni bajaradi.

Ma’no jihatdan bir-biriga yaqin bo‘lgan uch xil harakat nomi qo‘shimchalaridan –moq bilan yasalgan shakl fe’lga *–sh (-ish)* bilan yasalgan shakl esa otga yaqin turadi. Shuning uchun -moq orqali fe’lning noaniq (infinitiv) shakli hosil qilinadi. Harakat nomi shakllarining har biri o‘ziga xos xususiyatlari bilan bir-biridan farqlanadi.

-(i)sh affiksi bilan yasaluvchi harakat nomi quyidagi xususiyatlarga ega: 1) harakatning nomini bildiradi, uning atamasi hisoblanadi: *yurish; yozish, o‘ylash;* 2) *-(i)sh* affiksi bilan yasaluvchi harakat nomi shakli ko‘plik, egalik va Kelishik affikslari bilan qo‘llanganda, bu affikslarning ma’nosida deyarli o‘zgarish bo‘lmaydi. Biroq, o‘rin-payt kelishigi shaklida qo‘llanganda, hozirgi zamon sifatdoshining o‘rin-payt kelishigidagi shakli bilan ma’nodoshlikka ega bo‘lishi mumkin: *tuzishda-tuzayotganda-tuzayotgan vaqtda;* 3) harakat nomining *-(i)sh* affiksli shakli ko‘makchilar bilan ham qo‘llanib maqsad, vaqt, birgalik kabi ma’nolarni ifodalaydi: *o‘qish uchun, o‘qishdan avval, o‘qish bilan.*

-(u)v affiksi bilan yasaluvchi harakat nomidagi fe’l undosh bilan tugaganda, **u** unlisi orttiriladi: *bor-boruv*. So‘z oxiri **i** bilan tugagan bo‘lsa, **i** tovushi **u** tovushiga, **a** bilan tugagan bulsa, **a** tovushi **o** tovushiga o‘tadi: *o‘qi-o‘quv, ishla-ishlov.*

-(u)v affiksi bilan yasaluvchi shakl ko‘proq ot ma’nosida qo‘llanadi. Shu bois, *-(u)v* affiksi yordamida yasalgan harakat nomining ayrimlari butunlay otga ko‘chgan bo‘ladi: *saylov*, *chanqov*, *qistov, o‘quv* kabi.

-moq affiksi bilan yasaluvchi harakat nomi *-(u)v* affiksi yordamida yasaluvchi shaklga nisbatan ham kam qo‘llanadi. Harakat nomi shakllari har doim ham biri o‘rnida ikkinchisini qo‘llab bo‘lmaydi. Masalan,*Talabalarning bilim olishini yaxshi tashkillashtirish uchun mustaqil talimga alohida e’tibor berish zarur*, gapida qo‘llangan *–ish* qo‘shimchasi bilan shakllangan barcha harakat nomini –moq yoki *–v/uv* qo‘shimchali shakl bilan almashtirib bo‘lmaydi.

Harakat nomining yuqoridagi uchala shakli ham bo‘lishsizlik ko‘rsatkichi -ma affiksini qabul qilmaydi. Ularning bo‘lishsiz shakli -maslik affiksi yordamida yasaladi: *ketmaslik, aytmaslik* kabi. –maslik asosida hosil bo‘lgan bo‘lishsizlik harakat nomining boshqa shakllariga nisbatan *–sh (-ish*) affiksiga mazmunan yaqinligi mavjud: *o‘qish-o‘qimaslik. borish-bormaslik.*

8-§. Sifatdosh sifat kabi narsaning belgisini bildirib, gapda aniqlovchi vazifasiga xoslangan fe’l shaklidir: *kelgan odam, ishlayotgan yigit* kabi.

Sifatdosh, barcha fe’llar kabi o‘timli va o‘timsizlik, nisbat, bo‘lishli-bo‘lishsizlik hamda zamon kategoriyalariga xos ma’nolarda kela oladi. Ular zamon ma’nosiga ko‘ra uch guruhga bo‘linadi: 1) o‘tgan zamon sifatdoshi, 2) hozirgi zamon sifatdoshi, 3) kelasi zamon sifatdoshi.

O‘tgan zamon sifatdoshi –gan (k, g undoshlaridan so‘ng **–kan**) affiksi bilan yasaladi: *o‘qigan (kitob), yozgan (insho), tikkan(ko‘ylak).* Eski o‘zbek tilida *–mish, -dik* shaklida ham qo‘llangan: *E yorim, sevdigim obod ro‘zg‘orim. (E.J)* Sifatdoshning bu shakli 1) fe’lning o‘tgan zamon ma’nosini bildiruvchi formasini yasaydi: *borganman, borgan edim;* 2) *yot, tur, yur, o‘tir* kabi holat fe’llariga qo‘shilganda, hozirgi zamon ma’nosi ham ifodalanadi: *Faxriddin osilib turgan qalin pastki labini bir-ikki qimirlatib javob berdi. (A.Q.);* 3) ot oldidan kelib, narsaning doimiy belgisini bildiradi va sfatlovchi-aniqlovchi vazifasini bajaradi. Bunda harakatning o‘tgan zamonga oidligi ifodalanmaydi, balki narsaning hozirgi holatdagi belgisi asosiy o‘rinda bo‘ladi: *xonaning ko‘chaga qaragan oynasi, hovuz boshiga to‘plangan odamlar.* 4) *-gan* affiksli sifatdosh shaxs-son qo‘shimchalarini olib, kesim vazifasida qo‘llanadi. Bunda u xabar maylining o‘tgan zamon shakli hisoblanadi, *-gan* affiksi esa zamon (3-shaxda esa zamon va shaxs) ko‘rsatkichi sifatida qaraladi: *kelganman, kelgansan, kelgan; kelganmiz, kelgansiz, kelgan;* 5) egalik, ko‘plik va kelishik qo‘shimchalarini olib otlashadi: *Yurgan daryo, o‘tirgan bo‘yra*.

Hozirgi zamon sifatdoshi fe'lga **–yotgan, -vchi(-uvchi)** affikslarini qo‘shish orqali yasaladi va quyidagi ma'no, vazifalarga ega bo‘ladi:

1. **–yotgan** affiksi grammatikalizatsiyalashgan **yot** fe'li va o‘tgan zamon sifatdoshi hosil qiluvchi *–gan* affiksiniing birikishi orqali yasaladi. Hozirgi zamon sifatdoshining bu shakli, asosan, ot oldidan kelib aniqlovchi vazifada qo‘llanadi: *ishlayotgan odam, esayotgan shamol* kabi. Bu shaklni shaxs-son affikslari bilan tuslash orqali hozirgi zamon fe'lini hosil qilib bo‘lmaydi. Faqat quyidagi hollardagina mazkur sifatdosh hozirgi zamon fe'lining yasalishi uchun xizmat qilishi mumkin: a) *yo‘q* so‘zi bilan hozirgi zamon fe'lining inkor shaklini yasaydi: *ishlayotgani yo‘q, kelayotgani yo‘q;* b) *emish* tuliqsiz fe'li bilan birga qullanganda hozirgi zamon fe'lining eshitilganlik shakli yuzaga keladi: *ishlayotgan emish, kelayotgan emish;* d) horzirgi zamon gumon ma'nosini ifodalashda -dir affiksi bilan qo‘llanadi: *ishlayotgandir, kelayotgandir.*

2. Hozirgi zamon sifatdoshining **-vchi(-uvchi**) affikslari bilan yasalgan shakli oxiri a tovushi bilan bitgan so‘zlarga qo‘shilganda, a tovushi o tovushiga aylanadi, i unli tovushi bilan bitgan fe'llarda esa i tovushi u tovushiga aylanadi. Undosh bilan bitgan fe'llarga

qo‘shilganda, u orttiriladi: *ishla - ishlovchi, o‘qi - uquvchi, bor-boruvchi* kabi.

Hozirgi zamon sifatdoshi quyidagicha ma’no va vazifalarga ega bo‘ladi: a) –**yotgan** sifatdoshidan farqli ravishda shaxs-son affikslari bilan tuslanadi va gapda kesim vazifasida qo‘llanadi: *ishlovchiman, ishlovchisan, ishlovchi;* b) otga bog‘lanib, sifatlovchi aniqlovchi vazifasini bajaradi: *ishlovchi kishi, o‘quvchi qiz* kabi; d) bu shaklda otlashishga moyillik kuchliroq bo‘ladi: *o‘quvchi, yozuvchi, to‘quvchi kabi.*

Kelasi zamon sifatdoshi fe’lga **–r(-ar), -digan** affikslarini qo‘shish bilan yasaladi va qo‘yidagicha ma’nolarni ifodalaydi:

1. Sifatdosh yasovchi *-(a)r* (bo‘lishsizi *-mas*) affiksi hozirgi o‘zbek adabiy tilida juda kam uchraydi. Bu affiks bilan qo‘llanuvchi ayrim so‘zlar fe’ldan ko‘ra sifatlarga yaqin turadi: *oqar suv, so‘nmas hayot* kabi. Shuningdek, *-(a)r* affiksi yordamida yasaluvchi shakl tuslanganda kelasi zamon gumon fe’lini hosil qiladi: *yozarman, yozarsan, yozar kabi*.

2.Sifatdoshning **–digan** affiksi bilan yasaluvchi shakli ravishdoshning *–a (-y)* affiksi bilan yasalgan shaklidan so‘ng qo‘shiladi

va quyidagicha ma’nolarga ega bo‘ladi: a) fe’lining atributiv shaklini hosil qilishda faol ishlatiladi: *o‘qiydigan kitob, bajaradigan yumush* kabi; b) shaxs-son qo‘shimchalari bilan tuslanib, kelasi zamon maqsad ma’nosini ifodalashga xizmat qiladi: *o‘qiydiganman, o‘qiydigansan, o‘qiydigan* kabi.

Bundan tashqari, kelasi zamon sifatdoshining –**jak, -gusi, -asi** singari qadimiy shakllari ham mavjud bo‘lib, ular hozirgi tilimizda *kelajak, kelgusi, kelasi* singari so‘zlar doirasidagina uchraydi.

Sifatdoshlarning asosiy sintaktik vazifasi aniqlovchi bo‘lib kelishdir. Ular otlashganda otlarga xos sintaktik vazifalarni bajaradi: *Aytilgan so‘z-otilgan o‘q.*

Shaxs-son affikslari bilan tuslanib, mayl, zamon ma’nolarini ifodalaganda esa kesim vazifasida keladi: *Men bu kitobni o‘qiganman. Sen ertaga borarsan.*

9-§. Ravishdosh. Ravishdosh harakatning belgisini bildiradigan, uni biror tomondan xarakterlaydigan fe’l shaklidir. Hozirgi o‘zbek tilida ravishdoshlar quyidagi xususiyatlariga ko‘ra o‘zaro farqlanadi:

1. Ma’nosiga ko‘ra: a) holat ravishdoshlari *-b(-ib), -a (-y) -gudek* affislari vositasida hosil bo‘ladi; b) payt ravishdoshlari *-gach (-kach,* -

qach), -guncha (-kuncha, -quncha) vositasida hosil bo‘ladi; d) maqsad ravishdoshi -gani (-kani, -qani) affiksi vositasida hosil bo‘ladi.

2. Tuslanish-tuslanmasligiga ko‘ra: a) tuslanadigan ravishdoshlar: a) *-b(-ib), -a (-y)* affikslari bilan yasalagan ravishdoshlar; b) *-gach (-kach, -qach), -guncha (-kuncha, -quncha) -gani (-kani, -qani)* affikslari bilan yasalagan ravishdoshlar kiradi.

3. Zamon ma’nosiga ko‘ra: a) o‘tgan zamon ravishdoshi: a) *-b(-ib), -gach (-kach, -qach)* affikslari bilan yasalagan ravishdosh; b) hozirgi zamon ravishdoshlari: *-a (-y)* affiksi bilan yasalagan ravishdosh; d) kelasi zamon ravishdoshlari: *-guncha (-kuncha, -quncha) -gani (-kani, -qani), -gudek* affikslari bilan yasaladigan ravishdoshlardan tashkil topadi.

Ravishdosh yasovchi affikslar quyidagi ma’no va grammatik vazifalarga egaligi bilan xarakterlanadi:

-(i)b affiksi: *so‘rab, eslab, quvonib.* Bu shakl bajaradigan vazifasining xilma-xilligi bilan boshqa ravishdosh shakllaridan alohida ajralib turadi. Uning asosiy vazifalari quyidagilar: 1) yetakchi fe’l bilan ko‘makchi fe’lni bog‘lashga xizmat qiladi: *so‘rab ko‘r, tashlab yubor, ishlab tur* kabi; 2) harakat belgisini bildirib, hol vazifasida keladi:*Shu payt chorbog‘dan echki yetaklab Dildor kirib keldi. (S.Ahm.)*

Harakat belgisini bildirgan ravishdosh, xuddi ravish kabi, -roq, -gina affikslari bilan ham qo‘llanadi: *Qudrat tortinibgina so‘radi.* 3) ravishdoshning bu turi shaxs-son affiksi bilan tuslanib, o‘tgan zamon hikoya fe’lini hosil qiladi: *kelibman, kelibsan* kabi.

Bu ravishdoshning bo‘lishsiz shakli –ma (o‘qimabman), **-may, -masdan** (o‘qimay, o‘qimasdan) shaklida**,** She’riyatda **-mayin** (tinmayin) shaklida qo‘llanishi ham uchraydi.

-a (-y) affiksi undosh bilan tugagan fe’llarga -a, unli bilan bitgan fe’llarga -y affiksining qo‘shilnshidan hosil bo‘ladi. Bu turdagi ravishdosh quyidagi ma’no va vazifalarda qo‘llanadi: 1) harakatning belgisini bildiradi, bu vazifada u yakka so‘z holida *(kula, ushlay* kabi) kam qo‘llanadi. Yakka so‘z tarkibida qo‘llanganda, harakatni tezlik bilan bajarganligini ifodalaydi: *Jo‘xori tuyayotgan xotin kelisopni kelining ustiga qo‘ya chopdi. (A.Q.)* 2) ravishdoshning -a, -y affiksi bilan yasaluvchi turi harakatning belgisini bildirish vazifasida, asosan, takror yoki juft so‘z holida qo‘llanadi. Bu shaklda qo‘llangan -a, -y affiksi yordamida yasaluvchi ravishdosh gapda vaziyat holi vazifasida keladi: *Muyassar shosha-pisha unga kechagi o‘ylarini gapira boshlagan edi. (O. Yo.)* 3) yetakchi fe’l bilan ko‘makchi fe’lni bog‘lash uchun xizmat qiladi: *yoza olmoq, o‘qiy boshlamoq;* 4) shaxs-son bilan

tuslanib, hozirgi-kelasi zamon fe'li yasash uchun xizmat qiladi. Uning bo'lishsiz shakli –**ma** affiksi orqali yasaladi: *kelaman, kelmayman, kelasan, kelmaysan, keladi; ishlayman, ishlaysan, ishlaydi* kabi.

-gach (-kach, -qach) affiksi: *Kelgach, ekkach, chiqqach.* Ravishdoshning bu turi qo'yidagi vazifalarda qo'llanadi: 1) payt ma'nosini bildiradi va payt ergash gapning kesimi vazifasida kelib, bosh gapdagi harakatning o'zi bildirgan harakatdan keyin bajarilishini ifodalaydi: *U yechinib ko'rpaga kirgach, Ikromjonga nimadir demoqchi bo'lib boshini ko'tardi. (S.Ahm.)* 2) sabab ma'nosini bildiradi va sabab ergash gapning kesimi vazifasida keladi: *Ko'ksimda o'ynadi bir onda sevinch, mahallam oldiga kelgach tramvay.(O.)* 3) -gach affiksi yordamida yasalgan ravishdoshning bo'lishsiz shakli *–ma* orqali yasalib, asosan, sabab ma'nosini ifodalashda qo'llanadi: *Hadeganda eshik ochilavermagach, xavotir oldik.* Ushbu ma'no chiqish kelishigidagi sifatdoshning *keyin* so'zi bilan birikuvi vositasida ham ifodalanadi: *kelgach - kelgandan keyin, aytavermagach - aytavermagandan keyin.*

-guncha (-kuncha, -quncha) affiksi: *kelguncha, chekkuncha, chiqquncha.* Bu affiks yordamida yasaluvchi ravishdosh ham hozirgi o'zbek tilida juda keng qo'llanadi va quyidagi ma'nolarni bildiradi: 1) o'zi bog'lanib kelgan fe'l bildirgan harakatning bajarilish vaqtini

aniqlaydi. Bunda: a) biror harakatning *-guncha* affiksli fe'l bildirgan harakatga qadar bajarilib bo‘lishi ifodalanadi: *Yuringlar, mashina kampirni tashlab kelguncha, qirga chiqib tushamiz. (I. R.)* b) biror harakatning *-guncha* affiksli fe'l bildirgan harakat sodir bo‘lguncha davom etishi ifodalanadi: *Hoy qizlar, shartim shuki, ketguncha ashula qilib ketasanlar. (S.3.)* 2) qo‘shma gaplarda ergash gapning kesimi vazifasida kelib, chog‘ishtirish ma'nosini bildiradi: *Muncha hayqir-guncha, telba to‘lqinlar, Simlarga quvvat ber shalolalardan. (Mirtemir.)*

-gani (-kani, -qani) affiksi: *olgani, ekkani, yiqqani.* Bu affiks yordamida maqsad ma'nosini bildiruvchi ravishdosh yasaladi: *Yig‘im-terimga qarashgani yoshu qari, erkak-ayol - butun shahar hasharga chiqdi.* Bunday ma'no ifodalashda *uchun* ko‘makchisi ham keng qo‘llanadi: *Yig‘im-terimga qarashish uchun yoshu qari, erkak-ayol-butun shahar hasharga chiqdi.*

Bu turdagi ravishdoshning o‘ziga xos xususiyatlaridan biri, uning bo‘lishsiz shakliga ega emasligidir.

14.2. Fe'lning modal ma'no ifodalovchi shakllari

Yasalish usuliga koʻra bunday fe’l shakllarning ikki turi mavjud: 1) sintetik shakllar; 2) analitik shakllar.

10-§. Sintetik shakllar harakatning turli modal ma’nolarini ifodalovchi affikslar asosida shakllanadi. Bular oʻz xususiyatiga koʻra ikki turga boʻlinadi: a) harakatning takroriyligini, davomliligini ifodalovchi affikslar fe’lga –la, -kila (-gila, -rila, -qila) affikslarini qoʻshish orqali hosil qilinadi: *ishqa – ishqala, sava – savala, turt – turtkila, choʻz – chuzgʻila, yugur – yugurgila, tort – tortqila, tep – tepkila* kabi; b) harakatning kuchsiz darajasini koʻrsatuvchi –(i)nqira, -(i)msira affikslari yordamida yasaladi: *oqar - oqarinqira, qoʻrq - qoʻrqinqira, kul - kulimsira* kabi.

11-§. Analititik shakllar fe’lning asosiy modal ma’no hosil qiluvchi shakllari boʻlib, ularning koʻpchilik qismini koʻmakchi va toʻliqsiz fe’llar vositasida yasaluvchi shakllar tashkil qiladi.

12-§. Koʻmakchi fe’l yetakchi (mustaqil) fe’lga bogʻlanib, harakatning turlicha xususiyatlarga ega boʻlgan modal ma’nolarini hosil qilish uchun xizmat qiladi. Biroq, oʻzbek tilida butunlay koʻmakchi fe’lga aylangan (mustaqil ma’nosini butunlay yoʻqotib, faqat koʻmakchi fe’l sifatida qoʻllanadigan) fe’l yoʻq. Ayrim mustaqil fe’llar

ko‘makchi fe’l vazifasida qo‘llanib, quyidagicha modal ma’nolarni hosil qiladi:

2) harakatning davomiyligi: *ayta tur, ko‘ra tur*;

3) harakatning boshlanishi: *ayta boshla, yoza boshla;*

4) harakatning takrori: *aytib yur, aytib tur;*

5) harakatni tugallanishi: *aytib bo‘l, yozib qo‘y;*

6) harakatning bajarilish imkoniyati: *yozib ko‘r, aytib ko‘r, ayta ol (moq);*

7) harakatning shaxslararo yo‘nalishi: *yozib ber, aytib ket, ola kel, olib bor* kabilar.

Mustaqil fe’llardagi bunday hodisa ikkita mustaqil fe’lning birikishidan hosil bo‘ladigan qo‘shma (olib chiq, tortib ol kabilarga) fe’llarga tashqi jihatdan o‘xshash bo‘lsa ham, ular o‘rtasida quyidagicha farq mavjud: a) qo‘shma fe’llarni hosil qiluvchi qismlarning har ikkalasi ham mustaqil fe’l bo‘lib, ular birgalikda bitta yangi lug‘aviy ma’no ifodalashga xoslanadi; b) yetakchi ko‘makchi felli so‘z qo‘shilmalarida esa ko‘makchi fe’l o‘z mustaqil lug‘aviy ma’nosini yo‘qotib, modal ma’no ifodalovchi analitik unsurga aylanadi, ya’ni **grammatikalizatsiyalashadi**. Shu bois bunday so‘z qo‘shilmalaridagi birinchi fe’l **yetakchi fe’l** hisoblanib, u mazkur birikmadagi asosiy

lug‘aviy ma’noni tashuvchi komponent hisoblanadi. O‘z mustaqil lug‘aviy ma’nosini yo‘qotib, modal ma’no ifodalovchi analitik unsurga aylangan fe’l esa **ko‘makchi fe’l** deyiladi: *aytib berdi (aytib*— yetakchi, *berdi* — ko‘makchi). Yetakchi fe’l vazifasida sodda fe’ldan tashqari qo‘shma fe’l (qaror qilib qo‘ymoq, olib chiqib ketmoq), takroriy fe’l (o‘yib-o‘yib olmoq, chimchib-chimchib olmoq) ishtirok etishi mumkin.

Hozirgi o‘zbek adabiy tilida quyidagi fe’llar ko‘makchi fe’l vazifasida qo‘llanadi: *boshla, yot, tur, yur, o‘tir, bo‘l, bit, ol, ber, qol, qo‘y, chiq, bor, kel, ket, yubor, tashla, sol, tush, o‘l, o‘t, yet, ko‘r, qara, boq, yoz* kabilar.

Ko‘makchi fe’llar yetakchi fe’l bilan asosan *–(i)b* yoki *–a, -y* ravishdosh yasovchilari yordamida birikadi. Ba’zi ko‘makchi fe’llargina yetakchi fe’l bilan grammatik shakl yordamisiz birikadi. Ko‘makchi fe’l yetakchi fe’l bilan ravishdosh shakli orqali birikkanda, tuslovchi affikslar ko‘makchi fe’lga qo‘shiladi. Yetakchi fe’lga grammatik shakl yordamisiz birikkanda esa yetakchi va ko‘makchi fe’l bir xil shaklda, ya’ni tuslovchi affiklar har ikkala fe’l takibida bo‘ladi: *yozib oldim, yozib olding, yozib oldi; yoza oldim, yoza olding, yoza oldi; yozdim-oldim, yozding-olding, yozdi-oldi* kabi.

Ba’zi ko‘makchi fe’llar, keltirilgan misoldagi kabi, yetakchi fe’lga har uch shaklda birikadi, ba’zilari esa faqat ravishdosh shakli yordamida birikadi: *o‘qib chiqdi, yoza boshladi.* Bulardagi *chiq, boshla* ko‘makchi fe’llari yetakchi fe’l bilan *o‘qidi-chiqdi, yozdi-boshladi* shaklida birikmaydi. Ayrim ko‘makchi fe’llar yetakchi fe’l bilan *–(i)b* va *–a, -y* ravishdosh yasovchilari yordamida, ba’zilari esa faqat *–(i)b* yoki *–a, -y* affiksi yordamida birikadi. Masalan, *ber* ko‘makchi fe’li ravishdoshning har ikki shakliga birika olgani holda, *qara* ko‘makchi fe’li faqat *–(i)b* affiksli ravishdosh shakliga, *yoz* ko‘makchisi esa faqat –a affiksli ravishdoshga birikadi: *yozib ber — yoza ber, o‘qib qara, yiqila yozdi.* Shunga ko‘ra ko‘makchi fe’llarni quyidagicha guruhlarga ajratish mumkin: 1) ravishdoshning *–b (-ib)* affiksli turiga birikadigan ko‘makchi fe’llar: *yot, o‘tir, kel, yur, bo‘l, bit, chiq, yet, o‘t, yubor, tashla, tush, o‘l, qara, boq, qo‘y;* 2) faqat ravishdoshning *–a (-y)* affiksli turiga birikadigan ko‘makchi fe’llar: *boshla, bil, yoz*; 3) ravishdoshning ham *–b (-ib)* ham *-a (-y)* affiksli shakli bilan bog‘lana oladigan ko‘makchi fe’llar: *tur, bor, ol, ber, qol, ko‘r, ket, sol* kabilar.

O‘zbek adabiy tilida ko‘makchi fe’llarning asosiy qismi yetakchi fe’l bilan *–(i)b* ravishdosh yasovchisi orqali birikadi. Yetakchi

fe’lga faqat *–a, -y* ravishdosh yasovchisi yordamida birikuvchi ko‘makchi fe’l, yuqorida ko‘rib o‘tilganidek, uchtagina: *boshla, bil, yoz (ayta boshladi, yoza bildi, to‘kila yozdi).*

Yetakchi fe’l bilan ravishdoshiing har ikki turi yordamida birika oladigan ko‘makchi fe’llar *–(i)b* yoki *–a, -y* affiksi yordamida birikkanda boshqa-boshqa ma’nolar ifodalaydi. Qiyoslang: *yozib oldi-yoza oldi, kelib qoldi-kela qoldi, aytib ko‘r-ayta ko‘rma.*

Yetakchi va ko‘makchi fe’ldan tashkil topgan analitik shakllarda ko‘makchi fe’l birdan ortiq bo‘lishi mumkin. Bunday hollarda ham har bir ko‘makchi fe’l o‘zidan oldingi fe’l bilan ravishdosh shakllari yordamida birikadi: *aytib berib tUa qol.* Ko‘makchi fe’l yordamida yasaluvchi analitik shaklning bir yetakchi va bir ko‘makchi fe’ldan hosil bo‘lgan turi juda ko‘p qo‘llanadi. Ikki va undan ortiq ko‘makchili shakl kam uchraydi. Birdan ortiq ko‘makchi fe’l qatnashgan shaklda har bir ko‘makchi fe’l o‘z ma’nosi bilan qatnashadi. Analitik shakl tarkibidan biror ko‘makchi fe’l tushirilsa, unga xos ma’no ham yo‘qoladi: *aytib berib tura qol - aytib berib tur - aytib ber.* Birdan ortiq ko‘makchi fe’lli analitik shaklda ravishdoshning *–(i)b* va *–a, -y* affiksi yordamida birikuvchi ko‘makchi fe’l ishtirok etsa, yetakchi fe’lga

avval *-(i)b* affiksi yordamida birikuvchi ko‘makchi fe’l, keyin *–a, -y* affiksi yordamida birikuvchi ko‘makchi fe’l qo‘shiladi: *yozib bera qol, yozib ko‘ra boshladi, ishlab tura ber* kabi.

Aynan bir ko‘makchi bilan yasalgan analitik shakldagi fe’llar uyushiq bo‘lak vazifasida kelganda, ko‘makchi fe’l uyushiq bo‘laklarning so‘nggisi bilan qo‘llanish hollari ham uchraydi: *Men uni bir necha yildan buyon yedirib, ichirib kelaman.*

13-§. To‘liqsiz fe’l. Hozirgi o‘zbek adabiy tilida fe’l va fe’l bo‘lmagan so‘zlar bilan qo‘llanadigan *edi, ekan, emish, emas, esa* kabi to‘liqsiz fe’llar mavjud. Bulardan *esa* to‘liqsiz fe’li bog‘lovchiga aylangan. To‘liqsiz fe’lning *edi, ekan, emish* shakllari ham harakat ma’nosiga ega emas. Ular mustaqil fe’llarga qo’shilib turli ma’nolarni ifodalaydi va mustaqil fe’llarni har xil grammatik vazifalarga xoslaydi. To‘liqsiz fe’llar ot, sifat, son, olmosh kabi mustaqil so‘zlarlar bilan ham, mustaqil fe’llar bilan ham qo‘llana oladi: *bog‘ edi, shular edi,besh edi, go‘zal ekan, kelgan ekan* kabi.

To‘liqsiz fe’l har bir shaklining o‘ziga xos xususiyati bilan birga ularning uchalasi uchun umumiy bo‘lgan xususiyatlar ham bor: 1) to’lnqsiz fe’llar mustaqil lug‘aviy ma’noga ega emas. Bu fe’llar tarixan

mustaqil ma’noli bo‘lsa-da, hozirgi paytda o’z ma’nosini yo‘qotib, yordamchi fe’lga aylangan; 2) to‘liqsiz fe’l o‘zicha harakat bildira olmasligi sababli fe’llarga xos bo‘lishsizlik, daraja, zamon kabi ma’nolarga va bu ma’noni ifodalovchi shakllarga ega bo‘la olmaydi; 3) garchi shaxs-son qo‘shimchalari to‘liqsiz fe’lga qo‘shilsa-da, ular bildirgan shaxs ma’nosi to‘liqsiz fe’lga emas, balki mustaqil fe’lga tegishli bo‘ladi: *xabardor ekan+man, xabardor ekan+san, bilgan edi+m, bilgan edi + ng; bilar emish+man, bilar emish+san.* Shu bois to‘liqsiz fe’l yakka holda tuslanmaydi.

To‘liqsiz fe’l shakllaridagi birinchi tovush *(e)* noturg‘un, u ma’lum fonetik sharoitlarda, boshqa tovushning ta’siri bilan yoki boshqa tovushga o‘tishi yoki tushib qolishi mumkin. Bu hodisa, ayniqsa, og‘zaki nutqda ko‘p uchraydi: *ishlar+di, ishlar+kan, ishlar+mish; ishlagan+akan, ishlasa+ydi.*

To‘liqsiz fe’l shakllari uyushiq kesimlar uchun umumiy bo‘lganda oxirgi kesim tarkibida qo‘llanadi. Bu kesimlar turli shakldagi fe’llar, shuningdek, otlar bilan ifodalanishi mumkin: *U Akmalning iztirob chekib yurganini ham bilar, lekin Gulsum ona bunchalik fig‘oni chiqib gapirishini birinchi ko‘rishi edi. (O. Yo.)*

14-§.Fe’llarning tuzilishiga ko‘ra turlari. Fe’llar tuzilishiga ko‘ra quyidagi turlarga bo‘linadi:

1.Sodda fe’llar bir o‘zak morfemadan iborat bo‘lgan tub: *o‘qi, kut, kel, ol* va yasama: *ishla, tozala, oqar, ko‘rsat* so‘zlardan tashkil topadi.

2. Qo‘shma fe’llar ikki o‘zak morfemaning birikishidan hosil bo‘ladi va tarkiban quyidagicha tuzilishga ega bo‘ladi: a) ot yoki boshqa turkumga oid so‘zlar+fe’l: *qaror qilmoq, ahd etmoq, taq etmoq, dod demoq, bayon qilmoq;* b) fe’l+fe’l: *ishlab olmoq, olib chiqmoq, borib kelmoq, sotib olmoq.* Zamon va shax-son qo‘shimchalari qo‘shma fe’lning ikkinchi qismiga qo‘shiladi: *borib keldim, olib chiqding* kabi. Bunday qo‘shma fe’llar ikkita mustaqil ma’noli fe’lning bir umumiy ma’no doirasida birlashuvi va leksikalizatsiyasi asosida shakllanadi;

3. Murakkab fe’llar mustaqil va yordamchi (ko‘makchi) fe’l-larning analitik shakli asosida shakllanadi. Bunda aslida mustaqil lug‘aviy ma’noli bo‘lgan ikkinchi fe’lning grammatikalizatsiyalashu-vi sodir bo‘ladi: *yuvib bo‘lmoq, ko‘rib qolmoq, bilib olmoq kabi.*

4. Juft va takroriy fe’llar. Fe’llarning juft va takroriy shakllari ham mavjud. Ular quyidagicha xususiyatlarga ega bo‘ladi:

1. Fe’lning turli ma’nolarga ega bo‘lgan analitik shaklini hosil qiladi: a) bir xil gammatik shaklga ega bo‘lib, fe’lning yetakchi ko‘makchi shaklini hosil qilib turli modal ma’nolar ifodalaydi: *aytdi-qo‘ydi, yozdi-qo‘ydi, o‘tdi-ketdi, qirdi-tashladi;* b) qismlari turli gammatik shaklga ega bo‘lgan mustaqil fe’llar takrorlanib, harakatni ta’kidlash, kuchaytirish uchun xizmat qiladi: *aytsam-aytay, borsang-bor, ketsang-ket, olsang-ol.*

2. Nutq jarayonida boshqa turkumga ko‘chgan (konversiyaga uchragan) holda ishlatiladi: a) fe’llarning juft va takorlanishi natijasida otga xos ma’no hosil qiladi: *qo‘ydi-chiqdi, oldi-berdi, dedi-dedi, keldi-ketdi;* b) ravishga ko‘chadi: *uzul-kesil, ag‘dar-to’ntar, bilinar-bilinmas, bora-bora, turib-turib, ura-sura, qotib-qotib*.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Fe’lning vazifadosh shakllarini tavsiflang.
2. Ravishdosh va uning turlarini vujudga keltiruvchi shakllar haqida ma’lumot Bering.

3. Sifatdosh va uning zamonga munosabatini ko‘rsatuvchi shakllar xususida nimalarni bilasiz?
4. Harakt nomi va uni vujudga Keltiruvchi shakllar haqida ma’lumot Bering.
5. Fe’lning modal ma’no ifodalovchi vositalari va ularning turlarini tavsiflang.
6. Ko‘makchi va yetakchi fe’llar, ularni birktiruvchi shakllar xususida gapiring.
7. Fe’lning tuzilishiga ko‘ra qanday turlarga bo‘linadi?

ZARURIY ADABIYOTLAR

1.Ш.Шоабдураќмонов, М.Асљарова, А.Ќожиев, И.Расулов, Х.Дониёров Ќозирги њзбек адабий тили. 1-љисм .Т., «Њљитувчи» 1980.

2.Њзбек тили грамматикаси. 1-том. Т., «Фан» 1975.

3.У.Турсунов, Ж.Мухторов, Ш.Раќматуллаев Ќозирги њзбек адабий тили. Т., «Њљитувчи» 1992.

4.М.Мирзаев, С.Усмонов, И.Расулов Њзбек тили. Т., «Њљитувчи» 1978.

15-MARUZA

RAVISH

1-§. Ravish harakat-holat belgisini bildiruvchi so‘z turkumidir. Shu xususiyatiga ko‘ra, ravish turkumiga oid so‘zlar, asosan, fe’lga bog‘lanib keladi. Ravishlar fe’l bildirgan harakat-holatning bajarilish tarzi, payti, o‘rni, maqsadi va shu kabilarni bildiradi: *Ag‘darilgan yerdan osmonga ko‘tarilgan chang har tomonga yelib, asta-sekin bulutlar orasiga singib ketdi.*

Ravishlar belgi bildiruvchi so‘z bo‘lgani uchun, ularning ba’zilari sifat yoki otga bog‘lanib kelishi mumkin: *U hozir beqiyos va tasavvur qilib bo‘lmas baxtiyor edi. (Sh.Sa’dulla)*

Ravishlarning o‘ziga xos morfologik belgilaridan biri, ularning o‘zgarmasligidir. Ravishlar biror so‘zga bog‘langanda, shakli o‘zgarmaydi. Ular tarkibida uchraydigan ko‘plik, egalik va kelishik affikslari o‘zining grammatik ma’nosiga ega bo‘lmay, ravishning o‘zak qismiga mansub bo‘ladi: Masalan: *birdan, birga, kunda, chalqanchasiga, birdaniga, yonlamasiga, qatorasiga* kabi ravishlardagi kelishik va egalik affikslari o‘z asl ma’no va vazifasini yo‘qotgan. Bu so‘zlar xuddi shu ko‘rinishda ravishga aylangan.

2-§.Ravishlarning ma’no jihatdan turlari. Ravishlar ma’no jihatdan quyidagi turlarga bo’lihadi: holat ravishi, payt ravishi, maqsad ravishi, miqdor-daraja ravishi.

Holat ravishi harakat-holatning qaytarzda yuz berishi, qanday usul bilan bajarilishi kabi ma’nolarni bildiradi: *bexosdan, tez(da), qo‘qisdan, sekin, astoydil, bekorga, piyoda, ketma-ket, arang, darhol, zimdan, bazur,qiyg‘os, zo‘rg‘a, birdan, boshqacha* kabilar. Holat ravish-lari gapda asosan vaziyat holi vazifasida keladi: *Zulfiya tabiat, turmush sinoviga mardonavor bardosh berdi.* Shuningdek, holat ravishi otga boqlanib, aniqlovchi, kesim vazifasida kelishi ham mumkin: *Jamiyat uchun yangicha ilm kerak. Auditoriya jimjit, hamma unga qarar edi. (P.Q)*

Payt ravishi ish-harakatning bajarilish paytini (vaqtini) bildiradi: *bugun, erta(ga), kecha, endigina, kecha-kunduz, avval, hozir, doim, erta-indin, oldin, so‘ng, hali, hamon, dastlab, kunduzi, qishin-yozin, kuni bilan* kabilar. Payt ravishlari gapda asosan payt holi vazifasida keladi: *Dadasi va ayasi unga kechasi matal aytib berishar edi. (Sh. Sa’-dulla.)*

O‘rin ravishi harakat-holatning bajarilish, yo‘nalish, chiqish o‘rnini bildiradi: *oldinda, olisda, yaqinda, yuqoriga, pastga, olisdan,*

yaqindan, unda-bunda, allaqayerda, allaqayerga, quyida kabilar. O‘rin ravishlari gapda o‘rin holi, ba’zan kesim vazifasida keladi: *Bunda bulbul kitob o‘qiydi (H.O). Obodonchilik sohasidagi katta ishlar oldinda. (O.)*

Maqsad ravishi harakatning bajarilish maqsadini, nima uchun bajarilnshini bildiradi: *atay, ataylab, atayin, qastdan, jo‘rttaga, azza-bazza kabilar.* Maqsad ravishi gapda maqsad holi vazifasida keladi: *Nachora, buni jurttaga qiluvdik. (M.Ism.)*

Xarakatning bajarilish maqsadi *uchun, deb* yordamchi so‘zlari va -gani affiksli ravishdosh yordamida aniq ifodalanadi (*o‘qish uchun kelgan, yordamlashay deb keldim, o‘qigani keldi).* Shu sababli o‘zbek tilida maqsad ifodalovchi ravishlar kamdir.

Miqdor-daraja ravishi harakatining yoki belgining miqdorini, narsaning noaniq miqdorini ifodalash uchun xizmat qiladi. Miqdor-daraja ravishlari: *ko‘p, oz, kam, bir oz, sal, picha, qittak, xiyol* kabi harakatning miqdoriy belgisini ifodalovchi hamda *juda, g‘oyat, nihoyatda, har qancha, obdan, ozmuncha, aslo, sira, hech* kabi harakat belgisini darajalovchi ravishlardan tashkil topadi. Ular ma’no jihatdan quyidagicha ikki guruhni tashkil qiladi:

Harakat belgisini kuchaytiruvchi ravishlar: *eng, juda, nihoyatda, g‘oyatda, yanada, tag‘in, tamomila, uncha-muncha, ozmuncha, o‘ta, lang, qoq, zir* singari tasdiq bildiruvchi ravishlardan, *hech, sira, aslo, zinhor, hargiz, hadeganda* kabi inkor bildiruvchi ravishlardan iborat.

Harakat belgisini susaytiruvchi ravishlar: arang, zo‘rg‘a, zo‘rbazo‘r, xiyol, sal, sal-pal, chor-nochor kabilar.

Miqdor - daraja ravishlari gapda ko‘pincha hol, ba’zan otga bog‘lanib sifatlovchi aniqlovchi vazifasida keladi: *Ko‘p gap quloqqa yoqmas. O‘rmonjon akamning bir gapi sira-sira esimdan chiqmaydi. (A.Q.)* Otlashganda esa to‘ldiruvchi va qaratqich aniqlovchi vazifasini bajaradi: *Ko‘pdan quyon qochib qutulmas.* Ravishning bu turi kesim vazifasida kelishi ham mumkin: *Bahorda dehqon uchun vaqt oz, biroq ish ko‘p.*

3-§.Ravish darajalari. Sifatlar singari ravishlar ham turli darajaga ega bo‘lishi yoki darajalanmasligi mumkin. Masalan, *tezroq chopmoq, juda sekin yurmoq* kabilarda harakatning tezlik darajasi har xil, lekin *hamisha, arang, zo‘rg‘a* kabilar bildirgan belgi darajalanmaydi.

Ravish bildirgan belgi darajasining ortiq-kamligi xuddi sifatlardagi kabi ifodalanadi. Masalan: belgining ortiq darajasi maxsus so‘zlar yordamida ifodalanadi: *juda tez uchadi, nihoyatda sekin.*

Belgining ozaytirma darajasi–roq, -gina affikslari yordamida ifodalanadi: *sekinroq gapir, keyinroq keldi, hozirgina keldim, salgina kechikding, ozgina oldi* kabi.

Ravishlarda belgining ko‘chli darajasi takroriy shakl vositasida ifodalanishi ham mumkin: a) so‘zning to‘liq takrori orqali: *juda-juda, tez-tez, zo‘rg‘a-zo‘rg‘a, zinhor-zinhor, hali-hali, sira-sira, endi-endi;* b) qisqa takror orqali: *kuppa-kunuzi, to‘ppa-to‘g‘ri, bab-baravar, chippa-chin.*

4-§. Ravishlarning tuzilishiga ko‘ra turlari. Ravishlar tuzilishiga ko‘ra: sodda, qo‘shma, juft, takroriy ravishlarga bo‘linadi.

1.Sodda ravishlar bir o‘zak morfemadan iborat bo‘ladigan a) tub: *tez, sekin, kam;* b) yasama: *qahramonlarcha, ojizona, yangicha, ko‘plab* singari so‘zlardan iborat bo‘ladi.

2.Qo‘shma ravishlar mustaqil so‘zlarning birikishi orqali hosil bo‘ladi: *har vaqt, bir zum, hech qachon, allamahal*.

3.Juft ravishlar umumlashtirish, taxmin kabi ma’nolarga ega bo‘ladi va quyidagicha tuziladi: 1) sinonim so‘zlardan: *eson-omon, asta-sekin, ochiq-oydin, uzul-kesil*; 2) antonim so‘zlardan: *erta-kech, tunu kun, yozin-qishin.*

4. Takroriy ravishlar ma’noni kuchaytiradi va quyidagicha tuziladi: 1) tub ravishlarning takroridan: *tez-tez, endi-endi, asta-asta, kam-kam, keyin-keyin;* 2) –ma\ -ba unsurlari yoki chiqish va jo‘nalish kelishiklarini olgan so‘zlar takrori asosida: *yuzma-yuz, ketma-ket, bekordan-bekor, kamdan-kam, zo‘r-bazo‘r, naridan-beri.*

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Ravishning boshqa mustaqil so‘zlar bilan umumiy va farqli belgilari nimalarda ko‘rinadi?
2. Ravishning ma’no jihatdan qanday turlarini bilasiz?
3. Ravish va sifatlarning o‘xshash xususiyatlarini tavsiflang.
4. Ravish va ravishdoshlarni qiyosiy tahlil qiling.
5. Ravishning ma’no turlarini hosil qilishda boshqa turkumlarning ishtirokini izohlang.
6. Ravishning tuzilishiga ko‘ra turlari xususida nimalarni bilasiz?

ZARURIY ADABIYOTLAR

1.Ш. Шоабдураќмонов, М.Асљарова, А.Ќожиев, И.Расулов, Х.Дониёров Ќозирги њзбек адабий тили. 1-љисм .Т., «Њљитувчи» 1980.

2. У.Турсунов, Ж.Мухторов, Ш.Раќматуллаев Ќозирги њзбек адабий тили. Т., «Њљитувчи» 1992.

3. М.Мирзаев, С.Усмонов, И.Расулов Њзбек тили. Т., «Њљитувчи» 1978

16-MA'RUZA

YORDAMCHI SO'ZLAR

16.1. Ko'makchilar

Ot, olmosh, harakat nomi va sifatdoshdan keyin kelib, ularni boshqa so'zga (ko'pincha fe'lga) grammatik jihatdan tobelanishini ta'minlaydigan so'zlar ko'makchi deyiladi. Ko'makchilar gapda o'zidan oldingi mustaqil so'zlar bilan birikib ularga vosita, maqsad, sabab, payt, makon kabi ma'nolarni qo'shadi va shu so'zlar bilan birga bitta gap bo'lagi vazifasini bajaradi.

Ko'makchilar kelib chiqishiga ko'ra: sof ko'makchilar va vazifadosh ko'makchilardan iborat bo'ladi:

1) **sof ko'makchilar** lug'aviy ma'nosini batamom yo'qotgan: *bilan, uchun, kabi, singari, uzra, sayin, qadar* singari so'zlarni o'z ichiga oladi;

2) **ko‘makchi vazifasida qo‘llanadigan so‘zlarga** *tomon, boshqa, sababli, orqali, tufayli, qarab, qaramay, so‘ng, tashqari, beri, ko‘ra, chog‘li, uzra* singari so‘zlar kiradi.

Ko‘makchi vazifasida qo‘llanadigan so‘zlar guruhi tarkiban qo‘yidagi mustaqil so‘zlarning nutqda ko‘makchi vazifasida ishlatilishi, ya’ni grammatikalizatsiyalashuvi natijasida yuzaga keladi: **a) ot ko‘makchilar** nutqda ham mustaqil ma’noda, ham ko‘makchi vazifasida ishlatiladigan ot, sifat yoki ravish turkumiga mansub bo‘lgan quyidagi so‘zlardan tashkil topadi: *tomon, tashqari, bo‘yi, chamasi, holda, yo‘sinda* kabi otlardan; *sababli, tufayli, orqali, qarshi, chog‘li, doir, muvofiq, o‘zga, boshqa* kabi sifatlardan; *burun, ilgari, keyin,beri, buyon,asosan, binoan, so‘ng* singari ravishdan iborat bo‘ladi; **b) fe’l ko‘makchilar** sifatdosh yoki ravishdosh shakllaridagi fe’llardan birining nutqda ko‘makchi vazifasida ishlatilishi natijasida yuzaga keladi. Ular: *ko‘ra, yarasha, qarab, qaramasdan, qaramay, boshlab, tartib, qaraganda, qarata, degan, osha, deydigan* kabi so‘zlardan iborat.

Ko‘makchilar o‘zgarmaydi, ya’ni turlanmaydi yoki boshqa turkumlardan yasalmaydi. Ayrim kelishikdagi so‘zlarni boshqaradi. Shunga ko‘ra, ko‘makchilar quyidagi guruhlarni tashkil qiladi:

1. Bosh kelishikdagi so‘z (ba’zan qaratqich kelishigidagi olmosh) bilan qo‘llanadigan ko‘makchilar: *bilan, uchun, kabi, singari, sari, orqali, sayin, bo‘ylab, bo‘yicha, uzra, yanglig‘, tufayli, chog‘li, osha, bo‘yicha* kabilar. Bu guruhga mansub ko‘makchilar quyidagi munosabatlarini ifodalaydi:

Bilan ko‘makchisi birgalik, hamkorlik, qurol, vosita, jarayon yoki harakatning sodir bo‘lish holati kabi ma’nolarni va harakat nomlari bilan birga kelib, bir harakat ketidan ikkinchisining tez boshlanishi ma’nosini bildiradi. *Bilan* ko‘makchisi badiiy adabiyotda *birlan, birla, -ila, -la* tarzda ham ishlatiladi. Bunday holda u o‘zakdan chiziqcha bilan ajratilib yoziladi: *Sen-la ko‘nglim har on bo‘lur shod*.

Uchun ko‘makchisi maqsad, sabab, atalganlik, evaz kabi ma’nolarni ifodalaydi va ot, olmosh, harakat nomidan keyin keladi: *insoniyat uchun qayg‘urmoq, o‘qimagani uchun tushunmaslik, kitoblarni sen uchun oldim. yashash uchun kurashmoq.*

Uchun ko‘makchisi she’riyatda chun tarzda ham ishlatilai. Bunday holda -chun o‘zkdan chiziqcha bilan ajratiladi. Shuningdek, uchun ko‘makchisi -gina, -dir affikslarini ham olishi mumkin: *Lekin nima uchundir uning bu yovuz maqsadi hech ijobat topmasdi.*

Kabi, singari, yanglig‘, misli (misol) ko‘makchilari o‘xshatish, solishtirish, qiyoslash ma’nosini ifodalashiga ko‘ra ma’nodoshdir: *xamirdan qil sug‘urgan (kabi) singari yengil.*

Sayin ko‘makchisi vaqt bildiruvchi so‘zlar bilan birga kelib, ish-harakatning muayyan vaqt ichida yoki harakatning bir yo‘la sodir bo‘lishi, davomiylik kabi ma’nolarni ifodalaydi: *Respublikamiz yil sayin gulga burkanmoqda. Do‘l borgan sayin kuchaymoqda edi.*

Sari ko‘makchisi ish-harakatning yo‘nalishini ifodalaydi. Bunda *sari* ko‘makchisi *tomon* ko‘makchisiga sinonim bo‘lishi mumkin: *kucha sari - kucha tomon, yorug‘lik sari - yorug‘lik tomon.*

Sababli, tufayli ko‘makchilari sodir bo‘layotgan ish-harakatning sababini bildiradi: *U shunday qadrli mehmon kelishini oldinroq* ***bilmagani sababli*** *tayyorgarlik ko‘ra olmaganidan xijolatda edi.*

Orqali ko‘makchisi ish-harakat sodir bo‘lishda vosita bo‘lgan narsani yoki ish-harakat sodir bo‘lishida vosita bo‘lgan o‘rin ma’nosini ifodalaydi:. *Salimjon uyiga* ***paxtazor orqali q****aytdi.*

Osha, bo‘ylab, uzra ko‘makchisi: 1.Ish-harakatning boshqarilgan so‘zdan anglashilgan vaqt davomida sodir bo‘lishini ifodalaydi: *Yillar osha gurkiraydi jonajon Vatan*. 2.Ish-harakatning boshqarilgan so‘zdan anglashilgan o‘rin bo‘ylab sodir bo‘lishini anglatadi: *Oltin*

vodiylar osha(uzra) *yangrasin qo‘shiq.* ***Jahon*** *bo‘ylab(uzra) yangrar bir ovoz.*

Bo‘yicha//bo’yincha ko‘makchisi: 1) moslk, mutanosiblik ma’nosini ifodalaydi: *Darslar o‘quv jadvali bo‘yicha olib boriladi.*2) chegaralash ma’nosini bildiradi: *Rektorning xo‘jalik shilari bo‘yicha o‘rinbosari.*

2. Jo‘nalish kelishigidagi so‘z bilan qo‘llanadigan ko‘makchilar: *qadar, dovur, ko‘ra, qarab, qaraganda, yarasha, tomon, qarshi, doir, binoan, qarata* kabilar. Bu ko‘makchilar yo‘nalish, chegara, o‘lchov, sabab, maqsad munosabatlarini ifodalaydi.

Tomon ko‘makchisi makon va payt munosabatini ifodalaydi va quyidagi ma’nolarni ifodalaydi: 1) yo‘nalish bildiradi: *U yo’lakka tomon yurib keldi.* 2) payt bildiruvchi so’zlar bilan birga kelib, taxminiy vaqtni bildiradi: *Kechga tomon talabalar tarqalishdi.*

Qadar ko‘makchisi ish-harakatning o‘rin va vaqt jihatidan chegarasini ifodlaydi:*kechga qadar, peshinga qadar, maktabga qadar.*

Ko‘ra ko‘makchisi sabab, ayirib, ta’kidlab ko‘rsatish ma’nosini ifodalaydi: *Uning mo‘ljaliga ko‘ra Siddiqjon yana qasam ichiish, yur deb qistashi kerak edi. (A. Q.)*

Bu ko‘makchi *chiqish* kelishigidagi so‘zlar bilan birga kelganda qiyoslash, solishtirish ma’nosi anglashiladi: *O‘rtadan ko‘ra pastroq.*

Qarshi ko‘makchisi zidlik ma’nosini bildiradi: *Baxtga qarshi bugun eng orqaga o‘tirdim.*

Qarab ko‘makchisi quyidagi ma’nolarni anglatadi: 1) harakat yo‘nalgan tomon ma’nosini: *Nega kimsasiz sohilga qarab ketayotganini o‘zi bilmas edi.* Bu ma’noda *qarab* ko‘makchisiga *tomon* ko‘makchisi sinonim bo‘lishi mumkin: *qishloqqa qarab ketdi - qishloqa tomon ketdi.* 2) asos, miqdor, o‘lchov ma’nosini: *Ishlaganiga qarab haq oladi.* Bu ma’noda *qarab* ko‘makchisi o‘rnida *yarasha* ko‘makchisi qo‘llanishi

mumkin: *mehnatiga qarab- mehnatiga yarasha.*

Bulardan tashqari, ***qaraganda*** ko’makchisi ayirib ko‘rsatish, ta’kidlash, qiyos, solishtirish ma’nosini; ***qaramasdan, qaramay*** ko‘makchisi to‘siqsizlik ma’nosini; ***yarasha*** ko‘makchi teng, mos, loyiq, monand ma’nolarini; ***doir*** ko‘makchisi aloqadorlik, bog‘liqlik ma’nosini, *asosan, binoan;* ***muvofiq*** ko‘makchisi biror ish-harakatning sodir bo‘lishida asos, tayanch, manba bo‘lgan obyekt ma’nosini, ***qarata*** ko‘makchisi ish-harakat yo‘nalgan narsa, shaxs, joy, tomon ma’nosini bildiradi.

Chiqish kelishigidagi so‘z bilan qo‘llanadigan ko‘makchilar: *ilgari, burun, avval, keyin, bari, buyon, boshqa, tashqari, boshlab, tortib, bo‘lak, o‘zga* kabilar.

So‘ng ko‘makchisi ish-harakatning tugallanishini bildiradi: *ishdan so‘ng, darsdan so‘ng* kabi. Bu ko‘makchi chiqish kelishigidagi *u, bu, shu* olmoshlari bilan birga kelganda biror ish-harakatdan keyin ikkinchisi sodir bo‘lganini anglatadi: *Shundan so‘ng Gulnor har minut sayin kulaverdi. (O.)*

Keyin ko‘makchisi *so‘ng* ko‘makchisining sinonimi hisoblanadi. Keyin ko‘makchisi *so‘ng* ko‘makchisidan farqli ravishda sabab, ta’kid bildirishi ham mumkin. Masalan: *Yurtning og‘zi kattasi bo‘lgandan keyin har nima qilish qo‘lidan keladi. (A.Q.)*

Boshqa, tashqari, bo‘lak, o‘zga ko‘makchilari mustasnolik ma’nosini ifodalaydi: *Kampir anhorga tikildi, nishab oqayotgan suvda o‘zining aksidan boshqa(tashqari,bo‘lak) hech narsa ko‘rinmadi. (I.R.) Sendan o‘zga jonon ko‘rinmas ko‘zga. (Muqimiy.)*

Beri, buyon ko‘makchilari ko‘pincha harakatning boshlanish vaqti bilan bog‘liq bo‘lgan payt oralig‘i ma’nosini ifodalaydi: *Undan bir oydan beri (buyon) darak yo‘q.*

Shuningdek, *nari (nariga)* ko‘makchisi ish-harakatning chegarasi yoki darajasini, *burun, ilgari* ko‘makchilari ish-harakatning o‘tgan zamonda sodir bo‘lganligini, *boshlab, tortib* ko‘makchilari esa ish-harakatning sodir bo‘lishidagi boshlang‘ich vaqt, o‘rini, manbai ma’nolarini ifodalash uchun xizmat qiladi.

Ko‘makchi otlar o‘zining leksik ma’nolarini saqlagan mustaqil so‘z bo‘lishiga qaramay, ularning ma’nolari ko‘pincha metaforik usulda ko‘chgan holda yordamchi so‘zlar kabi munosabatlarni bildirib keladi. Xususan, *ost, ust,old, orqa, yon, ich, ora, bosh, o‘rta* so‘zlari ko‘makchi otlardir. Ko‘makchi otlar, asosan, belgisiz qaratqich kelishigidagi so‘z-dan keyin kelib, mazkur so‘zlarni o‘zi o‘rin-payt va chiqish kelishigi hamda egalik qo‘shimchalarini qabul qilgan holda fe’lga bog‘lash uchun xizmat qiladi: *yer ostidan qaramoq, bir hafta ichida uchrashmoq* kabi. Ko‘makchi ot vazifasida keluvchi bu so‘zlar belgili qaratqich kelishigi-dagi ot bilan birikkanda, o‘z mustaqil lug‘aviy ma’nosini saqlaydi. Masalan *uyning ichida, binoning yonida, poydevorning ostidan* kabi.

16.2. Bog‘lovchilar.

1-§. Bog‘lovchilar gapdagi uyushgan bo‘laklarini va qo‘shma gap tarkibidagi sodda gaplarni bir-biriga bog‘laydigan yordamchi so‘zlardir.

Masalan: *Haqiqat va to‘g‘rilikni sevuvchi odamlar doimo vijdon amriga bo‘ysunadilar.*

Bog‘lovchilar qo‘llanishiga ko‘ra ikki turli bo‘ladi: 1) yakka bog‘lovchilar uyushgan bo’laklar va ayrim gaplar orasida yakka holda qo‘llanadi: *va, hamda, ammo, lekin, biroq, balki, holbuki, vaholanki, yoki, yoxud, yo, gar, agar, agarda, basharti, chunki, garchi, go‘yo, go‘yoki, -ki, -kim;* 2) takroriy bog’lovchilar bir gapda ikki yoki undan ortiq o‘rinda gap bo‘laklari bilan, shuningdek, qo‘shma gaplarda ayrim sodda gaplar bilan birga aynan takrorlanadi: *dam..., dam, ba’zan..., ba’zan, ham..., ham, bir..., bir, yoki..., yoki, yo..., yo, goh..., goh, xoh...., xoh.*

Takroriy bog’lovchilar takrorlangan gap bo‘lagi yoki ayrim gaplarning oldida qo‘llanadi. Takroriy bog‘lovchilarning bir qismi yakka holda ham qo‘llanishi mumkin. Masalan, *yo, yoki* bog‘lovchilari ana shunday bog‘lovchilardandir: *Sen bu gaplardan xabaring yo‘q, yoki bilib bilmaslikka olayapsan.*

Takroriy borlovchilarning ayrimlari faqat takrorlangandagina bog‘lovchi hisoblanadi, yakka qo‘llanganda esa o‘zi mansub bo‘lgan so‘z turkumiga taalluqli bo‘ladi. Masalan:*bir.....bir* bog‘lovchi, *bir* — son, *ham... ham* bog‘lovchi, ham — yuklama, *ba’zan.... ba’zan* bog‘lovchi, *ba’zan* — ravish kabi.

Bog‘lovchilar grammatik jihatdan o‘zgarmaydi va lug‘aviy ma’noga ham ega emas. Ular o‘zi bog‘lagan ayrim so‘zlar va sodda gaplarni o‘zaro qanday munosabatda ekanliklarini, shuningdek, shu munosabatlarning xilini ko‘rsatadi. Shunday vazifasiga ko‘ra bog‘lovchilar teng va ergashtiruvchi bog‘lovchilarga bo‘linadi.

2-§.Teng bog‘lovchilar gap bo‘laklari va sodda gaplarni teng munosabatda bog‘laydi. Ular quyidagicha turlarga bo‘linadi: 1) biriktiruv; 2) zidlov; 3) ayiruv; 4) inkor bog‘lovchilar.

1. Biriktiruv bog‘lovchilar *va, hamda* so‘zlaridan iborat bo‘lib, ular gapning uyushiq bo‘laklarini yoki sodda gaplarni o‘zaro bog‘laydi.

Va bog‘lovchisi qo‘shma gan tarkibidagi sodda gaplarni bir-biriga bog‘laganda: a) o‘zi bog‘lagan sodda gaplarda ifoda qilingan ish-hrakat, voqea va hodisalarning bir vaqtda bo‘lganini ko‘rsatadi: *Soy g‘o’villab oqar va uning suvi qirg’oqda o‘sgan o‘tlarni silkitar edi. (O.);* b) ish-harakatning ketma-ket bo‘lganini ko‘rsatadi: *Bahor keldi va daraxtlar gullay boshladi*.

Hamda bog‘lovchisi sodda gaplar va uyushgan bo‘laklarni o‘zaro teng munosabatda bog‘laydi.Uyushgan bo‘laklarning oxirgisidan oldin kelganda, uyushgan bo‘laklar orasidagi tenglikni ko‘rsatish bilan birga,

oxirgi uyushgan bo‘lakni ajratib ham ko‘rsa tadi: *Anvar, Qodir, G‘olib* ***hamda*** *Ruxsoralar guruhimiz a’lochilaridir.*

Bulardan tashqari, *bilan* ko‘makchisi, *-yu, -u, -da, ham* yuklamalari shunday vazifada qo‘llanishi mumkin. Ushbu birliklar ana shu vazifasiga ko‘ra biriktiruv bog‘lovchilarga sinonim hisoblanadi: *ota va ona, ota bilan ona, ota - yu ona* kabi. *Ham* uyushgan bo‘laklarning oldida yoki oxirida takrorlanib kelishi mumkin. U faqat uyushgan bo‘laklarning oldida kelgandagina bog‘lovchi sanaladi: *Ham qo‘rqaman, ham bilgim keladi.*

2. Zidlov bog‘lovchilar mazmunan bir-biriga zid bo‘lgan gap va gap bo‘laklarini o‘zaro teng bog‘laydi. Ularga *ammo, lekin, biroq* so‘zlari kiradi. Bundan tashqari, qo‘shma gap tarkibidagi sodda gaplarni va undagi uyushiq bo‘laklarni zidlash asosida teng bog‘lashda - u, (-yu) yuklamalari ham zidlov bog‘lovchilarga sinonim sifatida qo‘llaniladi: *O‘qidi, biroq yozmadi - o‘qidi - yu, yozmadi.*

O‘zbek tilida *lekin, ammo, biroq, balki, holbuki* kabi zidlovchi borg‘lovchilardan keng foydalaniladi:*Uy kichkina, lekin yorug‘ va toza edi. (O.) Tiniq osmonda yulduzlar miltirar, biroq oy ko‘rinmasdi. (O.)*

Shuningdek, badiiy adabiyot tilida *a* zidlov bog‘lovchi ham uchraydi. Bu bog‘lovchi qo‘shma gap tarkibidagi sodda gaplarni

bog‘lab, ular orasidagi zid munosabatlarni ifodalaydi: *Men-ku boraman, a siz-chi?*

Biriktiruv va zidlov bog‘lovchilar bilan grammatik sinonim bo‘ladigan **–u, -yu, -da, ham, bilan** yordamchilari **vazifadosh bog‘lovchilar** deb yuritiladi**.**

3. Ayiruv bog‘lovchilar uyushiq bo‘laklarni yoki gap bo‘laklarini bir - biridan ajratib, ta’kidlab bog‘laydi. Hozirgi o‘zbek adabiy tilida ko‘p qo‘llanadigan ayiruvchi bog‘lovchilar: *yo, yoki, yoxud, yoinki, yo..., yo..., goh..., goh; dam..., dam; bir..., bir; ba’zan...., ba’zan; xoh., xoh.*

Bulardan *yo, yoki, yoxud, yoinki* bog’lovchilari uyushgan bo‘laklarning birini ikkinchisidan, biror voqea, hodisa yoki ish-harakatni boshqasidan ayirib ko‘rsatish uchun ishlatiladi. *U ham ko‘p o‘tmay yo injener, yoki o‘qituvchi bo‘lib ishlashi mumkin. (O.)*

goh..., goh; dam..., dam; bir..., bir; ba’zan..., ba’zan bog‘lovchilari esa, uyushgan bo‘laklarning yoki qo‘shma gan tarkibidagi sodda gaplarning oldida takrorlanib kelib, ularni ayiruv yo‘li bilan bog‘laydi: *Dam qor yog‘adi, dam yomg‘ir tomchilaydi*.

4. Inkor bog‘lovchisi *na* so‘zidan iborat bo‘lib, uyushiq bo‘laklarni yoki qo‘shma gap tarkibidagi sodda gaplarni inkor ma’nosi

orqali bog‘lab, takrorlangan holda qo‘llanadi: *U hozir na odamlarni, na ularning gapini pisand qilardi. Unda na insof bor, na diyonat.*

2-§. Ergashtiruvchi bog‘lovchilar ergashgan qo‘shma gap tarkibidagi qismlarni ergashtirish, tobelash yo‘li bilan bog‘laydi. Ergashtiruvchi bog‘lovchilar quyidagi turlarga bo‘linadi:

1. Aniqlov bog‘lovchilari *(ya’ni, -ki(-kim)* ergash gaplarni bosh gapga bog‘lash uchun ishlatilib, bosh gapda ifodalangan fikrni aniqlab, izohlab ko‘rsatadi: *Deydilarkim, oyda ham dog‘ bor (U).*

2. Sabab bog‘lovchilari *chunki, shuning uchun* ergash gaplarni bosh gapga bog‘lab, sabab, natija ma’nolarini ifodalaydi. Masalan: *Biz o‘z vatanimizni sevamiz, shuning uchun uning tarixini yaxshi bilmog‘imiz zarur.*

3. Shart bog‘lovchilari *agar, gar, agarda, basharti, mabodo, garchi* shart va to‘siqsiz ergash gaplarning bosh gapga bo‘lgan munosabatidagi shartni, shu bilan birga, to‘siqsizlik ma’nolarini anglatadi: *Gar shu eshitganim bo‘lmasa ro‘yo, Sen ona emassan, dorsan tabiat (A.O).*

4. Chog‘ishtiruv bog‘lovchilari *go‘yo, go‘yoki* bosh gapda ifodalangan fikrni ergash gapdagi fikr bilan qiyoslab ko‘rsatadi:

Oppoqqina nozik yuzi quyoshda shunday tiniq ko‘rindiki, go‘yo u nurdan yaratilganday (O.)

Bulardan tashqari, boshqa turkumga oid ba’zi so‘zlar ham bog‘lovchi vazifasida qo‘llanadi. Masalan: *bordiyu* shart bog‘lovchi vazifasida *(**Bordiyu** hayotda uchratolmasam, uylab xayolimda yaratardim); deb* maqsad bog‘lovchisi vazifasida (*Hosilimiz mo‘l bo‘lsin **deb**, tinimsiz mehnat qildik*) ishlatiladi. Bunday bog‘lovchilar ham **vazifadosh bog‘lovchilar** deb yuritiladi**.**

16.3. Yuklama

Yuklamalar mustaqil so‘zlarga yoki gapga qo‘shimcha ma’no berish uchun xizmat qiladigan yordamchi so‘zlardir. Yuklamalar so‘z o‘zgarish xususiyatiga ega bo‘lmagan yordamchi so‘zlardandir. Ular tuzilishiga ko‘ra ikki xil bo‘ladi: 1) so‘z yuklamalari: *hatto, faqat, nahotki, axir, kabilar*; 2) affiks yuklamalar: *-gina, -mi, -chi, -a (-ya) -ku, -yu, -u* kabilar.

Yuklamalar ma’nolariga ko‘ra quyidagi guruhlarni tashkil etadi:

1. So‘roq va taajjub yuklamalari: -mi, -chi, -a, -ya. Bu yuklamalar so‘zlarga yoki gaplarga taalluqli bo‘lib, asosan gapni

so‘roq gapga aylantiradi. Shuningdek, so‘zga yoki gapga quyidagicha qo‘shimcha ma’no bo‘yoqlar qo‘shadi:

-mi yuklamasi: 1) taajjub, hayrat, e’tiroz bilan birga so‘roq, ma’-nosini anglatadi: *Yopiray, shunday sovuq kuni ham suvga tushib bo‘ladimi?* 2) noaniqlik, gumon ma’nosini ifodalaydi: *Bu kitobni Olimdami, Abrordami ko‘rgan edim, shekilli.*

-chi yuklamasi: 1) buyruq, do‘q, iltimos bildiradi. Bunda -chi ko‘pincha buyruq maylidagi fe’llar bilan birga keladi: *qani yonimga yaqinlashib ko‘r-chi(do‘q)*; *qani, qalamingni berib tur-chi* (iltimos); *avval kitobni o‘qib ko‘ray-chi(xohish*); 2) shart maylidagi fe’llar bilan birga kelganda ham qistash, istak, iltimos kabi ma’nolarni bildiradi:*Tez yursang-chi* (qistash), *dadam uyda bo‘lsalar-chi* (shubha, gumon), *yaxshisi, sen biznikiga kelsang-chi* (taklif).

-a(-ya) yuklamasi: 1) so‘roq va turli his-hayajon anglatadi: *Ertaga darsga boramiz-a?* (so‘roq). *Oh, naqadar so‘lim joylar-a! Qo‘ziqorin bo‘lsa ham, xuddi quyrqqa o‘xshaydi-ya!*

2.Kuchaytiruv yuklamalari: nahotki, nahot, axir, hattoki, hatto, -oq, -yoq, -ki, -kim. Bu turdagi yuklamalar so‘zlarga kuchaytirish, shuningdek, ta’kid ma’nosi qo‘shish uchun ishlatiladi: *Nahot ishq qismati buncha berahm, Bunchalar buyuksan vafo shevasi. (A.O)*

3. Ta’kid yuklamalari: ham,-ku, -da, -u (-yu).

***ham* yuklamasi**. 1) ko‘pincha o‘zi ta’kidlab ko‘rsatadigan so‘zlardan (ot, sifat, olmosh, fe’l, ravishdan) keyin keladi: *Uni ham o‘qitaman, o‘zim ham o‘qiyman;* 2) ba’zan gapda ko‘makchili birikmani ta’kidlab keladi: *Bugun uning ovqat bilan ham ishi bo‘lmadi.* 3) to‘siqsizlik ma’nosini bildiradi: *Havo bulut bo‘lib turgan bo‘lsa ham, yomg‘irdan darak yo‘q edi;* 3) *ham* yuklamasi -yam shaklida (unlidan so‘ng) va h undoshi tushgan holda qo‘llanishi mumkin. Bunday choqda u o‘zi aloqador bo‘lgan so‘zga qo‘shib yoziladi: *Bunday kitoblarga qiziqmayam qo‘ydim.*

-da yuklamasi shart maylidagi fe’llardan so‘ng kelib, to‘siqsizlik ma’nosini anglatadi va *ham* yuklamasi bilan sinonim bo‘ladi: *Yosh bo‘lsa-da, bosh edi (yosh bo‘lsa ham, bosh edi).*

-u(-yu) yuklamasi aniqlik maylidagi fe’llardan so‘ng kelib, ish-harakatning bajarilishidagi tezlik va davomlilik ma’nosini bildiradi: *Keldi-yu, ketdi* (tezlik).

2. Ayiruv va chegaralov yuklamalari (-gina, -kina, -qina, faqat). Bunday yuklamalar turli so‘z turkumlari bilan kelib, ularni chegaralab ko‘rsatish, ajratish uchun qo‘llanadi: *Faqat odamlar uchun qilingan mehnatgina baxt keltiradi.*

Faqat yuklamasi o‘rnida *yolg‘iz* so‘zi qo‘llanishi ham mumkin: *Uning ermagi yolg‘iz kitoblar bo‘ldi.*

3.Aniqlov yuklamasi: *xuddi, naq.* Bunday yuklamalar o‘zi birikkan so‘zning ma’nosini aniqlash, qiyoslab ko‘rsatish uchun qo‘llanadi.

***Xuddi* yuklamasi**: a) qiyoslash asosida aniqlab ko‘rsatish uchun ishlatiladi: *O‘g‘li otasining xuddi o‘zi edi;* b) o‘xshatish ma’nosini bildiradi va -dek, -day affiksi bilan yasalgan yoki *kabi, singari* ko‘makchilari bilan birga boshqarilgan otlar va olmoshlardan oldin keladi: *Tevarak-atrof xuddi suv quygandek jim-jit edi.*

naq yuklamasi ham *xuddi* yuklamasi bilan ma’nodoshlikka ega bo‘ladi: *Itlarning ulushi naq miyasida shang‘illab turadi (As. M.).*

4.Gumon yuklamasi: -dir. Barcha so‘z turkumlariga qo‘shilib kela oladi va u o‘zi aloqador so‘zga gumon, noaniqlik ma’nosini qo‘shadi: *Akam uydadir, Imtihon ertagadir* kabi.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. So‘zlarni turkumlarga ajatishning lingvistik tamoyillari xususida nimalarni bilasiz?
2. Mustaqil va yordamchi so‘zlarni taqqoslab tushuntiring.

3. Yoramchi so‘zlarning o‘ziga xos ichki qonuniyatlari asosida yuzaga keluvchi farqlar xususida nimalar bilasiz?
4. Ko‘makchilar va ularning grammatik ma’no va vazifalarini tavsiflang.
5. Bog‘lovchilar va ularning ma’no turlari o‘rtasidagi tafovutni tushuntiring.
6. Yuklamalar qanday ma’no turlarga ega?
7. Bog‘lovchi va yuklamalar o‘rtasidagi vazifadoshlik haqida ma’lumot bering.

ZARURIY ADABIYOTLAR

1.Ш. Шоабдураќмонов, М.Асљарова, А.Ќожиев, И.Расулов, Х.Дониёров Ќозирги њзбек адабий тили. 1-љисм .Т., «Њљитувчи» 1980.

2.У.Турсунов, Ж.Мухторов, Ш.Раќматуллаев Ќозирги њзбек адабий тили. Т., «Њљитувчи» 1992.

3.М.Мирзаев, С.Усмонов, И.Расулов Њзбек тили. Т., «Њљитувчи» 1978.

4.N.Mahmudov, A.Nurmonov,A.Sobirov, D.Nabiyeva, A.Mirzaahmedov Ona tili. Umumta’lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik. T., «Ma’naviyat» 2005.

17-MA’RUZA

ALOHIDA YORDAMCHI SO‘ZLAR GURUHI

17.1. Modal so‘zlar

So‘zlovchining anglatayotgan fikrga munosabatini ifodalab, gapda kirish so‘z vazifasida qo‘llanadigan so‘zlar modal so‘zlar deyiladi.

Modal so‘zlar mustaqil so‘zlar kabi narsa, belgi, harakat va shu kabilarni atamaydi va gap bo‘lagi bo‘lib kela olmaydi. Shu bois ular gap bo‘laklari bilan sintaktik jihatdan bog‘lanmaydi: *Demak, ishalasa bo‘ladi. Ehtimol, ketmon bilan yer ag‘darishga ham to‘g‘ri kelar.*

Modal so‘zlar quyidagicha ma’noviy guruhlarni tashkil etadi:

1. Fikrning aniqligiga ishonch: *albatta, shubhasiz, haqiqatdan ham, haqiqatan, o‘z-o‘zidan, tabiiy, darhaqiqat, ma’lumki.*

2. Gumon, noaniqlik: *ehtimol, balki, hoynahoy, shekilli, aftidan*.

3. Maqsad, talab, shart: *kerak,lozim, zarur, darkor*.

4. Mavjudlik, tasdiq: *bor, mayli, xo‘p, (* bazan *to‘g‘ri, yaxshi, tuzuk* sifatlari ham vazifadoshlik asosida shu ma’noda ishlatiladi).

5. Mavjud emaslik, inkor ma’nosini: *yo‘q*.

6. Ma’qullash: *durust, bo‘pti*.

7. Yakunlash, ta’kid: *demak, xullas, modomiki*.

8. Eslatish: *darvoqe, aytganday, aytmoqchi.*

9. Achinish, taassuf: *afsus, attang, essiz.*

10. Fikrning tartibi: *avvalo, oxiri, nihoyat* (ba’zan shu vazifada *birinchidan, ikkinchidan*…kabi tarib sonlardan ham foydalaniladi).

Modal so‘zlar, aslida, mustaqil so‘zlardan ajralib chiqqan bo‘lib, ularning bir qismi, ham mustaqil so‘z, ham modal ma’no ifodalovchi so‘z sifatida, ba’zilari esa hozirgi tilda faqat modal ma’no ifodalashga xoslanib qolgani sababli, o‘ziga xos ikki guruhni tashkil etadi: 1) sof modal so‘zlar: *darhaqiqat, haqiqatan, afsuski, attang, albatta, avvalo, xullas;* 2) vazifadosh modal so‘zlar: *chamasi, ehtimol, shubhasiz, aftidan.*

Modal so‘zlar quyidagi turkumga oid so‘zlardan ajralib chiqqanligi bilan ham o‘zaro farqlanadi: *aftidan, ehtimol, haqiqatan,*

darhaqiqat kabilar otdan; *shubhasiz, bor, yo‘q, so‘zsiz, tabiiy* kabilar sifatdan; *albatta ravishdan; o‘z-o‘zidan* olmoshdan; *chiqar, bo‘pti* fe’ldan ajralib chiqqan.

Modal so‘zlarni u ajralib chiqqan mustaqil so‘zdan quyidagi belgilariga ko‘ra farqlash mumkin: a) modal so‘z mustaqil yasama so‘zdan ajralgan bo‘lishi mumkin. Bunday modal so‘z yasovchi qismlarga ajratilmaydi. Aynan shu ko‘rinishdagi mustaqil so‘z esa yasovchi qismlarga ajratiladi. Qiyoslang: *Uning har qanday topshirig‘i so‘zsiz bajariladi(.**So‘zsiz,** bu kirdikorlarning boshida sen turibsan.* Birinchi misoldagi *so‘zsiz* mustaqil so‘z bo‘lib, so‘z+siz qismlardan iborat, ikkinchi misoldagi *so‘zsiz* esa qismlarga ajratilmaydi, bir butun holda so‘zlovchining anglatilayotgan fikrni dallash munosabatini bildiradi; b) modal so‘z mustaqil so‘znig biror grammatik shaklidan kelib chiqqanda ham u morfemalarga ajralmaydi. Modal so‘z ko‘rinishidagi mustaqil so‘z esa morfemalarga ajraladi: *Har bir ishning chamasi bor (egalik shaklidagi ot: chama+si). Ular, chamasi, bir yildan so‘ng uchrashdilar (modal so‘z)*.

Mustaqil so‘zning bu kabi o‘z ma’nosini yo‘qotgan holda yordamchi so‘zga aylanishi natijasida omonimlik yuzga keladi.

Modal so‘zlar gapda, asosan, kirish so‘z vazifasini bajaradi. Bundan tashqari, ularning gapda quyidagi vazifalarda kelishini kuzatish mumkin: a) kesim yoki kesimning tarkibiy qismi vazifasida: *Bu yoqqa keling, sizga gap bor. Inson uchun suv va havo zarur;* b) so‘z gap vazifasini bajarishi ham mumkin: *-Ertaga dam olish kunimi? -Yo‘q* (yoki *- Albatta).*

17.2. Undov so‘zlar

His–hayajon, buyruq - xitob ifodalash uchun ishlatiladigan so‘zlar undov so‘z deb ataladi. Undov so‘zlar 1) his-hayajon: *eh, oh, uh, obbo, bas, marsh, hormang, rahmat, barakalla, xayr, salom* kabilardan; 2) buyruq - xitob: *qurey - qurey, tu -tu, pish - pish, kisht* kabi so‘zlardan iborat bo‘ladi. Undovlar boshqa so‘z turkumlaridan lug‘aviy ma’noga ega emasligi bilan farqlanadi.

1. **His – hayajon undovlar** quyidagi ma’nolarni ifodalaydi: 1) so‘roq: *Men ham boraman, a?* 2) ajablanish: *Buni qarang, a!* 3) kamsitish: *E, shu ham ish bo‘ldi-yu*. 4) qo’rqinch: *I-i, yiqilib ketaman;* 5) taajjub, hayrat: *Iye, keldingizmi!?* 6) ishonchsizlik: *Be, qo‘ysang-chi bu gapingni;* 7). achinish, norozilik: *Obbo, yana ish pachava, deng;* 8)

norozilik: *E, qo‘ying-ye;* 9) mamnunlik: *Ehe, ishlar joyida-ku!* kabilar shular jumlasidandir.

2. Buyruq-xitob undovlari biror ish-harakatni bajarishga undash yoki harakatdan to‘xtatish, tinchlantirish uchun qo‘llanadi. Bu tur undovlardan *pish-pish* (mushukni), *beh-beh, tu-tu-tu* (tovuqni), *bah-bah* (itni) kabi undovlar hayvon va qushlarni chaqirish uchun, *hayt* (hayvonlarni), *pisht* (mushukni), *kisht* (tovuqni), *chuh* (otni), *xix* (eshakni), *qurey-qurey* (qo‘yni) kabi undovlar hayvon va qushlarni haydash uchun ishlatilsa, *dirr, tak* (otni), *xush, xuush* (sigirni), *huk* (hukizni), *ishsh* (eshakni), *chix* (tuyani) kabi undovlar hayvonlarni harakatdan to‘xtatish, tinchitish yoki harakatga undash uchun ishlatiladi.

Yuqoridagilardan tashqari, ko‘rsatishni ifodalovchi *huv, hu* kabi so‘zlar, urf-odat bilan bog‘liq: *assalomu alaykum, vaalaykum assalom, hormang, bor bo‘ling, rahmat, tashakkur, balli, barakalla, ofarin* kabi so‘zlar ham undovlardir.

Nutqda ba’zi mustaqil so‘zlar o‘z ma’nosini yo‘qotgan holda undovga ko‘chishi mumkin: ***Kel**, bir miriqib dam olaylik.*

Undovlarda morfologik usul bilan so‘z yasalish yo‘q, biroq ulardan fe’l yasovchi qo‘shimchalar bilan so‘z yasash mumkin: *dod+la,*

voy-voy+la, salom+lash. Undovlar tuzilishiga ko‘ra juft va takror shakllarga ega bo‘ladi: Beh-beh, oh-oh, e-voh, voy-bo‘y kabi.

Undov so‘zlar gapda quyidagi kabi vazifalar bajaradi: 1) undalma vazifasida: *Hoy, kim bor!?* 2) degan, deb so‘zlari bilan birikib (qo‘shma fel hosil qiladi), sifatlovchi aniqlovchi, hol vazifasida: *Olisdan **ehe...he... degan ovoz** eshitildi. Unga javoban u ham **ehe...he... deb **chaqirdi***; 3) so‘z-gap vazifasida: - *Assalomu alaykum, ustoz! –Va alaykum assalom*; 4) ayrim undovlar egalik, kelishik va ko‘plik qo‘shimchalarini olib otlashadi va gapda bosh va ikkinchi darajali bo’qlak vazifalarini bajaradi. Masalan, a) **ega**: *Shu payt uning qulog‘iga kimningdir **ohi** chalindi*; b) k**esim**: *Orqada qolganning holiga **voy**;* v) **qaratqich aniqlovchi**: *Ko‘rinar daxshatlar to‘la tush kabi, Mazlumlar **ohining** ko‘kda tutuni. (G‘.G‘.)*

17.3.Taqlid so‘zlar

Taqlid so‘zlar sharpa, tovush, sho‘la, harakatlarning obrazi bo‘lgan so‘zlardir. Taqlid so‘zlar ikki guruhni tashkil qiladi: 1) tovushga taqlid so‘zlar. Tovushga taqlid so‘zlar tabat va jamiyatda uchraydigan xilma-xil tovushlarni nutqqa ko‘chirilishi asosida yuzaga keladi: *inga-inga, pix-pix, vov, uv, qag‘-qag‘, taq, gurs, gumbur* kabilar; 2) harakat va

holatga taqlid so‘zlar. Harakat va holatga taqlid so‘zlar tabiatda uchraydigan turli narsa va hodisalarning harakat va holatlarni so‘zlar vositasida ifodalanishi asosida vujudga keladi: *yalt, lip, lik - lik, yalp - yalp, bij - bij* kabilar.

Taqlid so‘zlar yakka va takror holda ishlatiladi. Takroriy taqlid so‘zlar asosida davomiylik, takrorlanish kabi ma’nolarni ifodalanadi. Qiyoslang: *U piq etib kuldi. U piq-piq ko‘ldi*. Tovushga taqlid so‘zlarga, ba’zan –ir, -ur kabi unsurlar qo‘shilib takror shaklda ishlatilganda, ularning ma’nolari kuchaytiriladi: *taq+ir-tuq+ur, tas+ur-tus+ur, dup+ur-dup+ur.*

Taqlid so‘zlar boshqa turkumlardan yasalmasa ham, biroq ular asosida ot va fe’l turkumiga doir so‘zlarni yasash mumkin: *qars+ak, bizbiz+ak, sharshar+a, g‘arg‘ar+a, jizz+a* kabi otlar, *taq+illa, duk+illa, lapang+la, milt+illa, taq etmoq, lik etmoq* kabi fe’llar shular jumlasidandir.

Taqlid so‘zlar gapda, asosan hol va sifatlovchi aniqlovchi vazifalarini bajaradi. Bunda ular etgan va etib kabi so‘zlar bilan birikib kelishi ham mumkin. Masalan: *Sobir yaxna ko‘k choyni* ***qult-qult yutdi***. *O‘rmon bo‘ylab boltaning* ***taq-taq etgan tovushi*** *taralib sokinlikni*

buzardi. Simyog‘ochga ilingan chiroq shamolda ***taq-taq etib*** *ovoz chiqarardi*.

Taqlid so‘zlar otlashganda ega, to‘ldiruvchi, qaratqichli aniqlovchi kabi vazifalar bajaradi. Masalan, ega: *Bu yerdan to‘plarning* ***gumbur-gumburi*** *eshitilib turardi;* to‘ldiruvch: *Senlar bu yerda* ***vag‘ir-vug‘ur*** *bilan ovvorasanlar;* qaratqich aniqlovchi: *Xolmurodning kirib kelishi quvnoq* ***qiy-chuvning*** *bosilishiga sabab bo‘ldi.*

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Alohida yordamchilar guruhiga mansub so‘zlar boshqa yordamchi so‘zlardan qanday farqlarga ega?
2. Modal so‘z va yuklamalarning umumiy va farqli tomonlarini qiyosiy tavsiflab izohlang.
3. Undov so‘zlar va ularning ma’no turlari haqida ma’lumot bering.
4. Taqlid so‘zlarning o‘ziga xos belgilari nimalardan iborat?
5. Undov va taqlid so‘zlarning umumiy tomonlarini topib izohlang.

ZARURIY ADABIYOTLAR

1.Ш. Шоабдураќмонов, М.Асљарова, А.Ќожиев, И.Расулов, , Х.Дониёров Ќозирги њзбек адабий тили. 1-љисм .Т., «Њљитувчи» 1980.

2.У.Турсунов, Ж.Мухторов, Ш.Раќматуллаев Ќозирги њзбек адабий тили. Т., «Њљитувчи» 1992.

3.М.Мирзаев, С.Усмонов, И.Расулов Њзбек тили. Т., «Њљитувчи» 1978.

4.N.Mahmudov, A.Nurmonov,A.Sobirov, D.Nabiyeva, A.Mirzaahmedov Ona tili. Umumta’lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik. T., «Ma’naviyat» 2005.